


3.01  
0-71

# FRSE



# BIRJA ISHI

✓



65.01  
B-81

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

## **BIRJA ISHI**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining  
Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan  
sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT  
“IQTISOD-MOLIYA”  
2019**

UO'K: 330.101.54(075.8)

KBK: 65.01

**Taqrizchilar:** *i.f.d., prof. J.Ataniyazov*  
*i.f.d., dot. X.Xudoyqulov*

**B 71 Birja ishi** – Darslik / S.Elmirzayev, R.Sieradzki, D.Abdikarimova, U.Xoliqov; –T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019 yil,– 232 b.

Mazkur darslikda birjalar va ularning rivojlanish tendensiyalari, Tovar birjalari faoliyat mexanizmi, xorijiy mamlakatlarda tovar birjalari faoliyat mexanizmi, fond birjalari faoliyati nazariy va tashkiliy-huquqiy asoslari, qimmatli qog'ozlarni chiqarish, davlat ro'yxatidan o'tkazish, joylashtirish va ularning muomalasi, Toshkent RFB faoliyat mexanizmi, xorijiy mamlakatlardagi fond birjalari faoliyat mexanizmi, valuta birjasi faoliyatining nazariy va tashkiliy-huquqiy asoslari, xorijiy mamlakatlardagi valuta birjalari faoliyat mexanizmi kabilar yoritib berilgan.

В этом учебнике рассматриваются биржи и тенденции его развития, механизм функционирования товарных бирж, механизм функционирования товарных бирж в зарубежных странах, теоретические и организационно-правовые основы деятельности фондовых бирж, эмиссия, государственная регистрация, размещение и обращение ценных бумаг, механизм деятельности РФБ Ташкент, механизм функционирования фондовых бирж в зарубежных странах, теоретические и организационно-правовые основы валютно-обменной деятельности, механизм деятельности валютных рынков в зарубежных странах.

In this textbook, the stock market and its development trends, the operating mechanism of commodity exchanges, the mechanism of functioning of commodity exchanges in foreign countries, theoretical and organizational-legal bases of activity of stock exchanges, issue, state registration, placement and circulation of securities, operating mechanism of RSE Tashkent, the mechanism of operation of stock exchanges in foreign countries, theoretical and organizational-legal bases of the currency exchange activity, the mechanism of activity of foreign exchange markets in foreign countries.

UO'K: 330.101.54(075.8)

KBK: 65.01

ISBN 978-9943-13-867-4

© S.Elmirzayev, R.Sieradzki,  
D.Abdikarimova, U.Xoliqov. 2019  
© “IQTISOD-MOLIYA”, 2019

---

---

## KIRISH

Birjalar bozor infratuzilmasining muhim instituti sifatida tarixan rivojlanishning muhim bosqichlaridan o'tgan. Bu jarayon birjalar faoliyatining takomillashib, kengayib borishiga xizmat qilgan. Birjalarning muhim turlari sifatida dastlab tovar birjalari rivojlangan bo'lsa, keyinchalik valuta birjalari va fond birjalari paydo bo'ldi. Bugungi kunga kelib uchta birjada ham elektron savdo tizimlari yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu amaliyot birja tovarlari savdo ko'lamining va doirasining kengayishiga, savdo hajmining oshishiga asos bo'lmoqda.

Respublikamizda ham birjalar faoliyatini takomillashtirib borish masalasiga yuqori darajada e'tibor qaratilmoqda. Tovar birjalari tadbirkorlik subyektlari faoliyatining bosh maqsadi hisoblangan daromadlikni ta'minlashda tovarlar savdosini samarali tashkil etishi bois, Tovarxomashyo birjasi faoliyatini rivojlantirish nuqtayi nazaridan yangi imkoniyatlar taqdim etishga jiddiy yondashilmoqda.

Valuta bozorini liberallashtirish borasida amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar sharoitida valuta birjasi faoliyatini takomillashtirib borishga, xorijiy valutarlar savdolarida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga ustuvorlik berilmoqda. Jumladan, Harakatlar strategiyasi doirasida Valutani tartibga solishning ilg'or bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etilib kelinmoqda.

Fond birjasi orqali kapital oqimini samarali yo'lga qo'yish, emitentlar tomonidan qo'shimcha moliyaviy resurslar jalb qilish, mahalliy korxonalar aksiyalarini xalqaro fond birjalarida joylashtirishga erishish kabilar alohida vazifalar sifatida belgilangan bir vaqtda mamlakatimiz suveren yevroobligatsiyalarining London fond birjasida muvaffaqiyatli joylashtirilganligi korporativ emitentlar uchun yashil yo'lak vazifasini o'taydi.

Ayni shunday sharoitda tayyorlanayotgan iqtisodchi mutaxassislar tomonidan birjalar faoliyatini chuqur o'rganishda, bu borada milliy va xalqaro tajribani amaliyotda qo'llashda "Birja ishi" fani alohida ahamiyat kasb etuvchi mutaxassislik fani hisoblanadi.

Yuqoridagilar asosida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Birja ishi" fanidan o'quv dasturi asosida yozilgan mazkur darslik milliy va xalqaro tajribani atroflicha o'rganishga imkon

beradi. Bunda tovar birjalari, valuta birjalari, fond birjalari faoliyati alohida tartibda ko'rib chiqilgan.

Darslikda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, faoliyat yuritayotgan birjalar faoliyati tahlili, xalqaro birjalar faoliyat mexanizmi tahlili qamrab olganligi sababli ham nazariy, ham amaliy jihatlar-ga e'tibor qaratilgan.

---

---

## I bob. TOVAR BIRJALARI VA ULARNING FAOLIYATI TAVSIFI BIRJALAR VA ULARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

### 1.1. Birjalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi

Bugungi kundagi iqtisodiy shart-sharoitlar birjalar samarali faoliyatini ham talab etadi. Chunki birjalar bozor infratuzilmasining muhim bo'g'iniga allaqachon aylangan. Bunda tovar munosabatlari, qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq munosabatlar, valuta munosabatlari samarali amal qilishida tegishli birjalar faoliyati muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shundan kelib chiqqan holda har bir mamlakat o'z iqtisodiy taraqqiyotida birjalar faoliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratadi.

Birja oldindan belgilangan joy va muayyan vaqtda, belgilangan qoidalar asosida birja savdolarini tashkil etuvchi yuridik shaxsdir.

Birjalar avvalo tovarlar bozorining rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan. Shuning uchun ham birjalar evolutsiyasi xususida fikr yuritilganda, avvalo tovar birjalari rivojlanishi ko'z oldimizga keladi.

Dastlab tovarlar hech qanday tartibga solishlarsiz karvon savdolari orqali amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik savdo ko'laminig va tartiblarining takomillashuvi tashkillashtirilgan bozorlar rivojlanishini shart qilib qo'ygan. Natijada avvalo yarmarkalar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Yarmarka so'zi ma'nosi nemischa "Jahrmart" so'zidan olingan bo'lib, "har yillik savdo" degan ma'noni bildiradi.

Yarmarkalar faoliyati tovarlar savdolarining tartibga solingan va tashkillashtirilgan tartibda amalga oshirilishiga xizmat qilgan. Yarmarkalar faoliyatining rivojlanib borishi o'z navbatida bir tomondan yarmarkalar faoliyatining takomillashib borishiga xizmat qilgan bo'lsa, boshqa tomondan birjalar yuzaga kelishiga ham zamin yaratgan.

Birja so'zi niderlandcha "beurs", nemischa "Börse", fransuzcha "bourse", italiyancha "börsa", ispancha "bolsa" so'zlaridan olingan bo'lib, "hamyon", degan ma'noni anglatadi.

Birja XIII-XV asrlarda Shimoliy Italiyada paydo bo'lgan bo'lib, uning keng yoyilishi XVI asrga to'g'ri keladi. Bunda Antverpen, Lion va Tuluza shaharlarida, so'ngra London va Gamburgda birjalar faoliyati

yo'lga qo'yilganligini qayd etib o'tish zarur. XVII asrga kelib Yevropaning ko'plab davlatlari savdo shaharlarida birjalar faoliyat yuritgan. Jumladan, "birinchi xalqaro tovar birjasi Belgiyaning Antverpen shahrida 1531-yilda tashkil etilgan bo'lib, unda Yevropaning ko'plab mamlakatlaridan tovarlar keltirilib savdolar amalga oshirilgan. 1549-yilda Fransiyaning Lion va Tuluza shaharlarida, 1556-yilda esa Londonda birjalar paydo bo'lgan"<sup>1</sup>.

Boshqa qit'alarda birjalar paydo bo'lishiga to'xtaladigan bo'lsak, Osiyo qit'asi bo'yicha birinchi birja "guruch savdosi bo'yicha Yaponiyada 1790-yilda tashkil etilgan. Amerika qo'shma shtatlarida birinchi tovar birjasi 1848-yilda Chikagoda ochilgan. Birjalar tarixida Amsterdam alohida ahamiyatga ega bo'lib, u yerda birinchi marta tovarlar sifati bo'yicha talablar asosida tovarning o'zini bevosita taqdim etmasdan savdolar amalga oshirilgan"<sup>2</sup>.

Dastlabki birjalar naqd tovarlarning oldi-sotdisini vositachilar yordamida qo'ldan qo'lga o'tkazish orqali ayriboshlashga xizmat qilgan edi.

Zamonaviy tovar birjalari ulgurji savdoning turli shakllari uzoq evolutsiyasi natijasi va tovar bozorining tashkillashtirilgan turlaridan biridir.

"XII-XIII asrlardayoq Yevropadagi yarmarkalarda naqd tovarlar bo'yicha bitimlar to'lovlarni kechiktirish asosida ham tuzilgan. Ba'zi yarmarkalarda turli mahsulotlar sifati bo'yicha talablarni o'zida aks ettirgan standartlar ishlab chiqilgan va aniq tovarlar partiyalari, hattoki ma'lum tovarlar turlari bo'yicha ham savdo amaliyotida qo'llanilgan"<sup>3</sup>.

O'sha davrdayoq yarmarka savdolari qat'iy qoidalarga asoslangan bo'lib, qoidalar asosida belgilangan maburiyatlarni bajarmagan xaridorlar savdo hamjamiyatidan chiqarilgan. Bundan tashqari yarmarkalarda bahsli masalalar va nizoli vaziyatlarni hal qilish bo'yicha yarmarka sudlari ham faoliyat ko'rsatgan.

Amsterdam birjasi qimmatli qog'ozlar bilan savdolar o'tkazilgan birinchi birja hisoblanadi. Nyu-York fond birjasiga esa 1792-yilda asos solingan. Natijada fond birjalari faoliyati yo'lga qo'yilishiga zamin yaratildi.

<sup>1</sup> Маскаева А.И., Туманова Н.Н. Биржа и биржевое дело. Учебное пособие. – М.: Инфра-М, 2019. – С. 5.

<sup>2</sup> Маскаева А.И., Туманова Н.Н. Биржа и биржевое дело. Учебное пособие. – М.: Инфра-М, 2019. – С. 5.

<sup>3</sup> Десва Е.М., Курушин Д.А. Биржевое дело. Учебное пособие. – Ульяновск: УлГТУ, 2015. – С. 7.

Davlatlararo savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishi o'z navbatida valuta bozorlarining, valuta birjalarining tashkil etishiga sabab bo'ldi.

## **1.2. Birja funksiyalari, savdolari va turlari**

Birja faoliyatining asosi birja savdosidir. Birja savdolarining vujudga kelishi ishlab chiqarish hamda savdoning rivojlanishi asosida yuz bergan. Bu jarayonda savdo ishlab chiqarish va tashqi muhitni o'zaro bog'lovchi bo'g'in sifatida ko'rib chiqiladi.

Ishlab chiqarish va savdo bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liq. Shundan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish va savdo bir-biriga nisbatan ma'lum bir talablarni ilgari suradi. Bunda ishlab chiqarish belgilangan tovarlarni kelishilgan miqdorda, assortimentda va zaruriy sifat darajasida ishlab chiqarib, belgilangan muddatli yetkazib berishi zarur bo'ladi. O'z navbatida savdo qanday mahsulotni qancha miqdorda va qaysi muddatda ishlab chiqarish hamda qaysi iste'molchiga yetkazib berishni belgilab beradi.

Tovar bozorlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda va ulgurji savdo tizimlarining rivojlanishi asosida ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarini mustaqil tarzda ulgurji sotishlari bo'yicha hech qanday to'siq mavjud emas. Lekin tovar bozoridagi murakkabliklar, tovarlar assortimentlarining ko'pligi sharoitida ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarini mustaqil ulgurji savdo firmalari va agentlarining vositachilik xizmatlaridan foydalangan holda ham sotishlari mumkin.

Bunda birja savdolari odatiy mahalliy bozor va yarmarkalardagi savdolarga nisbatan birmuncha yuqori sur'atlarda o'sib kelmoqda. Bunda bozor quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

- savdolar muntazam ravishda (har kuni) o'tkaziladi;
- savdo obyekti hisoblangan tovarlar uchun chegaraning mavjud emasligi va o'tkaziladigan savdolarning omma uchun ochiqligi;
- savdo jarayonida tovarlar mavjud bo'lishi shartligi;
- savdolar kichik partiyalarda amalga oshirilishi va savdoldardan so'ng hujjatlar rasmiylashtirilishi har doim ham talab qilinmasligi;
- tovar narxi talab va taklif asosida shakllanadi hamda xaridor tovarning iste'molchisi hisoblanadi;
- mahalliy bozorlar asosan kichik hududlarga xizmat qiladi.



Yarmarkalarning asosiy xususiyatlari esa odatda bir yilda bir marta o'tkazilishi va maxsus tovarlar savdosi amalga oshirilishini keltirish mumkin.

Birja savdolari bozor va yarmarka savdolari xususiyatlarini ham o'z ichiga olgan holda savdo jarayonlarini soddalashtirish, ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) va xaridorlarni narx o'zgarishlari bilan bog'liq yo'qotishlardan himoyalash kabi afzalliklarga ham ega. Bunda birja faoliyati foyda olish maqsadida tashkil etiladigan mustaqil tijorat faoliyati shakli sifatida ko'zga tashlanadi. Umuman birja savdolari xususiyatlari quyidagilar:

- ishlab chiqaruvchilarni va iste'molchilarni bir joyga jamlaydi;
- yirik partiyalarda birja tovarlari deb nomlanadigan tovarlar maxsus turlari savdolari amalga oshiriladi;
- tovarlar mavjud bo'lmagan holatda yetkazib berish bo'yicha shartnomalar tuzish imkoniyati mavjud bo'ladi;
- savdolar omborxonadan olib ketish tartiblarida ham amalga oshiriladi;
- erkin narx shakllanishi asosida savdolar amalga oshiriladi;
- birja vositachilari bevosita ishlab chiqaruvchilar va xaridorlar nomidan ish yuritadi;
- birja savdolari jarayoniga davlatning to'g'ridan to'g'ri ta'siri mavjud emasligi;
- aniq talablar, standartlar va belgilangan qoidalar asosida savdolar amalga oshirilishi;
- mahsulot sifati va bahosini aniqlashni tavsiflovchi standartlar amal qilishi.

Birjalar o'z faoliyati davomida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Oshkora ommaviy savdolarini o'tkazish uchun birja yig'ilishlarini tashkil etish. Buning uchun birja savdolarini tashkil etish, birja savdolari qoidalarini ishlab chiqish, savdolarini moddiy-texnik ta'minlash, birjaning malakali apparati ishlashini yo'lga qo'yish talab etiladi.

2. Birja shartnomalarini ishlab chiqish. Bunda tovarlar partiyalari o'lchamlarini standartlashtirish, birja bitimlari bo'yicha hisob-kitoblarga nisbatan yagona talablarni ishlab chiqish talab etiladi.

3. Birja bitimlari bo'yicha bahslarni hal qilish. Odatda bahsli holatlarda arbitraj sudlari vositachilik qiladi.

4. Birja narxlarini aniqlash va tartibga solish. Bunda birja narxlarining e'lon qilib borilishi sotuvchi va xaridorlar uchun mo'ljal vazifasini

o'taydi hamda navbatdagi birja savdolari strategiyasini ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

5. Narx tebranishlari tufayli noqulay holatlardan birja savdolari ishtirokchilarini xedjirlash. Mazkur funktsiyaning ishlashi birjaga bo'lgan ishonchni oshiradi.

6. Birjaning kliring va hisob-kitoblari tizimlari asosida bitimlar bajarilishini kafolatlash. Buning uchun birja savdo ishtirokchilari o'zaro talablarni va majburiyatlarini hisobga qo'yish orqali hisob-kitoblar tizimidan foydalanadi, hamda ularning bajarilishini tashkil etadi.

7. Birjaning axborot bilan ta'minlash funktsiyasi birja narxlarini ro'yxatdan o'tkazish, umumlashtirish, mijozlarga va manfaatdor tashkilotlarga taqdim etish va boshqalarga xizmat qiladi.

Birjalar faoliyat xususiyatlarini anglash uchun ularni tasniflash, ya'ni ma'lum bir belgilariga ko'ra guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq. Birjalar quyidagi belgilariga ko'ra tasniflanadi:

- birja tovari turi bo'yicha;
- tashkil etilish prinsipiga ko'ra (birjani tashkil etishda davlat ishtiroki bo'yicha);
- birja savdolariga tashrif buyuruvchilar ishtiroki shakliga ko'ra;
- birja savdosi obyekti hisoblanuvchi tovarlar nomenklaturasiga ko'ra;
- jahon savdosidagi ishtirokiga ko'ra;
- faoliyat tavsifiga ko'ra.

Yuqoridagi tasnifiy belgilariga ko'ra birjalar yana turlarga ajratiladi. Ularning har biri bo'yicha birja turlarini keltirib o'tamiz.

1. Jahon amaliyotida birja tovari turiga bog'liq holatda birjalar quyidagilarga bo'linishi qabul qilingan:

- tovar birjalari;
- tovar-xomashyo birjalari;
- fond birjalari;
- valuta birjalari;
- mehnat birjalari.

O'zbekiston qonunchiligida birjalar o'z faoliyatini tovar xomashyo, fond va valuta birjasi turida amalga oshirishi belgilangan<sup>4</sup>.

2. Tashkil etilish prinsipiga ko'ra, ya'ni birjani tashkil etishda davlat ishtiroki bo'yicha birjalarning ikkita turi ajratib ko'rsatiladi:

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi "Birjalar va birja faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 3-modda.

- davlat ishtirokidagi birjalar;
- xususiy birjalar.

O'zbekistonda uchta birjada ham davlat ulushi (ishtiroki) mavjud.

3. Birja savdolariga tashrif buyuruvchilar ishtiroki shakliga ko'ra birjalar ochiq va yopiq tipda faoliyat yuritadi. Yopiq tipdagi birjalarda savdolar faqat professional vositachilar ishtirokida amalga oshiriladi. Ochiq tipdagi birjalardagi savdolar esa doimiy a'zolar va birja vositachilaridan tashqari boshqa tashrif buyuruvchilar ham ishtirok etishi mumkin.

4. Birja savdosi obyektini hisoblanuvchi tovarlar nomenklaturasiga ko'ra birjalar universal va ixtisoslashgan birjalarga bo'linadi. Bunda universal birjalarda keng assortimentdagi tovarlar savdolari kuzatiladi. Ixtisoslashgan birjalar esa ma'lum bir tovar yoki tovarlar guruhi savdolari bilan shug'ullanadi.

5. Jahon savdosidagi ishtirokiga ko'ra birjalar xalqaro, mintaqaviy va milliy birjalarga bo'linadi.

6. Faoliyat tavsifiga ko'ra birjalar real tovar, fyuchers, opsiyon va aralash birjalarga bo'linadi.

### **1.3. O'zbekistonda birjalar faoliyatining huquqiy asoslari**

Mamlakatimizda 2014-yil 12-sentabrda O'zbekiston Respublikasi "Birjalar va birja faoliyati to'g'risida"gi qonuni birjalar faoliyatining huquqiy asosi hisoblanadi. Mazkur Qonunning maqsadi birjalarning tashkil etilishi va faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Birjalar o'z faoliyatini tovar xomashyo, fond va valuta birjasi turida amalga oshiradi. O'z navbatida har bir birja faoliyatini tartibga soluvchi alohida qonunchilik hujjatlari ham mavjudligini qayd etib o'tish zarur.

Mamlakatimizda birjalar faqat aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etiladi. Birjaning firma nomida "birja" so'zi bo'lishi kerak.

Birjalar belgilangan tartibda litsenziya olganidan keyin birja faoliyatini amalga oshirish huquqini qo'lga kiritadi. Bunda tovar xomashyo birjasi faoliyati O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tomonidan, valuta birjasi Markaziy bank tomonidan, fond birjasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan berilgan litsenziya asosida faoliyat ko'rsatadi.

Birjaning ta'sis hujjati ustav hisoblanadi va unda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

- birjaning to'liq va qisqartirilgan firma nomi, joylashgan yeri (pochta manzili), elektron pochta manzili;
- birja ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori;
- birja tomonidan chiqariladigan aksiyalarning soni, nominal qiymati, turlari (oddiy, imtiyozli);
- birja boshqaruvining tuzilmasi, birja kuzatuv kengashining, taftish komissiyasining va ijroiya organining a'zolari soni, ushbu organlarni shakllantirish tartibi, ularning vakolatlari.

Birja ustavida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin.

Birja aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi birjaning boshqaruv organlaridir.

Birja aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi birjaning kuzatuv kengashini saylaydi.

Birja kengashining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- birjani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash;
- birja savdosi qoidalarini tasdiqlash;
- birja a'zolikiga qabul qilish, a'zolikni to'xtatib turish, tugatish tartibini tasdiqlash;
- birja faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;
- birja savdosi qoidalarini buzganlik uchun jarimalarning miqdorlarini va ularni undirish tartibini belgilash;
- a'zolik badallarining va birja tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovlarning miqdorini belgilash;
- tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash fondini shakllantirish va uning mablag'laridan foydalanish tartibini tasdiqlash.

Birja kengashi qonun hujjatlariga va birja ustaviga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Joriy faoliyatga rahbarlik qilish vakolatlari birja ustavida belgilanadigan birjaning ijroiya organi tomonidan amalga oshiriladi.

Birja:

- kotirovkalash, arbitraj, listing, nazorat va boshqa birja komissiyalarini tashkil etishga;
- agar birja tovarlarining kotirovkalari (narxlari) birja tomonidan belgilangan chegaraviy miqdordan o'zgarib ketsa, birja savdolarini to'xtatishga;

– qonun hujjatlariga muvofiq tanlov, kimoshdi, ko‘rgazma-yar-marka savdolarini, davlat xaridlari va korporativ xaridlarni tashkil etish hamda o‘tkazishga;

– birja axborotnomalari, ma’lumotnomalari hamda boshqa axborot va reklama materiallarini chiqarishga haqli.

Birja qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Birja:

– birja savdolarini tashkil etishi;

– birja tovarlariga bo‘lgan talab va taklifning nisbati asosida ularni kotirovkalashni (ularning narxini belgilashni) amalga oshirishi;

– savdo maydonchalarida va sektsiyalarda birja savdolari o‘tkazish joyi hamda vaqti to‘g‘risida birja a‘zolarini o‘z vaqtida xabardor qilishi;

– tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta‘minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi;

– birja a‘zolarining va ular mijozlarining o‘zaro majburiyatlarini belgilashni, aniqlashtirishni hamda hisobga olishni (kliring), shuningdek bankda ochilgan maxsus hisobvaraqlar orqali ular o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishi;

– birja, birja a‘zolari va ularning mijozlari pul mablag‘larining alohida-alohida hisobini yuritishi;

– muntazam ravishda (haftasiga kamida bir marta) o‘z rasmiy veb-saytida birja tovarlarining kotirovkalarini (narxlarini) joylashtirishi, shuningdek birja a‘zolarini har bir birja savdosining yakunlari to‘g‘risida xabardor qilib borishi shart.

Birjaning zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Birja faoliyati birja tovarlari bozorini tashkil etish va tartibga solishga hamda talab va taklif asosida birja tovarlarining narxlarini ushbu bozorda shakllantirishga qaratilgan faoliyatdir.

Birja faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

– birja savdolarini o‘tkazishning oshkoraligi va ommaviyligi;

– birja savdolarida narxlar shakllanishining erkinligi;

– birja bitimlarini tuzishning ixtiyoriyligi;

– birjaning barcha a‘zolari uchun birja savdolarida ishtirok etishda shart-sharoitlarning tengligi;

– tuzilgan birja bitimlari bajarilishining ta’minlanishi.

Tovar xomashyo va fond birjalarining faoliyatini tartibga solish vakolatli organ tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamsi belgilaydigan tartibda amalga oshiriladi.

Valuta birjasi faoliyatini tartibga solish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amalga oshiriladi.

Belgilangan tartibda birja savdolariga qo‘yilgan muayyan turdagi va sifatdagi tovar, shu jumladan hosila moliyaviy vositalar (derivativlar) birja tovaridir.

Yer, yer osti boyliklari, suv, boshqa tabiiy resurslar, madaniy meros va intellektual mulk obyektlari, ishlar va xizmatlar, xususiy belgili ashyolar, ko‘chmas mulk, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq fuqarolik muomalasidan chiqarilgan mol-mulk birja tovari bo‘lishi mumkin emas.

Birja savdolari birja tomonidan birja savdosi qoidalariga muvofiq tashkil etiladigan birja tovari savdolaridir.

Birja savdolari birjada birja a‘zolarining barchasiga ushbu savdolarida bir vaqtda ishtirok etish imkoniyati berilgan holda, markazlashtirilgan tarzda elektron shaklda o‘tkaziladi.

Birja savdosi qoidalarida quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

– birja a‘zolari, ularning huquq va majburiyatlari to‘g‘risidagi nizom;

– birja a‘zolarining birja savdolarida ishtirok etishiga ruxsat berish tartibi;

– tovarlarni birja savdolariga qo‘yishga ruxsat berishni amalga oshirish tartibi;

– birja bitimlarining turlari;

– birja savdolarida muomalada bo‘ladigan hosila moliyaviy vositalarning (derivativlarning) tavsifi;

– tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta’minlash uchun shartsharoitlar yaratish tartibi;

– birja savdolarini o‘tkazish tartibi;

– birja bitimlarini va birja savdolari natijalarini ro‘yxatga olish hamda rasmiylashtirish tartibi;

– kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi;

– birja tovarlarini kotirovkalash (ularning narxini belgilash) tartibi;

– birjada narxlarning shakllanish jarayoni ustidan nazorat qilish tartibi;

– birja savdolari to‘g‘risidagi axborotni oshkor etish tartibi;  
– birja savdosi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik to‘g‘risidagi qoidalar;

– birjada nizolarni hal etish tartibi.

Birja savdosi qoidalarida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa qoidalar ham ko‘rsatilishi mumkin.

Birja tomonidan belgilangan tartibda birja savdolarida ishtirok etish hamda dilerlar, market meykerlar va brokerlar sifatida birja bitimlarini tuzish huquqini olgan yuridik shaxslar birja a‘zolaridir.

Birja bitimlarini o‘z nomidan va o‘z hisobidan tuzuvchi birja a‘zosi dilerdir. Birja tovarlari narxlarining, talab va taklifning darajasini saqlab turish uchun o‘z zimmasiga birja bitimlarini tuzish majburiyatini olgan diler market-meykerdir.

Mijozning topshirig‘iga ko‘ra va uning hisobidan birja bitimlarini tuzuvchi birja a‘zosi brokerdir.

Diler va broker vazifalari birjaning bitta a‘zosi tomonidan qo‘shib amalga oshirilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari birja a‘zolari bo‘lishi mumkin emas, valuta birjasi bundan mustasno.

Birja a‘zolari birja savdolarida ularning nomidan birja bitimlari tuzishga vakolatli bo‘lgan o‘z xodimlari (trejderlar) orqali ishtirok etadi.

Birja a‘zolari:

- birja savdolarida ishtirok etish va birja bitimlarini tuzish;
- birja komissiyalari faoliyatida ishtirok etish;
- birja savdosi qoidalarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- birja tomonidan taqdim etiladigan xizmatlardan foydalanish;
- har bir birja savdosining yakunlari to‘g‘risida axborot olish huquqiga ega.

Birja a‘zolari qonun hujjatlariga va birja savdosi qoidalariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Birja a‘zolari:

- birjada o‘z faoliyatini qonun hujjatlariga va birja savdosi qoidalariga muvofiq amalga oshirishi;

- mijozga uning manfaatlarini ko‘zlab tuziladigan birja bitimlari, shuningdek, uning topshiriqlari bajarilishi bilan bog‘liq to‘liq axborotni o‘z vaqtida taqdim etishi;

- birjaga o‘zlarining birja savdolarida ishtirok etganligi hamda birja bitimlarini tuzganligi bilan bog‘liq to‘liq axborotni o‘z vaqtida taqdim etishi;

- mijoz bilan shartnoma tuzayotganda uni birja savdosi qoidalariga hamda kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirish shartlari bilan tanishtirishi;

- o'z hisobidan va mijozning hisobidan tuzilgan birja bitimlarining alohida hisobini yuritishi;

- o'z mijozlari pul mablag'larining alohida-alohida hisobini yuritishi shart.

Birja a'zolarining zimmasida qonun hujjatlariga va birja savdosi qoidalariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Dastlabki ko'zdan kechirishni talab etmaydigan, sifat ko'rsatkichlari o'zgarmasligi va birja bitimlari muntazam ravishda tuzilishi bilan tavsiflanadigan, birja savdolariga qo'yilgan muayyan turdagi tovarlar ro'yxati birjaning kotirovkalash varag'idir.

Tovarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish quyidagi tartib-taomillarni o'z ichiga oladi, qimmatli qog'ozlar bundan mustasno:

- tovar ishlab chiqaruvchining yoki yetkazib beruvchining tovarni birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqish;

- tovarning belgilangan talablariga muvofiqligini tekshirish;

- tovarning likvidligini baholash;

- tovarni birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish va uni birja a'zolariga etkazish.

Qimmatli qog'ozlarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish (birja listingi) quyidagi tartib-taomillarni o'z ichiga oladi:

- qimmatli qog'ozlar emitentining o'z qimmatli qog'ozlarini birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqish;

- qimmatli qog'ozlar emitentining moliyaviy holatini baholash;

- qimmatli qog'ozlarning likvidligini baholash;

- qimmatli qog'ozlarni birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish va uni birja a'zolariga etkazish.

Birjaning kotirovkalash varag'iga kiritilgan tovar birja savdolariga qo'yilgan hisoblanadi.

Chet el valutasini va davlat qimmatli qog'ozlari birjaning kotirovkalash varag'iga tovarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish va birja listingi tartib-taomilisi kiritiladi.



Birja bitimi birja tomonidan ro'yxatga olingan, birja savdosining birjada qayd etilgan natijasi bo'yicha tuzilgan birja tovariga doir oldi-sotdi shartnomasidir.

Birjada birja bitimlari, shu jumladan:

- birja tovarlarining ularni kechiktirmasdan yetkazib berish sharti bilan tuziladigan oldi-sotdi bitimlari (spot);

- birja tovarlarining ularni kechiktirib yetkazib berish sharti bilan tuziladigan oldi-sotdi bitimlari (forvardlar);

- birja tovarini yetkazib berishni (yetkazib berish fyuchersi) yoki birja tovarini yetkazib bermagan holda bitim taraflari o'rtasida pul hisob-kitoblari amalga oshirilishini (hisob-kitob fyuchersi) nazarda tutadigan, kelgusida bajarish majburiyati bilan tuziladigan hosila moliyaviy vositalarning (derivativlarning) oldi-sotdi bitimlari (fyucherslar);

- birja tovarlarini yoki hosila moliyaviy vositalarni (derivativlarini) kelgusida sotib olish yoxud sotish huquqi bilan tuziladigan hosila moliyaviy vositalarning (derivativlarning) oldi-sotdi bitimlari (opsionlar);

- valutalarni bir vaqtda olish-sotishga doir bitimlar bo'yicha hisob-kitoblarni muayyan muddat o'tgach, avvaldan belgilangan valuta kursi bo'yicha amalga oshirish sharti bilan tuziladigan valutalarni bir vaqtda olish-sotishga doir bitimlar (valuta svoplari);

- qimmatli qog'ozlarni muayyan muddat o'tgach, avvaldan belgilangan narx bo'yicha qayta sotib olish sharti bilan tuziladigan qimmatli qog'ozlarga doir oldi-sotdi bitimlari (repo) tuzilishi mumkin.

Birjada qonun hujjatlariga muvofiq boshqa birja bitimlari ham tuzilishi mumkin.

Birja bitimi to'g'risidagi axborot (birja tovarining nomi, soni, kotirovkasi (narxi), birja bitimi tuzilgan sana bundan mustasno) uchinchi shaxslarga oshkor qilinishi mumkin emas. Birja bitimi to'g'risidagi axborot sudlarga taqdim etiladi, surishtiruv va tergov organlariga esa, qo'zg'atilgan jinoyat ishi mavjud bo'lgan taqdirda taqdim etiladi.

Birja bitimining mazmuni haqidagi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq bo'lgan axborot qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etiladi.

Birja bitimi to'g'risidagi axborot O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga qonun hujjatlariga muvofiq o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida uning so'roviga ko'ra taqdim etiladi.

Birja savdolari birja a'zolari tomonidan berilgan buyurtmalar asosida, birja savdosi qoidalariga muvofiq o'tkaziladi.

Birja tovarini kotirovkalash birja savdolarida birja tovarining birja narxini belgilash maqsadida avtomatik rejimda, birja savdosi qoidalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Birja savdolari yakunlariga ko'ra olingan qimmatli qog'ozlarning, davlat qimmatli qog'ozlari bundan mustasno, birja narxi mazkur qimmatli qog'ozlarning birja savdolari sanasidagi bozor narxidir.

Birja bitimini ro'yxatdan o'tkazish va rasmiylashtirish birja savdolari natijalari bo'yicha yozma yoki elektron shaklda amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlarga doir birja bitimlarini yozma ravishda rasmiylashtirish talab qilinmaydi.

Birja bitimlari notarial tartibda tasdiqlanmaydi.

Birjalar tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun quyidagilar orqali shart-sharoitlar yaratadi:

- kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirish;

- agar birja bitimi shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa, birja Tovarlarini yetkazib berishni nazorat qilishni va hisobga olishni amalga oshirish;

- pul mablag'larini va birja tovarlarini oldindan deponentga qo'yishni nazarda tutuvchi mexanizmlarni belgilash;

- birja savdosi qoidalariga va birja bitimlari bo'yicha majburiyatlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

Birja bankrot deb topilgan taqdirda, birja a'zolarining va ular mijozlarining birja hisobvaraqlaridagi mol-mulki tugatish massasiga kiritilmaydi hamda birja a'zolariga va ularning mijozlariga ularning birja bitimi bo'yicha majburiyatlari bajarilganidan keyin qaytarilishi lozim.

Birjaning majburiyatlari bo'yicha undiruvni birja a'zolarining va ular mijozlarining mol-mulkiga qaratishga yo'l qo'yilmaydi.

Birja a'zolarining mablag'lari yetarli bo'lmagan taqdirda, birja bitimi bo'yicha majburiyatlarni bajarish tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash fondining pulli va qaytarib berish asosida birja a'zolariga taqdim etiladigan mablag'lari orqali ta'minlanishi mumkin.

Birjalar tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shart-sharoitlarni ham yaratishi mumkin.

Birja quyidagilarga haqli emas:

- ishlab chiqarish, savdo, savdo-vositachilik faoliyatini bevosita amalga oshirishga, shuningdek birja faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan

boshqa yuridik shaxslarning muassisi (aksiyadori) bo'lishga, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

- birja a'zolarining va ular mijozlarining pul mablag'laridan o'z manfaatlarini yo'lida foydalanishga, qonun hujjatlarida va birja savdosi qoidalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Birjada:

- birjaning kotirovkalash varag'iga kiritilmagan birja tovarlarini muomalaga kiritishga;

- birja a'zolarining narxlarning sun'iy ravishda o'zgartirilishiga yoki qat'iy qilib qo'yilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan kelishilgan xatti-harakatlariga;

- bozor kon'yunkturasini sun'iy ravishda o'zgartirishga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan noto'g'ri va ataylab yolg'on ma'lumotlarni tarqatishga;

- birja savdolari o'tkazilmagan holda birja a'zolari o'rtasida tuzilgan birja tovariga taalluqli bitimlarni birja tomonidan ro'yxatdan o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

## *Nazorat savollari*



1. Birjalar tashkillashtirilgan bozor shakli sifatida.
2. Birjalar yuzaga kelishi.
3. Birjalar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.
4. Birja savdolari rivojlanish bosqichlari.
5. Birjalar tasniflanishi va o'zaro farqli jihatlari.
6. O'zbekistonda birjalar faoliyati huquqiy asoslari.
7. Birjalarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi roli.

---

---

## II bob. TOVAR BIRJALARI FAOLIYAT MEXANIZMI

### 2.1. Birja a'zolari, ularning huquq va majburiyatlari

Tovar xomashyo birjasida savdolar “O‘zbekiston respublika tovar xomashyo birjasida birja savdolarini o‘tkazish Qoidalari” asosida tashkil etiladi.

Qoidalar “Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga (“O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2014-yil 22- sentabr, 38-son, 481-modda), birja faoliyatini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq O‘zbekiston respublika tovar xomashyo birjasida birja savdolarini o‘tkazish tartibi va shartlarini belgilaydi.

Qoidalar O‘zbekiston respublika tovar xomashyo birjasiga (keyingi o‘rinlarda birja deb ataladi), birja a‘zolari va ularning treyderlariga, birja a‘zolari tomonidan nomidan birja bitimlari tuzadigan yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga, shuningdek birja bitimlarini amalga oshirish, ro‘yxatga olish, rasmiylashtirish va bajarishda hamda ular bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishda bevosita qatnashadigan yoki ko‘maklashadigan shaxslarga nisbatan tadbiq etiladi.

Agar O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida mazkur Qoidalarda belgilanganidan boshqacha qoidalar o‘rnatilgan bo‘lsa, normativ-huquqiy hujjatlar qoidalari qo‘llaniladi. Birjaning ichki hujjatlari asosida belgilanadigan nizom va tartiblar mazkur Qoidalarga mos bo‘lishi lozim.

Birja a‘zolari, ularning huquq va majburiyatlari “Birja a‘zolari, ularning huquq va majburiyatlari to‘g‘risida”gi nizom bilan tartibga solinadi. Unga davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari birja a‘zolari bo‘lishi mumkin emas. O‘z navbatida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari hamda birja xodimlari birja a‘zosi bo‘lgan yuridik shaxsning muassisi va mansabdor shaxsi bo‘lishi mumkin emas.

Birja a‘zoliciga qabul qilish, a‘zolikni to‘xtatish va tugatish tartibi “O‘zbekiston respublika tovar xomashyo birjasida birja savdolarini

o'tkazish Qoidolari" bilan belgilanadi. Birja a'ziligiga to'lov asosida qabul qilinadi.

Birjaning har bir a'zosiga birja tomonidan birja a'zosining individual raqami beriladi, alohida elektron pochta manzil va shaxsiy (xona) kabinet ochiladi. Birja bitimlarini mijoz nomidan va uning hisobidan tuzuvchi birja a'zosi *broker* hisoblanadi.

Diler va brokerning funksiyalarini bitta birja a'zosi o'rindoshlik asosida amalga oshirishiga ruxsat etiladi. Birja a'zolari cheklanmagan sondagi mijozlarga xizmat ko'rsatishi mumkin. Birja a'zosi va uning mijosi o'rtasidagi munosabatlar ular o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Shartnoma shartlari "O'zbekiston respublika tovar xomashyo birjasida birja savdolarini o'tkazish Qoidolari"ga zid bo'lmasligi shart.

Birjada birja a'zolari o'z mijozlarining manfaatlarini o'z treyderlari orqali, shu jumladan mijozlarning manfaatlariga ta'sir etuvchi masalalar muhokama qilinadigan birja komissiyalarida qatanashish yo'li bilan himoya qilishlari mumkin. Birja a'zosi cheklanmagan sondagi treyderlarni ishga jalb qilishi mumkin.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining, shuningdek birjaning xodimlari treyder sifatida ishlashga haqli emas.

Treyder faqatgina bitta birja a'zorida faoliyatini amalga oshirishga haqli. Birja a'zosi va treyder o'rtasida munosabatlar mehnat shartnomasi bilan tartibga solinadi.

Birja a'zolarining treyderlari malaka talablariga javob berishlari kerak. Treyderlar birja faoliyatiga oid qonun hujjatlarini, "O'zbekiston Respublika tovar xomashyo birjasida birja savdolarini o'tkazish Qoidolari"ni, birja savdolarini tashkil etish, birja bitimlarini tuzish va bajarishni tartibga soluvchi birjaning ichki hujjatlarini bilishlari shart. Treyderlarning malaka talablariga javob berishi birja Boshqaruvi tomonidan o'rnatilgan tartibda test o'tkazish yo'li bilan aniqlanadi.

Treyder o'zining harakati yoki harakatsizligi bilan birja a'zoriga zarar yetkazgan taqdirda birja a'zosi ushbu zarar to'liq to'langunga qadar birjadan treyderning boshqa birja a'zorida treyder sifatida ishlashini cheklashni talab qilish huquqiga ega. Lekin bunda ular o'rtasida tuzilgan shartnomada birja a'zoriga shunday huquq berilgan bo'lishi lozim.

Birja va birja a'zosi o'rtasidagi rasmiy yozishmalar, shuningdek boshqa ma'lumotlarni yuborish pochta aloqa xizmati, birja elektron pochta yoki shaxsiy kabinet orqali amalga oshiriladi.

Birja a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

- birja savdolarida ishtirok etish va birja bitimlarini tuzish;
- birja komissiyalari faoliyatida ishtirok etish;
- birja savdo qoidalarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- birja tomonidan taqdim etiladigan xizmatlardan foydalanish;
- har bir birja savdosining yakunlari to'g'risida axborot olish va boshqalar.

Birja a'zolari majburiyatlari esa quyidagilar:

- birjada o'z faoliyatini qonun hujjatlariga, mazkur Qoidalariga va birjaning ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshirishlari;

- mijozga uning manfaatlarini ko'zlab tuziladigan birja bitimlari, shuningdek uning topshiriqlari bajarilishi bilan bog'liq to'liq axborotni o'z vaqtida taqdim etishlari;

- birjaga o'zlarining birja savdolarida ishtirok etganligi hamda birja bitimlarini tuzganligi bilan bog'liq to'liq axborotni o'z vaqtida taqdim etishlari;

- mijoz bilan shartnoma tuzayotganda uni mazkur Qoidalar hamda kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirish qoidalari bilan tanishtirishlari;

- o'z hisobidan va mijoz hisobidan tuzilgan birja bitimlarining alohida hisobini yuritishlari;

- o'z mijozlari pul mablag'larining alohida-alohida hisobini yuritishlari;

- birja tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovni o'z vaqtida amalga oshirishlari;

- birja komissiyalarining o'zlariga taalluqli qarorlarini bajarishlari;

- rekvizitlari o'zgarganligi haqida birjaga o'zgarish bo'lgan kundan boshlab o'n kunlik muddat ichida xabar berishlari;

- kuniga kamida bir marta birja tomonidan ochilgan o'zining elektron pochtasini va shaxsiy kabinetini tekshirishlari;

- birja binosida jamoat tartibi va odob-axloq qoidalariga rioya qilishlari va boshqalar.

Birja a'zolari va ularning treyderlariga quyidagilar ta'qiqlanadi:

- yolg'on, tasdiqlanmagan yoki insayderlik ma'lumotlarni birja xodimlari va a'zolari o'rtasida tarqatish;

- savdo vaqtida birja tomonidan o'rnatilgan tizimlardan farq qiluvchi operatsion tizimlardan foydalanish;

-birja a'zosining kompyuter terminalida birja tomonidan o'rnatilgan plomba (stiker)larni buzish.

Birja Boshqaruvi tomonidan treyderlarning kasbiy odob-axloq qoidalariga taalluqli boshqa talablar ham qo'yilishi mumkin.

## **2.2. Birja a'ziligiga qabul qilish, a'zolikni to'xtatish va tugatish tartibi**

Birja a'ziligiga qabul qilish yuridik shaxslarni birja a'zosi sifatida akkreditsiya qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Birjaga a'zo bo'lish istagida bo'lgan shaxs (keyingi o'rinlarda talabgor deb ataladi) birjaga, shu jumladan uning hududiy bo'linmalariga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- tasdiqlangan shakldagi ariza;
- a'zolikni taqdim etish to'g'risidagi ommaviy shartnoma shartlarini qabul qilinganligi bo'yicha aktsept;
- TAIJni taqdim etish to'g'risidagi ommaviy shartnomani tuzish bo'yicha aktsept;
- davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqidagi guvohnoma va ustavning talabgor tomonidan tasdiqlangan nusxasi;
- talabgor tomonidan tasdiqlangan talabgor rahbari va bosh hisobchisining pasport nusxasi (2-nusxada);
- kliring ishtirokchisining to'ldirilgan anketasi;
- treyder(lar)ning ishga qabul qilinganligi to'g'risidagi talabgor tomonidan tasdiqlangan buyruq nusxasi;
- treyder(lar)ning pasport nusxalari.

Talabgordan belgilangan ro'yxatdan tashqari hujjatlarning talab qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Talabgorlar to'ldirishi uchun hujjatlar namunalari (shakllari) birja Boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadi va birjaning veb-saytida joylashtiriladi. Ommaviy shartnomalar ham birjaning veb-saytida joylashtiriladi. Talabgor taqdim etilgan hujjatlar to'plamidagi ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun javobgar hisoblanadi.

Hujjatlar to'plami birjaning mas'ul tarkibiy tuzilmasi tomonidan ko'rib chiqilib, kamchiliklar aniqlanmasa, birja Boshqaruvi tomonidan talabgorni a'zolikka qabul qilish to'g'risida qaror qabul qilinadi va bu haqda talabgorga tegishli xabarnoma yuboriladi.

Talabgorning hujjatlari ular taqdim etilgan kundan boshlab 5 ish kuni davomida ko'rib chiqiladi. Talabgor tomonidan ko'rsatilgan barcha



zarur hujjatlar taqdim etilmagan bo'lsa, birja a'zolikka qabul qilish haqidagi arizani qanoatlantirishni rad etadi, bu haqda rad qilish sabablarini ko'rsatgan holda yozma ravishda talabgorni xabardor qiladi. Bunday holda hujjatlar talabgorga qaytariladi.

A'zolikka qabul qilish rad etilgan talabgor rad qilish uchun sabab bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etgandan so'ng hujjatlarni qaytadan topshirishga haqli. Birjaning vakolatli tarkibiy tuzilmasi birja a'zosi haqidagi barcha zarur ma'lumotlarni, shu jumladan birja a'zosining rekvizitlari, uning treyderlari, a'zolikni to'xtatish yoki tugatish sabablarini o'z ichiga olgan birja a'zolarining elektron reyestrini yuritadi.

A'zolikni to'xtatish ixtiyoriylik asosida va majburiy tartibda amalga oshiriladi.

To'xtatish birja a'zosini birja savdolaridan chetlashtirish yo'li bilan quyidagi hollarda, ya'ni:

-birja va (yoki) savdo ishtirokchilari oldida qarzdorlik mavjud bo'lganda;

-qonun hujjatlarini va (yoki) savdo qoidalarini buzganda;

-birja komissiyalarining qarorlarini bajarmaganda amalga oshiriladi.

Birja a'zosi va uning treyderlarini savdodan chetlashtirish uchun asos bo'ladigan qoidabuzilishlar "O'zbekiston respublika tovar xomashyo birjasida birja savdolarini o'tkazish Qoidalari" bilan belgilanadi.

Birja a'zosining a'zoligi to'xtatilgan va a'zolikdan chetlashtirilgan davrda undan a'zolik badallari va boshqa to'lovlar undirilmaydi, shuningdek, ushbu birja a'zosining treyderini boshqa birja a'zosiga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

A'zolikni tugatish haqidagi qaror birja Boshqaruvi tomonidan qabul qilinadi va bunday qaror quyidagi holatlarda qabul qilinadi:

o mazkur birja a'zosi (yuridik shaxs) bankrot deb topilganda yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'rsatilgan tartibda tugatilganda;

o birja a'zosi sifatida 6 (olti) oydan ortiq muddat davomida faoliyat ko'rsatmaganda (a'zolik to'xtatilgan hollardan mustasno);

o O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa asoslar mavjud bo'lganda tugatilishi mumkin.

### **2.3. Birja a'zolarini birja savdolarida ishtirok etishiga ruxsat berish tartibi**

Birja a'zolarining birja savdolarida ishtirok etishiga birja savdolarining elektron tizimidan (BSET)dan foydalangandagina ruxsat berilishi mumkin. BSET tizimiga kirish huquqi faqat birja a'zosining treyderiga beriladi. Treydarning BSETga kirishiga ruxsat unga treyderning avtomatlashtirilgan ish joyi va individual login hamda treyderning parolini berish orqali amalga oshiriladi.

Birja a'zosining arizasiga ko'ra savdolarda ishtirok etishga ruxsat birja filiallari va savdo maydonchalarida berilishi mumkin. Birja savdo zallariga ruxsat faqatgina treyderlarga berilishi mumkin.

TAIJ birja tomonidan shartnoma va to'lov asosida beriladi. Savdo maydonchasida TAIJni berish shartlari savdo maydonchasi va birja a'zosi tomonidan belgilanadi.

Treydarning login va paroli to'g'risidagi ma'lumotlar maxfiy axborot hisoblanadi. Treydarning login va paroli to'g'risidagi ma'lumotlarning, shu jumladan treyderning o'zi tomonidan ham oshkor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Treydarning shaxsiy login va paroli faqatgina treyder bilan mehnat shartnomasini tuzgan bitta birja a'zosi tomonidan foydalanilishi mumkin. Treydarning login va parolidan ushbu treyderga aloqasi bo'lmagan boshqa birja a'zolarining foydalanishi ta'qiqlanadi. Treyder login va parol olingan paytdan boshlab bir oy ichida qo'yilgan talablarga muvofiqligi bo'yicha test sinovidan o'tishi kerak.

Test sinovlaridan o'ta olmagan treyderlar ushbu sinovlardan o'tguniga qadar birja savdolaridan chetlashtiriladi. Birja a'zosi va uning treyderlari a'zoli to'xtatilgan va savdolaridan chetlashtirilgan davrda birja savdolariga qo'yilmaydi. Birja a'zosi birja savdosidan chetlashtirilgandan so'ng uning treyderi birja Boshqaruvi tomonidan o'rnatilgan tartibda qaytadan test sinovlaridan o'tadi.

Birja a'zosi biriktirilgan savdo maydonchasining faoliyati to'xtatilgan yoki tugatilgan hollarda birja a'zosi uni boshqa savdo maydonchasi yoki filialiga o'tkazish haqida birjaga ariza berishi shart. O'tkazish rasmiylashtirilgunga qadar birja a'zosi birja savdolariga qo'yilmaydi.

## 2.4. Tovarlarini birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish tartibi

Birja savdolariga faqat birja tovarlari qo'yiladi. Bunda yer, yer osti boyliklari, suv, boshqa tabiiy resurslar, madaniy meros va intellektual mulk obyektlari, ishlar va xizmatlar, xususiyl belgili ashyolar, ko'chmas mulk, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq fuqarolik muomalasidan chiqarilgan mol-mulk birja tovari bo'lishi mumkin emas.

Tovarni birja savdolariga qo'yish quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- tovarni ishlab chiqaruvchi yoki yetkazib beruvchining tovarni birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish haqidagi arizasini ko'rib chiqish;
- tovarning qonun hujjatlariga, shu jumladan birja tovariga nisbatan o'rnatilgan talablarga muvofiqqligini, muvofiqlik sertifikatining mavjudligini, agar import qilingan tovar bo'lsa, uning bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilganligi haqidagi hujjatni tekshirish;
- tovarning likvidliligini baholash;
- tovarni birjaning kotirovkalash varag'iga kiritish va uni birja a'zolariga yetkazish.

Tovarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni birjaning Listing komissiyasi amalga oshiradi. Listing komissiyasi o'z faoliyatini birja Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan "Listing komissiyasi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq tashkil etadi.

Birja savdosiga qo'yilgan birja tovarlari ro'yxati *birjaning kotirovkalash varag'i* hisoblanadi. Birjaning kotirovkalash varag'i birja savdolari muomalasiga qo'yilgan birjaning namunaviy kontraktlari ro'yxati ko'rinishida shakllantiriladi.

Ruxsat berish natijalari bo'yicha Listing komissiyasi kontraktga identifikatsiya raqami bergan holda bitimning eng ko'p qo'llaniladigan muhim shartlari ko'zda tutilgan namunaviy birja kontraktning spetsifikatsiyasini tasdiqlaydi.

Muhim shartlardagi har qanaday o'zgartirish yangi namunaviy birja kontrakti spetsifikatsiyasini qabul qilish va unga yangi identifikatsiya raqami berish uchun asos bo'ladi.

Namunaviy birja kontraktning spetsifikatsiyasi quyidagi muhim shartlarni o'z ichiga olishi kerak:

- birja tomonidan qo'yilgan kontraktning raqami (kodi);
- tovarning TIF TN kodi;

- tovarning to'liq nomi;
- o'lchov birligi;
- bitta kontraktidagi lot (tovarning o'lchov birligidagi miqdori);
- bitim pul birligi (valutasi);
- yetkazib berish bazisi;
- to'lov va etkazib berish muddati;
- bitim bajarilishini ta'minlash kafolati bo'yicha zakalat foizi;
- sotib oluvchilar toifasi.

Birja namunaviy kontraktining spetsifikatsiyasi mazkur turdagi tovarni sotishning alohida xususiyatini belgilovchi sotuvchi bilan kelishilgan maxsus shartlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Birjaning Listing komissiyasi tomonidan tovarlarni birjaning kotirovkalash varag'idan chiqarish quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

- tovar sotuvchisi yuridik shaxs sifatida tugatilganda;
- sotuvchi tomonidan tovarlarni doimiy ravishda belgilangan miqdorda savdoga qo'yish majburiyatlari bajarilmaganda;
- tovarga nisbatan talabning mavjud emasligi, mazkur tovar bo'yicha bitimlar doimiy tuzilmaganda;
- tovar sotuvchisining tovarni birjaning kotirovkalash varag'idan chiqarish haqidagi arizasi asosida.

Birjaning kotirovkalash varag'ida mavjud bo'lmagan birja tovarlarini muomalaga chiqarishga yo'l qo'yilmaydi.

## **2.5. Birja bitimlarining turlari va birja savdolarini o'tkazish tartibi**

*Birja bitimi* birja tomonidan ro'yxatga olingan, birja savdosining birjada qayd etilgan natijasi bo'yicha tuzilgan birja tovariga doir oldi-sotdi shartnomasidir.

Birjada quyidagi birja bitimlari amalga oshiriladi:

- spot bitimlari;
- forvard bitimlari.

Bunda spot bitimi, bu sotib oluvchi to'lovni kechtirmasdan amalga oshirishi, sotuvchi esa tovarlarni kechiktirmasdan yetkazib berishi lozim bo'lgan bitimdir. Forvard bitimi esa bu sotuvchi shartnomada belgilangan muddatda tovarni sotib oluvchiga topshirishi, o'z navbatida sotib

oluvchi esa tovar haqini bitimda kelishilgan muddatda va tartibda to'lash va tovarni qabul qilib olish majburiyatini olgan bitimdir.

Forward bitimlari bitim shartlari asosida tovarni yetkazib berish va uning haqini to'liq to'lash bilan yakunlanadi (yetkazib berish forwardi).

Birja bitimining namunaviy shakli birja Boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadi.

Birjalar tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun quyidagilar orqali shart-sharoitlar yaratadi:

- kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- birja tovarlarini yetkazib berishni hisobga olishni amalga oshirish;
- pul mablag'larini va birja tovarlarini oldindan deponentga qo'yishni nazarda tutuvchi mexanizmlarni belgilash;
- birja savdosi qoidalariga va birja bitimlari bo'yicha majburiyatlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

Birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun bitimlar bo'yicha barcha hisob-kitoblar "yetkazib berishga qarshi to'lov" prinsipi asosida amalga oshiriladi.

Birja savdolarida tuzilgan bitimlar bajarilishining moliyaviy kafolatini ta'minlash uchun birja savdolarida tuzilgan barcha bitimlar bo'yicha hisob-kitoblar birjaning Hisob-kitob-kliring Palatasi (HKKK) orqali amalga oshiriladi.

Birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish maqsadida birja qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash fondini tashkil etish huquqga ega.

Birja savdolari birja Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan birja savdolari sessiyasi jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.

Jadval birjaning rasmiy veb-saytida oldindan joylashtiriladi. Savdo sessiyalari jadvalidagi o'zgarish va qo'shimchalar yangi jadval e'lon qilingan paytdan boshlab kamida uch kundan keyin kuchga kiradi.

Savdolar ish kunlarida doimiy ravishda o'tkaziladi. Barcha birja savdolari faqatgina BSETda o'tkaziladi.

Birja savdolari sessiyasi quyidagi davrlardan tashkil topadi:

- sotuv uchun buyurtma berish;
- sotib olish uchun buyurtma berish;
- birja a'zolari tomonidan berilgan qarama-qarshi buyurtmalarni birlashtirish va tuzilgan bitimlar reyestirini shakllantirish;

Birja a'zolari o'z mijozlarining topshirig'iga ko'ra birja savdolarida birja tovari bo'yicha birja bitimlarini BSETga buyurtma berish orqali amalga oshiradilar.

Birja a'zosi birja savdolarida bitimni amalga oshirishda mijozning topshirig'i (buyrug'i)ga qat'iy amal qilishi shart. Mijozning buyruqlari birja Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan namunaviy shakllarda beriladi.

Birja a'zosi xizmat ko'rsatayotgan mijozlari va ulardan qabul qilinadigan topshiriqlar hisobini birja Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan shakldagi jurnalda, shu jumladan elektron ko'rinishda qayd etib borishi va birjaning so'roviga ko'ra ularni taqdim etishi shart.

Qog'oz ko'rinishidagi jurnal raqamlangan, tikilgan va birjaning muhri bilan muhrlangan bo'lishi shart. Jurnalda har bir topshiriqqa takrorlanmaydigan ro'yxatga olish raqami beriladi. Topshiriqlar jurnalga ular qabul qilingan vaqtga mutanosib ravishda ketma-ketlikda kiritilishi kerak. Mijozning topshirig'ini jurnalda oldindan qayd etmasdan bajarish ta'qiqlanadi.

Agar mijozning topshirig'i boshqa mijozlar topshirig'i bilan raqobatga kirishsa, birja a'zosi topshiriqlarning kelib tushish vaqtiga mutanosib ravishda va topshiriqlarni ro'yxatga olish jurnalida qayd etilgan ketma-ketlikda navbati bilan bajarishi shart.

Tovarni sotish yoki sotib olish uchun buyurtmalar faqat treyderlar tomonidan berilishi mumkin. Buyurtmani taqdim etish bir tomonlama bitim hisoblanib, unga muvofiq nomidan buyurtma berilgan shaxs namunaviy birja kontraktida belgilangan shartlar asosida shartnoma tuzish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Sotishga berilgan buyurtma tovar kimning nomidan berilgan bo'lsa, o'sha shaxsga tegishlilikini va u uchinchi shaxslar huquqlariga ta'sir qilmasligini tasdiqlaydi va ushbu shaxsga quyidagi majburiyatlarni yuklaydi:

- namunaviy kontraktida va berilgan buyurtmada belgilangan shartlarda mahsulotni yetkazib berish;
- savdoda bitimni amalga oshirish yoki tovarni savdodan chiqarishdan boshqa usulda tovardan foydalanmaslik.

Sotish uchun buyurtmada:

- namunaviy birja kontraktining identifikatsiya raqami;
- savdoga qo'yiladigan lotlar soni;
- lot uchun boshlang'ich narx ko'rsatilishi kerak.

Sotish uchun buyurtma birjaning korporativ chatida savdodan bir kun oldin e'lon qilingan savdoni o'tkazish bilan bog'liq ma'lumotlar aks

ettirilgan jadval asosida birja savdolari sessiyasi boshlanishidan oldin joylashtiriladi.

Yuqori likvidli va monopol turdagi mahsulotlar sotuvchilari manfaatida sotish uchun berilgan buyurtma asosida savdoga qo'yiladigan mahsulotlar miqdori mahsulotlarni qayta savdoga qo'yish qonun hujjatlarida nazarda tutilganligini inobatga olgan holda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan mahsulotlarni birja savdolariga qo'yish jadvaliga muvofiq bo'lishi shart. Yuqori likvidli va monopol turdagi mahsulotlar sotuvchilari tomonidan savdoga qo'yilayotgan tovarlar miqdorining muvofiqligi bo'yicha majburiyatlari bajarilishining nazorati birja tomonidan haqiqatda savdoga qo'yilgan mahsulotlar miqdorini savdoga qo'yish jadvalida ko'rsatilgan miqdorga hamda mahsulotlarni qayta savdoga qo'yish bo'yicha majburiyatlarga kunlik taqqoslash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Birja korxonalar - yuqori likvidli va monopol turdagi mahsulotlar sotuvchilari tomonidan majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Xususiyashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining e'tiboriga mazkur Qo'mita hamda birja tomonidan o'zaro belgilangan muddat va tartibda yetkazadi.

Buyurtma berishdan oldin sotuvchilar va sotib oluvchilarning shaxsiy hisob raqamiga qonun hujjatlariga muvofiq birja tomonidan belgilangan miqdordagi kafolat ta'minot mablag'i kiritilishi shart. Kiritiladigan kafolat ta'minot mablag'i miqdori birja va hisob-kitob-kliring Palatasining komissiya to'lovlarini, shuningdek, birja shartnomasi bo'yicha majburiyatlarning buzilish ehtimoli borligi uchun neustoyka to'lovini ta'minlovchi bo'nakni o'z ichiga oladi.

BSET shaxsiy hisob-raqamida yetarli mablag'i bo'lmagan shaxs manfaatida bitimlar tuzilishiga yo'l qo'ymaydi.

Sotib olish uchun buyurtma u kimning nomidan berilgan bo'lsa, o'sha shaxs zimmasiga namunaviy birja kontrakti va bergan buyurtmasida belgilangan shartlarda tovar haqini to'lash va tovarni tanlab olish majburiyatini yuklaydi.

Sotib olish uchun buyurtmada:

- namunaviy birja kontraktining identifikatsiya raqami;
- savdoda sotib olinadigan lotlar soni;
- lot uchun taklif etilayotgan narx ko'rsatilishi kerak.

Qonun hujjatlarida yoki birja tomonidan narx o'zgarishining yuqori miqdori qat'iy belgilangan tovarlar bo'yicha sotib olish uchun

buyurtma faqatgina mazkur yuqori miqdorlarga amal qilgan holda berilishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatlar yoki vakolatli davlat organlari qarorlari talablariga javob bermaydigan mijozlar nomidan u yoki bu birja tovarini sotib oluvchilarga nisbatan sotib olish uchun buyurtma berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Vakolatli davlat organlari tomonidan o‘rnatilgan parametrlarni buzadigan buyurtmalar berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Normativ-huquqiy hujjatlar bilan alohida talablar qo‘yilgan birja tovarini sotib olish uchun buyurtma mijozning mazkur tovarni sotib olish huquqiga ega ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan asoslantirilgan bo‘lishi shart.

Birja a‘zosi BSETga buyurtma berishdan oldin birja tovarini potensial sotib oluvchisidan tegishli hujjatlarni olishi shart.

Sotib olish uchun buyurtma birja a‘zosi tomonidan birja savdolari messiyalari jadvalida belgilangan sotuvchi tomonidan tovar savdoga qo‘yilgandan so‘ng beriladi.

Birja a‘zosi kiritilgan buyurtmani quyidagi hollarda qaytarib olishga haqli:

- qaytarib olingan buyurtma o‘rniga yuqoriroq narx ko‘rsatkichli yangi buyurtma berilganda;

- buyurtmasi “buyurtmalar stakani”dan tushib qolganda (ancha yuqori narx ko‘rsatilgan raqobatchi buyurtma berilganligi va ushbu buyurtmaning narx parametrlari asosida bitim tuzish mumkin bo‘lmaganligi sababli buyurtmaning bahosi o‘z dolzarbligini yo‘qotganda).

Sotib olish uchun buyurtma birja a‘zolari tomonidan faqat ro‘yxatga olingan joylarida beriladi.

Birja savdolari boshlang‘ich narxning oshirib borishida ifodalangan oddiy auktsion shaklida o‘tkaziladi.

BSET birja a‘zolariga raqobat asosida o‘tkaziladigan savdolar jara-yonida asosli, shu jumladan narxni shakllantirish masalalariga oid qarorlar qabul qilish uchun “buyurtmalar stakani”ga kirish huquqini ta‘minlaydi.

“Buyurtmalar stakani” ayni vaqtda elektron savdo tizimi kompleks dasturiga kiritilishi mumkin bo‘lgan barcha buyurtmalarga oid narx va miqdorlar bo‘yicha ma‘lumotlarni o‘zida saqlaydi.

BSET birja a‘zosiga o‘zining buyurtmalarini identifikatsiyalay olishi va ularning raqobatbardoshligini aniqilay olishi uchun birja a‘zosi-ning buyurtmasini alohida rang yoki boshqa vosita orqali ajratilishini ta‘minlaydi.



Buyurtmalari “Buyurtmalar stakani”ga kiritilgan boshqa birja a’zolari haqidagi ma’lumotlar aks ettirilmaydi.

BSET birja savdolari g‘oliblarini birja a’zolari tomonidan birja tovari sotuvchisining manfaatida BSETga sotish uchun berilgan buyurtmalarni baho parametrlari sotuvchining baho parametrlari bilan teng yoki undan yuqori bo‘lgan sotib olish uchun berilgan buyurtmalarni birlashtirish orqali jadvalda belgilangan birja savdolari sessiyalari vaqtida aniqlaydi.

Bunda birinchi navbatda sotuvchining buyurtmasi bilan eng yuqori bahoni taklif etgan sotib oluvchilarning buyurtmalari birlashtiriladi. Sotib oluvchilar tomonidan bir xil bahodagi buyurtmalar berilgan bo‘lsa, birinchi navbatda raqobatchi buyurtmalarga nisbatan BSETga ertaroq berilgan buyurtmalar bilan sotuvchining buyurtmasi birlashtiriladi.

Birja xodimlari yoki boshqa shaxslarning birja savdolariga aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Buyurtmalarni birlashtirish va birja savdolari g‘olibini aniqlash jarayoniga, shu jumladan ruxsat berilmagan birja dasturi ta’minotidan foydalangan holda aralashish narxlarini *manipulyatsiyalash* deb baholanadi.

Sotuvchi va sotib oluvchi tomonidan bitta shaxsiy hisob-raqamda bitim tuzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunday bitimni amalga oshirish narxlarini *manipulyatsiyalash* deb baholanadi.

Sessiya yakunlangunga qadar keyinchalik buyurtmalardagi ma’lumotlarni o‘chirish orqali sessiya davomida buyurtma berish yo‘li bilan birja tovarining narxini oshirish narxlarini *manipulyatsiyalash* deb baholanadi.

Birja savdolarida birja tovari narxini sun‘iy ravishda oshirish yoki pasaytirishga olib keladigan birja a’zolarining harakatlari *narxlarini manipulyatsiyalash*, deb baholanadi.

Birja savdolari alohida turdagi mahsulotlarni birja savdolarida realizatsiya qilishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar talablari hisobga olingan holda o‘tkaziladi. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan birja savdolarini o‘tkazishning boshqa maxsus shartlari belgilanishi mumkin.

Agar mijozning buyrug‘ini bajarish qonun hujjatlari va (yoki) savdo qoidalarining buzilishiga olib kelsa, birja a’zosi mazkur buyruqni bajarishni rad etishga majbur.

## 2.6. Birja savdosi natijalarini va birja bitimlarini rasmiylashtirish va ro'yxatga olish tartibi

Qarama-qarshi buyurtmalarni birlashtirish natijasi bo'yicha BSET birja savdo sessiyasi yakunlangan paytdan boshlab bir soat ichida amalga oshirilgan bitimlarni shakllantiradi va ro'yxatga oladi, shundan so'ng Makleriat va HKKPga kelib tushadigan amalga oshirilgan bitimlar (savdo bayonnomalari) reyestrini shakllantiradi.

Amalga oshirilgan bitimlar (savdo bayonnomalari) reyestrining shaklli birja Boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadi.

HKKP O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan shartlarga muvofiq birja bitimlarini ro'yxatga olganlik va kliring xizmatlari ko'rsatganlik uchun birja foydasiga komission yig'im undirilishini ta'minlaydi. Komissiya yig'imi kelgusida bitimning rasmiylashtirilishi yoki rasmiylashtirilmasligidan qat'iy nazar undiriladi.

Savdo sessiyasi yakunlari bo'yicha Makleriat amalga oshirilgan bitimlar reyestri asosida birja filiallarining maklerlari va savdo maydonchilari registratorlari orqali birja a'zolariga ular tomonidan amalga oshirilgan barcha birja bitimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

Birja bitimi amalga oshirilgan bitimlar reyestri asosida BSET tomonidan avtomatik tarzda namunaviy birja kontraktida belgilangan shartlarga muvofiq shakllantiriladi.

Birja bitimida:

- birja savdosi sanasi va raqami; birja bitimi raqami;
- birja shartnomasi tomonlari (sotuvchi va sotib oluvchi)ning rekvizitlari;
- bitimni amalga oshirgan birja a'zolarining rekvizitlari;
- shartnoma predmeti;
- tovar nomi;
- birja kontraktining raqami;
- o'lchov birligi;
- o'lchov miqdori;
- har bir birlikning bahosi;
- har bir birlikning boshlang'ich bahosi; har bir lot qiymati;
- har bir lotning boshlang'ich bahosi; shartnoma summasi;
- pul birligi; qadoq turi;
- tovarni etkazib berish va to'lovni amalga oshirish muddatlari va shartlari;

- taraflarning majburiyatlari;
- shartnoma majburiyatlari bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda tomonlarning javobgarligi;
- nizolarni birjaning Arbitraj komissiyasida sudgacha hal etish; namunaviy birja kontraktiga muvofiq alohida shartlar ko'rsatiladi.

Amalga oshirilgan barcha birja bitimlarini rasmiylashtirilishi talab etiladi.

Birja tovariga nisbatan uning a'zolari tomonidan birja savdolari o'tkazilmasdan tuzilgan birja bitimlarini birja tomonidan ro'yxatga olinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Birja a'zosi o'zi tomonidan amalga oshirilgan barcha bitimlarni tekshirishi, imzolashi, muhr qo'yishi va ularni savdo sessiyasi yakunlangan paytdan boshlab ikki soatdan kechiktirmasdan birja filialining makleriga (savdo maydonchasi regulatoriga) topshirish shart.

Birja a'zosi - sotuvchi va birja a'zosi – sotib oluvchining birja bitimi nusxalari birja filiali makleri (savdo maydonchasi regulatori)ning muhri bilan tasdiqlanadi, shundan so'ng bitim rasmiylashtirilgan hisoblanadi.

Birja bitimini rasmiylashtirish bitimni tuzgan birja a'zosining joylashgan (ro'yxatga olingan) joyida amalga oshiriladi.

Birja bitimlari nusxalari birja a'zosi – sotuvchi va (yoki) birja a'zosi – sotib oluvchi, shuningdek makler yoki regulator tomonidan rasmiylashtirilmaganda bitim tuzilmagan hisoblanadi.

Sotuvchi va sotib oluvchining bitim bo'yicha huquq va majburiyatlari birja bitimi rasmiylashtirilgan paytdan boshlanadi.

Sotib oluvchining manfaatida harakat qilayotgan birja a'zosi birja filialining makleriga yoki savdo maydonchasi regulatoriga quyidagi hujjatlarni topshiradi:

- mijoz bilan tuzilgan topshiriq shartnomasi (komissiya shartnomasi);

- birja savdosida birja tovarini sotib olish haqidagi buyruq (agar topshiriq shartnomasi yoki komissiya shartnomasida tovarni sotib olish bo'yicha mijozning ko'rsatmasini bir marta bajarish nazarda tutilgan bo'lmasa);

- birja tovarini sotib olishga ushbu mijozning vakolati borligini tasdiqlovchi hujjatlar (agar qonun hujjatlarida birja tovarni sotib olish uchun sotib oluvchilarning alohida toifalari nazarda tutilgan bo'lsa).

Birja bitimini rasmiylashtirish uchun mas'ul filial maklerlari (savdo maydonchalari registratorlari) birja a'zosidan buyruqlarni ro'yxatga olish kitobini talab qilib olishga haqli.

Birja eksport bitimini (eksport kontraktini) ro'yxatga olishda unga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 21.05.2004-yilda 1365-raqam bilan ro'yxatga olingan Tashqi savdo shartnomalariga identifikatsiya raqami berish to'g'risidagi Nizom ("O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami", 2004 y, № 20, 247-modda)ga muvofiq raqam beriladi.

O'tkazilgan birja savdosi natijasida chet el valutasida tuzilgan eksport kontrakti birja yoki uning vakolatli organi (filial, savdo maydonchasi) tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatga olinadi.

Birjada ro'yxatga olingan standart eksport kontraktlari bir ish kuni ichida hisobga qo'yish uchun kontrakt tuzilgan joydagi hududiy bojxona organlariga yuboriladi.

Eksport kontraktlarini sotuvchining vakolatli banki va bojxona organlarida hisobga qo'yish ular o'rnatilgan tartibda birjalarda ro'yxatga olingandan so'ng amalga oshiriladi.

Eksport qilinadigan tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi qonun hujjatlarida ko'rsatilgan tartibda sotuvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Ertalabki sessiyalar yakunlanganidan keyin soat 15:00 ga qadar, kechki sessiyalar yakunlanganidan keyin esa keyingi kun soat 9:10 ga qadar savdo maydonchasi registratori birja filialining makleriga (hududiy joylashuviga ko'ra) u tomonidan rasmiylashtirilmagan, shu jumladan savdo Qoidalarining 155-bandida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra, birja bitimlari haqidagi ma'lumotni yuboradi.

Ertalabki sessiyalar yakunlanganidan keyin soat 15:30 ga qadar, kechki sessiyalar yakunlanganidan keyin esa keyingi kun soat 9:30 ga qadar birja filialining makleri Makleriatga (hududiy joylashuviga ko'ra) uning tomonidan (shu jumladan savdo Qoidalarining 155-bandida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra) rasmiylashtirilmagan birja bitimlari, shuningdek, savdo maydonchasi registratoridan olingan ma'lumotlarni yuboradi.

Makleriat savdolar o'tkazilgan kunning ertasi soat 10:00 dan kechiktirmasdan ma'lumotlarni umumlashtiradi, rasmiylashtirish uchun topshirilmagan birja bitimlari haqidagi ma'lumotlarni aybdor brokerlarga nisbatan chora ko'rish uchun Intizom komissiyasiga, ushbu bitimlarni kliringga kiritmaslik uchun HKKPga, shuningdek nizo mavjud yoki mavjud emasligiga qarab savdo Qoidalarining 155-bandida nazarda

tutilgan holatlarni ko'rib chiqish uchun Arbitraj yoki Intizom komissiyasiga yuboradi.

HKKP Makleriatning xarbarnomasida ko'rsatilgan bitimlarni kliringga kiritmaydi va ushbu bitim tomonlarining pul mablag'larini ozod qiladi, savdo Qoidalarining 155-bandida ko'rsatilgan nizoli holatlar bundan mustasno.

Savdo Qoidalarining 155-bandida ko'rsatilgan nizoli holatlarda HKKP tomonlarning pul mablag'lariga Arbitraj komissiyasi tomonidan qaror chiqarilgunga qadar band solib qo'yadi.

Broker o'zi tomonidan amalga oshirilgan bitimlarni qabul qilib olishdan, imzolashdan va filial makleriga (savdo maydonchasi registriga) rasmiylashtirish uchun (shu jumladan xatolik sababli berilgan buyurtmalar bo'yicha ham) topshirishdan, shuningdek savdo Qoidalarining 155-bandida ko'rsatilgan bitimlarni amalga oshirishdan yoki birja (savdo maydonchasi) oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirishdan bosh tortgan taqdirda aybdor tarafdin jarima undiriladi.

Birja filialining makleri yoki savdo maydonchasi registriga tomonidan birja bitimlarini rasmiylashtirishdan bosh tortgan taqdirda (mazkur Qoidalarning 155-bandida ko'rsatilgan holatlardan tashqari) birja a'zosi qonun buzilishini ko'rib chiqish uchun birjaga ariza bilan murojaat qilishga haqli.

Ariza birjaga kelib tushgan paytdan boshlab bir kunlik muddat ichida ko'rib chiqiladi. Bitimni rasmiylashtirish asossiz rad etilgan bo'lsa, u birja tomonidan darhol rasmiylashtiriladi. Birja filialining makleri yoki savdo maydonchasi registriga tomonidan bitimni rasmiylashtirish asossiz rad etilganligi uchun birjadan yoki savdo maydonchasidan jabrlangan birja a'zosi foydasiga jarima undiriladi.

Birja a'zosiga nisbatan jarima qo'llash haqidagi qaror Intizom komissiyasi tomonidan qabul qilinadi. Intizom komissiyasining qarori birja a'zosiga yuboriladi.

Qo'llanilgan jarima o'n bank ish kuni ichida to'lanmasa, aybdor birja a'zosi jarima to'liq to'langanga qadar birja savdolaridan chetlashtiriladi.

Bitim normativ-huquqiy hujjatlar, vakolatli davlat organlari qarorlari talablariga zid ravishda amalga oshirilgan bo'lsa, shuningdek, mijoz – sotib oluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, vakolatli davlat organlari qarorlariga muvofiq kelmasa, birja filialining makleri va savdo maydonchasi registriga birja bitimini rasmiylashtirmaydi.

Savdo qoidalarining 155-bandida ko'rsatilgan holatlar yuzasidan nizo vujudga kelsa, ushbu holatlarning mavjudligi faktini tasdiqlash yoki inkor etish maqsadida nizolar Arbitraj komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Qonun buzilishi holati mavjudligi fakti inkor etilsa, Arbitraj komissiyasi birja tomonidan bitimdan bandni echish bo'yicha qaror qabul qiladi, bu haqda tomonlarga, Makleriatga va HKKPga xabar beriladi. Qonun buzilish holati mavjudligi fakti tasdiqlansa, Arbitraj komissiyasi bitimni amalga oshirilmagan deb toshish to'g'risida qaror qabul qiladi va uni HKKPga tomonlarning pul mablag'lariga solingan bandni echish uchun, Intizom komissiyasiga aybdor birja a'zosiga chora ko'rish uchun yuboradi.

Savdo qoidalarining 155-bandida ko'rsatilgan qonun buzilishlar yuzasidan nizo mavjud bo'lmasa, mazkur holatlarni Intizom komissiyasi ko'rib chiqadi va ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qaror qabul qiladi.

Birja a'zosi tomonidan mijozning ko'rsatmasi (buyrug'i)ga zid ravishda bitim tuzilganligi haqida dalillar mavjud bo'lsa, mijoz birja a'zosining javobgarligini belgilash haqida Intizom komissiyasiga ariza bilan murojaat qilishga, shuningdek birja a'zosidan o'ziga etkazilgan zararni sud tartibida undirishni talab qilishga haqli.

Mazkur Qoidalarining 155-bandida ko'rsatilgan holatlardan tashqari, birja tomonidan rasmiylashtirilgan bitimlarni tomonlarning o'zaro roligi bilan bekor qilish haqidagi ariza va murojaatlar ko'rib chiqilmaydi.

Birjada savdolarining o'tkazilishini yoki normal o'tkazilishini buzadigan, birja tovarlari bilan savdo o'tkazilishini mumkin bo'lmaydigan qilib qo'yadigan yoki birja a'zolarining savdolarida ishtirok etishiga to'sqinlik qiluvchi favqulodda holatlar yuz berishi natijasida birja savdolari o'tkazilmagan deb topilishi, uning natijalari esa bekor qilinishi mumkin.

Savdolar o'tkazilmagan deb topilgan taqdirda birja tomonidan komissiya yig'implari undirilmaydi.

Favqulodda holatlarga quyidagilar kiritilishi mumkin:

- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari yoki qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yoki ularga har qanday o'zgartirish kiritilishi;
- qonun hujjatlari bilan birjaga berilgan vakolatlariga kiritilgan masalalar bo'yicha davlat boshqaruvi organlarining birjaga yuborilgan farmoyish yoki ko'rsatmalari;
- yong'in yoki boshqa baxtsiz hodisalar;
- birja egallagan binolarning buzilishi yoki ularga jiddiy shikast yetkazilishi;

- elektr energiyasining o'chishi yoki uning yetkazib berilishida uzilishlar bo'lishi, birjaning ixtiyorida bo'lgan texnik vositalar bilan normal holatga keltirish imkoni bo'lmasa;

- hisoblash texnikalari, orgtexnika, aloqa vositalari, shu jumladan telekommunikatsiyadagi dasturiy ta'minotning yaroqsizligi yoki ishdan chiqishi;

- birja xodimlari va (yoki) treyderlar, birja a'zolarining hayoti va sog'ligiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan birja binosida sodir bo'lgan har qanday holatlar;

- savdolari normal o'tkazilishini mumkin qilmay qo'yadigan favqulodda, kutilmagan va bartaraf etib bo'lmaydigan xarakterga ega bo'lgan har qanday boshqa holatlar.

Natijalari bekor qilingan birja savdolari chog'ida amalga oshirilgan bitimlar amalga oshirilmagan hisoblanadi va ularni rasmiylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Bekor qilingan miqdorlar sotuvchi tomonidan qayta savdoga qo'yiladi.

## **2.7. Kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi**

Birja savdolarida tuzilgan bitimlar bo'yicha hisob-kitoblar birjaning HKKP orqali amalga oshiriladi.

Hisob-kitobni amalga oshirish maqsadida birjaga xizmat ko'rsatadigan bankda sotib oluvchi va sotuvchilarning mablag'larini saqlash, birja bitimlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun ikkilamchi talab qilib olunguncha depozit raqam ochiladi.

Sotuvchi va sotub oluvchilarning talab qilib olingungacha ikkilamchi depozit hisob raqamidagi mablag'lari harakatini nazorat qilish uchun HKKP har bir sotuvchi va sotib oluvchi uchun tegishli foydalanuvchining individual raqamiga (bundan buyon FIR deb yuritiladi) muvofiq alohida shaxsiy hisob-raqam ochadi.

Sotuvchi va sotib oluvchilarning mablag'lari HKKP talab qilib olingungacha ikkilamchi depozit hisob raqami doirasida ushbu shaxsiy hisob-raqamda hisobga olib boriladi.

HKKP birja a'zolarini ularga xizmat ko'rsatish shartlari va mablag'larining ahvoli haqida o'z vaqtida xarbardor qilib turishi shart.

HKKP mijozlarning shaxsiy hisob-raqamlari ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Birja mijozlarining so'roviga asosan ularni birja kliringi natijalari, ularning mablag'lari ahvoli va joriy kun uchun belgilangan savdolar limiti to'g'risida xabardor qilishga majbur.

Sotuvchilar va sotib oluvchilar birjaga xizmat ko'rsatuvchi bankdagi HKKPning ikkilamchi depozit hisob-raqamiga birja savdolariga qo'yiladigan mahsulotlarning umumiy qiymati va bitimning taxminiy miqdoriga muvofiq zakalat kiritadilar.

Sotib oluvchilar taxminiy to'lovlar miqdoridagi birja bitimlarini kiritilgan zakalatni hisobga olgan holda tuzishga haqli.

Sotib oluvchilar va sotuvchilarning birjaga xizmat ko'rsatuvchi bankdagi HKKPning ikkilamchi depozit hisob-raqamidagi mablag'lari:

- birja bitimlari va ular o'rtasida tuzilgan shartnomalar majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq ular o'rtasidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun;

- savdo sessiyalarida ishtirok etish uchun zakalat sifatida;

- mijozning topshirig'iga ko'ra – kliring ishtirokchisining vakolatli bankdagi hisobiga qaytarish uchun;

- deponent mablag'lar hisobidan birja xizmatlari uchun to'lovlarni amalga oshirishga ishlatiladi.

Birja bitimi ro'yxatga olingandan keyin sotib oluvchi ro'yxatga olingan bitim bo'yicha moliyaviy majburiyatlarni to'liq qoplash uchun HKKPning birjaga xizmat ko'rsatuvchi bankidagi ikkilamchi depozit hisob raqamiga qo'shimcha mablag'larni kiritishi shart. Bunda mablag'lar o'tkazilishi bo'yicha to'lov topshiriqnomasining "to'lov ma'lumotlari" grafasida albatta sotib oluvchining FIRi ko'rsatilishi shart.

Mahsulotni temiryo'l transportida tashishda sotib oluvchi bitimda ko'rsatilgan muddatda, birja bitimi ro'yxatga olingandan so'ng temiryo'l xarajatlarini qoplash uchun mablag'larni sotuvchining talab qilib olungungacha asosiy hisob raqamiga o'tkazishi shart. O'z navbatida sotuvchi temiryo'l xizmati xarajatlari uchun to'lovni amalga oshirish uchun sotib oluvchiga hisobni berishi shart.

HKKP sotib oluvchidan mablag'lar kelib tushgan paytdan boshlab to'langan bitimlar reestirini sotuvchiga taqdim etishi shart.

Agar sotib oluvchi bitimda ko'rsatilgan muddatda to'lovni amalga oshirishni ta'minlamasa, HKKP ushbu muddat o'tganidan so'ng shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi uchun bitimni bekor qilish haqida sotuvchiga xabar beradi va sotuvchining hisob-raqamiga jarima sifatida, zakalat miqdoridan kam bo'lmagan miqdordagi mablag'larni, birja komissiya yig'imini chegirgan holda, o'tkazadi.



Sotuvchi tomonidan bitimda ko'rsatilgan muddatlarda sotib oluvchiga mahsulotni yuklab jo'natish majburiyati bajarilmasa, HKKP ushbu muddat o'tganidan so'ng sotib oluvchining hisob-raqamiga jarima sifatida bitimda ko'rsatilgan miqdordagi mablag'larni, birja komissiya yig'imini chegirgan holda, o'tkazadi va sotib oluvchi hamda sotuvchiga bitimning bekor qilganligi xaqida xabar beradi. HKKP tomonidan taqdim etilgan to'lov amalga oshirilgan bitimlar reyestri sotuvchi uchun mahsulotni yuklab jo'natishga asos bo'ladi.

Sotuvchi sotib oluvchi o'z majburiyatlarini bajarganligi HKKP tomonidan tasdiqlanmasdan mahsulotni yetkazib bergan taqdirda, birja bitimi bo'yicha sotib oluvchi o'z majburiyatlarini vijdonan bajarmaganligi uchun birja javob bermaydi.

Mahsulot topshirilgan va qabul qilinganligi faktini sotuvchi tomonidan taqdim qilinadigan schet-faktura yoki yuk xati tasdiqlaydi.

Mahsulot temiryo'l transportida yuklab jo'natilganligi faktini temiryo'l yuk xatining nusxasi tasdiqlaydi.

Eksport kontraktlari bo'yicha mahsulot yuklab jo'natilgan kun bo'lib BYuD (bojxona yuk deklaratsiyasi) rasmiylashtirilgan kun hamda sotuvchi va sotib oluvchi tomonidan imzolangan topshirish-qabul qilish akti rasmiylashtirilgan kun hisoblanadi.

Sotuvchi tomonidan taqdim etilgan schet-faktura yoki yuk xati HKKP uchun bir bank ish kuni ichida sotib oluvchining shaxsiy hisob-raqamidan mablag'larni sotuvchining shaxsiy hisob-raqamiga, keyinchalik sotib oluvchining unga xizmat ko'rsatuvchi bankdagi hisob-raqamiga o'tkazish va bitimni yopish uchun asos bo'ladi.

Birja savdolari g'oliblariga mahsulotlarni yetkazib berish, bitimda ko'rsatilgan muddatlarda sotuvchining naryadlari asosida amalga oshiriladi.

Eksport kontraktlari bo'yicha sotuvchining brokeri tomonidan sotib oluvchi tovarni qabul qilganligini tasdiqlovchi sotuvchi va sotib oluvchi tomonidan imzolangan bir nusxadagi yuk xatining asli taqdim etilganligi, hisob-kitob bo'yicha ma'lumot olish uchun HKKP tomonidan valuta mablag'larini sotib oluvchining vakolatli bankdagi talab qilib olingungacha ikkilamchi (tranzit) valuta hisob raqamiga o'tkazish uchun asos bo'ladi.

Sotuvchilar tomonidan chet el valutasidagi tushumlarni vakolatli bankka sotish qonun hujjatlarida ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Import kontraktlari bo'yicha hisob-ktoblar O'zbekiston Respublikasi milliy valutasini "so'm"da amalga oshiriladi.

Import kontraktlarini tuzishda sotuvchi shartnoma tuzilgandan keyin to'lov shartlariga muvofiq uch bank ish kuni ichida kontraktga ko'rsatilgan, lekin bitim summasining 15 foizidan kam bo'lmagan pul mablag'larini HKKPning maxsus hisob-raqamiga o'tkazadi. To'lov amalga oshirilganligi faktining o'zi bojxona organida bitimni ro'yxatga olish uchun yetarli bo'ladi.

Import kontraktlari bo'yicha tovar O'zbekiston Respublikasiga kelib tushgan va u sotib oluvchi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilib olingandan keyin HKKP pul mablag'larini O'zbekiston Respublikasi milliy valutasini "so'm"da sotuvchi – norezidentning HKKPdagi hisobiga o'tkazadi. Mazkur mablag'lar sotuvchi tomonidan quyidagi maqsadlarda ishlatilishi mumkin:

- birja savdolari va ko'rgazma-yarmarkalarda tuzilgan eksport kontraktlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun;

- bevosita birja kontraktlari bo'yicha boshqa to'lovlar (komission yig'img'lar, brokerlik mukofotlari, transportirovka va h.k.)ni amalga oshirish uchun;

- chet el banklarining korrespondent "LORO" hisob-raqamlariga o'tkazish va O'zbekiston Respublikasi vakolatli banklarida hisob-raqam ochish uchun;

- davlat mulki uchun belgilangan tartibda kombinatsiyalangan shakldagi to'lovni amalga oshirish uchun;

- birja bitimlari bo'yicha kafolatli ta'minot kiritish bilan hisob-kitobni amalga oshirish, shu jumladan jarima, penya va boshqa xarajatlarni to'lash uchun;

- agar HKKP palatasi mijozi (birja a'zosining mijozi)ning O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan vakolatli vakili bo'lsa, va-killik xarajatlarini to'lash uchun;

- norezidentning O'zbekiston Respublikasida bo'lgan vaqtidagi xarajatlarini to'lash uchun;

- HKKP palatasi mijozi (birja a'zosining mijozi) ta'sischi yoki aksiyador bo'lgan korxonalarining ustav kapitalini shakllantirish va to'ldirish uchun;

- sud xarajatlarini to'lash uchun.

Birja bitimini yopish, to'lovlarni o'tkazish, tomonlarning javobgarligi, birja Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan Birja bitimlari bo'yicha hisob-kitob kliring xizmati ko'rsatish qoidalarida ko'rsatilgan.

## 2.8. Birja tovarlarini kotirovkalash (narxini belgilash) tartibi va narx shakllanishi ustidan nazorat

Birja tovarlarini kotirovkalash birja tovarlarining o'rtacha hisoblangan bahosini aniqlash hisoblanadi.

Kotirovkalash:

- realizatsiya qilingan har bir turdagi tovarning navi, sinfi, markasi va boshqa xususiyatlari bo'yicha avtomatik rejimda;
- o'tkazilgan birja savdolari natijasi bo'yicha bir hafta ichida;
- bir oyda kamida bir marta realizatsiya qilinadigan tovarlarga nisbatan amalga oshiriladi.

Har bir birja tovarini ularning navi, sinfi, markasi, xili va boshqa xususiyatlariga qarab ma'lum tovarlar turiga kiritish, Listing komissiyasi tomonidan birja Boshqaruvi belgilagan tartibda amalga oshiriladi.

Realizatsiya qilingan har bir turdagi tovarlarni kotirovkalash hisobot haftasi yakuni quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$Sc = (X1 \times Y1 + X2 \times Y2 + \dots + Xn \times Yn) / (X1 + X2 + \dots + Xn),$$

bunda:

$Sc$  – o'rtacha hisoblangan baho;

$X1, X2, Xn$ - hisobot davri (hafta) davomida realizatsiya qilingan tovarlar miqdori;

$Y1, Y2, Yn$  - hisobot davri (hafta) davomida realizatsiya qilingan tovarlar bahosi.

Har bir turdagi tovar bo'yicha kotirovkalash hisobot haftasida tuzilgan barcha bitim ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Birja savdolarida hafta davomida (dushanba-juma) amalga oshirilgan bitimlar bo'yicha kotirovkalash keyingi hisobot haftasining dushanba kuni soat 17.00 ga qadar amalga oshiriladi.

Keyingi hisobot haftasining dushanba kuni soat 17.00 dan boshlab birja o'zining veb-saytida kotirovkalash bo'yicha ma'lumotlarni joylashtiradi va uni ommaviy axborot vositalariga hamda o'zining informatsion byulletinining obunachilariga taqdim etadi.

Savdo sessiyasi o'tkazilishidan oldin birja bitimlarini tuzishda birjada mazkur tovar turi bo'yicha mazkur savdo sessiyasida bitimlar bahosi tebranishining cheklangan qiymati o'rnatilishi mumkin. Bahoning cheklangan tebranish qiymati birja Boshqaruvi tomonidan o'rnatiladi. Savdo ishtirokchilari tomonidan bitimlarning baholar tebranishiga rioya etilishini birja nazorat qiladi.

Tovarni birja savdosiga qo'yish uchun ruxsat berishda Listing komissiyasi ko'pchilik potensial sotib oluvchilar tomonidan tovar sotib olinishini imkoniyatini ta'minlash zaruratidan va raqobatning maksimal darajasidan kelib chiqib lot qiymatini belgilaydi.

Birjada:

- bitim taraflari aynan bir shaxs bo'lgan tovarlar bilan bitim tuzish;
- baholar dinamikasiga ta'sir qilish maqsadi bo'lgan bir shaxs tomonidan bevosita yoki soxta shaxs orqali tovarlar oldi-sotdi bitimlarini tuzish;

- birja a'zolarining narxlarning sun'iy ravishda o'zgartirilishiga yoki qat'iy qilib qo'yilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan kelishilgan xatti-harakatlar;

- bozor kon'yunkturasini sun'iy ravishda o'zgartirishga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan noto'g'ri va ataylab yolg'on ma'lumotlarni tarqatish taqiqlanadi.

Birja birja savdolari va ularning natijalari bo'yicha axborotni oshkor etilishini ta'minlaydi. Birja o'zining veb-saytida ochiq axborotga ruxsat etilishini ta'minlashi shart hisoblanadi.

Birja Boshqaruvi birja savdolari ishtirokchilari, shuningdek savdolarida ishtirok etmaydigan tashkilotlarga axborot xizmati ko'rsatishning shartlari va tariflarni mustaqil belgilaydi.

Birja quyidagi axborotlarni ommaviy tarzda oshkor etadi:

- birja savdosiga qo'yilgan tovarlar haqidagi axborotni (kotirovkalash varag'i);

- birja tovarlarining o'rtacha hisoblangan bahosi haqidagi axborotni; birja a'zolari to'g'risidagi axborotni, ularning bog'lanish ma'lumotlarini ko'rsatgan holda;

- birja tariflari to'g'risidagi axborotni.

Birja o'zining rasmiy veb-saytida birja faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va birjaning lokal hujjatlari matnlarining mavjud bo'lishini ta'minlaydi.

Birja savdolarini o'tkazish haqidagi axborot birjaning korporativ chatida e'lon qilinadi va birja a'zolarining e'tiboriga havola qilingan hisoblanadi.

Quyidagi ma'lumotlar tijorat sirini tashkil qiladi:

- birja bitimining mazmuni (tovar nomi, miqdori, bahosi, tuzilgan vaqti va bitimni tuzgan birja a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlardan tashqari);

- HKKP palatasi mijozlarining hisob varag'i bo'yicha operatsiyalar, shu jumladan xizmat ko'rsatishda mijozning pul mablag'lari va (yoki) ularning aylanishi to'g'risidagi ma'lumotlar, mijoz topshirig'ining mazmuni;

- birja bitimlari bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi, shu jumladan to'langan bitimlar reyestri va (yoki) topshirish hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Tijorat sirini har qanday shaklda (og'zaki, yozma yohud boshqa shaklda, shu jumladan texnika vositalaridan foydalangan holda) oshkor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Tijorat siri bilan muomala qilish tartibi va ushbu tartibga rioya etilishini nazorat qilish, shuningdek, tijorat siridan foydalanishga ruxsat olgan shaxslarni hisobga olish birja Boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Birja Boshqaruvchi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tijorat siri va uni himoya qilish bo'yicha choralar ko'riladi. Birja a'zosi tijorat sirini tashkil yetuvchi ma'lumotlarni, shu jumladan mijoz bilan munosabat tugatilgandan keyin ham sir saqlashga majbur.

Birja bitimi to'g'risidagi axborot (birja tovarining miqdori, kotirovkasi (bahosi), birja bitimi tuzilgan sanasidan tashqari) uchinchi shaxslarga oshkor qilinmaydi. Birja bitimlari to'g'risida axborot sudlarga, qo'zg'atilgan jinoyat ishi mavjud bo'lganda esa, surishtiruv va tergov organlariga taqdimetiladi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq birja bitimining mazmuni to'g'risidagi axborot qonun hujjatlarida ko'rsatilgan hollarda va tartibda maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etiladi.

## **2.9. Birja savdosi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikka tortish tartibi**

Savdo qoidalari talablarini buzgan Birja va uning xodimlari va ularning treyderlari, shuningdek savdo maydonchasi va ularning registratorlari belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Birja a'zolari uchun Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalariga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 06.11.2009-yilda 2038-raqam bilan ro'yxatga olingan) (keyingi o'rinlarda Ichki nazorat qoidalari deb ataladi) rioya etish barcha birja a'zolari,

ularning treyderlari uchun ham majburiy hisoblanadi va Ichki nazorat qoidalariga rioya etmaslik savdo qoidalarini buzish hisoblanadi.

Jazo chorasi javobgarlik chorasi hisoblanadi va u yangi huquqbuzarliklar sodir etishning profilaktikasi maqsadida qo'llaniladi.

Birja a'zolari va savdo maydonchalari tomonidan mazkur Qoidalar talablarining buzilishi birjaning Intizom komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Intizom komissiyasi o'z faoliyatini birja Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan Intizom komissiyasi to'g'risidagi nizom asosida amaga oshiradi.

Birja bitimlari bo'yicha majburiyatlarning buzilishi bilan bog'liq masalalarni Intizom komissiyasi ko'rib chiqmaydi.

Huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda Intizom komissiyasi quyidagi jazo choralari qo'llashga haqli:

- ogohlantirish;
- jarima;
- birja a'zosi va uning treyderini birja savdolaridan chetlashtirish;
- savdo maydonchasi registratori vakolatini to'xtatish.

Intizom komissiyasining qarori birja a'zolari, savdo maydonchalari va birjaning tarkibiy tuzilmalari tomonidan ijro etilishi majburiydir.

Ichki nazorat qoidalari talablarini bajarmaganlik, birjada Ichki nazorat qoidalari bilan belgilangan shubhali operatsiyalarni amalga oshirgan mijozga nisbatan, shu jumladan gumonli operatsiyalar bo'yicha Departamentga xabar bermaganlik uchun birja a'zosi va uning treyderiga nisbatan birja savdolaridan chetlashtirish jazo chorasi qo'llaniladi. Bunda jazo chorasi vakolatli davlat organi yozma ravishda tasdiqlangan birja a'zosining mijozi tomonidan huquqbuzarlik sodir etilgan hollardagina qo'llanilishi mumkin.

Ogohlantirish tarzidagi jazo chorasi qoidaga ko'ra odob-axloq qoidalarini buzgan treyderlarga nisbatan qo'llaniladi. Jarima tarzidagi jazo chorasi savdo qoidalarining XV bo'limida ko'satilgan huquqbuzarliklar uchun qo'llaniladi. Jarima kimning foydasiga ushdirilishi ko'rsatilmagan bo'lsa, ushbu jarima birja foydasiga undiriladi. Jarima aybdor tarafdin undiriladi.

Intizom komissiyasining jarima qo'llash haqidagi qarorini ixtiyoriy ijro qilish uchun birja a'zosiga 10 bank ish kuni beriladi. Ushbu muddat o'tganidan keyin qaror ixtiyoriy ijro qilinmasa, birja a'zosi va uning treyderi 3 oy muddatga yoki qaror ijro qilingunga qadar birja savdolaridan chetlashtiriladi. Chetlashtirish muddati tugagach, qaror ijro qilinmasa jarima qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ijro qilinadi.

Birja a'zosi o'z mijozining topshirig'ini bajarmaganligi uchun, basharti bunday topshiriq normativ-huquqiy hujjatlar va (yoki) mazkur Qoidalarga zid bo'lsa, shuningdek, birja bozori kon'yukturasida yuzaga kelgan holat tufayli uni ijro qilish mumkin bo'lmay qolsa, javobgar bo'lmaydi.

To'g'ri buyurtma berish va buyurtma noto'g'ri berilgan buyurtmadan yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar, shuningdek birja bitimini nomidan harakat qilayotgan birja a'zosi mijozining buyrug'ini buzgan holda rasmiylashtirganlik uchun javobgarlik to'liq birja a'zosining zimmasida bo'ladi.

Birja a'zosining mijoz yoki birja savdosining boshqa har qanday ishtirokchisining, o'zining treyderining harakati yoki harakatsizligi tufayli birjaga yetkazilgan zarar uchun birja a'zosi javob beradi. Shuningdek, birja a'zosi birja bitimini bajarmaganlik yoki birja bitimini rasmiylashtirmaganlik uchun sotuvchiga yoki sotib oluvchiga birjaning komission yig'imlarini to'laydi.

Mijoz buyrug'ining bajarilishi normativ-huquqiy hujjatlarning, shuningdek, mazkur Qoidalarning buzilishiga olib kelsa, bunday huquqbuzarlik uchun birja a'zosi javob beradi.

Mijozning topshirig'iga ko'ra birja a'zosi tomonidan birja savdosida tuzilgan birja bitimi bo'yicha majburiyat buzilganligi uchun javobgarlik mijoz zimmasiga yuklanadi.

Birja a'zosi tomonidan birja savdosida tuzilgan birja bitimi bo'yicha mijoz topshirig'ining buzilishi natijasida majburiyat buzilganligi uchun javobgarlik, mijozning talabi bilan birja a'zosi zimmasiga yuklanishi mumkin.

Birja a'zosi tomonidan mazkur Qoidalar buzilgan hollarda, mijoz birjadan birja a'zosini intizomiy javobgarlikka tortish choralarini ko'rishni talab qilishga haqli.

Birja xodimlari tomonidan mazkur Qoidalar talablari buzilgan hollarda birja a'zosi yoki uning mijoz yoki ushbu huquqbuzarliklarni ko'rib chiqish haqida birjaga ariza bilan murojaat qilishga haqli.

Ariza u kelib tushgan kundan boshlab uch kun ichida ko'rib chiqiladi, birja filialining makleri tomonidan birja bitimini rasmiylashtirishni rad etilganligi bilan bog'liq arizalar bundan mustasno.

Birja xodimi tomonidan huquqbuzarlik sodir etilganligi tasdiqlansa, birja mazkur Qoidalarga va "O'zR TXAB" ichki mehnat qoidalariga muvofiq choralar ko'radi va bu haqda arizachiga ma'lum qiladi.

Huquqbuzarlik sodir etilmagan bo'lsa, birja bu haqda arizachiga moslantirilgan javob beradi.

Birjaning qaroridan norozi shaxslar qonun hujjatlaridan belgilangan tartibda birjaning harakatlariga nisbatan shikoyat berishlari mumkin.

Birjaga birja savdolarida ishtirok etish va birja bitimlarini tuzish bilan bog'liq to'liq ma'lumot taqdim etmaganlik – eng kam oylik ish haqi qiymati miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Mijozning topshirig'ini jurnalga oldindan ro'yxatga olmasdan ijro qilganlik – eng kam oylik ish haqining ikkidan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Login va parol egasiga aloqasi bo'lmagan birja a'zosi tomonidan login va paroldan foydalanish, xuddi shuningdek o'z login va parolini boshqa birja a'zolariga berish – eng kam oylik ish haqining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Savdo maydonchasi registratori tomonidan birja filialining makleriga rasmiylashtirilmagan birja bitimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yubormaganlik – eng kam oylik ish haqining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Birja a'zosi tomonidan birja bitimini bajarish yoki birja bitimini rasmiylashtirish mumkin bo'lmaydigan harakatlar sodir etganlik, shu jumladan o'zi tomonidan amalga oshirilgan birja bitimini qabul qilib olish, imzolash va (yoki) birja filialining makleriga (savdo maydonchasi registratoriga) rasmiylashtirish uchun belgilangan muddatda topshirishni rad qilganlik; dislokatsiyadan tashqari va limitdan yuqori boshqa kontrakt uchun BSETga buyurtma berganlik; sotib oluvchi mijoz nomidan normativ-huquqiy hujjatlar yoki vakolatli davlat organlari qarorlarida sotuvchilarga nisbatan belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan birja bitimlarini amalga oshirganlik – eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Shunday harakatlarni jarima qo'llanilganidan keyin bir yil ichida qayta sodir etganlik – eng kam oylik ish haqining to'rt baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Shunday harakatlarni ikki marta jarima qo'llanilganidan keyin bir yil ichida qayta sodir etganlik – birja a'zosi va uning treyderlarini 6 oygacha bo'lgan muddatga savdolaridan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Makler yoki savdo maydonchasi registratori timsolida birja tomonidan bitimni rasmiylashtirishni rad etganlik – jabrlangan birja a'zosi foydasiga eng kam oylik ish haqining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Shunday harakatlarni registrator tomonidan jazo qo'llanilganidan keyin bir yil ichida qayta sodir etganlik – registrator-



ning vakolatini 6 oygacha muddatga to'xtatishga sabab bo'ladi. Shunday harakatlarni birja filialining makleri tomonidan jazo qo'llanilganidan keyin bir yil ichida qayta sodir etganlik – mehnat qonunchiligiga muvofiq intizomiy jazo chorasi qo'llashga sabab bo'ladi.

Birja tomonidan birja a'zolariga yoki ularning mijozlariga topshirilishi shart bo'lgan ma'lumotlarni, shu jumladan amalga oshirilgan bitimlar haqidagi ma'lumotlarni va to'langan bitimlar reyestrini taqdim etmaganlik – jabrlangan tomon foydasiga eng kam oylik ish haqining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Shunday harakatlarni birjaning mas'ul xodimi tomonidan birjadan jarima undirilgandan keyin bir yil ichida qayta sodir etganlik – mehnat qonunchiligiga muvofiq intizomiy jazo chorasi qo'llashga sabab bo'ladi.

Narxlarni manipulyatsiyalash – eng kam oylik ish haqining o'n baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Shunday harakatlarni jazo qo'llanilganidan keyin bir yil ichida qayta sodir etganlik – birja a'zosi va uning treyderini 6 oygacha bo'lgan muddatga savdoldardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Tijorat siri hisoblangan ma'lumotlarni oshkor etganlik – eng kam oylik ish haqining besh baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Shunday harakatlarni jazo qo'llanilganidan keyin bir yil ichida qayta sodir etganlik birja a'zosi va uning treyderlarini 6 oygacha bo'lgan muddatga savdoldardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Savdolar jarayonida birja tomonidan o'rnatilgan tizimdan farq qiladigan operatsion tizimdan foydalanish – birja a'zosi va uning treyderlarini 1 yilgacha bo'lgan muddatga savdoldardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Kompyuter terminalidagi plomba (stiker)larni uzish – eng kam oylik ish haqining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi. Shunday harakatlarni qayta sodir etganlik – birja a'zosi va uning treyderlarini 6 oygacha bo'lgan muddatga savdoldardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Birja binosida, birjaning kommunikatsiya tizimida, shu jumladan chatda birja xodimlari va (yoki) birja savdosining boshqa ishtirokchilarini haqorat qilish – treyderni bir haftagacha bo'lgan muddatga savdoldardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Savdo qoidalari talablarini boshqa tarzda buzganlik – eng kam oylik ish haqining ikkidan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Ichki nazorat qoidalariga rioya etilishi bo'yicha mas'ul shaxsni tayinlamaganlik – mas'ul shaxs tayinlangunga qadar birja a'zosi va uning treyderlarini savdoldardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

O'zining tasdiqlangan ichki nazorat qoidalarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlarining mavjud emasligi – chora-tadbirlar tasdiqlangan paytgacha qadar birja a'zosi va uning treyderlarini savdoldardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Mas'ul shaxs tayinlanganligi haqidagi ma'lumotni tayinlangan paytdan boshlab 3 kun ichida birjaning vakolatli xodimiga taqdim etilmaganligi – ma'lumot taqdim etilgan paytgacha qadar birja a'zosi va uning treyderlarini savdoldardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Mas'ul shaxs tomonidan:

- mijozlarni tegishli tartibda tekshirishni amalga oshirish bo'yicha;
- benifitsiar mulkdorlarni identifikatsiyalash choralari ko'rish bo'yicha;

- mijozlardan maqsad va mo'ljallangan ishchanlik munosabatlari xususiyati, zarur hollarda pul mablag'larining kelib chiqishi haqida ko'rovnomalar bo'yicha;

- xavflilik darajasi yuqori bo'lsa, shuningdek operatsiya ishtirokchilardan biri jinoiy faoliyatdan yoki terrorizmni moliyalashtirishdan tushgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlikda ishtirok etmaydigan davlatda yoki offshor hududda doimiy istiqomat qilsa, joylashgan bo'lsa yoki ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, mijozni tegishli tartibda tekshirish bo'yicha kuchaytirilgan choralarni ko'rish bo'yicha;

- mijoz tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq taqdim etilgan hujjatlardan foydalangan holda uning operatsiyalarini amalga oshirishdagi vakolatlarini tekshirishni amalga oshirish bo'yicha;

- mijoz tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni belgilangan tartibda tekshirish bo'yicha;

- aniq iqtisodiy yoki qonuniy maqsadlar ko'zlanmagan, barcha qiyin, o'zgacha yirik operatsiyalar, shuningdek barcha o'zgacha sxemalar bilan operatsiyalarni amalga oshirishda yuqori e'tibor qaratish bo'yicha;

- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish maqsadida texnologik imkoniyatlardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik choralari bo'yicha;

- mijozni tegishli tartibda tekshirish bilan bog'liq materiallarga qo'shib qo'yiladigan uning ta'sis hujjatlari yoki davlat ro'yxatidan o't-

ganligi haqidagi guvohnomasida nazarda tutilgan faoliyat turlari va maqsadlariga muvofiq kelmaydigan, aniq iqtisodiy mazmunga ega bo'lmagan barcha operatsiyalar bo'yicha tegishli tartibdagi tekshirish natijalari va xulosalarini yozma ravishda qayd etish bo'yicha;

- identifikatsiyani tugatishning yoki tegishli tartibdagi tekshirish natijasida mijoz bilan ish bo'yicha munosabatga kirishishning maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatuvchi ma'lumotlarni olishning imkoni bo'lmagan hollarda mijozga bitim tuzishni rad etish bo'yicha;

- Departamentga belgilangan tartibda axborot taqdim qilish uchun aniqlangan gumonli operatsiyalar haqida birja a'zosi rahbariyatini xabar-dor qilish bo'yicha;

- olingan ma'lumotlarni oshkor qilinmasligiga rioya etilishi bo'yicha; ichki nazoratni amalga oshirish vaqtida olingan hujjatlarni saqlash va qaytarish bo'yicha;

- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish holatlarini aniqlashda o'z tavakkalchiligini baholash, ularni hujjatlashtirish va qisqartirish yuzasidan tegishli choralar ko'rish bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganda – birja a'zosi va uning treyderlarini 1 oygacha bo'lgan muddatga savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan huquqbuzarlik holatlarini belgilangan muddatlarda bartaraf etmaslik, shuningdek jazo chorasi qo'llanilgandan keyin bir yil ichida xuddi shunday huquqbuzarlik holati sodir etganlik – birja a'zosi va uning treyderlarini 6 oygacha bo'lgan muddatga savdolar-dan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Birja a'zosining mas'ul shaxsi tomonidan o'z faoliyati bo'yicha birjaning vakolatli xodimiga belgilangan muddatlarda hisobot topshirmaganlik – birja a'zosi va uning treyderlarini 1 haftagacha bo'lgan muddatga savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Birja a'zosining mas'ul shaxsi tomonidan birjaning vakolatli xodimiga jazo qo'llanilgandan keyin hisobot topshirmaganlik – birja a'zosi va uning treyderlarini 6 oygacha bo'lgan muddatga savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Birja a'zosi tomonidan mijozning birja bozorida operatsiyalarni amalga oshirish uchun bergan topshirig'iga ko'ra, qonun hujjatlariga muvofiq mijozni yoki boshqa manfaatdor shaxslarni identifikatsiyalash:

- ilgari mazkur mijoz tomonidan o'tgan hisobot davri (oy, chorak, yarim yil, bir yil)da amalga oshirilgan operatsiyalarni o'rganish, agar qo'l ostida bunday operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlar bo'lsa;

- operatsiya turini, uning mijoz - yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida belgilangan faoliyat turiga muvofiqiligini aniqlash;

- operatsiya turini, uning mijoz – tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik huquqidagi guvohnomasida belgilangan faoliyat turiga muvofiqiligini aniqlash bo'yicha majburiyatlarini bajarmaslik – birja a'zosi va uning treyderlarini 1 oygacha bo'lgan muddatga savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan huquqbuzarlik holatlarini belgilangan muddatlarda bartaraf etmaslik, shuningdek jazo chorasi qo'llanilgandan keyin bir yil ichida xuddi shunday huquqbuzarlikni sodir etganlik – birja a'zosi va uning treyderlarini 6 oygacha bo'lgan muddatga savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Birja a'zosi tomonidan operatsiyaning bir tarafi:

- jinoiy harakatdan yoki terrorizmni moliyalashtirishdan tushgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlikda ishtirok etmaydigan davlatda yoki offshor hududda doimiy istiqomat qilsa, joylashgan bo'lsa yoki ro'yxatdan o'tgan shaxs bo'lganda;

- terroristik faoliyat bilan shug'ullanayotgan yoki shug'ullanishi gumon qilinayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lganda;

- terroristik faoliyat bilan shug'ullanayotgan yoki shug'ullanishi gumon qilinayotgan tashkilotning mulkdori bo'lsa yoxud ushbu tashkilotni bevosita yoki bilvosida nazorat qilayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lganda;

- terroristik faoliyat bilan shug'ullanayotgan yoki shug'ullanishi gumon qilinayotgan tashkilotning mulkdori yoxud ushbu tashkilotni bevosita yoki bilvosida nazorat qilayotgan jismoniy shaxsga qarashli yuridik shaxs bo'lganda Departametga axborot yubormaslik – birja a'zosi va uning treyderlarini 6 oygacha bo'lgan muddatga savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Birja a'zosi tomonidan gumonli operatsiyalar bo'yicha belgilangan muddatlarda Departamentga axborot yubormaslik – birja a'zosi va uning treyderlarini 6 oygacha bo'lgan muddatga savdolardan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

Birja faoliyati yuzasidan kelib chiqadigan kelishmovchiliklar va nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

Birja bitimlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik to'g'risidagi kelishmovchiliklar va nizolar quyidagi vositalari yordamida ko'rib chiqiladi:

- Arbitraj komissiyasi to'g'risidagi nizomga asosan birja Arbitraj komissiyasining sudgacha muhokamasi;

- sud muhokamasi.

Birja savdosi ishtirokchilari o'rtasida birja savdolarida tuzilgan shartnomalardan kelib chiqadigan kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish tartibi mazkur Qoidalar, Arbitraj komissiyasi to'g'risidagi nizom va boshqa ichki hujjatlar bilan belgilanadi.

Birja a'zosi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Ichki nazorat qoidalariga muvofiq ichki nazoratni amalga oshirishi shart.

Ichki nazoratni tashkil etish va realizatsiya qilish qonun hujjatlari va Ichki nazorat qoidalariga muvofiq holda amalga oshiriladi.

Birja a'zosi o'z faoliyatining xususiyatidan kelib chiqib, ichki nazoratni amalga oshirish bo'yicha o'z choralar dasturini qabul qilishi shart.

Choralar dasturi birja a'zosi faoliyati doirasida tavakkalchilikni aniqlash va baholash, shuningdek ularni qisqartirish choralarini ko'zda tutishi kerak.

Tavakkalchilikni aniqlash va baholash birja a'zosi mijozlari faoliyatining yo'nalishlari (operatsiyalari) va xususiyatlari hisobga olingan holda tashkil etiladi.

Birja a'zosi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha qonun hujjatlari talablariga rioya etishi shart.

Birja a'zolari:

- ishchanlik munosabatlarini o'rnatishda;

- summasi eng kam oylik ish haqining 500 baravaridan ortiq bo'lgan bir martalik bitimlarni amalga oshirishda;

- amalga oshirilayotgan operatsiyalarning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qaratilgan maqsadi borligi yoki aloqadorligi bo'yicha har qanday gumon yoki shubha tug'ilganda;

- ilgari olingan identifikatsiya ma'lumotlarining haqiqiyliги va ichonchiligi shubha tug'ilganda mijozlarni tegishli ravishda tekshirish choralarini ko'radilar.

Amalga oshirilayotgan operatsiyaning bir tarafi jinoiy faoliyatdan yoki terrorizmni moliyalashtirishdan tushgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlikda ishtirok etmaydigan davlatda yoki offshor hududda doimiy istiqomat qilsa, joylashgan yoki ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, birja a'zolari mijozni tegishli tartibda tekshirish bo'yicha kuchaytirilgan choralarni ko'rishlari shart.

Mijozni tegishli tartibda tekshirish birja bozorida xizmat ko'rsatishning barcha yo'nalishlari va bochqichlarida, shu jumladan ilgari mavjud bo'lgan mijozlarga nisbatan ham amalga oshirilishi shart.

Mijozni yoki benifitsiar mulkdorni identifikatsiyalash bilan birga qonun hujjatlariga muvofiq ular tomonidan taqdim etilgan hujjatlardan foydalangan holda ularning operatsiyalarni amalga oshirish vakolatlarini ham tekshirish zarur.

Mijoz birja bozorida operatsiyalarni amalga oshirish uchun topshiriq bilan murojaat qilganda, birja a'zolari:

- mijozni va boshqa manfaatdor shaxslarning ushbu operatsiyalarni amalga oshirishlarining qonun hujjatlariga muvofiqligini identifikatsiya qilishlari;

- agar qo'l ostida bunday operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlar bo'lsa, ilgari mazkur mijoz tomonidan o'tgan hisobot davri (oy, chorak, yarim yil, bir yil)da amalga oshirilgan operatsiyalarni o'rganishlari;

- operatsiya turini, uning mijoz - yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida belgilangan faoliyat turiga muvofiqiligini aniqlashlari;

- operatsiya turini, uning mijoz - tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik haqidagi guvohnomasida belgilangan faoliyat turiga muvofiqiligini aniqlashlari shart.

Birja a'zolari mijoz tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni:

- davlat organlari va boshqa tashkilotlardan mijoz bo'yicha olingan ma'lumotlardan foydalanish;

- mijozning boshqa birja a'zolari bilan munosabatlarini o'rganish; mijozning ishchanlik obro'si yuzasidan ma'lumotlar yig'ish orqali tekshirishlari shart.

Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulklar bilan operatsiyalar quyidagi hollarda shubhali hisoblanadi:

- zarurat tufayli talab qilingan, shu jumladan ishonch bildirgan shaxsga oid (agar mijoz ishochli vakil sifatida ishtirok etayotgan bo'lsa) ma'lumotlarni taqdim qilishni mijoz tomonidan asoslantirilmagan holda rad etish;

- qulayroq bo'lgan shartlarda xizmat ko'rsatishni mijoz tomonidan e'tiborga olmaslik, shuningdek mijoz tomonidan xuddi shunday xizmatlarni ko'rsatish uchun odatda to'lanadigan mukofotdan farq qiladigan yuqori miqdordagi mukofotni taklif etish;

- birja operatsiyalari bo'yicha hisob-kitobni amalga oshirish tartibi bo'yicha mazkur mijoz yoki birja tomonidan foydalaniladigan odatdagi amaliyotdan farq qiladigan nostandart yoki qiyin bo'lgan qoidalarning mavjudligi;

- bekor qilingan birja bitimlari bo'yicha mijoz tomonidan o'z mablag'larini uchinchi shaxslarga yoki norezidentlar-bank hisobiga o'tkazish haqida taklif berilishi;

- mijoz tomonidan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim qilinishini asossiz kechiktirish yoki mijoz tomonidan tekshirish mumkin bo'lmagan yohud tekshirish juda qimmatga tushadigan ma'lumotlar taqdim qilinishi;

- birjada amalga oshiriladigan bitimning maxfiylik masalalari bo'yicha mijozning haddan tashqari tashvishlanishi;

- mijozning birjada operatsiyalarni zudlik bilan amalga oshirishni talab qilinishi;

- mijoz tomonidan naqd pul shaklida bir kun yoki o'ttiz kun ichida depozitga qo'yilgan pul mablag'i eng kam oylik ish haqining 1000 baravaridan ortiq summani tashkil etishi;

- Hisob-kitob kliring palatasida O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari o'rtasida uch oy mobaynida eng kam oylik ish haqining 1000 baravaridan ortiq bo'lgan summada Foydalanuvchining individual raqami (FIR)da akkumulyatsiya qilingan pul mablag'lari bilan voz kechish bo'yicha, bir martalik operatsiya yoki bir nechta operatsiyalar o'tkazish;

- jinoiy faoliyatdan yoki terrorizmni moliyalashtirishdan tushgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlikda ishtirok etmaydigan davlatda yoki offshor hududda ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar uchun FIR ochish, shuningdek ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha topshiriq berilishi;

- chet el tashkilotlarining ishonchnomasi asosida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining FIR ochish bo'yicha topshirig'i;

- identifikatsiyalashni yakunlash imkoniyati bo'lmasa yoki tegishli tekshirish o'tkazish natijasi foydalanuvchi bilan ishchanlik munosabatini o'rnatish maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatsa;

- bitim tuzilishi natijasida pul mablag'lari yoki boshqa mulk egalari o'zgarimasada, lekin ushbu birja savdolari ishtirokchilari faollashgandek taassurot qodirsa;

- birja savdolari qoidalaridan belgilangan birja savdolarida narx-larni manipulyatsiya qilish belgilari mavjud bo'lsa;

- 30 kun ichida tovar sotib olish uchun eng kam oylik ish haqqi-ning 5000 baravaridan ortiq bo'lgan summaga bitim tuzilganligi;

- moliyaviy yilning bir choragidan ortiq bo'lmagan davr faoliyat ko'rsatayotgan mijoz bilan tovar sotib olish uchun eng kam oylik ish haqining 2500 baravaridan ortiq bo'lgan summaga birja bitimlari tuzil-ganligi;

- birja operatsiyalari bo'yicha boshqa mintaqada joylashgan mijoz tomonidan topshiriq berilganligi;

- operatsiyalarning mijozning faoliyat turi va xususiyatiga nomu-vofiqligi;

- amalga oshirilayotgan operatsiyalarning jinoiy faoliyatdan olin-gan daromadlarni legallashtirishga va terrorismni moliyalashtirishga qar-ritilgan maqsad borligiga asosli shubha tug'ilgan boshqa barcha hollar.

Shubhali operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlar haqida ichki nazorat Qoidalarida belgilangan tartibda Departamentga xabar berilishi lozim.

Birja a'zolari tomonidan Ichki nazorat qoidalariga rioya etilishi yuzasidan monitoring va nazorat o'tkazish uchun birjaning Ichki va ax-borot xavfsizligi bo'limi (keyingi o'rinlarda bo'lim deb ataladi) vakolatli hisoblanadi.

Shu maqsadda bo'lim:

- birja a'zolari faoliyatining Ichki nazorat qoidalari talablariga rioya qilinishini doimiy asosida o'rganadi;

- o'z vakolatlari doirasida huquqbuzarliklarni oldini olish, aniqlan-gan huquqbuzarliklarni bartaraf qilish, shuningdek Ichki nazorat qoida-lariga rioya etilishi va bajarilishi bo'yicha choralar ko'radi.

- birja a'zosi tomonidan Ichki nazorat qoidalari talablariga rioya etilmaganlik yoki bajarilmaganlik holatlari aniqlangan taqdirda, ikki nusxada tegishli dalolatnoma tuzadi, uning bir nusxasini birja a'zoga taqdim etadi;

- Ichki nazorat qoidalariga rioya etilmaganligi holatlari yuzasidan materiallarni Intizom komissiyasiga yuboradi;

birja a'zolari tomonidan aniqlangan huquqbuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha monitoringni amalga oshiradi.



Monitoring va nazoratni amalga oshirishda bo'lim:

- birja a'zolaridan Ichki nazorat qoidalari bilan bog'liq ma'lumotlar so'rashga;

- huquqbuzarliklar va Ichki nazorat qoidalarining buzilishini operativ ravishda to'xtatish maqsadida yuqori darajadagi tavakkalchilikka ega bo'lgan mijoz nomidan operatsiyalarni amalga oshirgan yoki gumonli operatsiyalarni amalga oshirgan birja a'zosiga zudlik bilan Ichki nazorat qoidalariga rioya etilishini, shu jumladan mijozni tegishli ravishda identifikatsiya qilish va tekshirish, mijozning operatsiyalarni amalga oshirish vakolatini tekshirish, mijoz taqdim etgan axborotlarni tekshirish, mijoz tomonidan identifikatsiya qilish uchun zarur bo'lgan hujjatlar taqdim qilinmagan taqdirda operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish, Ichki nazorat qoidalariga muvofiq tavakkalchilik darajasini aniqlash, gumonli operatsiyalar bo'yicha Departamentga xabarnoma yuborishni tavsiya etish huquqiga ega.

## *Nazorat savollari*



1. Tovar birjalari va ularda savdoni tashkil etish tartibi.
2. Tovar birjalarida elektron savdolar amal qilish mexanizmi.
3. Tovar xomashyo birjasi faoliyati xususiyatlari.
4. Tovar xomashyo birjasida fyuchers va opsiyonlar qo'llanilishi.
5. Real tovarlar bilan savdo bitimlari.
6. Birja savdolari bo'yicha hisob-kitoblar tizimi.
7. Tovar xomashyo birjasini boshqarish tizimi.
8. Tovar xomashyo birjasini tartibga solish tizimi.
9. Tovar xomashyo birjasida savdo vositachilarini litsenziyalash va ular faoliyat mexanizmi.
10. Tovar birjasida savdo vositachilariga topshiriq berish va ular ijrosi.

---

---

### **III bob. XORIJIY MAMLAKATLARDA TOVAR BIRJALARI FAOLIYAT MEXANIZMI**

#### **3.1. Yevropada birjaning rivojlanish bosqichlari va eng yirik tovar birjalari**

Zamonaviy birjalar va tovarlar bilan birja orqali savdo qilishning asosida yotadigan tamoyillar ko'p asrlik shakllanish va rivojlanish tarixiga ega. Qadimgi Gretsiya va Qadimgi Rimning markaziy bozor muassasasi, umumiy tovar ayirboshlash operatsiyalari, pul tizimi, uzoq muddatli tovar yetkazib berishga shartnomalar tuzish amaliyotiga ega savdo tajribasi mavjud bo'lgan. Rim imperiyasi gullab-yashnagan davrda foravendalia (sotuv bozori) deb nomlangan savdo markazlari rimliklar imperiyaning uzoq hududlaridan keltirgan tovarlarni sotishning markazi hisoblangan. Zamonaviy birjalar bevosita G'arbiy Yevropa xalqlarining hayoti va ijodi bilan bog'liq bo'lib, birja savdosi shakllarini tahlil qilganda G'arbiy Yevropa madaniyatining ruhiy, ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlarini ko'rish mumkin.

G'arbiy Yevropa IX asrning boshida vujudga kelgan. XI asrga kelib esa G'arbiy Yevropa xalqlari yetuk holatga yetadi. Aynan XI asrning oxiri va XII asrning boshlarida Angliya va Fransiya o'rta asrlarga xos ilk yarmarkalar paydo bo'ldi. XII asrning o'rtalariga kelib bu yarmarkalar yiriklashib, xilma-xil ko'rinishga ega bo'ldi. Ixtisoslashuvning rivojlanishi bilan ayrim yarmarkalar ingliz, flamand, ispan, fransuz va italyan savdogarlari o'rtasida savdoning markazlashuviga aylandi. XIII asrda naqd pul bilan joyida hisob-kitob qilish va tovarni darhol yetkazib berish asosidagi bitimlar keng tarqalgan va odatiy bo'lgan, biroq bu paytda belgilangan namunalar bo'yicha sifat standartlariga ega, kelishilgan muddatda tovarni keyinroq yetkazib berishga shartnomalar tuzila boshladi.

“Birja” tushunchasi etimologik jihatdan grek tilidagi “Birse” (sumka, hamyon), nemis tilidagi “Borse” va XV asrda ilk paydo bo'lgan joyi — Bryugge shahri (Niderlandiya) bo'yicha golland tilidagi «Bturs» so'zlaridan olingan. Gap shundaki, bu shaharda taniqli sarrof va makler Van der Bursening uchta hamyondan iborat bo'lgan gerbli uyi yonidagi maydonda turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar savdo axboroti bilan

almashish, xorijiy veksellar sotib olish va oldi-sotdi predmetini muayyan ko'rsatmasdan turib boshqa savdo operatsiyalarini amalga oshirish uchun to'planishardi. Biroq bir necha yil ichida yangi iqtisodiy munosabatlar turiga nom bergan bu birja 1460-yilda vujudga kelgan Antverpen birjasiga o'rmini bo'shatib berdi. Bu birja shaharning geografik jihatdan qulay joylashganligi va savdo aloqalari tufayli dunyo ahamiyatiga ega edi.

XV—XVI asrlarda birjalar yirik tovar partiyalari bilan tashqi savdo operatsiyalarini rivojlantirish zaruratining namoyon bo'lishi sifatida Italiya va Gollandiyada manufakturalar paydo bo'lgan joylarda vujudga kela boshladi. Antverpen birjasiga qarab Lion (1545), London Qirollik birjasi (1566) va boshqa birjalar vujudga kelib, ular, asosan, tovar va veksellar bilan savdo qilgan. 1602-yilda tashkil qilingan Amsterdam birjasi XVII asrda jahon savdosida bosh rolni o'ynagan, unda endi paydo bo'la boshlagan aksiyadorlik kompaniyalarining aksiyalari ilk bor birja bitimlari predmetiga aylandi. AQSHda tovar bozorlari 1752-yildan beri mavjud; ularda mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlar, uy xo'jaligi mahsulotlari, to'qimachilik mahsulotlari, teri va jun, metall va yog'och bilan savdo qilingan.

Dastlab real tovar birjasi, ya'ni manufaktura ishlab chiqarishiga mos keladigan ulgurji savdo shakli vujudga kelgan. Uning zamonaviy birjalarga ham xos bo'lgan ajratib turuvchi jihatlari savdoni tiklashning muntazamligi, savdoning oldindan o'rnatilgan qoidalarga va belgilangan joyga bog'lab qo'yilganligidir. Birja operatsiyalarining eng xarakterli turi naqd tovar bilan operatsiyalar hisoblanadi. Birja savdosining bu bosqichida faqat xaridor va ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi o'rtasida aloqa o'rnatilgan. Birjalarni ta'sis etish juda sekin borgan va asosan, xalqaro savdo bandargohlari uchun yetakchi birjalar bilan cheklangan.

Sanoat inqilobi xomashyo va oziq-ovqatga talabning kengayishi, savdo hajmi va nomenklaturasining o'sishiga olib keldi, tovarlar sifatining bir xilligi va ta'minotning muntazamligiga talablarni kuchaytirdi. Ishlab chiqarishning bu talablarini qondirish zarurati birinchi turdagi birjalarning o'zgarishini, ularning yangi sharoitlarga moslashuvini asoslab berdi. Xususan, bozordan o'rin ajratish, birja savdosini tashkil qilish va savdo odatlarini qayd etish bilan birga birjalarning asosiy funksiyalari qatoriga tovar standartlarini belgilash, namunaviy shartnomalar ishlab chiqish, narxlarni kotirovkalash, muammolarni tartibga solish (arbitraj) va axborot faoliyati ham qo'shildi. Birjalar asta-sekinlik bilan xalqaro savdo markazlariga aylandi.

Savdo aylanmasi o'sish sur'atining tezligi, jahon bozorining vujudga kelishi naqd tovar partiyalari asosida savdo yuritishni qiyinlashtirdi. Ommaviy ishlab chiqarish ularning narxi o'zgarib turadigan xomashyo yetkazib berilishiga ishonchdan tashqari kapitalga, jumladan, tovar shaklida sotish bosqichida turgan mahsulot chiqarishga sarflangan kapitalga foyda olishni ham talab qiladi. Narxlarning keskin o'zgarishi riskni sezilarli oshirib, foyda olishdan ishonchi komil bo'lishni pasaytiradi. Natijada birja operatsiyalarida tadbirkorlarga talab qilingan sifatli Tovarni kerakli paytda foyda olish imkoniyatini ta'minlaydigan narxda yetkazib berishni kafolatlaydigan real tovar bilan muddatli bitimlar yetakchi rol o'ynay boshladi.

G'arbiy Yevropada deyarli har bir Yevropada mavjud qimmatli qo'g'ozlar almashinuvidan farqli o'laroq, G'arbiy Yevropada kichik tovar birjalari so'nggi yillarda birlashib, G'arbiy Yevropa bozorida bir qancha kuchli o'yinchilarni yaratgan. Markaziy va Sharqiy Yevropa mintaqasida keyingi o'n yil ichida shunga o'xshash rivojlanishni ham kutish mumkin.

Tovar birjalari va birja bozorlaridagi masalalar Yevropa Ittifoqi direktivasi tomonidan tartibga solinmagan va qonunlar bir ma'noda birlashishi kutilmaydi. Shu bois, tovar birjalarining huquqiy shakllari alohida mamlakatlarda o'zgarib turadi va muayyan tuzilmalar yaratilishiga ta'sir ko'rsatadigan eng muhim omil an'ana edi. Tovar-valuta bozori davlat yoki xususiy shaxslar sifatida faoliyat yuritadi. Shu nuqtayi nazardan, tovar birjalarini standart Yevropa kompaniyalari turlari orasida tasniflanmagan maxsus yuridik shaxs sifatida ko'rgan joriy Chexiya qonunchiligi anaxronizmdir.

Markaziy Yevropa mintaqasida, aniqrog'i, eng ilg'or tovar ayirboshlash shahobchasi Budapeshtda (Budapesht tovar-xom-ashyo birjasi, Inc.) tashkil etilgan. Ushbu almashinuv Avstriya tovar birjasi bilan qisman birlashib, Yevropada uchinchi yirik savdo birjasini tashkil etdi.

Muhim dalillar, shuningdek, Yevropa fond birjalari aksariyat aksiyadorlik kompaniyalari tamoyiliga amal qilishidir. Ushbu huquqiy shakl, shuningdek, zamonaviy va progressiv harakatga asoslangan Praga fond birjasi uchun ham samarali bo'ldi.

Slovakiyada ikkita tovar birjasi mavjud: an'anaviy Komoditna Burza Bratislava (Bratislava tovarlari) va Yevropa tovar birjasi. Slovakiyada tovar birjalari 229/1992-sonli Federal qonun bilan tartibga solinadi, unda Chexiya Respublikasida tovar birjalari hali ham tartibga solinadi. Ushbu qonun avvalgiday bir nechta rasmiy tuzatish bilan o'zgartirildi.

1872-yilda Vena shahrida tashkil etilgan birinchi tovar aylanmasi Vena fond birjasi bilan qisqa vaqt o'tgandan keyin birlashib, natijada Vena fond va tovar-xomashyo birjasi tashkil etilgan. Shundan buyon bugungi kunda Vena almashinuvi ikki qismga ega: birja va tovar birjalari. Shunday bo'lsa-da, Vena hech qachon an'anaviy yoki muhim savdo-sotiq markazi emas edi. Yuqori tovarlar hajmi faqat 1921 va 1924-yillarda sotilgan. Bugungi kunda Avstriya iqtisodiyoti uchun Vena Savdo Birjasining ahamiyati, asosan, muhim mahsulotlarning narxini baholash, ularni iste'molni belgilash, ekspert-analitik tadqiqotlar tayyorlash, nashr qilish narx grafikallari va ayniqsa, hakamlilik sudining xizmatlarida. Avstriya tovar birjalari operatsiyalari kapital va tovar bozorida qo'shma bitim bilan tartibga solinadi. Qimmatli qoidalar yangi almashinuvlarni o'rnatishni boshqaradi, litsenziyalar, Moliya bozori boshqarmasi (qimmatli qog'ozlar almashinuvi uchun) yoki Federal Iqtisodiyot vazirligi (tovar birjalari uchun) tomonidan beriladi. Davlat vakolatlarini so'ragan korxonalar aksiyadorlik jamiyatining shakliga ega bo'lishi va birjadagi operatsiyalar "funktional almashinishdagi milliy iqtisodiy manfaatlar yoki investitsiyalarga qiziqqan insonlar manfaatlarini himoya qilish"ga kafolat bermasligi kerak. Bunga rioya qilish keng vakolatga ega bo'lgan birja komissiyasi instituti yordamida tekshiriladi. Avstriya qonunchiligi (Vengriya qonunchiligi bilan birgalikda) Chexiya tovar hujjatlarida taklif qilingan qonunchilikdagi o'zgarishlarni tayyorlashda asosiy manba sifatida foydalanildi.

Vengriyada tovar birjasi 1989-yilda tashkil qilingan. Budapeshtdagi tovar birjasi eng ilg'or almashinuv, eng katta kapitalga ega bo'lgan va Markaziy Yevropa eng yuqori likvidlikka ega. 2003-yil boshida uning strukturasi aksionerlik jamiyatiga aylandi, bu esa tovar ayirboshlashni yanada kengaytirishga imkon berdi. Mamlakatning sarmoyasi va tovar bozori haqidagi ilg'or Vengriya qonunchiligi Chexiya tovar-xomashyo birjasi va tovar bozori to'g'risidagi qonun loyihasi tayyorlashda asosiy manba bo'lib xizmat qildi.

1996-yilda tashkil etilgan Warenterminbörse Hannover AG (Gannover Tovar Birjasi) eng muhim nemis tovar-xomashyo birjasi hisoblanadi. U to'rt yirik aksiyadorlar (EWB agrofirma, Gannover va Gamburg fond birjasi, Landschaftliche Brandkasse, Deutscher Terminhandelsverband). Birja qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga ixtisoslashgan. Bremenda paxta (Bremer Baumwollbörse) savdosiga ixtisoslashgan tovar birjasi mavjud. Germaniyada bir necha boshqa davlat darajasidagi tovar-xomashyo birjalari mavjud bo'lib, odatda qishloq xo'jaligi mahsulotlari-

ni sotishga qaratilgan (masalan, Mitteldeutsche Produktenbörse, Bayerische Warenbörse, Rheinische Warenbörse urf-Köln und Krefeld, Wormser Getreide - und Produktenbörse va boshqalar). Germaniya qonunchiligi tovar birjalarini tashkil qilish uchun ruxsat berish uchun qat'iy shartlarni belgilaydi va davlat organlarini tovar birjasida amalga oshirilgan bitimlar bo'yicha qattiq nazoratni amalga oshirishni talab qiladi, shuning uchun barcha bozor ishtirokchilari uchun teng sharoitlar kafolatlanadi va alohida tovarlar narxining darajasi ta'sir qilmaydi.

Polshadagi tovar bozori juda rivojlangan emas. Tovar birjalari hududiy xususiyatlarga ega va kapital-kambag'aldir. Eslatib o'tamiz, 1995-yilda ochilgan Warszawska Gielta Towarowa Spolka Akcyjna (Varshava tovar birjasi) ham xususiy, ham jamoat tashkilotlari tomonidan tashkil etilgan. Ushbu tovar birjasining huquqiy shakli aksionerlik jamiyatidir. 2000-yilda xususiy lashtirildi. Eski va eskirib qolgan qonunlar va kapitalning yetishmasligi tufayli Polsha tovar birjalari Yevropada muhim rol o'ynaydi.

Buyuk Britaniyaning tovar bozori katta va uzoq an'anaga ega. Eng mashhur savdo birjasi - mashhur London metal birjasi (LME). Ushbu tovar birjasida amalga oshiriladigan tranzaksiyalar rangli metallarning (alyuminiy, mis, nikel, qo'rg'oshin, rux, qalay) global bahosiga ta'sir ko'rsatmoqda. Qimmatbaho metallar (oltin, kumush, platina va palladiy) va strategik metallar (surma, arsenik, xrom, magniy, indiy, iridiy, kobalt, kremniy, marganets, simob, ruteniy, selen, tantal, titanium, vanadiy, volfram va boshqalar) Londonga keltiriladi. Boshqa bir muhim tovar ayirboshlash shahobchasi - Shimoliy dengiz Brent Crude Oil, Dubay Xom neft, motor moyi, yetakchi va benzin hamda boshqa neft mahsulotlarini o'z ichiga olgan Xalqaro neft konvensiyasi (IPE). Buyuk Britaniyadagi uchinchi yirik tovar ayirboshlash turi - sobiq Londondagi Tovar Bozor Birjasida (LCE) tashkil etilgan Futures and Options Exchange. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsuloti (kakao, qahva, shakar, kauchuk, don, kartoshka) sotuvga qo'yiladi. Buyuk Britaniyadagi birjalar bizning xususiy sektorga nisbatan o'xshash bo'lgan shaklga ega. (MChJ).

Polshadagi tovar bozori juda rivojlangan emas. Tovar birjalari hududiy xususiyatlarga ega va kapital-kambag'aldir. Eslatib o'tamiz, 1995-yilda ochilgan Warszawska Gielta Towarowa Spolka Akcyjna (Varshava tovar birjasi) ham xususiy, ham jamoat tashkilotlari tomonidan tashkil etilgan. Ushbu tovar birjasining huquqiy shakli aksionerlik jamiyatidir (uning nomi aytilganidek). 2000-yilda xususiy lashtirildi. Eski va

eskirib qolgan qonunlar va kapitalning yetishmasligi tufayli Polsha tovar birjalari Yevropada muhim rol o'ynaydi.

Fransiyaning MATIF-Marche company Terme International de France shirkatiga ega. Tovar ayirboshlash birjasi 1986-yil Fevral oyida tashkil qilingan. Birjada asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (qahva, Robusta qahvasi, jo'xori, kartoshka, kolza yog'i, bug'doy va boshqalar) sotiladi.

Italiya, olmos almashinuvi (1926-yildan buyon mavjud bo'lgan Borsa diamanti d'Italia) va turli xil qishloq xo'jalik ekinlari almashinuvi (masalan, 1951-yildan buyon mavjud bo'lgan Borsa Merci Bologna) kabi bir nechta tovar birjalariga ega. Tovarlar birjalari savdogar va ishlab chiqaruvchilarning notijorat tashkilotlari sifatida tashkil etilgan bo'lib, ular tegishli sohada faoliyat olib boradilar va faqatgina a'zolari ular bilan savdo qilishadi. Italiyada birja faoliyati to'g'risidagi akt 1913-yilda qabul qilingan va unga keyinchalik o'zgartirishlar va farmonlar qo'shilgan. Kompaniyalar va birjalar bo'yicha milliy komissiya (CONSOB agentligi) 1985-yilda tashkil etilgan. CONSOBga oldindan Italiyaning vakolatiga kiradigan birja va operatsiyalarni nazorat qilish sohasida vakolat berilgan.

Hozirgi kunda Yevropa tovar-xomashyo birjalari assotsiatsiyasi (ECA) mavjud bo'lib, 12 Yevropa mamlakatidan 38 ta milliy birjalarni birlashtiruvchi assotsiatsiya hisoblanadi. Bu 1957-yilda qabul qilingan Strasburg qonuniga binoan faoliyat yuritadigan Mannheim Manchester kompaniyasi tashabbusi bilan tashkil etilgan.

1960-yillarga qadar Yevropa tovarlari kombinatsiyasini yaratish qaroriga kelgandi. Shuning uchun aloqa vositasi beriladi. Yevropa tovarlari birjasi 1966- yilda o'sish sur'ati bo'ldi.

2018-yilda Ruminiyaning birjasiga topshirilgan 58-Yevropa tovar-xomashyo birjasi butun dunyo bo'ylab 2700 nafar ishtirokchini mamnuniyat bilan kutib oldi.

ECA iqtisodiyotining rivojlanishi bilan bir qatorda tovar birjalarida ham bo'lishi mumkin risklarni boshqarish uchun quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- narx riskini boshqarish;
- qarshi tomon riskini kamaytirish. "Vetting" mexanizmlarini va undan foydalanish moliyaviy kafolatlar, birjalar xavflarni kamaytirishi yoki hatto olib tashlanishi mumkin noma'lum qarama-qarshi tomonlar bilan shug'ullanayotganda yuz berishi mumkin;



• narx oshkoraligini kuchaytirish. Birjalar narxlarni aniqlashga imkon beradi, savdoning kuchini kamaytirishda sysimetrik ma'lumot (masalan, fermerlar);

- risklarni kamaytirish;
- tovarlar sifatini sertifikatlash;
- repo orqali kapital bozoriga bevosita kirishni ta'minlash;
- ichki moliya va tovar bozorlari o'rtasidagi ishonchlilik.

*1-jadval*

### Yevropadagi top-10 tovar birjalari<sup>5</sup>

BIRJALAR	QISQARTMASI	JOYLASHGAN JOYI	MAHSULOT TURI
<u>APX-ENDEX</u>	APX-ENDEX	<u>Amsterdam, Niderlandiya</u>	Energiya
<u>Trieste Commodity Exchange</u>	BMTS	Triest, Italiya	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari
<u>Commodity Exchange Bratislava, JSC</u>	CEB	<u>Bratislava, Slovakiya</u>	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, olmoslar
<u>Climex</u>	CLIMEX	<u>Amsterdam, Niderlandiya</u>	Gaz
<u>Deutsche Börse/Eurex</u>	DBAG/EUREX	<u>Frankfurt, Germaniya</u>	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, metal
<u>European Climate Exchange</u>	ECX	<u>London, Buyuk Britaniya</u>	Gaz
<u>European Energy Exchange</u>	EEX	<u>Leipzig, Germaniya</u>	Energiya, tabiiy gaz, ko'mir
<u>Energy Exchange Austria</u>	EXAA	<u>Vena, Avstriya</u>	Energiya, gaz
Commodities Investment Exchange	COINVEX	<u>London, Buyuk Britaniya</u>	Neft-gaz, qazib chiqarish, tiklanuvchi energiya
<u>Integrated Nano-Science &amp; Commodity Exchange</u>	INSCX	Buyuk Britaniya	<u>Nanometall</u>

<sup>5</sup> "Saint-Petersburg International Mercantile Exchange", "Moscow Energy Exchange", 2018

Ushbu funksiyalarni amalga oshirish jarayonida bevosita ushbu amrotsiatsiya tarkibidagi birjalar faoliyati tartibga solinadi va yaxshilandi.

### 3.2. ICE Futures Canada

ICE Futures Canada, Inc. Kanada tovar-xomashyo birjasi bo'lib, asosan, qishloq xo'jalik mahsulotlari oldi-sotdisi amalga oshiriladi. Kompaniya kanola va don bo'yicha fyuchers va opsiyonlar bo'yicha shartnomalar, savdo va risklarni boshqarish bo'yicha xizmatlarni taklif etadi.

ICE Futures Canada 1887-yilda "Winnipeg Grains and Produce Exchange" nomi ostida tashkil etilgan bo'lib, bug'doy, suli va arpa bozorini ta'minlovchi shirkat bo'lmagan birlashma sifatida tashkil etilgan. 1904-yildan buyon fyuchers shartnomalar orqali savdo qilishga yo'naltirilgan. Nomi 1908-yilda Vinnipeg don birjasi va 1972-yilda Vinnipeg tovar birjasiga o'zgartirildi.

2007-yildan buyon Intercontinental Exchange (ICE) kompaniyasiga tegishli va hozirgacha ICE Futures Canada, Inc. kompaniyasi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda ICE Futures Canada Kanadaning fyucherslar bo'yicha yagona tovar-xomashyo birjasi bo'lib, Hozirda ham, odatda, Winnipeg Commodity Exchange (WCE) deb ataladi. 2004-yilda butunlay elektron tarzda o'tdi va Shimoliy Amerikada birinchi bo'lib to'liq elektronlashtirilgan birja sifatida ta'kidlandi.

2007-yil 26-aprelda kompaniyani saqlab qolish maqsadida, kompaniya sotuvini amalga oshirish mumkin bo'lgan strategik muqobillarini o'rganib chiqish "Deutsche Bank"ga topshiriladi. 2007-yil 22-iyun kuni kompaniya Intercontinental Exchange (ICE)dan taklifni qabul qildi, ammo 2007-yil avgust oyida taklifni qabul qilganini e'lon qildi. Winnipeg Commodity Exchange (WCE) 2007-yil 22-avgustda ICE tomonidan o'zgartirilgan taklifni qabul qildi va operatsiya 28-avgust kuni yopildi. ICE bitta oddiy aksiyalar uchun 77,59 Kanada dollari yoki jami 50 mln Kanada dollari to'ladi. WCE mahsulotlari 2007-yil 10-dekabr kuni ICE savdo platformasiga o'tkazildi.

Kanola fyucherslari 1963-yilda ishga tushirildi va 2007-yil noyabr oyida savdolarning 95 foizini tashkil etdi, bug'doy fyuchersi 4,2 foizni tashkil etdi. 2014-yil 13-fevralda kanola fyucherslari kuniga 71 536 ta shartnoma bo'yicha yangi rekord o'rnatdi. ICE kanola shartnomasi kanola savdosi bo'yicha jahon me'zonidir. 2012-yil yanvar oyida ICE

yangi turdagi don mahsulotlari bo'yicha fyuchers shartnomalarini boshladi.

2007-yil sentabr oyidan beri WCE Atlanta shtatidagi Intercontinental Exchange (ICE)ning filiali sifatida faoliyat yuritmoqda va uning kotirovkalari ICE platformasida sotilmoqda.

ICE Futures Canada xalqaro standartlardagi kanola mahsuloti uchun fyuchers va opsiyonlar shartnomalari taklif qiladi. 2012-yilda, qariyb 70 yildan keyin, Kanada bozoriga bug'doy bo'yicha fyuchers shartnomalarini qayta kiritdi.

Shimoliy Amerika, Yevropa va Osiyodagi 12 ta birjalar va 6 ta kliring markazlari orqali ICE butun dunyo bo'ylab aktivlar, ularni huquqiy tartibga solish bo'yicharisklarni boshqarish yechimlarini taqdim etadi.

**ICE Futures Europe.** ICE Futures Europe neft, qimmatli qog'ozlar stavkalari, derivativlar, tabiiy gaz, energiya, ko'mir, emissiyalanuvchi va ichimlik tovarlar uchun fyuchers va opsiyon shartnomalarini tuzadi. Shunday qilib, ushbu birja avia yonilg'isi, benzin, gaz, qimmatli qog'ozlar stavkasining o'zgarishi yoki elektr uchun xaridorlarning maqsadlarini qo'llab-quvvatlash uchun arzon narxlarni taklif qiladi.

ICE Futures Europe birinchi bo'lib energiya bozoriga elektron kirishni amalga oshirgan dastlaki birja hisoblanib, hozirgi kunda jahonda neft va qayta ishlangan neft bo'yicha fyuchers shartnomalari savdosining 50 foizini amalga oshiradi. Neft va qayta ishlangan neft uchun yetakchi global standart bo'lgan "Brent" nefti va "Gasoil" suyultirilgan va sof neft savdosini amalga oshiradi.

ICE Futures Europe Yevropadagi suveren va banklararo daromadligi yuqori, shuningdek, dollarli valutalar va GCF Repo fyucherslarning eng keng qamrovli tizimidir. Shu bilan birga, ICE foizli fyucherslar va opsiyonlarni qisqa, o'rta va uzoq muddatga taqdim etadi.

ICE Futures Europe Londonning ichimliklar bozorlari uchun kakao, Robusta qahvasi, shakar va bug'doy uchun fyuchers va opsiyon shartnomalari savdosini amalga oshiradi. Birjaning ichimliklar bozori butun dunyoda tijorat bozori ishtirokchilari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Emissiya savdosi bo'yicha dunyodagi yetakchi bozor bo'lib, ICE Futures Europe Yevropa Ittifoqi ruxsatnomasi (EUAs) va sertifikatlangan emissiyalarni kamaytirish (CERs) shartnomalarini taklif qiladi. Ish-tirokchilar Yevropa Ittifoqining emissiya savdosi tizimiga, Yevropa Ittifoqining iqlim o'zgarishi bilan kurashish va sanoat chiqindilarini kamaytirish siyosatiga mos tarzda faoliyat yuritishadi.

Bozor ishtirokchilarini fyuchers yoki opsiyon shartnomalari bo'yicha barcha kapital ko'rsatkichlari narxlarining o'zgarishiga ta'sir qilishini ta'minlash uchun ICE Futures Europe derivativlari FTSE, MSCI va Russell indekslarinio'z ichiga oladi. Birjada shuningdek, birjadan tashqari fond birjalari va yagona aksiyadorlik turlarining keng doiradagi savdosi, shuningdek, dividendlarni tartibga solish bo'yicha eng keng tarqalgan qimmatli qog'ozlar fondlari portfeli savdosini amalga oshiradi.

**ICE Futures U.S.** ICE Futures U.S. global iqtisodiyotda risklarni boshqarishga imkon beradigan samarali bozorlarni qo'llab-quvvatlaydi. Xaridorlarning moslashuvchanligiga ko'maklashish hamda daromadlilikini oshirish uchun ishlab chiqilgan savdo va risk boshqaruvi yechimlari jahon miqyosida sotiladigan ichimlik mahsulotlari, Shimoliy Amerika tabiiy gazi va energetikasi, qimmatli qog'ozlar ko'rsatkichlari va valuta ayirboshlash ko'rsatkichlarida turli xil fyuchers shartnomalarni o'z ichiga oladi.

Keng qamrovga ega bo'lgan ICE Futures U.S.ning ichimlik mahsulotlari bozorlari qishloq xo'jaligi sohasidagi yetakchi ishlab chiqaruvchilarga don mahsulotlari ishlab chiqarish, iqlim o'zgarishi hamda talab va taklifning o'zgarishi bilan bog'liq narx riskini boshqarishga imkon yaratadi. Ushbu bozor No.11 shakar, paxta No.2, qahva "S" va kakao kabi global ichimlik mahsulotlarining fyuchers shartnomalariga ega.

Shimoliy Amerika tabiiy gaz va energiya fyuchers va opsiyonlarining tanlov imkoniyatining kengligi bilan birga energetik kompleks Henry Hub tabiiy gazi, ERCOT va PJM energetika markazlari kabi yuzlab shartnomalarni o'z ichiga oladi.

Ekologik risk energiya talab qiladigan tarmoqlar uchun biznes operatsiyalarining tobora muhim tarkibiy qismi bo'lib bormoqda. Ifloslanishni kamaytirish dasturlari asosidagi tovarlar savdosini o'z ichiga olgan derivativlar o'sib borayotgan bozor hisoblanadi. Shu sababli, bugungi kunda ekologik xavfni kamaytirishga yordam beradigan uglerod, kislota yomg'iri va qayta tiklanadigan energiya mahsulotlariga asoslangan fyuchers shartnomalar taklif etiladi.

ICE Futures U.S.da kredit derivativlari sohasidagi innovatsiyalar asosida tartibga solingan fyucherslar bozorida kreditlash uchun sarmoyalashning samarali usuli taklif qilinadi. Kredit derivativlari shartnomalari kredit siyosatining o'zgaruvchan svoplari iqtisodining andozasi bo'lgan Eris MethodologyTM ga asoslanadi.

AQSHning fyucherslar bozorida qimmatbaho metallar sohasida mijozlar talabi asosida bankirlar, zargarlar, konchilar va chakana savdogarlar uchun samarali himoya qilish yo'llari yaratildi.

3.1 – jadval

**2017-yilda qisqa muddatli derivativ shartnomalar sotuvi soni bo'yicha Top-5 birjalar<sup>6</sup>**

Birja nomlari	Soni (mln.)	
	2017	O'sish sur'ati (%)
CME Group	1 031.3	3%
B3 SA Brasil Bolsa Balcao	494.7	28%
ICE Futures Europe	472.9	32%
Australian Securities Exchange	33.8	- 4%
Montréal Exchange (TMX Group)	29.8	10%

<sup>6</sup>World Federation Exchange IOMA 2017 derivatives report, 2018-yil aprel, 20-bet

**2017-yilda Tovar-xomashyo bo‘yicha sotilgan opsiolar va  
fyucherslar soni bo‘yicha top-10 birjalar<sup>7</sup>**

№	Birja nomlari	Soni (mln.)	
		2017	O‘sish sur‘ati (o‘tgan yilgiga n-n %)
1	Shanghai Futures Exchange	1 364.2	-19%
2	CME Group	1 129	6%
3	Dalian Commodity Exchange	1 101.3	-28%
4	Zhengzhou Commodity Exchange	586	-35%
5	Moscow Exchange	491.4	4%
6	ICE Futures Europe	483.5	12%
7	ICE Futures US	284.9	-6%
8	Multi Commodity Exchange of India	198.6	-19%
9	London Metal Exchange	157.4	1%
10	Singapore Exchange	18	6%

Shanxay fyuchers Tovar birjasi dunyodagi eng yirik fyuchers va Tovar birjasi hisoblanadi. Bunga Xitoy iqtisodiyotidagi eksport imkoniyati ham jiddiy ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

<sup>7</sup>World Federation Exchange IOMA 2017 derivatives report, 2018-yil aprel, 28-bet

## *Nazorat savollari*



1. Tovar birjalari faoliyati bo'yicha ilg'or xorij tajribalari.
2. Jahonda eng yuqori ulushga ega tovar birjalari.
3. Tovar birjalarida keng qo'llanilayotgan hosilaviy instrumentlar.
4. Tokio tovar birjasi faoliyat mexanizmi va uning tartibga solinishi.
5. Tokio tovar birjasidagi asosiy savdo seksiyalari va savdolar bo'yicha tendensiyalar.
6. AQSHdagi asosiy tovar birjalari va ularning ixtisoslashuvi.
7. AQSHda tovar birjalarini tartibga solish.
8. Tovar birjalarida qo'llanilayotgan fyuchers va optsiolar turlari.
9. Xitoydagi eng yirik tovar birjalari va ularning ixtisoslashuvi.
10. Xitoyda tovar birjalari faoliyatini tartibga solish.
11. Xitoyda tovar birjalaridagi elektron savdolar va ularning dinamikasi.
12. Yevropadagi eng yirik tovar birjalari va ularning rivojlanish bosqichlari.
13. Yevropada tovar birjalari faoliyatini tartibga solishdagi umumiy o'ziga xosliklar.

---

---

## **IV bob. FOND BIRJALARI VA ULAR FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH FOND BIRJALARI FAOLIYATI NAZARIY VA TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI**

### **4.1. Fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar**

Xalqaro kapital harakati ko'p jihatdan mamlakatlar milliy fond bozorining rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida fond bozorlari orqali investitsiyalarni jalb etishda milliy fond bozorlarining xalqaro tus olishi, globallashuv jarayonlarining jadal-lashuvi, global internet tarmog'iga ulanish va axborotlashtirish tizimi-ning jadal rivojlanishi ta'sirida investitsiyalash obyektlari bo'yicha tez-kor ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish tendensiyalari kuzatilmoqda. Hozirda rivojlangan davlatlarda fond bozori yoki qimmatli qog'ozlar bozorining YaIMdagi salmog'i mamlakatimizdagi ko'rsatkichga nisba-tan sezilarli darajada yuqoridir. Xususan, ushbu ko'rsatkich AQSHda 37 foizni, Germaniyada 31, Frantsiyada 33, Italiyada 32, Yaponiyada 35 foizni tashkil etadi. Shuningdek, Xitoyda 19 foizni, Niderlandiyada 23, J.Koreyada 24, Rossiyada 9, Qozoqistonda 7, Ozarbojyonda 9 foizni tashkil etadi. Bu esa, har bir mamlakatga investitsiyalarni samarali jalb etish uchun milliy fond bozorini rivojlantirishni, axborot oshkoraligi va jozibadorligini sezilarli darajada oshirishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mil-liy fond bozorini shakllantirish va uni kapital harakatining asosi bo'lib xizmat qilishi uchun keng qamrovli ishlar olib borildi. Fond bozorini shakllantirish va rivojlantirishning huquqiy asoslari, infratuzilmasi to'liq yaratildi. Lekin, ta'kidlash lozimki, mamlakat milliy fond bozori bugun-gi kunda pul resurslarini taqsimlash va qayta taqsimlashdek, ya'ni investitsiyalarni samarali jalb etishdek muhim vazifasini to'liq uddalay olmayapti. Shuning uchun ham milliy fond bozorini rivojlantirish bu-gungi kundagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda



jamiyatning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida qabul qilingan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizda moliya bozorini o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish, ya'ni mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berilga<sup>8</sup>. Mazkur vazifalarning bajarilishi O'zbekistonda fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Hozirda jahon fond bozorlari jadal sur'atlarda kengayib borayotgan bir paytda fond bozori orqali investitsiyalarni jalb qilishda, qimmatli qog'ozlar bozorida zamonaviy moliyaviy vositalarni ishlab chiqish, investitsion faoliyatni qimmatli qog'ozlar hisobiga moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlari fond bozori va birja savdolarining asosiy ishtirokchisi bo'lib, ular faoliyatining barqarorligi, o'z navbatida, fond bozorining samaradorligini oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etishi asoslangan.

Jumladan, 2017-yilning 1-yanvar holatiga mamlakatimizda 650 dan ortiq aksiyadorlik jamiyatlari mavjud bo'lib, ularning atigi 196 tasi (30 foizdan ortig'i) tegishli talablarni bajarganligi uchun fond birjasi listingiga kiritilganligi qayd etilgan. Ularning 454 dan ortig'i (70 foizi) esa talablarni bajarmaganligi uchun listingga kiritilmaganligi asoslab berilgan.

Jahon amaliyotida yetakchi fond birjalari o'z indekslarini shakllantirgunga qadar listingga kiritish uchun aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan "yumshoq" talablar (Soft Policy) belgilangan bo'lib, listingga kiritish jarayonlari nihoyatda sodda bo'lgan. Bu esa, fond bozorida listingga kirgan kompaniyalar sonining va ulardagi qimmatli qog'ozlari jozibadorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan. O'zbekistonda esa fond bozori indeksi jozibadorligi juda past bo'lishiga qaramasdan listing talablari juda murakkab bo'lib, aksiyadorlik jamiyatlari birja savdolarida ishtirok etishdan manfaatdor emas. Xususan, listing talablari ichida ustav kapitali miqdoriga va rentabellikka bo'lgan talab hamda listingga kirgandan keyingi tashkiliy-idoraviy talablar (hisobot taqdim etish, prospektni nashr etib borish, veb-saytni muntazam ravishda yangilab

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi PF-4947-sonli Farmoni // Xalq so'zi. 2017 yil 7 fevral.

borish va h.k.) ularning fond bozorida faoliyat yuritishiga salbiy ta'sir qilayotganligi nazariy-uslubiy va amaliy jihatdan isbotlab berilgan.

Hozirgi sharoitda iqtisodiyot nafaqat institutsional investorlar, balki xususiy investorlar faoliyati uchun ham qulay shart-sharoitlar yaratishni taqozo qiladi. Ayni paytda milliy fond bozorida xususiy investorlarning turli toifalari uchun fond bozorining bir nechta asosiy vositalari mavjud.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida nazariy manbalar tahlilini amalga oshirish jarayonida investitsiya kiritishning usullari va ular bo'yicha qarorlar qabul qilishni bir tizimga keltirishga muvaffaq bo'lindi. Shuningdek, fond bozori orqali investitsion faoliyat yuritishning asosiy usullari tarkibini kengaytirish imkonini berdi va ularning tavsifi quyidagi jadvalda keltirildi.

Fond bozori tahlili shubhasiz u haqida va mamlakat iqtisodiyotida bajaradigan funksiyalarining kvint essensiyali tasavvurga tayanmog'i lozim. Ta'kidlash joizki, xalqaro amaliyotda "fond bozori"ga nisbatan berilgan ilmiy ta'riflar borasida turlicha talqinlar mavjud bo'lib, ular birbiridan farqlanadi va yagona yondashuvni tashkil etmaydi. Shu sababli, fond va qimmatli qog'ozlar bozorlari borasida iqtisodchi olimlar o'rtasida bahsli masalalar hanuzgacha davom etayotgan bo'lsa-da, xorijlik iqtisodchi olimlarning bergan ilmiy ta'riflari va fikrlari ham qiziqarli bo'lib, ularning ayrimlarini tadqiq etishni lozim topdik.

Jumladan, xorijlik iqtisodchi olimlardan Raymon Barr fond bozoriga quyidagicha ta'rif beradi. "Fond bozori texnik institut sifatida bo'sh pul mablag'larini qayta taqsimlash funksiyasini bajaradi, mulk huquqiga baho beradi, risklarni qayta taqsimlaydi, ishchi aylanmasida ishtirokchilar o'rtasida ma'lumotlarni qayta taqsimlaydi. Shu bois fond bozori deyilganda jamg'armalarni yig'uvchi va bir joyga jamlovchi uzoq muddatli bo'sh turgan kapitallar bozori tushuniladi. Ushbu mablag'lar uzoq muddatga immobilizatsiyada bo'luvchi tarmoqlarga yo'naltiriladi"<sup>9</sup>.

Xususan, xorijlik zamonaviy va taniqli iqtisodchi olimlardan biri Gregori Menkyu bu borada shunday ta'rif beradi. "Ko'p hollarda fond bozoriga oid shunday ta'rif tez-tez uchraydi, ya'ni u xohlovchi shaxslarga jamg'arma qilish, aksiya va obligatsiya bozorida o'z mablag'larini qarzdorlarga berish imkonini beruvchi moliyaviy muassasalar yig'indisidir"<sup>10</sup>.

<sup>9</sup> Barr P. Политическая экономия. Т.-М. Международные отношения, 1995, С.319.

<sup>10</sup> М. Грегори. Принципы экономикс. – СПб.: Питер Кем., 1999, С.538.

**Fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirishning  
zamonaviy usullari<sup>11</sup>**

<b>T/r</b>	<b>Usullar</b>	<b>Daromad manbai, afzalliklari va kamchiliklari</b>
1	Nofaol usul	Uzoq muddatli istiqbolda fond bozori o'suvchi tavsifga ega bo'ladi. Bu strategiya uzoq muddatli investitsiyalarga mo'ljallangan bo'lib, oraliq muddat kamida 3 yilni tashkil qiladi. Qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investitsiyaning daromadlilik darajasi qimmatli qog'ozlarga egalik qilish davrida qimmatli qog'ozlarning bozor qiymatining o'sishi yoki to'langan dividend asosida shakllanadi.
2	Faol usul	Bozordagi qisqa muddatli tebranishlar bo'lganda investorlar kunlik, haftalik, oylik birja savdolarida faol ishtirok etadi. Bu strategiya yuqori daromad olish imkonini berish bilan bir qatorda yuqori riskni ham yuzaga kelishi mumkinligini nazarda tutadi.
2.1	Vaziyatli usul	Bozordagi noaniqlik ta'sirida emitentning aksiyasini noaniq narxda baholanganda yoki bozor ishtirokchilarining fe'l-atvoriga bog'liq vaziyatlarda qo'llaniladi. Afzalliklari: strategiyaning daromadlilik darajasi etalon indeksi bilan kichik korrelatsiyaga ega. Kamchiliklari: operatsiyalarni amalga oshirishda yuqori xarajatlarning mavjudligi, risk darajasining noaniqligi, sinergetik samarani o'lchashda ishonchli modelning mavjud emasligi.
2.2	Nisbiy qiymat usuli	Narx anomaliyasini kutish, nizoli holatlardan foydalanish, bozor riskini inobatga olmaslik bilan tavsiflanadi. Afzalliklari: texnologiyaga tayanganlik va ilmiy asoslanganlik. Kamchiliklari: strategiya asosidagi modellarni tanlab olishda sezuvchanligi.
2.3	Bozorni xedjirlash usuli	Asosiy aktivlar daromadlilikidan strategiya daromadlilikining ajratib qo'yilishi. Afzalliklari: boshqa istalgan strategiyalarga oson moslashishi. Kamchiliklari: riskni inkor etish imkoniyatining yo'qligi.
2.4	Spekulyativ usul	Hosilaviy vositalarga investitsiya qilish aksiyalar uchun ham strategiya sifatida qaralishi mumkin. Shunday strategiyalar uchun daromad manbai – bozorda o'zgaruvchanlikning ortishi, qisqa muddatli tushish va oshishlarda yuzaga keladi. Afzalliklari: texnik tahlilni qo'llash imkoniyati mavjudligi, narxning shakllanishi, bozor xulqi, xaos nazariyalariga bo'ysunishi. Kamchiliklari: inson omiliga yuqori darajada bog'liqligi.

<sup>11</sup> Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

Xorijlik zamonaviy va taniqli iqtisodchi olimlar K.R.Makkonnell va S.L.Bryu fond bozoriga shunday ta'rif beradilar. "Fond bozori - kapital mablag'larini tavsiya etuvchi va sotib oluvchilarni bir joyga jamlovchi institutdir"<sup>12</sup>. Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, mamlakat moliya tizimining tarkibiy qismi sifatida fond bozori bir qator iqtisodchilarning ilmiy ishlarida bo'sh pul mablag'larining harakatini ta'minlovchi mexanizm sifatida qaraladi. U qarz oluvchiga kapital mablag'larni sotib olish uchun mablag'larni jalb qilish imkonini beradi.

Iqtisodiy lug'at va adabiyotlarda ko'p hollarda "qimmatli qog'ozlar bozori" va "fond bozori" tushunchalari qo'llaniladi. Ayrim iqtisodchilar fond bozori bu qimmatli qog'ozlarning birja bozori deb hisoblaydi. Xususan, yana bir xorijlik iqtisodchi olim E.F.Jukov "Hozirgi vaqtda iqtisodiyotni moliyalashtirishda uch turdagi qimmatli qog'ozlar bozori, yani birjadan tashqari, fond (birja) va ko'chadagi bozorlar faoliyat yuritadi" deb ta'kidlaydi.<sup>7</sup>

Boshqa bir guruh xorijlik iqtisodchilar, xususan L.M.Mirkin qimmatli qog'ozlar bozori va fond bozorlari tushunchalarini bir xil tushuncha deb hisoblaydi<sup>8</sup>. Agar haqiqatda birjadan tashqari, birja va ko'cha bozorlarida ham bir xil tovarlar, yani "fond qimmatliklari" deb shakllangan tovarlar oldi-sotdisi amalga oshirilgan ekan bu ikki tushunchaning bir xil ma'noga ega ekanligini tasdiqlashimiz mumkin.

Investitsion faoliyatni fond bozori orqali moliyalashtirishning nazariy asoslarini Dj.Sigel asarida "har qanday korxonaning aksiyaga qiladigan investitsiya xalqaro bozorni qamrab olishi zarur. Agar korxonani aksiyasi jozibador bo'lmasa, uning kelajagiga investitsiya qilish samara bermaydi"- deb xulosa beradi.<sup>9</sup> Olimning fikricha, kompaniyalar aksiyalarining jozibadorligi yuqori bo'lmasa, unga investitsiya qilish samara bermaydi, deb buning asosida aksiyalarni baholashda haqiqiy sifatiga e'tibor berishni nazarda tutadi. G.I.Prosvetov fikricha, "investitsiyalarni jalb etishda uning maqsadi aniq bo'lishi va uning natijasida aniq daromadga ega bo'lishi zarur"- deb ta'kidlaydi.<sup>10</sup> Korxonalar va tashkilotlarni aksiyalari orqali investitsiyalarni jalb etish, ularning to'liq buxgalteriya balansini tahlili asosida amalga oshirish zarurligini taklif etadi. A.I.Zimin ilmiy tadqiqotlarida qimmatli qog'ozlar orqali investit-

<sup>12</sup> Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс. - М: Инфра М, 2003, С.62.

<sup>7</sup> Жукова Е.Ф. Рынок ценных бумаг /Под редакция -М: Юнити, 2003-с76.

<sup>8</sup> Миркин Я.М. Ценные бумаги и фондовый рынок.-М:Перспектива,1998-с.100.

<sup>9</sup> Сигел Дж. Долгосрочные инвестиции в акции. Стратегии с высоким доходом и надёжностью. к-е.изд.-СПБ,2010-416с.

<sup>10</sup> Просветов Г.И. Инвестиции.-М.: Альора-Пресс. 2009-408 с.

siyalarni jalb etishda ikkita tahlilni olib borish zarurligini keltirib o'tadi: fundamental va texnik tahlil. Ushbu tahlillar mamlakat iqtisodiyotini to'liq baholab, uning fond bozorini to'g'ri tahlil qilish imkonini berishini ta'kidlaydi.

Respublikamiz olimlaridan D.G'.G'ozibekov tomonidan, investitsiyalarning moliyalashtirishning turli manbalar tuzilmasini optimalashtirish yo'li bilan ta'minlash, davlat sektorida tarmoqlararo proporsiyalarni nazorat qilish g'oyat muhim masaladir, deb ta'kidlaniladi. Olimning fikricha, iqtisodiyot subyektlarining o'z mablag'lari, maxsus fondlar, bank-kredit institutlari va mintaqalar resurslari hisobiga ko'chirish zarur, deb hisoblaydi.<sup>11</sup> Olimning fikricha, turli manbalarni oqilonashtirish tuzilmasi orqali fond bozoriga ham e'tibor berish zarurligi qisman keltirib o'tiladi. A.V.Vaxabov asarida investitsiya resurslarini samarali taqsimlanishini nazorat qilishning asosiy mexanizmi – bu fond birjasidir. Aynan rivojlangan qimmatli qog'ozlar bozori ushbu modelni muvaffaqiyatli amalga oshirishning zarur sharti hisoblanadi deb ta'kidlanadi.<sup>12</sup> Demak, rivojlangan qimmatli qog'ozlar bozori investitsiyalarni jalb etishni muhim vositasi bo'lishi mumkinligi ilgari suriladi. Fond bozorida tashkilotlarning passiv ravishda ishtirok etishini bir nechta omillar bilan baholaydi: birinchidan, birlamchi bozorda strategik ahamiyatga ega tashkilotlarning jalb etilmasligi, ikkinchidan, aksiyadorlik tashkilotlari aksiyalari ulushida davlatning ulushi yuqoriligi, uchinchidan ikkilamchi bozorda aksiyalarning likvidli emasligi. Yuqoridagi omillarning to'liq echimi topilmas ekan fond bozori orqali investitsiyalarni jalb yetish pastligicha qolaveradi.

Yuqoridagi nazariy qarashlardan xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirish bir nechta omillarni o'zida qamrab olishi orqali amalga oshiriladi. Fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirish bozorda ishtirok etuvchi korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy samaradorligini o'sishi evaziga aksiyalarning investitsion jozibadorligiga erishish orqali amalga oshiriladi. Ushbu ta'rifda keltirilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy samaradorlikka erishishi bevosita mamlakatning makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy ko'rsatkichlarini qamrab oladi. Ularning aksiyalarini investitsion jozibadorligiga erishishi fond bozorida chet el investitsiyalarini kirib kelishiga, bozorda shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

<sup>11</sup> G'ozibekov D. G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. -T.: "Moliya" 2003.-332b0.(122-124b.).

<sup>12</sup> Vaxabov A.V. va boshqalar. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. -T.: "Moliya" 2010.-328 b.(152b.).

Ushbu yondashuvlar bilan fond bozorining mohiyatiga oid ta'riflar chegaralanmaydi. Bozorning ushbu turi bozor iqtisodiyotining muayyan rivojlanish davrida pul muomalasining yangi shakliga bo'lgan talabning yuzaga kelishi bilan paydo bo'ldi.

Bizning fikrimizcha ham fond bozorini yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish, oldi-sotdisini tashkil etish va uni qoplanishi bilan bog'liq munosabatlar tizimi sifatida qarashimiz lozim. Bozor iqtisodiyoti qimmatli qog'ozlar muomalasini rivojlantirmasdan amal qilishi mumkin emas.

Ta'kidlash joizki, zamonaviy iqtisodiy adabiyotda "qimmatli qog'ozlar bozori" va "fond bozori" tushunchalarining bir xil ahamiyatga ega ekanligi xususida hanuzgacha bahsli munozaralar davom etmoqda. Qimmatli qog'ozlar borasida o'ta obro'li xorijlik mutaxassislardan biri professor Ya.M.Mirkin fond bozori va qimmatli qog'ozlar bozori tushunchalari bir-biriga mos keladi, deb hisoblaydi<sup>13</sup>. Shunga qaramasdan, ayrim olimlar prinsipial jihatdan ushbu tushunchalarni bir vaqtning o'zida qo'llashdan qochadilar. Odatda ular, ilmiy ishlarida qoida tariqasida yo "qimmatli qog'ozlar bozori" yoki "fond bozori" lug'atini qo'llaydilar. Amalda hech bir muallif nima uchun fond bozorida "qimmatli qog'ozlar bozori" lug'atini qo'llash mumkinligini bevosita tushuntirib bermagan.

Umuman, xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida fond bozori korporatsiyalarning qimmatli qog'ozlar bozori, degan fikr uchraydi. Bunda asosiy fikr sifatida Hukumat tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar aksiyalar emas, balki qarz majburiyatlari bo'lib, korporatsiya-ni kapitalida aksiyadorning ulushini ifoda etadi<sup>14</sup>.

O'z navbatida, qimmatli qog'ozlar tovarlar bozorida ham, pul bozorlarida ham muomalada bo'lib, pirovard natijada (tovar va fond bozorlarida) qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil etadi<sup>15</sup>. Shunday qilib, mazkur ta'rifdan kelib chiqadiki, fond bozori qimmatli qog'ozlar bozorining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu bozorda o'ziga xos maxsus tovar – moliyaviy qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdi bitimlari amalga oshiriladi. Bizning nazarimizda, ushbu ta'rif fond bozori mazmunini batafsil ocha oladigan eng to'g'ri ta'riflardan biri hisoblanadi. Ko'pchilik mutaxassislar va iqtisodchi olimlar ham mazkur fikrning tarafdori hisoblanadilar. Jumladan, ularning fikricha, qimmatli qog'ozlar bozori – fond bozoriga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, ular o'z ichiga hamma qimmatli

<sup>13</sup> Миркин Я.М., Институциональные и региональные измерение рынка. Рынок ценных бумаг, 2001, №5, С.100.

<sup>14</sup> Тьюлз Дж., Брэдли Э.С., Тьюлз Т. Фондовый рынок. М. ИНФРА-М, 1999, С.16.

<sup>15</sup> Дозоров А., Чем торгуют на фондовом рынке, сайт компании «БКС» [www.bcs.ru](http://www.bcs.ru)

qog'ozlarni olmasdan, balki faqat fond qimmatliklarini, ya'ni investitsion qimmatli qog'ozlarni o'z ichiga qamrab oladi<sup>16</sup>. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, fond bozori korporativ moliyalashtirishda foydalaniladigan aksiyalar va obligatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan qimmatli qog'ozlarni hamda investitsion fondlarning qimmatli qog'ozlarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, rasman qimmatli qog'ozlar bo'lmas-da, qimmatli qog'ozlarga fyucherslar va opsiyonlar hamda fond indeklari kabi hosilaviy moliyaviy instrumentlarni kiritishadi. Ammo shuni ta'kidlash joizki, fond bozori moliya bozorining tarkibiy elementi sifatida moliya bozorining boshqa segmentlari holatiga sezilarli darajada ta'sir etadi.

Odatda fond bozorini moliyaviy bozorning elementi sifatida qarashadi. Shu sababli, "moliya bozori" va "fond bozori" kategoriyalarining nisbatini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Odatda olimlar<sup>17</sup> moliya bozori tarkibida quyidagi elementlarni: pul bozori va moliya kapitali bozorini alohida ajratib ko'rsatadilar. Moliya kapitali bozorida uzoq muddatli jamg'armalar aylanadi. Pul bozorida esa naqd instrumentlarga birlashib ketgan mablag'lar, ya'ni naqd pullar va qisqa muddatli ssudalar aylandi. Ta'kidlash joizki, zamonaviy moliya tizimi kredit mexanizmiga asoslangan tarkibdan tashkil topgan. Oltindan boshqa barcha moliyaviy instrumentlar kimlarningdir majburiyati hisoblanadi. Ular mos holda tegishli bozorlarda aylanadi, xususan aksiyador jamiyatlarida, banklarda va davlatda muomalada bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, moliya bozorining barcha segmentlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, birgalikda harakatda bo'ladi. Masalan, qimmatli qog'ozlar bozori ham pul bozoridan va moliyaviy kapital bozoridan iborat bo'lib, pul bozorida muomala muddati bir yilgacha bo'lgan qimmatli qog'ozlarni o'z ichiga oladi va moliyaviy kapital bozoridagi muomala muddati bir yildan ortiq bo'lgan qimmatli qog'ozlarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, qimmatli qog'ozlar bozori bir vaqtning o'zida pul bozorining va kapital bozorining bir qismi hisoblanadi.

O'z navbatida, xulosa qilish mumkinki, fond bozori moliya bozorining segmenti va davlat iqtisodiy siyosatining infratuzilmali elementi hisoblanadi hamda u mablag'larni jamlash va taqsimlash orqali turli xil makroiqtisodiy muammolarni hal etish imkonini beradi.

Fond bozori moliya bozorining organik segmenti sifatida mamlakat iqtisodiy siyosatida katta rol o'ynashi mumkin. U davlat tomonidan

<sup>16</sup> Бакунин М., Соотношение фондового рынка и рынка ценных бумаг. М.: Хозяйство и право. -1996, №5, С.111-112.

<sup>17</sup> Пурган А.Н., Фондовый рынок в системе макроэкономической стабилизации. С.33.

bajariladigan quyidagi funksiyalarga qulay shart-sharoitlar yaratishi mumkin: ayrim sektorlar va iqtisodiyot tarmoqlariga ustuvor darajada investitsiyalarni yo'naltirishda aniqlashga yordam berishi va yagona iqtisodiy makonni shakllantirishni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirish va rivojlantirish zaruriyati bo'lmagan ayrim tarmoqlarini cheklash; xo'jalik yurituvchi subyektlar va investorlar o'rtasida iqtisodiy va investitsiyaviy risklarni taqsimlash va kamaytirish.

Bundan tashqari, fond bozori davlat yo'nalishida bir vaqtning o'zida bozor g'oyasini tashuvchisi ham bo'la olmaydi. Bu bilan u iqtisodiyotni keng qamrovli erkinlashuvini nazarda tutadi, xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholi jamg'armalarining kapitallashuvini ta'minlashga qodir bo'lgan ijtimoiy institut sifatida yuzaga chiqishi mumkin.

Samarali faoliyat yurituvchi modelda fond bozori "akselator tamoyili" deb nomlanadigan tamoyil orqali iqtisodiy o'sish bilan uzviy bog'liqdir. Uning mohiyati shunda ko'rinadiki, YaIM va ishlab chiqarish hajmlarining o'sishi fond bozorining o'sishiga olib keladi. O'z navbatida, aksiya bozor bahosining va kapitallashuvining o'sishi kompaniya uchun qo'shimcha mablag'larni aksiya chiqarish va kredit olish shaklida jalb qilishga imkon beradi. Bu holatda YaIM va ishlab chiqarish hajmi qo'shimcha ravishda o'sishi kuzatiladi, bu holat olingan mablag'lar real investitsiyalarga aylanganda, ya'ni ular asosiy vositalarni sotib olishga va aylanma kapitalni to'ldirishga sarflangan sharoitda yuz beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, fond bozoriga universal yondashuv ham yo'q va uning talqini bo'yicha ideal yondashuv ham yo'q. Lekin, birinchidan, universal tushunchalarning ma'lum bir to'plamini olish mumkin. Ular iqtisodiy modelga bog'liq bo'magan holda fond bozoriga va uning faoliyatiga ushbu bozor doirasida tavsif beradi. Ikkinchidan, aniq iqtisodiy tizim uchun fond bozorining eng universal modelini ajratib olish mumkin.

Universal tushunchalarning oqilona tanlovini kengroq ko'rgazma sifatida va soddaroq tahlilini biz fond bozorining samarali faoliyat ko'rsatuvchi modelini aniqlashimiz mumkin. Birinchi navbatda, samarali faoliyat ko'rsatuvchi fond bozori (SFKFB) tushunchasini aniqlab olish zarur va uni baholashning tayanch mezonlarini baholash kerak. So'ngra shunday tushuntirish kerakki, qanday qilib ushbu mezonlar mamlakatdagi iqtisodiy holatni davlatning iqtisodiy siyosatini yuritishda yordam beradi va fond bozorining umuman iqtisodiyotdagi rolini qayd etishni inobatga olishi lozim.



Tadqiqotning qulayligi uchun oqilona tavsiflarga ega bo'lgan fond bozorining modelini ishlab chiqish zarur. Keyinchalik modelni davlatning iqtisodiy siyosati doirasida u yoki bu iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish nuqtayi-nazaridan foydalanish mumkin. Samarali faoliyat ko'rsatuvchi fond bozori deganda, biz nisbatan oqilona tamal mezonlarga ega bo'lgan fond bozorini tushunamiz. Davlat o'z iqtisodiy siyosatini amalga oshira olishi uchun samarali faoliyat ko'rsatuvchi fond bozorining zarur bo'lgan asosiy mezonlarni keltirib o'tishimiz mumkin. Ular quyidagilar: kapitallashuv, likvidlilik, barqarorlik va aholini jalb qilaolishlik, xorijiy bozorlardan mustaqil bo'lishi va axborot maydoni.

#### 1. Bozorning kapitallashuvi.

An'analarga ko'ra, bozor sig'imining asosiy ko'rsatkichi sifatida bozor kapitallashuvi ko'rsatkichi foydalaniladi. Fond bozori sig'imining yuqoriligi muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayotgan fond bozorida dalolat beradi va mamlakat iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda real rolni o'ynashga qodir bo'lgan mamlakatning "sifatli" fond bozoriga ega bo'lgan xususiyati hisoblanadi. Bu esa, shunday omil bilan ifodalanadi-ki, hayot darajasi yuqori rivojlangan moliya bozoriga ega bo'lgan va iqtisodiyotning samaradorligi yuqori bo'lgan mamlakatlarda fond bozori yuqori sig'imlilik bilan alohida ajralib turadi. Ya'ni mamlakatning "sifatli" fond bozoriga ega bo'lishining zaururiy xususiyati bu fond bozorining yuqori darajadagi sig'imlilikidir. Boshqa bir tomondan qaraganda, fond bozorining yuqori darajadagi sig'imlilik fond bozorining ideal modelini shakllantirish parametrlariga erishishga shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, umuman fond bozorining ideal modeliga ega bo'lish hisoblanadi<sup>18</sup>. Faqat shu holatda fond bozori davlat iqtisodiy siyosatida etakchi rol o'ynashi imkoniga ega bo'ladi. Ta'kidlash joizki, fond bozori faoliyati samaradorligining mezoni fond bozori milliy kapitallashuvini maksimal darajasi hisoblanmaydi, balki ularning keskin pasayishlarsiz samarali va barqaror o'sishi, uzoq muddatli istiqbolda esa fond bozorining yanada rivojlanishini ta'minlash hisoblanadi. Fond bozori milliy uyushma ishtirokchilari (FBMUI)ning tadqiqotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha fond bozori rivojlanishining o'rtacha me'yorlari YaIM real o'sishi bilan fond bozori kapitallashuvining o'zaro bog'liqliligi bilan aniqlanadi. Bunda fond bozorining o'rtacha yillik 2-3 foizga o'sishi va YaIMning o'rtacha yillik 1 foizga o'sishiga to'g'ri kelishi tadqiq etilgan. Bu esa, amalda shundan dalolat beradiki, bir tomondan fond bozori kapital-

<sup>18</sup> Российский фондовый рынок и создание международного финансового центра, НАУФОРМ 2008, С.57.

lashuvining dinamikasi YaIMning o'sishidan farqlanishi kamayadi, ikkinchi tomondan kapitallashuv dinamikasining barqarorligini haddan tashqari o'sishini anglatadi. Buning zarurligi kapitalning maksimal darajada o'sishini ta'minlashda emas, balki mavjud cheklovlarni hisobga olgan holda milliy kapitallashuv hajmini oqilonalastirishdir.

## 2. Bozorning likvidiligi.

Shubhasizki, fond bozori rivojlanishining muhim tavsifi va ko'rsatkichlari uning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi roli, raqobatligi bu likvidlikdir. Xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida<sup>19</sup> ko'rish mumkinki, likvidlik korrelyatsion aloqalar va regression bog'liqlikning eng barqaror ko'rsatkichi hisoblanadi. U makroiqtisodiy rivojlanishni, xususan investorlar manfaatini himoya qilishni, qonunchilik boshqaruvi rivojlanganligini ifoda etadi.

Likvidlik hatto u chayqovchilik operatsiyalari yo'li bilan erishilganda, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida va fond bozorining o'sishida namoyon bo'ladi. Likvidlikni ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar quyidagilar: savdo hajmining mamlakat YaIMga nisbati, bozor kapitallashuvining va savdo hajmining nisbati, bozordagi amalga oshirilgan bitimlar soni, o'rtacha tortilgan spread (foyda) va bozorning kengligidir.

Shuningdek, bozorning likvidligi, fond bozorini jahon miqyosida baholash imkonini beradi. Agar, biz fond bozori raqobatbardoshligining bosh tavsifi va shart-sharoitlarini yaratishni likvidlik desak, xulosa qilish mumkinki, ushbu ko'rsatkich jahon birja bitimlari hajmida fond bozorining raqobatbardoshligining mezoni sifatida xizmat qiladi.

## 3. Milliy iqtisodiyot yo'naltirilgan fond bozori faoliyatining asosi.

Ushbu omil ham likvidlik bilan uzviy bog'liqdir. Davlat iqtisodiy siyosatining vazifalaridan biri - milliy iqtisodiyotning o'sishi va rivojlanishini ta'minlash. AQSH va boshqa rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, fond bozori mablag'larni jamlash va ularga muhtoj bo'lgan tarmoqlarga qayta taqsimlash instrumenti hisoblanadi. O'zbekiston iqtisodiyotiga xos bo'lgan xususiyat bu aksiyalarga investitsiya qiladigan aholining fond bozoriga ishtiroki ululshining o'ta pastligidir. Bu esa, fond bozorining investitsion bazasini keskin kamaytiradi, bozor likvidligini va bitimlar soni o'sish sur'atlarini kamayishiga olib keladi va uning iqtisodiyotdagi rolini pasaytiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, uzoq muddatli istiqbolda aynan nodavlat xususiy investorlarning aksiyalarga

<sup>19</sup> Levine R. Zervos S. Stock market, Banks, and Economics growth.//The American economic Review, 1998, Vol.88. P.537-558.

qilayotgan investitsiyalari ulushining o'sishi aksiyalar barqarorligi o'sishining muhim zaxirasi hisoblanadi va samarali iqtisodiy siyosatning elementi sifatida mavqeining o'sishiga olib keladi.

Xususiy investorlarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarga ishtirok etishi ikki xil shaklda bo'lishi mumkin:

- qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarda bevosita ishtirok etish;

- investitsiya va pensiya jamg'armalarida ishtirok etish.

Ushbu shakllardagi operatsiyalar Fransiyada keng tarqalgan. Rivojlanayotgan davlatlardan esa Gonkong, Braziliya va Hindistonda mazkur operatsiyalar qo'llaniladi. Undan tashqari, kichik investorlarga xizmat ko'rsatadigan brokerlik xizmatlari yuqori ulushga ega bo'lgan mamlakatlar ham mavjud. Bunday rivojlangan moliya bozoriga ega bo'lgan davlatlardan AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, rivojlanayotgan davlatlardan Koreya, Xitoy va Tayvanni misol qilib keltirish mumkin<sup>20</sup>.

Investitsiyalarni u yoki bu shakllarda tashkil etish mamlakatning rivojlanish xususiyatlariga, tarixiga va madaniyatiga hamda boshqa ko'plab omillrga bog'liq bo'lishi mumkin. Amaliyot ko'rsatadiki, aynan investitsiya jarayonlariga aholining faol ishtirok etishi yuqorida qayd etilgan mezonlarga to'liq mos keladi. Bunda fond bozori iqtisodiy siyosatning asosiy elementi sifatidagi rolini o'ynash imkonini beradi.

4. Jahon moliya bozorlarining konyunkturasiga nisbatan bog'liqlikni pasaytirish<sup>21</sup>.

Jahon bozorining globallashuvi sharoitida shubhasiz iqtisodiy siyosatning to'liq amalga oshishi xususida gapirish mumkin emas. Faqat kuchli, mustaqil va likvidli fond bozorigina davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishning kuchli instrumenti bo'la olishi mumkin.

5. Axborot maydoni.

Faol tarzda faoliyat ko'rsatadigan fond bozori faoliyatini tashkil etish uchun nafaqat infrastrukturani yaratish, balki axborot maydonini ham yaratib qo'yish kerak. Axborot maydonini tashkil etish deganda, emitentlar holatining tahlili, O'zbekistondagi korxonalar tahlili, hududlar va fond bozorlarining ham moliyaviy holati, ham korxonalarining investitsion jozibadorligi tushuniladi.

<sup>20</sup> Идеальная модель финансового рынка России на среднесрочную перспективу. Дискуссионный материал., М., НАУФОР, 2006, С.84.

<sup>21</sup> Доклад ФСФР Росси "Омерах по совершенствованию и регулирование рнка ценных бумаг на 2008-2012 и долгосрочную перспективу., М., НАУФОР, 2006, С.84.

O'zbekistonda axborotlarning ochiqligi talab darajasida rivojlanmagan. U bir qancha omillar bilan izohlanadi. Xususan, kompaniyalarning axborot ochiqligi darajasi, xususiy investorlarning ma'lumoti va axborotlar bilan ta'minlanganligi.

Samarali faoliyat ko'rsatayotgan fond bozori uchun talab etiladigan axborotlarning ochiqligi xalqaro andozalarga mos kelishi lozim. Shu sababli mulk tarkibining ochiqligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni yuritish kerak. Bu nafaqat ichki investorlar uchun, balki xorijiy investorlar uchun ham kerak. Axborotlarning ochiqligi esa ishonchlilikning o'ziga xos ko'rsatkichi hisoblanadi.

Ushbu murakkab vazifani hal qilmasdan turib, investorlarning ishonchini oshirish va zurur investitsion mablag'larning oqimi to'g'risida gapirish juda murakkabdir.

Xulosa qilish mumkinki, yuqorida biz xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar va mutaxassislarining fond bozoriga va qimmatli qog'ozlar bozoriga oid ilmiy ta'riflarini tahlil qilib chiqdik. Ularga nisbatan o'z tanqidiy fikr-mulohazalarimizni bayon etdik. Ularning ta'riflari bir-biridan farq qilishi bilan birga bahsli munozalarni ham keltirib chiqaradi.

Xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ta'riflaridan farqli o'laroq, biz fond bozoriga quyidagicha ta'rif beramiz: Fond bozori – iqtisodiy institut bo'lib, qimmatli qog'ozlar bozorining tarkibiy qismi hisoblanadi va unda moliyaviy aktivlar ko'rinishidagi maxsus tovarlar, ya'ni qimmatli qog'ozlar investitsiya maqsadlarida sotiladi.

O'z navbatida, mazkur ta'rif fond bozorining qanday bozorligini yaqqol ko'rsatib beradi. Ko'pchilik iqtisodchi olimlar ham qimmatli qog'ozlar bozori fond bozoriga nisbatan keng tushunchaligini e'tirof etadi. Chunki, fond bozorida barcha qimmatli qog'ozlar emas, balki faqatgina fond qimmatliklari, ya'ni investitsion qog'ozlar oldi-sotdi qilinadi.

Har bir mamlakat iqtisodiyotida o'zaro mutanosiblikni, barqaror rivojlanish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda hukumat bank-moliya tizimi orqali fond bozorida hamda investitsiyalardan faol foydalanadi. Shuningdek, fond bozori va investitsiyalar davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor maqsadlariga erishishda qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Ammo, ayni paytda dunyo iqtisodiyotida o'z yechimini to'liq topmagan ishsizlik darajasi, to'lov balansi, budjet taqchilligi va tashqi qarzlarning o'sishi kabi makroiqtisodiy muammolar saqlanib qolmoqda. Ushbu jiddiy muammolarni bartaraf etishda dunyo iqtisodiyotida makro-

iqtisodiy siyosat bilan birga fond bozori va investitsiyalar samaradorligini keskin oshirish taqozo etiladi.

Fond bozori va investitsiyalar davlatning ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, iste'mol, jamg'arish, eksport va import sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarida muhim rol o'ynaydi. Fond bozorida jamlangan mablag'lar davlatning institutsional, tarkibiy, investitsiyaviy, fiskal, pul-kredit, iqtisodiy, ijtimoiy, tashqi iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy yo'nalishlaridagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda keng foydalaniladi.

#### **4.2. Fond bozori orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy kontsepsiyalari va uni jadallashtirish omillari**

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida bugungi kunda "fond bozori" tushunchasi mohiyatan moliyaviy kategoriya sifatida qaralsa-da, ahamiyat jihatidan jahon iqtisodiyotining barqarorligiga bevosita ta'sir qiluvchi omillardan biri ekanligi asoslab berilgan.

O'z navbatida, 1998-yilda ro'y bergan Osiyo inqirozi haqida xorijlik iqtisodchi olimlar o'z fikrlarini bayon eta turib, "sovuq urush endi qurollar bilan emas, balki kapitallar orqali olib borilmoqda. Endi kim qaysi davlatga harbiy uskunarini o'rnatgani qo'rqinchli emas, balki, kimning korporatsiyasi qaysi mamlakat iqtisodiyotiga o'rnashib olayotgani g'alabadir"<sup>22</sup> deb, aynan fond bozorining zamonaviy iqtisodiy tizimdagi ahamiyatiga urg'u berishgan.

Jahon iqtisodiyotida yuz bergan global inqiroz va uning barcha sohani qamrab olgan uzoq muddatli asoratlari aynan fond bozori faoliyatidan kelib chiqqani ham bejizga emas. Darvoqe, fond bozori taraqqiy etgan va jadal rivojlanayotgan davlatlarda "kapital akkumulyatori" vazifasini bajarmoqda, aholi va korxonalarining vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini fond bozoriga keng jalb qilish orqali harakatsiz aktivlarni investitsiyaga aylantirmoqda.

Xalqaro amaliyotda fond bozorlarida keng qo'llanilayotgan yangi innovatsion bozor vositalarini (venchur kapitali, ipoteka sertifikatlari, IPO, fond bozori orqali birlashish va qo'shib olish (M&A) bitimlari, startaplarni sekyuritizatsiyalash) milliy fond bozoriga joriy qilish orqali

---


<sup>22</sup> Mark, W. (2012). The Presidency of Bill Clinton: The Legacy of a New Domestic and Foreign Policy. HistoryPublishers. 280 p.

investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirishning afzalliklari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida O'zbekiston fond bozoridagi moliyaviy vositalarning tarkibi, ularning qo'llanilish darajasi va mavjud kamchiliklar muallif tomonidan tahlil qilingan.

4.1-rasmdan ko'rinadiki, fond bozori vositalari birja savdolaridagi ishtiroki va bozor aylanmasidagi ulushiga ko'ra 4 guruhga ajratildi.

### O'zbekiston fond bozoridagi moliyaviy vositalarni tarkibi va qo'llanilish darajasi jihatidan tasnifi



4.1-rasm. O'zbekiston fond bozoridagi moliyaviy vositalarning tarkibi va qo'llanilish darajasi jihatidan tasnifi<sup>23</sup>.

<sup>23</sup> Muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.

Birja savdolaridagi ulushi va birja bitimlari soniga ko'ra aksiya, obligatsiya va REPO bitimlari "faol vositalar" guruhiga kiritildi. Qonunda ruxsat etilgan vositalardan hosilaviy qimmatli qog'ozlar va depozit sertifikatlari ulushi sezilsiz bo'lgani sababli "nofaol" vositalar guruhiga kiritilgan bo'lsa, infratuzilma obligatsiyalari, depozit tilxatlar, veksel-lar va g'aznachilik majburiyatlari umuman savdolarida ishtirok etmayotganligi bois "joriy qilingan, lekin qo'llanilmayotgan" vosita sifatida tasniflandi. Xalqaro amaliyotda keng qo'llanilayotgan vosita va operatsiyalar, xususan, IPO, birlashish va qo'shib olishlar (M&A), venchurli moliyalashtirish, startaplarni sekyuritizatsiyalash, ipoteka sertifikatlari milliy iqtisodiyot, shu jumladan, fond bozorining tayyorlik holatiga qaramasdan joriy etilmaganligi sababli mazkur nomdagi guruh tarkibida inobatga olindi.

O'zbekistonda bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlari fond bozori va birja savdolarining asosiy ishtirokchisi bo'lib, ular faoliyatining barqarorligi, o'z navbatida, fond bozorining samaradorligini oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etishi asoslangan. Jumladan, 2017-yilning 1-yanvar holatiga mamlakatimizda 659 ta aksiyadorlik jamiyati mavjud bo'lib, ularning atigi 191 tasi (28 foizdan ortig'i) tegishli talablarni bajarganligi uchun fond birjasi listingiga kiritilganligi qayd etilgan. Ularning 468 nafari (72 foizi) esa, talablarni bajarmaganligi uchun listingga kiritilmaganligi asoslab berilgan.

Jahon amaliyotida yetakchi fond birjalari o'z indekslarini shakllantirgunga qadar listingga kiritish uchun aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan "yumshoq" talablar (Soft Policy) belgilangan bo'lib, listingga kirish jarayonlari nihoyatda sodda bo'lgan. Bu esa, fond bozorida listingga kirgan kompaniyalar sonining va ulardagi qimmatli qog'ozlar jozibadorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan. O'zbekistonda esa fond bozori indeksi jozibadorligi nisbatan past bo'lishiga qaramasdan listing talablari murakkabroq bo'lib, aksiyadorlik jamiyatlari birja savdolarida ishtirok etishdan manfaatdor emas. Xususan, listing talablari ichida ustav kapitali miqdoriga va rentabellikka bo'lgan talab hamda listingga kirgandan keyingi tashkiliy-idoraviy talablar (hisobot taqdim etish, emissiya risolasini nashr etib borish, veb-saytni muntazam ravishda yangilab borish va h.k.) ularning fond bozorida faoliyat yuritishiga salbiy ta'sir qilayotganligi nazariy-uslubiy va amaliy jihatdan isbotlab berilgan.

Uzoq muddatli, mustahkam va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash har qanday iqtisodiy siyosatning ustuvor vazifasi hisoblanadi. Maz-

kur muammo uzoq vaqt davomida bir qator iqtisodchi olimlarni qiziqitirib kelgan. Ularning bu boradagi nuqtayi-nazarlari bir qator ilmiy ish va tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Uning manbalari XX asr iqtisodchilari T.Mane, A.Smit, J.Tyurgo, F.Kene, J.Sey, T.Maltus va boshqa olimlarning ishlariga borib taqaladi. Shu bilan birga keyingi uch yuz yil davomida jahon iqtisodiyotining tez rivojlanishiga qaramasdan iqtisodiy o'sish nazariyasi 1929-1933-yillarda sodir bo'lgan Buyuk inqiroz-depressiyaning hosilasi bo'ldi.

Iqtisodiy o'sish bilan bog'liq muammoning dolzarbligi iqtisodiyotning nobarqarorlik sharoitida yanada oshib boradi. Iqtisodiy o'sish nazariyasining rivojlanishi va uning amaliyotda qo'llanilishi iqtisodiy fanning klassik olimlarining fundamental tadqiqotlarining natijasi bo'ldi. Fan rivojlanishining ma'lum bosqichida olimlar tomonidan o'sish nazariyasi shakllantirila boshlandi. Nazariyaning ma'lum komponentlari ularning tadqiqotlarida o'z aksini topgan edi.

Y.Shumpeterning iqtisodiy o'sish nazariyasi bu sohada dastlabki ish bo'lib, unda iqtisodiy tafakkur tarixida birinchi bor "iqtisodiy o'sish", "innovatsiya" kabi tushunchalarni ishlatib, ishbilarmon faoliyatini yangi iqtisodiy o'sish nuqtayi nazaridan talqin qilgan edi<sup>24</sup>.

Hali 1912-yildayoq u iqtisodiy o'sish jarayonida innovatsiya roliga e'tiborni qaratgan edi. Shumpeterning fikricha, sof muvozanat yoki iqtisodiyot barqarorligi markaziy o'rinda turadi. Olimning nuqtayi nazariga qaraganda rivojlanishni harakatga keltiruvchi omil bo'lib iqtisodiy sohada o'zgarishlar hisoblandi. Ular turli sabablar bilan yuzaga kelish mumkinligiga qaramasdan, ishbilarmon innovatsiya ustuvor omil sifatida rivojlanishni belgilab beradi.

Y.Shumpeter ishbilarmonlik vazifasiga iqtisodiy jarayon dinamikasida markaziy o'rinni ajratadi. Olim XIX asr oxiri, XX asr boshida yuzaga kelgan ahvolni tushuntirish uchun "samarali raqobat" nazariyasini oldinga suradi. Mazkur nazariya innovatsiyalarga asoslangan, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi monopoliya va raqobat kuchlarining samarali hamkorligini bildiradi. Y.Shumpeter siklning dinamik kontsepsiyasida sikllilikni iqtisodiy o'sishning qonuniyati sifatida talqin qiladi. Shumpeterning fikricha, farovonlikni harakatga keltiruvchi kuch – bu innovatsiyalarni yuzaga keltiruvchi asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyadir. Raqobatli bozor mexanizmi shunga o'xshash innovat-

---

<sup>24</sup> Шумпетер Й. Теория экономического развития: Исследование предпринимательской прибыли, капитала кредита, процента и цикла конъюнктуры / Й.Шумпетер.–М. Прогресс,1982.– С.401.



siyalarni boshqa ishlab chiqaruvchi tomonidan amalga oshirishga olib keladi va butun xo'jalik siklini "yangi traektoriya"ga o'tkazadi<sup>25</sup>.

Ishlab chiqarish va bandlik darajasi doimo Dj.Keyns tadqiqotlarida markaziy o'rinlarni egallab kelgan. Olimning "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" tadqiqoti eng yirik va ahamiyatli ilmiy ishlardan bo'lib, u kitob shaklida 1936-yilda nashr etildi. Keyns o'ziga xos zanjir halqalarini taklif etgan edi: umumiy xarid talabining pasayishi tovar va xizmatlarning qisqarishiga olib keladi. Ishlab chiqarishning qisqarishi mayda ishlab chiqaruvchilarning inqiroziga, katta korxonalarda yollanma ishchilar ishdan bo'shatilishiga va keng ishsizlikka olib keladi. Ishsizlik aholi daromadining pasayishiga olib keladi.

Bu, o'z navbatida, tovar va xizmatlarga bo'lgan xarid imkoniyatlarini yanada tushib ketishiga olib keladi. Boshi berk aylana yuzaga kelib, u iqtisodiyotni uzluksiz depressiya holatida ushlab turadi. Shuning uchun davlat umumiy talabga ta'sir qilib, iqtisodiyotni tartibga solishi: pul massasini ko'paytirish, foiz stavkalarini tushirish (investitsion faoliyatni rag'batlantirish) lozim. Talabning yetishmovchiligi ijtimoiy ishlar va budjetning moliyalashtirilishi orqali qoplanishi lozim. Dj. Keyns ishini muhim metodologik o'ziga xos jihatlari<sup>26</sup> bo'lib quyidagilar xizmat qiladi:

1. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda asosiy rol omonatlarga emas, balki investitsiyalarga tegishli bo'ladi. Obrazli qilib aytganda "investitsiyalar – bu omonatli dumini likillatib turgan itdir"<sup>27</sup>, biroq uning aksinchasi emas.

2. Jamlama samarali talabni kengaytirish iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy omildir. Belgilovchi omil sifatida klassik yondashuvga xos bo'lgan taklif omillari emas, balki talab omillari hisoblanadi.

3. Barqaror o'sish va muvozanatga erishishni ta'minlashda iqtisodiy rivojlanish jarayonida davlatning aralashuvi lozim bo'ladi.

4. Investitsiyalarning oshishi daromadni ko'payishiga ta'sir qilib, multiplikatsiya samarasida aks etadi<sup>28</sup>.

Yaratilgan modellarda iqtisodiy o'sish nazariyalarini Keynsning izdoshlari va neokeynschilik iqtisodiy o'sish modeli vakillari E.Domar va R.Xarrod taklif etgan edilar. Ular mehnat va kapital ishlab chiqarilishida ishlatiladigan va mavjud kapitaldagi o'zgarishlarni, shuningdek,

---

<sup>25</sup> Schumpeter J.A. Capitalism, Socialism and Democracy. – New York: Harper and Brothers, 1950. -P. 120.

<sup>26</sup> Блауг М. Экономическая мысль в ретроспективе/ М. Блауг. -М.: Дело Лтд1994. -С. 649.

<sup>27</sup> Schumpeter J.A. Capitalism, Socialism and Democracy – New York: Harper and Brothers, 1950. -P. 120.

<sup>28</sup> Кейнс Дж. М. Избранные произведения/ Дж. М. Кейнс. -М.: Соцэкгиз, 1960. -С. 220.

texnik taraqqiyot ta'sirini hisobga olmaydigan o'lchamlar o'rtasidagi belgilangan munosabatlardan kelib chiqqan edilar.

XX asrning 40-yillaridan 70-yillarning o'rtalarigacha Dj.M.Keynsning kontsepsiyasi rivojlangan industrial mamlakatlari Hukumat va akademik doiralarida ustuvor pozitsiyaga ega bo'lgan edi. 1950 va 1960-yillarda neoklassik maktab vakillari tomonidan keynschilikning ko'p holatlari shubha ostiga olindi.

Neoklassik nazariya vakillarining fikricha, ishlab chiqarish omillari taklifidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lmagan texnik taraqqiyot parametri sifatida ko'rib chiqilgan kapital sig'imlilik ishlab chiqarish darajasi va dinamikasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi, deb qayd etilishi neokeynschilik modelining kamchiligi hisoblanadi. Neoklassik maktab vakillari dinamik rivojlanish maqsadida davlat tomonidan tartibga solishda bosh rol belgilanishi mazkur nazariyaning asosiy kamchiligi deb qayd etishgan edi.

1956-yilda chop etilgan R.Solouning "Iqtisodiy rivojlanish masalasiga doir" deb nomlagan maqolasida umumiy muvozanat masalasiga qaratilgan iqtisodiy o'sishning neoklassik yo'nalishi shakllantirildi. U texnik taraqqiyoti darajasini aks etuvchi mehnatning o'zgaruvchanlik kapital qurollanganligi va qo'shimcha parametrlri iqtisodiy o'sish modelini ishlatishni taklif qildi. Iqtisodiy o'sishning postkeyns nazariyasi mualliflari N.Kaldor, Dj.Robinson va boshqalar mazkur kontseptsiyaning opponenti sifatida ishtirok etishdi. R.Lukas va P.Romer modellarida ITTga va inson kapitali qilingan investitsiyalarga diqqat qaratilgan. Iqtisodiy o'sish nazariyalari haqida gapirilganda F.Barro, D.Kassa, T.Kupmans, F.Nayt, F.Rapsey, X.Uzava, D.Xiks, R.Errou va boshqa olimlar tadqiqotlariga ham e'tiborni qaratmasdan bo'lmaydi.

Iqtisodiy o'sish nazariyasi xalqaro nodavlat tashkiloti – Rim klubi ("o'sish chegaralari", 1972 y.) ma'ruzasida o'z davomini topdi. Mazkur klub tarkibida iqtisodchilar, sotsiologlar va boshqa mutaxassis soha vakillari faoliyat ko'rsatgan (Ya.Tinberger, D.Medouz, M.Mesarovich, A.King va boshqalar). Jamiyat diqqatini global muammolarga jalb qilish va ular yechimini topish mazkur tashkilotning asosiy vazifasi bo'lgan. Rim klubi rahbari A.Pechegi aholi sonining oshib ketishi va nazoratsiz o'sib borishi, jamiyatdagi tabaqalanish, resurslarning kamayib borishi, energetik inqiroz, inflatsiya, ishsizlik, xalqaro savdo va moliyadagi nomutanosiblik kabi muammolarni belgilab, mazkur muammolar

muayyan mamlakatning o'sishi bilan birga qarab chiqish kerakligini uqtirgan<sup>29</sup>.

Rim klubi a'zolari "O'sish chegaralari" ma'ruzasidagi ma'lumotlarga asoslanib, bugungi kun jahon rivojlanishining asosiy ehtimol tendensiyalarini aniqlashdi:

1. Aholi sonini bugungi kundagi o'sish jadalligi, atrof-muhitning ifloslanishi, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi, tabiiy resurslar kamayishining saqlanishi sharoitida XXI asrda mamlakatlar o'sish chegarasiga yetadi, natijada aholi soni va ishlab chiqarish hajmida teskari pasayish jarayon boshlanadi.

2. O'sish tendensiyasi o'zgarib, kishining asosiy moddiy talablarini qoniqtirish qobiliyatini nazarda tutuvchi iqtisodiy va ekologik barqarorlikka erishish mumkin.


Jahon iqtisodiyoti rivojlanishini tahlil qilib, Rim klubining a'zolari rivojlanish chegaraviy ko'rsatkichlariga yetganda va tabiiy resurslarning kamayib ketishi sababli bu ko'rsatkichlar pasayib ketishini ta'kidlagan edi. Resurslarning yetishmasligi natijasida ularning qiymati oshib boradi. O'sish jadalini bir me'yorda ushlab turish uchun resurslar kamayishini qoplashga mo'ljallangan yanada ko'proq kapital qo'yilma talab qilinadi. Oqibatda aholi o'sishi tabiiy ravishda tartibga solinib, barqaror o'sish jadalashishi kuzatiladi. Taqdim etilgan Rim klubining nuqtayi-nazari, fikrimizcha, mamlakatlarning iqtisodiy o'sishiga innovatsiyalar, texnik taraqqiyotlarning kiritgan hissasini past baholash bilan asoslanadi.

Respublikamizda so'nggi yillardagi barqaror iqtisodiy o'sish sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarida davlat budjetining salmog'i boshqa bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan moliyalashtirish manbalarining oshishi evaziga kamayib borgan. Bunday holatning ro'y berishi bozor iqtisodiyoti talablariga mos bo'lsada, lekin moliyalashtirish manbalari tarkibida qimmatli qog'ozlar bozori va aholi mablag'larini jalb etish orqali moliyalashtirish o'z aksini topmagan. Boshqa manbalar tarkibida bank kreditlari asosiy salmoqni egallaydi.

Iqtisodiyotimizning jadal va mutanosib rivojlanib borayotgani aholi hayot darajasi va sifatini izchil oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar hajmi yildan yilga oshib bormoqda. Quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiyalarda xorijiy investitsiyalarning ulushi katta ekanligini ko'rishimiz

<sup>29</sup> Печей А. Человеческие качества. -М.: 1985. -С.120.

mumkin. Bu esa, kelajakda aholini moliya muassasalariga jalb qilish, ya'ni aholining qo'liga bo'sh turgan mablag'larini qimmatli qog'ozlar instrumentlari orqali jalb qilish imkoniyatlarini oshirish zarurligini ko'rsatmoqda.



4.2-rasm. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiyalar, AQSh dollari hisobida<sup>5</sup>

Respublikamizda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga aholi mablag'larini keng jalb etish uchun iqtisodiy shart-sharoitlarni yanada yaxshilash va xo'jalik subyektlarining o'z mablag'larini qayta investitsiyalashni rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

<sup>5</sup> O'zbekiston Davlat statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblaradi.

Buning uchun oddiy investorlar manfaatini ta'minlovchi: to'laqonli va samarali faoliyat yurituvchi investitsion bozor infrastrukturasi rivojlantirish, investitsiyalashni iqtisodiy rag'batlantirishni takomillashtirish, investor huquqlari va mablag'larini himoyalashni kuchaytirish, huquqiy hujjatlarni tez va sodda rasmiylashtirishni joriy etish kabi tashkiliy ishlarni amalga oshirish lozim.

Lekin, Respublikamizda fond bozori to'laqonli faoliyat yuritib, iqtisodiyotda pul mablag'larini taqsimlash va qayta taqsimlashdek muhim vazifani bajara olgani yo'q. Hozirda Respublikamiz fond bozoridagi operatsiyalar umumiy hajmining YaIMdagi salmog'i atigi 1 foizni tashkil etadi. Fond bozorida institutsional investorlarning (pensiya fondlari va sug'urta kompaniyalari) faoliyati to'laqonli shakllanmagan.

Respublikamizda investitsion bozor infrastrukturasi rivojlantirishga oid qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishni va takomillashtirishni, shuningdek investorlarning bo'sh mablag'larini unga muhtoj bo'lgan subyektlarga foydali va qulay bo'lgan shartlarda yo'naltiruvchi moliyaviy institutlarni ko'plab tashkil etishni talab etadi.

Ushbu yo'nalishda moliyaviy institutlarning asosiy vazifasi investorlarning mablag'larini manfaatli shartlarda investitsion bozorga safarbar etish va joylashtirish bilan shug'ullanadigan, shuningdek, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshiradigan trust, investitsion fond va kompaniyalar, pensiya va sug'urta, broker va dilerlik kompaniyalarining tarmoqlarini rivojlantirish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Fond bozorida investitsion faoliyatning asosiy vazifasi faqat aksiyalar bozorini rivojlantirish emas, balki investorlar sarmoyalarini, pul mablag'larini bir joyga jamlab, ularni turli investitsiya maqsadlarida ishlatishdan, taqsimlash va qayta taqsimlashdan iborat. Fond bozori ko'p miqdordagi sarmoyadorlarning mablag'larini yig'ib, uni turli xil qo'yilmalar uchun taqsimlashi lozim. Bu bozorning sig'imiga va xilma-xilligiga, ya'ni muomaladagi qimmatli qog'ozlarning mumkin qadar sarmoyadorlar o'rtasida tarqatilishiga bog'liq.

Fond bozori respublikamizdagi kollektiv investorlarning investitsiya faoliyatini boyitib, uni yangi bosqichga olib chiqadi, ya'ni kreditlashni qimmatli qog'ozlar vositasida amalga oshiriladigan usullar bilan ta'minlaydi. Shu jihatdan u davlatning umumiy makroiqtisodiy siyosati – monetar, fiskal, budget siyosatlarini hosilalaridir.

Kollektiv investorlar ham o'z navbatida bu jarayonda ishtirok etib, korxonalar chiqargan qimmatli qog'ozlarni sotib olish yo'li bilan sarmoyalar ajratmoqda.

Ko'plab sarmoyadorlarning mablag'larini fond bozori vositalari yordamida to'plash va investitsiyalarga, ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirish lozim. Barcha vositalar - imtiyozlar, sarmoyadorlar xavfsizligini ta'minlash, bozorning ochiq bo'lishi, moliya muassasalarini nazorat qilish ham xuddi shu maqsadlarga yo'naltirilishi zarur.

Investorlarning moliya bozorida faoliyatini o'rganish, mamlakatning asosiy moliyaviy oqimlarini shakllantirish xususiyatlarini belgilashda, kollektiv investorlarning amalga oshiradigan operatsiyalar ko'lamini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda, moliya sektori va iqtisodiyotni sog'lomlashtirishga qaratilgan investorlarning qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiradigan operatsiyalarini rivojlantirish istiqbollari belgilashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, bajarilgan tadqiqot ishi fond bozorida investitsion faoliyat mexanizmini takomillashtirish uchun ham dolzarb bo'lib, qimmatli qog'ozlarga samarali investitsiya qilish orqali, investitsiya risklarni kamaytirish, moliyaviy instrumentlar likvidligini oshirish va ular bo'yicha bitimlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Insoniyatning yer yuzida paydo bo'lishi tarixiga nazar tashlansa, bozor odamlar o'rtasidagi boyliklarni natural tovar sifatida maqsadli va o'zaro manfaatli tarzda oddiy almashinuvi jarayonidan boshlangan. Hozirga kelib bozor alohida nazariyasiga va faoliyat mexanizmiga ega, yuqori darajada tartiblashgan murakkab infratuzilma shaklida namoyon bo'luvchi dinamik muhitga aylangan bo'lib, zamonaviy iqtisodiyot rivojini obyektiv belgilaydi. Bozorning dinamik muhit ekanligi unda tovarlar hajmi va ularning bahosi vaqt birligi ichida talab va taklif asosida uzluksiz jarayon sifatida o'zgarib borib shakllanishi bilan belgilanadi.

Bozorning eng yuqori darajada rivojlangan turi moliya bozori hisoblanadi. Hozirda moliya bozori yuqori darajada tashkillashgan va uzluksiz rivojlanayotgan, borgan sari jahon miqyosida globallashtirib bora-yotgan alohida bir butun va o'z muhitiga ega munosabatlar va institutlar (qatnashchilar) majmuasi sifatida namoyon bo'luvchi murakkab tizim ekanligi aniq bo'lmoqda. Bunda moliya bozorlari nafaqat milliy iqtisodiyot, balki global iqtisodiyot rivojini belgilamoqda. Uning mazmun-mohiyati quyidagi kontseptual tushuncha va qonuniyatlar asosida belgilanadi.

Qisqa davr ichida iqtisodiy o'sish moliya bozori orqali mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hisobiga erishiladi. Ammo uzoq muddatli davrda iqtisodiy o'sish ishlab chiqarish quvvatlarini in-

vestitsiyalar hajmini kengaytirish yo'li bilan modernizatsiyalashuvi va oshirilishini talab etadi. Makroiqtisodiy barqarorlik sharoitida investitsiyalarga bo'lgan talab esa moliya institutlari yordamida ichki va tashqi jamg'armalar hisobiga qoplanadi.

Bundan ayon bo'ladiki, moliya bozori moliyaviy resurslarni iqtisodiyotda samarali taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasini amalga oshiradi va iqtisodiyot holati "barometri" rolini bajaradi.

Iqtisodiyotda moliyaviy oqimlar inflatsiya va foiz stavkasiga bog'liq holda moliya bozori orqali taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi. Bunda inflatsiya va foiz stavkasi moliya bozorining muvozanat holatiga ta'sir ko'rsatadi.

Investitsiya qilishda turlicha vositalar qo'llanilishi mumkin: pul, valuta, kredit, qimmatli qog'ozlar, mulk (moddiy va nomoddiy), turli tovarxom ashyolar va h.k. Bular ichida qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish investorning talablarini qondirishning eng samarali va keng tarqalgan yo'llardan biri hisoblanadi.

Investitsion resurslarni fond bozori imkoniyatlaridan foydalangan holda foyda olish uchun yo'naltirish investorlarning eng asosiy vazifasi hisoblanadi. Uning boshqa vazifasi – o'zining investitsion faoliyati jarayonida investitsiyalar daromadlilikini oshirib borish va risklilik darajasini pasaytirishdir. Bunda moliya bozori investorning vazifalarini va investitsion siyosatini samarali amalga oshirishida, yetarli darajada rivojlangan bo'lishida katta rol o'ynaydi va muhim funktsiya bajaradi.

Investitsiyalash jarayoni – bu kelgusida daromadni yaratish va olish maqsadida resurslarni ma'lum yo'nalishda uzoq muddatga sarflash demakdir. Bunday qo'yilmaning asosiy ma'nosi shundan iboratki, o'z mablag'lari yoki qarzga olingan mablag'larni ishlab chiqarish aktivlarga investitsiyalash jarayonida investorlar yangi likvidlilikni yaratadilar.

Investorlarga qo'yiladigan asosiy talablar: transparentlilik, maxfiylik, ishonchlilik, barqarorlik, raqobatbardoshlilik, moliyaviy xavfsizlik, faollilik asosida o'z investitsiyalarining likvidlilik, daromadlilik, risksizlilik va bazisiga nisbatan ekvivalentlilik darajasini ta'minlashdan iborat. Odatda, investorlar risklarga moyil bo'ladilar, ularning xatti-harakatlari refleksiv bo'lib, bozordagi investitsion muhitga va bozor kon'yunkturasi bog'liq bo'ladi.

Mamlakatdagi investorlarning faollilik darajasi fond bozorida va umuman iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu indikatorni (F) baholash uchun quyidagi mezonni (kriteriyani) qo'llash mumkin:

$$\min F = SV=PI$$

(1.2.1)

Bunda:

- SV- investitsiya sifatidagi jamg'arma hajmi va investitsiyalar likvidiligi ko'paytmasi;

- PI-investitsiyalarning bozor narxi va iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan investitsiyalar hajmi ko'paytmasi.

Dunyoning turli mamlakatlari fond bozorlarida investorlarning salmog'i va faolliligi turli xil darajaga ega bo'lib, bu ko'rsatkichlar asosan investitsion muhitga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarga bog'liq.

Davlat organlarining investitsion faoliyati ularning mamlakatda iqtisodiy siyosatini yuritish maqsadida monetar va fiskal siyosatlari asosida amalga oshiriladi. Xuddi shu maqsadda davlat organlari professional investitsion faoliyatni va professional moliya instituti operatsiyalarini ham amalga oshiradi. Bu faoliyatlar bilan birga vakolatli davlat organlari fond bozorini tartiblashtirishni (muvofiqlashtirish va nazorat qilishni) amalga oshiradi.

Investorlar fond bozorida moliyaviy vositalarga investitsiyalar qiluvchi va ularni real bazisiga bo'lgan ekvivalentlilik darajasini obyektiv belgilovchi shaxs va institutlar rolini bajaradi. O'z navbatida bir vaqtning o'zida investitsiyalar ularni amalga oshiruvchi investorning biznes sifatini aks ettiruvchi bozor kapitali rolini bajaradi. Investor moliyaviy investitsion resurslar manbai bo'lib, fond bozorining o'ta ta'sirchan retseptori (moliyaviy vositalarni qabul qiluvchi va ularni jamg'arma kapitaliga aylantiruvchi) va investitsiyalarni riskli daromad (zarar) darajasini obyektiv belgilovchi iqtisodiyotning tijorat subyekti hisoblanadi. Shuning uchun, dunyoning barcha mamlakatlarida investorlarning haq-huquqlari davlat tomonidan kafolatlanadi, himoyalanaadi va bu bora-da yetarlicha shart-sharoitlar yaratiladi.

Investitsiyalar obyektini, shakli va miqdorini tanlash mas'uliyati (riski) investorning o'z zimmasida bo'ladi, shunga muvofiq moliyaviy instrumentlarga, shu jumladan aksiyalarga qilingan o'z investitsiyalarini himoyalash uchun pirovard mas'uliyat (risk) ham investorning (aksiyadorning) zimmasida bo'ladi.

Jahon moliya bozorining eng faol investorlaridan portfelli investorlar hisoblanib, ularning asosiy faoliyati investitsiyalar portfelinii samarali shakllantirish va boshqarishdir. Investitsiyalar portfeli – ma'lum bir maqsadli investitsion siyosat talabiga javob berish asosida shakllantirilgan moliyaviy instrumentlar to'plami. Umuman olganda, investitsiyalar portfeli nafaqat moliyaviy vositalardan, balki aktivlarning boshqa



turlaridan ham iborat bo'lishi mumkin, masalan, ko'chmas mulklardan, kreditlardan, polislardan, buyurtmalardan va h.k. Portfellar jamg'arma va kapitalni jamlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Investitsiyalar portfelining asosiy maqsadi – investorlar mablag'ini investitsion obyektlarga (jumladan moliyaviy vositalarga) yo'naltirish asosida rejalashtirilgan daromadni past (yuqori) risklarda olish.

Investitsiyalar portfelining asosiy maqsadi – investorlar mablag'ini moliyaviy instrumentlarga (qimmatli qog'ozlarga) yo'naltirish asosida rejalashtirilgan daromadni past (yuqori) risklarda olish.

Investitsiyalar portfeli bo'yicha olinadigan daromadni portfel tarkibiga kirgan ma'lum darajada riskli moliyaviy instrumentlar to'plamidan shakllanuvchi yalpi daromad deyiladi. Shu munosabat bilan har qanday portfelda daromad va risk o'rtasidagi miqdoriy muvofiqligi muammosi vujudga keladi. Bu muammo portfelni samarali boshqarish evaziga hal qilinadi. Aytish joizki, bu muammoni yechish uchun lozim bo'lgan umumiy sxemani tez topish mumkin bo'lsada, lekin uni oxirigacha to'liq yechimiga kelish mumkin emas.

Moliyaviy vositalarning investitsion sifatiga qarab, turli tarkibdagi portfellarni shakllantirish mumkin. Portfel bo'yicha investorni qiziqtirgan daromad va investor uchun qabul qilinishi mumkin bo'lgan risk o'rtasidagi balans darajasiga qarab, portfel turini aniqlash mumkin. Yuqorida keltirilgan tasnifda ko'rsatilganidek, portfelli investorlar strategik-portfelli hamda spekulativ-portfelli bo'lishi mumkin.

Strategik-portfelli investorlar o'z mablag'larini uzoq strategik istiqbolga qarab ko'proq bazaviy qimmatli qog'ozlarning yirik paketlariga yo'naltirsalar, strategik-portfelli investorlar strategiyasi esa bozorda vujudga keluvchi arbitraj imkoniyatlari asosida shakllantiriladi (ya'ni, bozor kon'yunkturasi bo'yicha kurslar tafovutida spekulativ operatsiyalar bajarish evaziga). Strategik-portfelli investorlar asosan ma'lum bir tarmoqdagi kompaniyalar aksiyalarining nazorat paketiga ega bo'lib, bu tarmoq doirasida o'zlarining strategik investitsion manfaatlari asosida strategiyalarini yuritadilar. Bundaylarga, masalan, aralash xoldinglar, moliya-sanoat guruhleri va h.k. kiradi.

Har ikkala turdagi portfelli investor ham investitsion mablag'lar, kapital akkumulyatori bo'lib, iqtisodiyotning real sektorini investitsiyalar uchun samarali raqobat asosida rivojlantirish masalasi yechimini ta'minlaydi. Bunda har ikkalasining strategiyalari bozor ko'rsatkichlariga bog'liq holda amalga oshiriladi.

Spekulyativ-portfelli investorlarga investitsiya, pensiya, sug'urta fondlari, moliyaviy kompaniyalar, investitsion banklar kiradi. Ularning maqsad va manfaatlari moliya bozorini rivojlantirish bo'yicha jamiyat manfaatlari bilan obyektiv mos keladi, bozor risklari va bunda jamiyat intaklarini adekvat aks etadi. Bunda ular asosan portfelli bo'yicha yuqori daromadlilik va likvidlilikni ta'minlaydilar, mos ravishda quyidagilar bilan namoyon bo'luvchi rolni bajaradi:

- emitentlar holatining obyektiv "barometri", demak, iqtisodiyotning real sektorini ham;

- moliya bozori orqali real sektor investitsion loyihalarini moliyalashtirishning arzon va samarali manbai;

- moliya bozori orqali iqtisodiyotning tarmoqlari bo'ylab investitsion resurslarni samarali taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi jarayoni regulyatori.

Umuman olganda, portfelli investorlar o'z kapitalini moliya bozorlari (fond bozorlari) orqali yo'naltirib, milliy iqtisodiyotni obyektiv baholaydi va raqobatli kreditlaydi. Shu bilan ular mablag'larini bir loyihaga to'g'ridan to'g'ri investitsiya qiluvchi investorlardan (qisqacha – to'g'ri investorlar) farqlanadi. To'g'ri investor uchun investitsion loyiha tarixi va kredit oluvchi kompaniya bilan sheriklik hissiyoti katta ahamiyatga ega bo'lib, portfelli investor (strategik-portfelli investorlardan tashqari, chunki ular tarmoq kompaniyalariga bozor kon'yunkturasi-ga qarab ko'pincha o'zlarining rivojlanish tartiblarini majburlaydilar) uchun esa bu masalalar unchalik ahamiyat kasb etmaydi.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash va investitsiya muhitini yaxshilash yo'lida har xil iqtisodiy instrumentlardan foydalanilmoqda. Ularga quyidagilar kiradi: soliq og'irligini kamaytirish, bank sektorini isloh qilish va nobank moliya institutlarini shakllantirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.

Shuningdek, erkin iqtisodiy hududlarni va xususiy-davlat hamkorlikni tashkil etish to'g'risida fikr-mulohazalar olimlar tomonidan aytilayapti. Ammo, fond bozori samarali modernizatsiya vositalaridan birining imkoniyatlari qo'llanilmagan. Vaholanki, aynan shu bozor o'z tabiatiga ko'ra, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va investitsiya muhitini yaxshilash uchun investitsion vositalarini jalb qilish vositasi sifatida eng qobiliyatlisidir. Boshqa tarmoqlarda ishlab chiqarish fondlarining eskirishi 60 foizdan yuqoridir.

Shuni aytib o'tish lozimki, investitsion funksiyani qimmatli qo'g'ozlar birlamchi bozori bajarayapti, ikkilamchi bozor maqsadi esa, in-

vestitsion resurslarni bir sohadan boshqa sohaga o'tishini ta'minlash vazifasini bajarmoqda (qimmatli qog'ozlar narxlarini shakllantirish yo'li bilan). Shuni hisobga olganda, fond bozori salohiyatidan foydalanish pasayadi, chunki korporativ qimmatli qog'ozlar birlamchi bozor ulushi atigi 0,6 foizni tashkil etadi.

Shunday qilib, fond bozorini rivojlantirishning asosiy muammosi— bu uning investitsion salohiyatidan foydalanish darajasining pastligidir. Milliy fond bozori o'zining fundamental funksiyasini bajarmaganligi sababli, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish imkoniyati to'laqonli yuzaga chiqmayapti.

### **4.3. O'zbekistonda fond bozori orqali investitsiyalarni moliyalashtirishning huquqiy asoslari**

Bozor munosabatlarida ikki tomon munosabati, bir tomondan kapital egalari, ya'ni bo'sh pul mablag'lariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar hamda davlat bo'lib, ularning maqsadi kapital qiymatini saqlash va ko'paytirishdan iborat bo'ladi. Ikkinchi tomondan esa, dastlabki va qo'shimcha kapitalga muhtoj bo'lgan bozor subyektlari, yani ular yangi ishlab chiqarishni tashkil etish yoki amaldagi asosiy fondlarni rekonstruksiya qilish, kengaytirish va boshqa maqsadlarni ko'zlagan kapital iste'molchilaridir. Kapital iste'molchisi sifatida korxonalar, tashkilotlar, aholi, shuningdek, davlat bo'lishi mumkin.

Kapital istemolchilari mablag' jalb etish maqsadida muomalaga qimmatli qog'ozlarni chiqaradi va ularni sotish orqali o'z maqsadi uchun (ishlab chiqarishni tashkil etish, savdo xizmatlarini amalga oshirish v.h.k) zarur mablag'ga ega bo'ladi. Kapital iste'molchilari va kapital yetkazib beruvchilar o'rtasidagi munosabatlar to'lovlilik, qaytarib berishlilik yoki mulkka egalik qilish huquqini berish shartlari bilan amalga oshiriladi.

O'zbekistonda mustaqillik yillaridan boshlab ko'p ukladli iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilgan islohotlar o'tkazilishi munosabati bilan rivojlangan fond bozorini yaratishga jiddiy qadamlar tashlandi. Hozirgi vaqtda respublikamizda 100 dan ziyod fond bozorining professional ishtirokchilari faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu sohada 160 dan ziyod me'yoriy hujjatlar amalda qo'llanilmoqda.

Jumladan, 2015-yil 3-iyunda "Qimmatli qog'ozlar bozori" to'g'risidagi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi munosabati bilan "30-guruh" tavsiyalarini bajarishga yo'naltirilgan navbatma-navbat qa-

dam tashlandi. Bu rejada boshqa MDH davlatlarini ortda qoldirib, aksiyalarning to'liq "dematerializatsiya"sig'a o'tildi, fond bozori hisob tizimida ortiqcha oraliq zvenolarni tugatib Markaziy depozitariy bazasida Markaziy ro'yxatga olish instituti tashkil qilindi.

Xususan, 2016-yil 1-yanvarida respublikada 714 ta aksiyadorlik jamiyatlari ro'yxatga olingan. Bu sanada mamlakat depozitariylarida qimmatli qog'ozlar egalari soni 1,272 mln. yuridik va jismoniy shaxslarni tashkil etgan.

Shuni alohida qayd etish joizki, "Aksiyadorlik jamiyatlar va aksiyadorlarni huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi Qonun ham takomillashtirildi, ya'ni 2009-2015-yillarda bu qonunga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Bundan tashqari, "Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va nazorat qilish" Markazi tomonidan mavjud me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish borasida ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2015-yilda quyidagi normativ hujjatlarga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi:

- "Hisobga olish registrlaridagi elektron yozuvlarning but saqlanishini ta'minlash tartibi to'g'risida"gi Nizom;

- "Aksiyadorlik jamiyatida minoretar aksiyadorlar qo'mitasining faoliyat ko'rsatishi tartibi to'g'risida" gi Nizom;

- "Tadbirkorlik subyektlarida o'tkazilgan profilaktika ishlarining samaradorligi asosida markaz va uning hududiy organlari faoliyatini baholash mezonlari to'g'risida"gi Nizom;

- "Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari tomonidan axborot taqdim etish va e'lon qilish qoidalari";

- "Qimmatli qog'ozlar bozorining mutaxassislariga qo'yiladigan malaka talablari to'g'risida" gi Nizom;

- "Korporativ obligatsiyalarni chiqarish, davlat ro'yxatidan o'tkazish va ular bo'yicha qarzlarni uzish tartibi to'g'risida" gi Nizom;

- "Aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini chiqarish, davlat ro'yxatidan o'tkazish va chiqarilgan aksiyalarni bekor qilish tartibi to'g'risida" gi Nizom;

- "Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlarni chiqarish, davlat ro'yxatidan o'tkazish va ular bo'yicha qarzlarni uzish (bekor qilish) tartibi to'g'risida" gi Nizomlarga va boshqalar.

Bundan tashqari, "Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va nazorat qilish" Markazi tomonidan quyidagi me'yoriy hujjatlar amaliyotga joriy etildi:

-“Qimmatli qog‘ozlar bilan birjadan tashqari bitimlarning hisob registri to‘g‘risida” gi Nizomi;

-“Qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari birlashmalari (uyushmalari) faoliyati to‘g‘risida” gi Nizomi;

-“Aksiyalar egalari reyestri va korporativ obligatsiyalar egalari reyestri to‘g‘risida”gi Nizomi;

-“Qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyatni birga qo‘shib olib borishga doir cheklashlar va birga qo‘shib olib borish tartibi, qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilarining majburiy normativlar tizimi to‘g‘risida” gi Nizomi va boshqalar.

Aksiyalar emissiyasi umumiy hajmining o‘shirish sur‘atlari yildan yilga oshmoqda. Jumladan, 2016-yil 1-yanvarida aksiyalar emissiyasi hajmi 16472,85 mlrd. so‘mni tashkil qildi, 2015-yil 1-yanvar holatiga solishtirganda (12725,58 mlrd. so‘m), ya‘ni 3,7 trln so‘mga oshgan.

O‘zbekistonda aksiya bozorida tashqari depozit sertifikatlari, korporativ obligatsiyalari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki obligatsiyalari, davlat maqsadli qisqa muddatli obligatsiyalari bozori rivojlanmoqda. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozori tizimining faoliyati va shakllanishida banklar muhim o‘rin egallaydi. Banklarga boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan solishtirganda qimmatli qog‘ozlar bozorida faoliyat yuritish uchun keng sharoit yaratib berilgan va berilmoqda. Birinchidan, odatda banklarda yuqori malakali kadrlar yig‘iladi. Ikkinchidan, banklar to‘g‘risidagi qonunchilik aksiyadorlik jamiyati shaklidagi, ya‘ni qimmatli qog‘ozlar muomalasiga aksiya chiqarishni amalga oshiruvchi emitent tijorat banklari faoliyatini tartibga soladi. Uchinchidan, oddiy korxonalar va tashkilotlar bilan solishtirganda banklar yirik investor sifatida fond bozorida qatnashish uchun zarur sharoit yaratuvchi ahamiyatli xususiy va qarz mablag‘larini yig‘adi va hozirgi vaqtda to‘playdi. Nihoyat, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi qimmatli qog‘ozlar bozorida banklar faoliyatini hech qanday cheklamaydi va bir vaqtda banklar o‘z mijozlarining moliyaviy xo‘jalik faoliyati haqidagi keng axborotlarni olish imkoniyatiga ega, ularga bu kabi ma‘lumotlarni olishda chegaralangan oddiy investorlar oldida afzalliklar beradi.

Qimmatli qog‘ozlar bozorida banklarning muhim roli shundaki, boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlardan farqli ravishda bu bozor tizimi qatnashchisi sifatida ular bir vaqtda quyidagilar bo‘lishi mumkin:

1. Aksiya, obligatsiya, depozit sertifikatlari va bank veksellari, ya‘ni, qonunda ko‘zda tutilgan qimmatli qog‘ozlarning boshqa shakllari emitenti rovida.

2. Boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar va davlatning qimmatli qog‘ozlarini egallovchi investor rovida.

3. O‘z mijozlariga qimmatli qog‘ozlarni boshqarish bo‘yicha xizmatlar, maslahat, vositachilik, depozitar xizmatlarini ko‘rsatuvchi fond bozorining professional ishtirokchilari rolini bajarishlari mumkin.

Shu bilan birga, tijorat banklari fond bozori umumiy strukturasi elementini hisoblanadi. Amaliyotda fond bozorining har bir ishtirokchisi bank xizmatlari faoliyat yuritmaydi. Shuning uchun hisob-kitob va boshqa hisob raqamlarni ochadi, ularda qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan pul mablag‘larini saqlaydi.

Tijorat banklari “Toshkent” Respublika fond birjasi savdolarida ham emitent sifatida, ham investor sifatida ishtirok etishi tufayli fond bozorining eng faol qatnashchilari hisoblanishadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi<sup>30</sup>.

Ushbu Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari alohida muhim o‘rin egallaydi.

Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqat va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturining 125 bandida kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin mablag‘larini joylashtirishning muqobil manbai sifatida moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi moliya bozorini o‘rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish kontsepsiyasini ishlab chiqish belgilangan bo‘lib, unda alohida milliy korxonalar aksiyalarining xorijiy nufuzli fond birjalarida dastlabki tarzda joylashtirilishiga (IPO), ularning xorijiy kapital bozoriga chiqishini ta‘minlash, qimmatli qog‘ozlarni dastlabki va qo‘shimcha emissiya qilishni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni soddalashtirish, qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish bo‘yicha vakolatli organning moliya bozorining zamonaviy

<sup>30</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. // Xalq so‘zi. 2017-yil 7-fevral.

vositalarini joriy qilishdagi rolini kuchaytirish, ya'ni mazkur organni nazorat qiluvchi organ sifatida emas, balki qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi organ sifatida faoliyati samaradorligini oshirish kabi muhim chora-tadbirlar amalga oshirilishi mo'ljallangan.

## *Nazorat savollari*



1. Fond birjalari yuzaga kelishi.
2. Fond birjalari faoliyatining asosiy prinsiplari.
3. Fond birjalaridagi savdo instrumentlari.
4. Birlamchi va ikkilamchi savdolar.
5. Fond birjalarida listing talablari.
6. Fond birjalarida savdo ishtirokchilari.
7. Fond birjasida professional faoliyat.
8. Fond birjasidagi bitimlar.
9. Ularni ro'yxatdan o'tkazish, rasmiylashtirish va bajarilishini ta'minlash.
10. Fond birjasida axborotlar ochiqligini ta'minlash.



---

---

## V bob. QIMMATLI QOG‘OZLARNI CHIQRISH, DAVLAT RO‘YXATIDAN O‘TKAZISH, JOYLASHTIRISH VA ULARNING MUOMALASI

### 5.1. Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish

Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, joylashtirish va ularning muomalasi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 3-iyundagi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni, 2014-yil 6-maydagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qoidalari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Qimmatli qog‘ozlar chiqarilish shakliga ko‘ra blankalar tarzida hujjatli va elektron shakldagi hisobga olish registrlaridagi yozuvlar tarzida hujjatsiz bo‘lishi mumkin. Qimmatli qog‘ozlarning chiqarilish shakli qonun hujjatlariga muvofiq qimmatli qog‘ozlar chiqarish to‘g‘risidagi qarorda belgilanadi.

Aksiyalar, korporativ va infratuzilma obligatsiyalari, shuningdek depozitar tilxatlar hujjatsiz shaklda chiqariladi.

Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda quyidagilar ko‘rsatiladi:

- emitentning to‘liq nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;

- emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror tasdiqlangan sana;

- emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorni tasdiqlagan emitent boshqaruv organining nomi;

- emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning turi va xili hamda ularning chiqarilish shakli;

- emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar egasining huquqlari;

- emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish shartlari;

- chiqarilishdagi emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning soni;

- ilgari joylashtirilgan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarning soni;

- emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning nominal qiymati.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorda qonunchilik doirasida boshqa qoidalar ham ko'rsatilishi mumkin.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror qonun hujjatlariga va emitentning ustaviga muvofiq emitent boshqaruv organi tomonidan tasdiqlanadi.

Emitent majburiyatlarining bajarilishi garov, bank kafolati yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa usullar bilan qo'shimcha ta'minlanadigan obligatsiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorda qo'shimcha ta'minot bergan shaxs to'g'risidagi va ta'minot shartlari haqidagi ma'lumotlar ham ko'rsatilishi kerak. Bu holda obligatsiyalarni chiqarish to'g'risidagi qaror qo'shimcha ta'minot bergan shaxs tomonidan ham imzolanishi kerak.

Davlat tashkiloti aksiyadorlik jamiyati etib o'zgartirilayotganda O'zbekiston Respublikasining Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan tasdiqlangan aksiyalarning emissiya risolasi aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qaror hisoblanadi.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorning bir nusxasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligida qoladi, bir nusxasi emitentga beriladi va bir nusxasi emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilingan holda Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga topshiriladi.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarish to'g'risidagi ro'yxatdan o'tkazilgan qarorga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, mazkur qarorni o'z kuchini yo'qotgan deb topish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Korporativ obligatsiyalar quyidagi shartlarga rioya etgan holda:

- emitentning bunday obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadagi, auditorlik tashkiloti xulosasi bilan tasdiqlangan o'z kapitali miqdori doirasida;

- keyingi uch yilda rentabellik, to'lovga qobiliyatlilik, moliyaviy barqarorlik va likvidlilikning auditorlik tashkiloti xulosalari bilan tasdiqlangan ijobiy ko'rsatkichlariga ega bo'lgan, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mustaqil reyting bahosini olgan emitentlar tomonidan;

- investorlarga tegishli mablag'larning emitentlar tomonidan to'lanishi bo'yicha to'lov agentlari vazifasini bajaruvchi tijorat banklari ishtirokida chiqariladi.

Infratuzilma obligatsiyalari quyidagi shartlarga rioya etgan holda:

-emitentning bunday obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadagi, auditorlik tashkiloti xulosasi bilan tasdiqlangan o'z kapitali va chiqarilish bo'yicha qo'shimcha ta'minot miqdori doirasida;

-infratuzilma obligatsiyalarini joylashtirishdan olingan mablag'lardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida nazarda tutilgan loyihani moliyalashtirish uchun foydalanilsa;

-infratuzilma obligatsiyalari bo'yicha emitentning majburiyatlari ular to'liq muomaladan chiqarilguniga qadar belgilangan tartibda sug'urtalangan bo'lsa, chiqariladi.

Davlat korxonalar infratuzilma obligatsiyalarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda chiqaradi.

Infratuzilma obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar alohida bank hisobvarag'ida jamlanadi va emitentning ulardan maqsadli foydalanilishini nazorat qiluvchi kuzatuv kengashi yoki yuqori boshqaruv organi qaroriga ko'ra sarflanadi.

Aksiyalarga doir opsiyonni chiqarish shartlari ularning muomalasiga cheklovlarni nazarda tutishi mumkin. Agar aksiyadorlik jamiyatining e'lon qilingan aksiyalari soni olish huquqini opsiyonlar beradigan aksiyalar sonidan kam bo'lsa, mazkur jamiyat aksiyalarga doir bunday opsiyonlarni joylashtirishga haqli emas.

Aksiyadorlik jamiyatining mehnat jamoasi va kuzatuv kengashi a'zolariga mukofotni yoki rag'batlantirish to'lovini aksiyalarga doir opsiyonlar tarzida berish to'g'risidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Olish huquqini opsiyonlar beradigan muayyan turdagi aksiyalarning soni aksiyalarga doir opsiyonlar chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun hujjatlarni taqdim etish sanasidagi holatga ko'ra joylashtirilgan ushbu turdagi aksiyalarning 5 foizidan ortiq bo'lishi mumkin emas. Aksiyalarga doir opsiyonlar aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali uni ta'sis etish chog'ida to'liq to'langanidan keyin joylashtirilishi mumkin bo'ladi.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan emitentning arizasi asosida amalga oshiriladi. Emitentning arizasiga quyidagilar ilova qilinadi:

-emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror;

-qimmatli qog'ozlar emissiya risolasi (qimmatli qog'ozlar omma-viy joylashtirilgan taqdirda);

-blanka namunasi (hujjatli shakldagi emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilgan taqdirda);

-ro'yxati qonun hujjatlarida belgilanadigan boshqa hujjatlar.

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlar olingan sanadan e'tiboran o'ttiz kun ichida davlat ro'yxatidan o'tkazishi yoki emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish to'g'risida asoslantirilgan qaror qabul qilishi shart.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilayotganida emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorning har bir nusxasida emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida belgi qo'yiladi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishiga berilgan ro'yxatdan o'tkazilganlik raqami ko'rsatiladi.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etiladigan hujjatlarning to'g'riligi uchun javobgarlik emitent zimmasida bo'ladi.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarning hamda ulardagi ma'lumotlarning qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga nomuvofiqligi;

- emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish tartibiga emitent tomonidan rioya etilmaganligi;

- qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan yig'implarning to'lanmaganligi;

- emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarishni amalga oshirayotgan yuridik shaxsda ularni chiqarish huquqining yo'qligi.

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining qarorida ko'rsatilgan muddat ichida qayta murojaat etilgan taqdirda, yangidan taqdim etilgan hujjatlarda aniqlangan nomuvofiqliklardan tashqari yangi asoslarga ko'ra emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish to'g'risidagi qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning dastlabki chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazishda emitent mazkur chiqarilishdagi emissiyaviy qimmatli qog'ozlar nominal qiymatining 0,01 foizi miqdorida respublika budjetiga yig'im to'laydi.

Ilgari ro'yxatdan o'tkazilgan chiqarilishdagi emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning nominal qiymati oshirilgan taqdirda, emitent mazkur chiqarilishdagi emissiyaviy qimmatli qog'ozlar nominal qiymati oshgan summasining 0,01 foizi miqdorida respublika budjetiga yig'im to'laydi.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun yig'im quyidagi hollarda undirilmaydi:

- aksiyalar O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan emissiya risolasi asosida chiqarilgan taqdirda;

- infratuzilma obligatsiyalari va opsiyon chiqarilgan taqdirda;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan hollarda.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining yagona davlat reyestrda emitentning nomi, qimmatli qog'ozlarning soni, nominal qiymati, turi va xili to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qonun hujjatlari-ga muvofiq boshqa axborot bo'lishi lozim.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining yagona davlat reyestrini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi:

- emissiya jarayonida qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari emitent tomonidan buzilganligi aniqlanganda, shuningdek, emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishi haqida e'lon qilingan axborotda noto'g'ri ma'lumotlar aniqlangan taqdirda ular bartaraf etilguniga qadar to'xtatib turiladi;

- ularning chiqarilishini to'xtatib turishga olib kelgan qoidabuzarliklar emitent tomonidan bartaraf etilmagan, shuningdek chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilangan muddatda mazkur chiqarilishdagi qimmatli qog'ozlarning 60 foizidan kam qismi joylashtirilgan taqdirda amalga oshmagan deb topiladi, mazkur chiqarilishdagi qimmatli qog'ozlarning kamida 30 foizi qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdosida joylashtirilgan hollar bundan mustasno;

-sudning tegishli qarori mavjud bo'lgan taqdirda haqiqiy emas deb topiladi.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, mazkur chiqarilishning barcha qimmatli qog'ozlari muomaladan olinishi lozim, amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini joylashtirishdan emitent olgan mablag'lar esa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda egalariga qaytarilishi kerak.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini amalga oshman yoki haqiqiy emas deb topish va mablag'larni egalariga qaytarish bilan bog'liq chiqimlarning o'rni emitent hisobidan qoplanadi.

Davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish emissiya risolasisiz va davlat qimmatli qog'ozlarining chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat qimmatli qog'ozlari qisqa muddatli (bir yilgacha muddatga), o'rtacha muddatli (bir yildan besh yilgacha muddatga) va uzoq muddatli (besh yil va undan ortiq muddatga) etib chiqarilishi mumkin.

Depozit sertifikatlarini chiqarish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Veksellarni chiqarish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## **5.2. Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish va ularning muomalasi**

Qimmatli qog'ozlarni O'zbekiston Respublikasi hududida joylashtirishga va ularning muomalasiga, agar qonunda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, ular davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni O'zbekiston Respublikasi hududida;

O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashtirish hamda muomalaga kiritish kvotalari va tartibini belgilaydi.

Qimmatli qog'ozlarning qiymati O'zbekiston Respublikasi milliy valutasida ifodalanadi.

Qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdosida qimmatli qog'ozlarga doir bitimlarni tuzish va ro'yxatdan o'tkazish ularni yozma ravishda rasmiylashtirish zaruratisiz elektron shaklda amalga oshiriladi. Qimmatli qog'ozlarga doir boshqa bitimlar yozma shaklda tuziladi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

Uyushgan bozorlarda oldi-sotdi bitimlari tuzilganda ular yuzasidan hisob-kitob qilish muddatlari qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil qilish qoidalari bilan, boshqa hollarda esa oldi-sotdi shartnomalari bilan belgilanadi. Belgilangan muddatlar buzilgan taqdirda bitim haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Fond birjasida emissiyaviy qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar tuzilganda sotuvchi (bundan emitent mustasno) O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga bitim summasining 0,01 foizi miqdorida yig'im to'laydi. Bunda sotuvchining, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezidentining tuzilgan bitim bo'yicha daromadlariga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinmaydi.

Qimmatli qog'ozlarga doir narxlarning, talab va taklifning darajasini saqlab turish uchun birja bitimlari tuzilganda market-meyker birjaga, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankiga yig'implar va boshqa to'lovlar to'lashdan ozod qilinadi.

Emitentlar qimmatli qog'ozlarni mustaqil ravishda, shuningdek, banklar va investitsiya vositachilari orqali joylashtirish huquqiga ega.

Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish quyidagi turlarda amalga oshirilishi mumkin:

-qimmatli qog'ozlarni xususiy joylashtirish (oldindan ma'lum bo'lgan, soni cheklangan investorlar orasida ommaviy e'lon bermagan va reklama kompaniyasi o'tkazmagan holda yopiq obuna qilish);

-qimmatli qog'ozlarni ommaviy joylashtirish (soni cheklanmagan investorlar orasida reklama kampaniyasini o'tkazgan holda ochiq obuna qilish).

Qimmatli qog'ozlar chiqarilishining eng kam yoki eng ko'p hajmi emitent tomonidan belgilab qo'yiladi.

Aksiyalarning ochiq obunasi qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdosidagina o'tkaziladi.

Banklar va investitsiya vositachilari emitentlar tomonidan chiqarilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishining joylashtirilgan qismini sotib olish majburiyatini olib yoki olmagan holda emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni emitent nomidan sotish to'g'risida emitentlar bilan shartnomalar tuzishi mumkin.

Joylashtirilayotgan qimmatli qog'ozlarning soni emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan qimmatli qog'ozlar sonidan ortiq bo'lmasligi kerak.

Emitent emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning haqiqatda joylashtirilgan sonini ularning chiqarilishi yakunlari to'g'risidagi bildirishnomada ko'rsatadi. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi yakunlari to'g'risidagi bildirishnomani taqdim etish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Emitent chiqarilayotgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishni ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda nazarda tutilgan muddatda tugallashi shart, bu muddat qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran bir yildan oshmasligi kerak.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni ommaviy joylashtirish emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi axborot belgilangan tartibda oshkor qilinganidan keyin kamida ikki hafta o'tgach amalga oshiriladi.

Emitent, shuningdek u bilan shartnomaga ko'ra emissiyaviy qimmatli qog'ozlar joylashtirilishini amalga oshiruvchi banklar va investitsiya vositachilari mazkur qimmatli qog'ozlar olinguniga qadar investorga qimmatli qog'ozlar emissiya risolasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish shartlari bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlashi shart.

Hujjatsiz shakldagi emissiyaviy qimmatli qog'ozlar ushbu qimmatli qog'ozlar joylashtirilishi muddati ichida ularning haqi to'liq to'langanidan va ular oluvchilarning depo hisobvaraqlariga o'tkazilganidan keyin joylashtirilgan hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar muomalasi qimmatli qog'ozlar bozorida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bitimlar tuzish orqali amalga oshiriladi. Bunda aksiyalarning oldi-sotdi bitimlari qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdosidagina amalga oshiriladi, aksiyadorlarning talabiga ko'ra aksiyalarning aksiyadorlik jamiyati tomonidan qaytarib sotib olinishi bundan mustasno.

Davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirish va ularning muomalasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.



Depozit sertifikatlarini joylashtirish va ularning muomalasi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Veksellarni joylashtirish va ularning muomalasi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari quyidagilardir:

- fond birjasi;

- fond bo'limini tashkil etgan valuta birjasi;

- qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi.

Qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari rioya etilishi shart bo'lgan qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil qilish qoidalarini tasdiqlaydi.

Qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari o'z faoliyatini tegishli litsenziya asosida amalga oshiradi.

Qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari sotuvchidan sotuvga qo'yilayotgan qimmatli qog'ozlarni oldindan baholash o'tkazilishini talab qilishga, agar bunday talab qonun hujjatlarida belgilanmagan bo'lsa, shuningdek, qimmatli qog'ozlarni ularning nominal qiymatidan past narxda realizatsiya qilishga taqiq belgilashga haqli emas.

Kliring qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchisi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda bitimlar natijalari bo'yicha qimmatli qog'ozlardagi va pul mablag'laridagi hisob-kitoblar qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchisining kliring topshirig'i asosida amalga oshiriladi.

Kliringni amalga oshirish tartibi qonun hujjatlari va qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil qilish qoidalari bilan belgilanadi.

Investitsiya vositachisi tomonidan investorga yetkazilgan zararining o'rmini qoplash uchun qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchisi har bir investitsiya vositachisiga tegadigan vositachilik haqining chegirib qolinadigan qismi hisobidan kafolat fondini shakllantiradi. Kafolat fondining mablag'lari investitsiya vositachilariga tegishli bo'lib, har bir investitsiya vositachisi bo'yicha alohida shakllantiriladi va hisobga olinadi.

Kafolat fondining mablag'laridan boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas va ushbu mablag'lar investitsiya vositachisiga u inves-

litsiya vositachisi sifatidagi faoliyatini tugatgan taqdirda qaytarilishi kerak.

Kafolat fondini shakllantirish va undan foydalanish tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

### **5.3. Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat**

Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiriladi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat quyidagilar sifatida amalga oshiriladi:

- investitsiya vositachisi;
- investitsiya maslahatchisi;
- investitsiya fondi;
- investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi;
- transfer-agent;
- qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi.

Litsenziya talabgoriga uning arizasiga binoan qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni yoki mazkur faoliyat turining bir qismini amalga oshirish uchun litsenziya berilishi mumkin. Litsenziya talabgori bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirishga litsenziya berilganligi uchun davlat boji va litsenziya talabgorining litsenziya berish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqqanlik uchun yig'im to'lashdan ozod qilinadi. Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni birga qo'shib olib borish uchun belgilangan cheklovlar hisobga olingan holda beriladi.

Qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisining malaka guvohnomasi bo'lgan kamida ikki xodimga ega yuridik shaxslargina (investitsiya fondi bundan mustasno) qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisining malaka guvohnomasi besh yil muddatga beriladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarning tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Chet el tashkiloti tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat yangi yuridik shaxsni — qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisini tashkil etish yoxud faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxsning — qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisining ustav kapitalida ishtirok etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Investitsiya fondining faoliyati boshqa turdagi faoliyat bilan birga qo'shib olib borilishi mumkin emas.

Transfer-agent investitsiya vositachisining va qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchisining professional faoliyatini amalga oshirishga haqli emas.

Professional faoliyatni birga qo'shib olib borish va qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalarni o'tkazishga doir qo'shimcha cheklovlar qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Mijozning topshirig'iga binoan, mijoz nomidan va uning hisobidan qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar hamda operatsiyalarni amalga oshiruvchi qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi investitsiya vositachisidir.

Investitsiya vositachisi mijozlarining qimmatli qog'ozlari va pul mablag'lari, agar qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, investitsiya vositachisining o'z hisobvaraqlaridan alohida hisobvaraqlarda turishi kerak.

Investitsiya vositachisi har bir mijozning qimmatli qog'ozlari va pul mablag'lari hisobini yuritishi, qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar va operatsiyalarni mijoz bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshirishi, tuzilgan bitimlar va amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risida unga hisobot berishi shart.

Investitsiya vositachisi mijozlarning qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotishga buyurtma berish, o'tkazish borasidagi topshiriqlarini vijdonan hamda ularning kelib tushishi tartibida bajarishi kerak. Mijozlarning topshirig'iga binoan amalga oshiriladigan bitimlar investitsiya vositachisining o'z dilerlik operatsiyalariga nisbatan ustun ravishda bajarilishi kerak.

Agar investitsiya vositachisi tomonidan tegishli topshiriq olinguniga qadar investitsiya vositachisi va uning mijozlari o'rtasidagi mijoz xabar-

dor qilinmagan manfaatlar to'qnashuvi mijozga zarar yetkazilishiga olib kelsa, investitsiya vositachisi zararning o'rnini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplashi shart.

Investitsiya vositachisi tomonidan investitsiya vositachisi sifatidagi faoliyatni to'xtatib turish, tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan yoki u tugatilgan taqdirda, tegishli axborot qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran ikki ish kuni ichida ommaviy axborot vositalarida va fond birjasining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi. Investitsiya vositachisi sifatida o'z faoliyatini to'xtatib turayotgan, tugatayotgan yoki tugatilayotgan investitsiya vositachisida hisobi yuritilayotgan qimmatli qog'ozlar mijozning qaroriga ko'ra bir haftalik muddatda boshqa investitsiya vositachisiga o'tkaziladi, bunday qaror mavjud bo'lmagan taqdirda esa, qimmatli qog'ozlarning egasi tanlagan investitsiya vositachisiga qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan muddatlarda keyinchalik o'tkazish uchun Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga (faoliyatni to'xtatib turish hollari bundan mustasno) o'tkaziladi.

Yuridik shaxsni — investitsiya vositachisini tugatish Kapital bozorini rivojlantirish agentligi roziligi olinganda keyingina amalga oshirilishi mumkin.

Investitsiya vositachisi depozitar operatsiyalarni amalga oshirayotganda:

- manfaatdor shaxslarning qimmatli qog'ozlarni va pul mablag'larini hisobga olish qoidalari bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlashi;

- deponentlarning har biriga tegishli qimmatli qog'ozlarning soni va nominal qiymati hisobini yuritishi;

- qimmatli qog'ozlarga majburiyatlar yuklatilganligi, shuningdek ularning tugatilganligi faktlari hisobini yuritishi;

- qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar tuzish va mijozlarning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar bajarish uchun asos bo'lgan birlamchi hujjatlarni idoraviy arxivda saqlashi;

- depo hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni deponentlarning yoki ular vakil qilgan shaxslarning yozma topshiriqlari asosida amalga oshirishi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

- deponentning qimmatli qog'ozlarga bo'lgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarini uning depo hisobvarag'idan tegishli ko'chirma bergan holda tasdiqlashi;

- mijozlarning hisobvaraqlaridagi qimmatli qog'ozlar va pul

mablag'larining mavjudligi va harakati, ularning holati to'g'risidagi axborotning maxfiyligini ta'minlashi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

-depo hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining, monopoliyaga qarshi davlat organining, shuningdek sudning, surishtiruv va tergov organlarining qarorlari asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'xtatib turishi;

-o'z faoliyatiga taalluqli ma'lumotlarni qimmatli qog'ozlar bozori ni tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining, davlat soliq xizmati organining, monopoliyaga qarshi davlat organining, shuningdek sudning, surishtiruv va tergov organlarining yozma talablariga ko'ra qonun hujjatlarida belgilangan doirada va tartibda taqdim etishi;

-o'zi etkazgan zararining o'rnini qoplash maqsadida kafolat fondini shakllantirishda ishtirok etish, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikni sug'urta qilish yo'li bilan qoplash imkoniyatini nazarda tutishi;

-qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrini shakllantirish uchun zarur bo'lgan qimmatli qog'ozlarning egalari to'g'risidagi ma'lumotlarni Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining talabiga ko'ra taqdim etishi;

-o'zida hisobga olinadigan qimmatli qog'ozlar va ularning emitentlari rekvizitlariga Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysidan olingan ma'lumotlar asosida o'zgartirishlar kiritishi shart.

Investitsiya vositachisining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Investitsiya vositachisi tomonidan mijozlarning pul mablag'larini hisobga olish va ularning but saqlanishini ta'minlash tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi masalalari, qimmatli qog'ozlar bozori va uning ishtirokchilari holatini tahlil etish hamda istiqbolini belgilash bo'yicha maslahat xizmatlari ko'rsatuvchi, shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassislarini qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs investitsiya maslahatchisidir.

Investorlarning pul mablag'larini va qo'yilmalarini investitsiya aktivlariga jalb qilish maqsadida aksiyalar chiqaradigan yuridik shaxs — aksiyadorlik jamiyati investitsiya fondidir.

Investitsiya fondi yuridik shaxsning boshqa tashkiliy-huquqiy shakllariga o'zgartirilishga haqli emas. Investitsiya fondini qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirish uchun investitsiya fondiga berilgan litsenziyaning amal qilishini tugatish yoki uni bekor qilish investitsiya fondining belgilangan tartibda tugatilishiga olib keladi.

Investitsiya fondi quyidagi huquqlarga ega emas:

- korporativ va infratuzilma obligatsiyalarini, shuningdek imtiyozli aksiyalarni chiqarish;

- fond sof aktivlarining 10 foizidan ortig'ini bir emitentning qimmatli qog'ozlariga yoki mas'uliyati cheklangan jamiyatning ulushiga investitsiyalash;

- to'lanishi lozim bo'lgan qarzning jami hajmi kredit va (yoki) qarz bitimi imzolanadigan sanadagi holatga ko'ra investitsiya fondi sof aktivlari qiymatining 15 foizidan oshib ketgan taqdirda kredit va (yoki) qarz mablag'larini jalb etish. Kredit va (yoki) qarz muddati uch oydan oshib ketmasligi kerak;

- kafil bo'lish, mol-mulknini yoki mulkiy huquqlarni garovga qo'yish;

- tashkiliy-huquqiy shakli o'z ishtirokchilarining qo'shimcha javobgarligini nazarda tutadigan yuridik shaxslarning qimmatli qog'ozlariga investitsiyalarni amalga oshirish;

- investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchisi, auditorlik tashkilotlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga investitsiyalarni amalga oshirish;

- boshqa investitsiya fondlarining aksiyalarini olish va ularga ega bo'lish;

- umumiy summasi fond sof aktivlarining 10 foizidan ortiq investitsiyalarni amalga oshirish, bundan qimmatli qog'ozlarga qo'yish mustasno.

Yuridik shaxsning — ishonchli boshqaruvchining o'ziga egalik qilish uchun topshirilgan va boshqa shaxsga tegishli bo'lgan:

- qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan investitsiya aktivlarini boshqarish jarayonida olinadigan qimmatli qog'ozlarni;

- qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish uchun mo'ljallangan va investitsiya aktivlarini boshqarish jarayonida olinadigan pul mablag'larini shu shaxsning yoki u ko'rsatgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab, o'z

nomidan ishonchli boshqaruvni belgilangan muddat mobaynida amalga oshirishi investitsiya aktivlarini boshqarish bo'yicha faoliyatdir.

Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish tizimiga taalluqli hujjatlarning qabul qilinishi, ularga ishlov berilishi va ularning o'tkazilishi bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs transfer-agentdir.

Emitent, shuningdek qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar tuzuvchi shaxslar transfer-agentning mijozlaridir.

Transfer-agent emitentga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini tashkil etish va o'tkazish yuzasidan xizmatlar ko'rsatishga haqlidir.

Investorlarga vositachilarni jalb etmay turib savdoda ishtirok etish imkoniyatini beruvchi, qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil etish bo'yicha faoliyatni buyurtmalar qabul qilish punktlaridan, maxsus kompyuter savdo tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiruvchi yuridik shaxs qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisidir.

Qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi faoliyatini amalga oshirish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdosida qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar natijalari bo'yicha pul mablag'larining hisob-kitoblari O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tomonidan amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdosida qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar natijalari bo'yicha qimmatli qog'ozlardagi hisob-kitoblar Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va (yoki) investitsiya vositachisi tomonidan amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilari, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi qimmatli qog'ozlar bozorida o'zlari amalga oshirayotgan barcha operatsiyalar va bitimlarning hisobini yuritadi, ularni hisobga olishga doir hujjatlarning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlaydi.

Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisi va uning mijosi munosabatlari qonun hujjatlari hamda shartnoma bilan tartibga solinadi.

Mijozlar hisobidan bitimlar tuzish mijozlar bilan tuzilgan shartnomalar asosida faqat investitsiya vositachisi va investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Investitsiya vositachisi uzaytirish imkoniyati bilan bir yil uchun tuziladigan shartnoma asosida mijozlarga:

- mijozning nomidan va hisobidan brokerlik xizmatlari;
- o'z nomidan, lekin mijozning hisobidan brokerlik xizmatlari;
- depozitar xizmatlar ko'rsatadi.

Investitsiya vositachisi mijozlarga depo hisobvaraqlari ochishga, qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish uchun ularning topshiriqlarini qabul qilishga, shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi hamda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar sohasidagi maxsus vakolatli organ tomonidan belgilangan tartibda mijozlarga elektron shaklda va o'zga aloqa vositalari orqali boshqa xizmatlarni ko'rsatishga haqli.

#### **5.4. Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish**

Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysida va (yoki) investitsiya vositachisida ochiladigan qimmatli qog'ozlar egalarining depo hisobvaraqlarida amalga oshiriladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Investitsiya vositachisi o'z mijozlarining hisobvaraqlarida uning Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysidagi hisobvaraqlarida jamlab hisobga olib boriladigan hujjatsiz qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlari hisobini yuritadi.

Hujjatsiz qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar oluvchiga uning depo hisobvarag'i bo'yicha tegishli kirim yozuvi kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

Nettingdan foydalanilganda qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlar o'tishining o'ziga xos xususiyatlari qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Egasining nomi yozilgan hujjatli qimmatli qog'ozga bo'lgan mulk huquqi oluvchiga qimmatli qog'oz blankasiga belgilangan tartibda tegishli yozuv kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi.

Qimmatli qog'oz bilan tasdiqlanadigan huquqlar ushbu qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar o'tgan paytdan e'tiboran oluvchiga o'tadi.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi davlat unitar korxonasi shaklida tashkil etiladi hamda faoliyatini xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadlar va boshqa tushumlar hisobidan amalga oshiradi.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi xizmatlari uchun tariflarning miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan keli-



shilgan holda qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining mutlaq vazifalari quyidagilardan iborat:

- qimmatli qog'ozlarni hisobga qo'yish;
- hujjatli qimmatli qog'ozlarni saqlash;
- qimmatli qog'ozlar chiqarilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni saqlash;

- qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrlarini yuritish;
- davlatning qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarini, shuningdek qimmatli qog'ozlarni boshqarish bo'yicha davlat vakolat bergan shaxslarning qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarini hisobga olish;
- investitsiya vositachilarining depo hisobvaraqlarini yuritish;
- qimmatli qog'ozlardagi hisob-kitoblarni belgilangan tartibda amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan chiqarilgan, O'zbekiston Respublikasi hududida muomalaga kiritilgan qimmatli qog'ozlarni hisobga olish;

- O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan chiqarilgan, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida muomalaga kiritilgan qimmatli qog'ozlarni hisobga olish;

- agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, investitsiya fondlari tomonidan chiqarilgan va ularga tegishli qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish;

- Deponentlarning yagona bazasini yuritish;

- O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan chiqarilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarga xalqaro kodlarni berish;

- depo hisobvaraqlari bo'yicha emissiyaviy qimmatli qog'ozlar harakati to'g'risidagi axborotni to'plash va tizimlashtirish.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrlarini yuritishga doir vazifalarini bajarayotganda investitsiya vositachilaridan mazkur reyestrlarni shakllantirish uchun zarur ma'lumotlarni so'rash va olishga haqli.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

*Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi:*

- manfaatdor shaxslarning qimmatli qog'ozlarni Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysida saqlash va hisobga olish qoidalari bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlashi;

-saqlash uchun qabul qilib olingan hujjatli qimmatli qog'ozlarning but saqlanishini ta'minlashi;

-o'zining har bir deponentiga tegishli qimmatli qog'ozlar sonining va nominal qiymatining hisobini yuritishi;

-qimmatli qog'ozlarga majburiyatlar yuklatilganligi, shuningdek ularning tugatilganligi faktlari hisobini yuritishi;

-o'z deponentlarining depo hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishga asos bo'lgan birlamchi hujjatlarni idoraviy arxivda saqlashi;

-o'z deponentlarining depo hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni deponentlarning yoki ular vakil qilgan shaxslarning yozma topshiriqlari asosida amalga oshirishi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

-o'z deponentining qimmatli qog'ozlarga bo'lgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarini uning depo hisobvarag'idan tegishli ko'chirma bergan holda tasdiqlashi;

-depo hisobvaraqlari bo'yicha qimmatli qog'ozlarning mavjudligi va harakati, holati to'g'risidagi axborotning maxfiyligini ta'minlashi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

-o'z deponentining depo hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining, monopoliyaga qarshi davlat organining, shuningdek sudning, surishtiruv va tergov organlarining qarorlari asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'xtatib turishi;

-o'z faoliyatiga taalluqli ma'lumotlarni qimmatli qog'ozlar bozori-ni tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining, davlat soliq xizmati organining, monopoliyaga qarshi davlat organining, shuningdek sudning, surishtiruv va tergov organlarining yozma talablariga ko'ra qonun hujjatlarida belgilangan doirada hamda tartibda taqdim etishi shart.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrlarini yuritish vazifasini bajarayotganda:

-qimmatli qog'ozlar egalarining belgilangan sanadagi holatga ko'ra shakllantirilgan reyestrlarini saqlashi;

-qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrlaridagi mavjud axborotni qonunchilikka muvofiq taqdim etishi;

-qimmatli qog'ozlar egalarining reyestrlaridagi mavjud axborotning maxfiyligini ta'minlashi shart.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining zimmasida qimmatli qog'ozlar egalarning reyestrlerini yuritish vazifasini bajarayotganda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi:

-o'ziga saqlash uchun topshirilgan qimmatli qog'ozlardan foydalanishga;

-boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga moliyaviy yordam ko'rsatishga;

-boshqa yuridik shaxslarning ustav fondida ishtirok etishga haqli emas.

Deponent quyidagi huquqlarga ega:

-o'z depo hisobvarag'idagi qimmatli qog'ozlarni qonun hujjatlarida belgilangan doirada va tartibda tasarruf etish;

-investitsiya vositachisiga va (yoki) Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga o'z depo hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni bajarish yuzasidan topshiriqlar berish (uchinchi shaxslar oldida majburiyatlar yuklatilgan qimmatli qog'ozlarni qimmatli qog'ozlarga majburiyatlar yuklatish tugallanganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etmasdan o'tkazishga doir farmoyish bundan mustasno), so'rovlar kiritish, topshiriqlar bajarilganligi to'g'risida hisobot talab qilish;

-hujjatsiz va harakatsizlantirilgan hujjatli qimmatli qog'ozlarga bo'lgan mulk huquqini hamda boshqa ashyoviy huquqlarni hisobga olishni investitsiya vositachisiga va (yoki) Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga topshirish;

-shartnoma shartlariga muvofiq o'z depo hisobvarag'ining holati haqida ko'chirma va o'z depo hisobvarag'i bo'yicha o'tkazilgan operatsiyalar to'g'risida hisobot olish.

Deponent qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Deponent:

-o'z vakolatli shaxsining vakolatlari tugatilganligi yoki o'zgartirilganligi to'g'risida investitsiya vositachisini va (yoki) Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysini xabardor qilishi;

-o'z rekvizitlaridagi barcha o'zgarishlar haqida investitsiya vositachisiga va (yoki) Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysiga xabar berishi;

-investitsiya vositachisi va (yoki) Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi yozma xabarlarining to'g'riligi va to'liqligini tekshirishi

hamda aniqlangan noaniqliklar haqida ularga o‘z vaqtida xabar berishi shart.

Deponentning zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Hujjatli qimmatli qog‘ozlarning but saqlanishi ularning egalari tomonidan, ular Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysiga topshirilgan taqdirda esa mazkur depozitariy tomonidan qimmatli qog‘ozlarni saqlash joylarida depozitar operatsiyalar standartlariga muvofiq ta‘minlanadi. Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysida saqlanadigan va hisobga olinadigan qimmatli qog‘ozlarning but saqlanishi texnik tizimda no-ozliklar yuzaga kelganda va kutilmagan vaziyatlar ro‘y bergan taqdirda, Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi ma‘lumotlar axborot bankining qo‘shimcha saqlab turish va tezkor tiklash tizimi orqali ham ta‘minlanadi.

Hisobga olish registrlaridagi elektron yozuvlarning but saqlanishini ta‘minlash tartibi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar sohasidagi maxsus vakolatli organ tomonidan qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi bilan birgalikda belgilanadi.



1. Qimmatli qog'ozlarning chiqarilish shakli.
2. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilish.
3. Korporativ va infratuzilma obligatsiyalarini chiqarish shartlari.
4. Aksiyalarga doir opsiyonni chiqarish shartlari.
5. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish.
6. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish.
7. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun yig'im.
8. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining yagona davlat reyestri.
9. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishini to'xtatib turish, emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishini amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topish.
10. Davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish.
11. Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish va ularning muomalasi shartlari.
12. Qimmatli qog'ozlarga doir bitimlarni tuzish va ro'yxatdan o'tkazish.
13. Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish.

---

---

## VI bob. TOSHKENT RFB FAOLIYAT MEXANIZMI

### 6.1. Toshkent RFBning tashkil etilishi va huquqiy asoslari

Toshkent Respublika Fond Birjasi 1994-yil 8-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, hususiy mulkni himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish choralari to‘g‘risida”gi 1994-yil 21-yanvardagi 745 Farmoniga va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 26-yanvardagi 36-qaroriga muvofiq tashkil qilingan.

Toshkent RFBning faoliyati Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar va xususiylashtirilgan davlat korxonalari negizida ochiq aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil qilish siyosati bilan uzviy bog‘liqdir.

Fond bozori O‘zbekiston uchun iqtisodiyotda pul tushumining qayta taqsimlanishining yangi sistemasi hisoblanadi. Hozirgi kunda Fond birjasi o‘zining tizimlari orqali g‘oyat katta hajmdagi aktivlarni o‘ziga jalb qiladi, ular bozorda yixilib, yaxlit holga keladi, shundan keyin bu aktivlar iqtisodiyotning ko‘p jihatdan raqobatbardosh hisoblangan sohalariga yo‘naltiriladi.

Fond birjasi qimmatli qog‘ozlar savdosini amalga oshirishning eng rivojlangan shaklidir. Eslatib o‘tish joizki, Fond birjasi qimmatli qog‘ozlar savdosi amalga oshiriladigan va qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari tomonidan oldi-sotdi savdolari amalga oshiriladigan o‘ziga xos tashkillashtirilgan bozordir.

Fond birjasi birinchi navbatda, qimmatli qog‘ozlar bozorining tashkilotchisi sifatida samarali savdolari o‘tkazish borasida zarur bo‘lgan barcha sharoitlarni vujudga keltirish bilan shug‘ullanadi. Hozirda amal qilayotgan ochiq birja savdolari ishtirokchilarning aynan qatnashuvini talab qilgani holda, garchi ishtirokchilar kompyuter yordamida o‘zlarining ish joylarida, idorada bo‘lganlari holda savdolarda qatnashish imkoniyatiga ega bo‘lishlariga qaramasdan, ular uchun joriy etilgan savdoni boshqarishda belgilangan qoidalarga barcha ishtirokchilar tomonidan amal qilinishi majburiy tartib hisoblanadi.

Toshkent Respublika Fond birjasi hozirgi kunda respublikaning barcha viloyatlardagi filial va 84 brokerlik idoralarini o'zida mujassam qilgan tashkilotdir.

Birja hozirda o'z mijozlarining har qanday ish joyidan savdolarida qatnashuvini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lgan eng zamonaviy jihoz-uskunalar va kompyuter programmasiga ega.

1994-yil - qimmatli qog'ozlar birja savdolarining yillik aylanmasi 30 mln. so'mni tashkil qildi. Birjada 13 ta brokerlik idorasi ro'yxatga olindi.

1995-yil - brokerlik idoralari soni 83 taga yetdi, qayd qilingan bitimlar hajmi 1,3 mlrd.so'mdan oshdi. Samarqand, Andijon va Buxoro shaharlarida birjaning dastlabki sho'balari ochildi.

Birja Yevroosiyo fond birjalari Federatsiyasiga (Istambul) a'zo bo'ldi.

1996-yil savdolar hajmi - 2,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Fond birjasi O'zbekiston Birjalar Markazining yangi binosiga ko'chib o'tdi.

Real vaqt davomida viloyatlardagi 12 ta filiallar ishtirokida haftada 5 marta savdolar o'tkazilishi imkoniyati mavjud bo'lgan umumiy electon tizimi joriy etildi.

1997-yil savdolar hajmi 2,3 mlrd.so'mni tashkil qildi. Jahon standartlariga mos keladigan birja standartlari qabul qilindi.

1998-yil savdolar hajmi 3,5 mlrd. so'mga yetdi. "Toshkent" RFB-da listing tartibi joriy etildi. "Buxoroteks" aksiyadorlik jamiyati O'zbekistonning birinchi listing korxonasi sifatida qayd etildi.

Shu yili rasmiy birja ro'yxatiga "Buxoroteks", "Paxtabank", "O'z-sanoatqurilishbank", "O'zbekiston metallurgiya kombinati" va "Allabank" dan iborat beshta aksiyadorlik jamiyatlari kiritildi.

Toshkent RFB Yevroosiyo fond birjalari Federatsiyasi ijroiya qo'mitasiga a'zolikka saylandi.

## **6.2. Toshkent RFBning faoliyat va asosiy yo'nalishlari**

Toshkent Respublika Fond birjasi 1999-yil chet el investorlariga erkin muomaladagi valutaga aksiyalar sotish bo'yicha maxsus savdo maydonchasi o'z faoliyatini boshladi. Yil mobaynida birja savdolari aylanmasi 3,8 mlrd. so'mni tashkil qildi, shu jumladan erkin muomaladagi valutaga 1,4 mln. AQSH dollariga teng bitimlar imzolandi.

Istambul (iyun) va Frankfurt (sentabr) fond birjalari bilan o'zaro hamkorlik va axborot almashuvi to'g'risidagi shartnomaga imzo chekildi. Rivojlanib borayotgan fond bozorlarining ko'pgina birjalari bilan aloqalar va axborot almashuvi yo'lga qo'yildi, Yevroosiyo fond birjalari Federatsiyasi bilan hamkorlik yanada faol tus oldi.

2000-yil - fevral oyidan birjaning fond indeksi TASIX amal qila boshladi. Unda birjaning fond bozoridagi mavqei, ahvoli aks ettirilgan bo'lib, doimiy ravishda ommaviy axborot vositalarida chop qilib borildi.

Aprel oyidan buyon ikkiyoqlama uzluksiz auksion usulida aksiyalar savdosini amalga oshirish imkoniyatini yaratadigan elektron savdo tizimi ishga tushirildi.

Zamonaviy WEB-texnologiyaga asoslangan bu tizim Respublikaning qimmatli qog'ozlar birja bozorining likvidligi va oshkoraligi ta'minlanishida o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Yil davomida qimmatli qog'ozlar bilan qilingan operatsiyalar bo'yicha birja aylanmasi 5,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, shu jumladan, erkin muomaladagi valutaga sotish hajmi 249,9 ming AQSH dollarini tashkil qildi.

2001-yil - Birjaning Internet tizimida (www.uzse.uz) WEB-sayt ishlab chiqildi va qo'llana boshlandi. Birja saytida birja to'g'risidagi butun axborot aks ettiriladigan bo'ldi.

Listing tartibi soddalashtirildi va "O'zuyjoyjamg'armabank" oltinchi bo'lib listing korxonolari safiga kiritildi.

Yil mobaynida birja aylanmasi 8,0 mlrd. so'mni tashkil qildi, shu jumladan erkin muomaladagi valutaga 794,9 ming AQSh dollariga aksiyalar sotildi.

2002-yil qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha yillik aylanma 17,4 mlrd. so'mdan iborat bo'ldi, bitimlarda 94 brokerlik idoralari ishtirok etdilar.

May oyidan boshlab korporativ obligatsiyalar muomalasi bo'yicha savdo maydoni amal qila boshladi. Obligatsiyalar bo'yicha yillik aylanma 1,2 mlrd so'mdan ziyod bo'ldi.

Iyun oyida ikkilamchi bozorda birinchi marotaba erkin muomala-dagi valutaga bitim amalga oshirildi. 2002-yilda birjada chet el valutasiga 1,7 mln. AQSH dollarlik 27 bitim amalga oshirildi.

2003-yil - qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha yillik aylanma hajmi 35,7 mlrd. so'mni tashkil qildi, shu jumladan, erkin muomaladagi valutaga 8,3 mln. AQSH dollariga aksiyalar savdosi amalga oshirildi.



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 196-sonli “Qimmatli qog‘ozlar ikkilamchi bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining 3-bandiga asosan, Toshkent Respublika fond birjasi, istisno tariqasida, 3 yil muddatga qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lashdan ozod qilindi, bo‘shab qoladigan mablag‘lar uning savdo va axborot tizimlarini rivojlantirishga va asbob-uskunalar xarid qilish maqsadida yo‘naltirilishi belgilandi.

Birja potensial investorga taqdim etish uchun aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati, aksiyalarning bahosi va to‘langan dividendlari haqidagi axborot tizimini ishlab chiqib, tadbiriq qila boshladi.

2003-yil sentabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 26-avgustdagi 368-sonli “Past rentabelli, zarar ko‘rib ishlayotgan, iqtisodiy nochor davlat korxonalarini va obyektlarini xususiy lashtirishni jadallashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, birja savdolariga qo‘yilgan obyektlar bahosini bosqichma-bosqich pasaytirish mexanizmi yo‘lga qo‘yildi. O‘tkazilgan tadbirlar natijasida aksiya paketlarining nominal bahosi 1,8 mlrd. so‘m bo‘lgani holda 415 ta aksiyadorlik korxonalarining 4,1 mln dona aksiyalari, nominal narhi 1,8 mlrd. so‘m bo‘lgani holda, provard natijada 2,6 mlrd. so‘mga sotildi.

Birinchi marta “Toshkent” Respublika Fond birjasida aksiyalari “A” toifasi bo‘yicha listing tartibini o‘tgan aksiyadorlik jamiyatlari soliqqa tortishda berilgan imtiyozdan foydalandilar.

“Listing tartibi”dan o‘tgan korxonalar

1. “O‘zsanoatqurilishbank” AK.
2. “Paxta bank” AK.
3. “Quvasoytsement” OAJ.
4. “O‘zuyjoyjamg‘armabank” AK.
5. “G‘alla bank” AK.
6. “Kvarts” OAJ.

**Toshkent RFBning tashabbuslari.** Fond birjasi potensial investorlarni, qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilarini to‘la ravishda axborot bilan ta‘minlash maqsadida, Internet tizimida ([www.uzse.uz](http://www.uzse.uz)) adresi bilan WEB - saytni ishga tushirdi. Ushbu WEB-sayt o‘zbek, rus va ingliz tillarida O‘zbekiston Respublikasining tashkillashgan fond bozori haqida to‘laqonli axborotni o‘zida mujassamlashtirgan.

Birja saytida har kuni birlamchi va ikkilamchi bozorda savdoga qo‘yilgan korxonalarining eng yangi listinglari bilan tanishish va olish mumkin. Shuningdek, obligatsiyalar kotirovkalarining jarayoni bilan ta-

nishish, O'zbekistonning har qaysi aksiyadorlik jamiyatlarining timsoli, nomi, depo kodi haqida ma'lumotlar topishingiz mumkin. Bulardan tashqari, saytda TASIX (TASHKENT AGGREGATE STOCK EXCHANGE INDEX) fond bozorining kundalik o'sishi, yoki kamayishi haqidagi ma'lumot, O'zbekiston bo'yicha so'nggi iqtisodiy yangiliklar, asosiy valutalarning kurslari yoritib boriladi. Saytda qonunchilikka doir, brokerlar haqidagi, savdolarga doir va boshqa ma'lumotlar o'rin olgan.

MDHda qo'llanilmagan asosiy yangi usullardan biri - O'zbekistonning aksiyadorlik jamiyatlarining foto-listingi bo'lib, uning yordamida ma'lum korxonalar joylashgan manzilga bormay turib, emitentlarning foto-suratlarda aks ettirilgan manzaralari asosida umumiy ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Joriy etilgan bu yangi usul xizmat safariga ajratilgan mablag'ning anchagina tejaliishiga olib keladi, shu bilan birga korxonaning ahvoli bilan foto tasvir yordamida yaqindan tanishish imkoniyatini yaratadi. Birjaning foto-listingi yangi korxonalar hisobiga doimiy ravishda yangilanib turiladi.

Mamlakat fond bozori kapitalining chet el bozorlari bilan hamkorligini ta'minlash, hamda birjaning ish jarayoniga horijiy mamlakatlarda qo'llanilayotgan umumiy standartlarni joriy etish maqsadida, 2003-yilning aprel oyidan boshlab, "Toshkent" RFB ning rasmiy saytida "Axborot-tahlil tizimi"ni tashkil qilish bo'yicha ish olib borilmoqda.

"WEB-sayt"ning "Axborot-tahlil tizimi"ni tashkil etishning keng qamrovli dasturining mohiyati shundan iboratki, Birja internet orqali har bir emitentning moliyaviy-iqtisodiy ahvoli va bozorning holati haqidagi umumiy tasavvurni hosil qiladi. "WEB-sayt"ning "Axborot-tahlil tizimi"ga esa, moliyaviy-iqtisodiy ahvol, bozorning faollik darajasi, moliyaviy barqarorlik, emitentning to'lovni amalga oshirish imkoniyati, foyda ko'rib ishlash qobiliyati, ishdagi faolligi, shu bilan birga, barcha viloyatlardagi emitentlar haqida, ularning faoliyat ko'rsatish sohalari haqidagi statistik ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlar kiritilgan.

"WEB-sayt"da "Axborot-tahlil tizimi"ning tashkil etilishi nafaqat, tayyor axborotni kuzatish, balki hisobotlarni elektron tarzda qabul qilib, shakllantirish va chuqur tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Keyingi o'n yil ichida obro'li chet el birjalari o'rtasidagi integratsiya aloqalari kuchayib bormoqda.

**Toshkent Respublika fond birjasining xalqaro aloqalari.** Birjalarning yaxlit halqaro savdo tizimi negizida birlashuvi ular faoliyatining ustuvor yo'nalishiga aylanib bormoqda.

Toshkent Respublika fond birjasi ham korporativ qimmatli qog'ozlar jahon bozori integratsiyasi yo'lidan bormoqda. 1995-yilda Birja (FEAS) Yevroosiyo fond birjalari Federatsiyasiga a'zo bo'ldi. 1999-yilning iyun oyida Istanbul fond birjasi bilan, sentabr oyida Frankfurt fond birjasi bilan hamkorlik va axborot almashish haqida bitimlar imzolandi. Sentabr oyida birja MDH birjalari xalqaro assotsiatsiyasiga a'zo bo'ldi.

Shuningdek, rivojlanib borayotgan bir qator birjalar bilan o'zaro aloqalar va axborot almashuvi yo'lga qo'yildi.

2001-yilning sentabr oyida Respublika fond birjasi MDH mamlakatlari birjalarining xalqaro assotsiatsiyasiga a'zo bo'lib, Toshkent RFB Kuzatuv Kengashining raisi A.A.Kayrlapov mazkur assotsiatsiyaning Kengashiga a'zo etib saylandi.

Respublika yuqori tashkilotlari bilan birgalikda mamlakatimiz emitentlari aksiyalarining London fond birjasi listingidan joy olishi masalasi hal qilinmoqda, bir necha chet el birjalari bilan mustahkam aloqalarni yo'lga qo'yish rejalashtirilmoqda.

Toshkent RFB xalqaro jarayonlar va xalqaro taraqqiyotning faol ishtirokchisi bo'lmog'i darkor, tabiiyki, bu darajaga faoliyati jihatidan aloqador, ilmiy-nazariy salohiyatga ega bo'lgan tashkilotlar, respublika-dagi biznes vakillarining yordami bilan erishish mumkin bo'ladi.

Buning uchun Toshkent RFBning savdo tizimiga eng yangi texnologiyani keng ravishda tatbiq qilish, o'z aksiyalarini yirik fond birjalari-ga (New York, Tokio, London) sotuvga qo'yish maqsadida Moviy fishkalar, deb nomlangan kompaniyalar sirasiga kiruvchi kompaniyalar safini vujudga keltirish uchun Respublika fond birjasi faoliyatini butun jihatlarini bo'yicha xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish lozim bo'ladi.

Savdo sessiyalarini o'tkazish vaqti: har kuni soat 10:00 dan 17:00 gacha amalga oshiriladi. Bugungi kunda 133 ta aksiyadorlik jamiyati listingdan o'tgan va ular aksiyalari erkin muomalada savdoga qo'yilgan.

### **6.3. Toshkent RFB faoliyatining tahlili**

2018-yil yakunlariga ko'ra Toshkent Respublika fond birjasida birja savdolari hajmi 687,3 mlrd. so'mga yetadi, bu o'tgan yilga nisbatan 2,3 barobar ko'p (2017-yil – 298,6 mlrd. so'm).




251 savdo  
kuni

10 062 650 mingta sotib  
yuborilgan korporativ  
qimmatli qog'ozlar



13 750  
birja bitmi

RFB Toshkent RFBda tuzilgan bitmlar miqdori 13 750 tani tashkil qiladi (2017 yil – 2 572 bitm). Jami hisobot davrida 117 ta АЖНИНГ 10 062 650 ming dona aksiya sotoldi (2017 yil ucjun 99 ta AJ).



6.1-rasm. 2014-2018 yillarda birja aylanmalari dinamikasi, mlrd so'm<sup>31</sup>

<sup>31</sup> Toshkent Respublikasi fond birjasi rasmiy ma'lumotlari asosida tayyorlandi. //www.uzse.uz.

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2018-yilda birja aylanmalari dinamikasi 2017-yilga nisbatan keskin yuqori sur'atda o'sgan.


6.1-jadval

**Toshkent RFB birja aylamasi ko'rsatkichlar tahlili<sup>32</sup>**

Ko'rsatkichlar	2017y.	2018y.	▲ O'zgarish o'sish ▼ pasayish
Qimmatli qog'ozlari birjada muomalada bo'lgan AJ soni	99	118	▲ 19
Bitimlar soni, dona.	2 572	13 750	▲ 11 178
Qimmatli qog'ozlar soni, mln dona	1 551,6	10 062,6	▲ 8 511
Bitimlar miqdori, mlrd. So'm	298,6	687,3	▲ 388,7

<sup>32</sup> Toshkent Respublikasi fond birjasi rasmiy ma'lumotlari asosida tayyorlanadi. //www.uzse.uz.

Birja faoliyatining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri birja bitimlarining soni hisoblanadi.



**6.2-rasm. 2004-2018-yillarda Toshkent RFBda tuzilgan bitimlar soni (dona)<sup>33</sup>**

<sup>33</sup> Toshkent Respublikasi fond birjasi rasmiy ma'lumotlari asosida tayyorlanadi. //www.uzse.uz.

Ularning soni o'sishi investorlarning faolligi oshib borayotganligini va bozorda yangi, likvidli va qiziqarli vositalar paydo bo'lishini ko'rsatadi.

Ularning soni o'sishi investorlarning faolligi oshib borayotganligini va bozorda yangi, likvidli va qiziqarli vositalar paydo bo'lishini ko'rsatadi.

So'nggi uch yil ichida, aniqrog'i, 2015-2017-yillar oralig'ida 2500-3100 birlik oralig'ida birja operatsiyalari soni o'zgarishi kuzatildi. 2018-yilda birja bitimlari soni 6 barobar oshdi. Bunday keskin o'zgarishning sababi birlamchi ("KVARTS" aksionerlik jamiyatining aksiyalari IPO) va ikkilamchi ("KMZ" aksionerlik jamiyatining SPO) bu kompaniyalarning aksiyalari ommaviy taklifi "Toshkent" RFBda ommaviy taklifdan iborat. Bu erda umumiy hajmda 9,87 mlrd. so'mlik 6 147 ta bitim imzolandi.

Hisobot davrida qimmatli qog'ozlar bilan quyidagi bitimlar bilan tuzilgan:

**Yagona dasturiy-texnik kompleks (YaDTK) savdo tizimida: aksiyalar bozorida "Stock Market" sektsiyalarda:**


- ✓ asosiy («Main Board») – 7 480 ta bitim 433,15 mlrd. so'm;
- ✓ kliringsiz jismoniy shaxslar uchun bitimlar bo'yicha ("NC Board") – 68 ta bitim 38,65 mln. so'm;
- ✓ "Nego Board" muzokarali kim oshdi savdosi rejimida - 51 ta bitim 240,24 mlrd. so'm;
- ✓ **"Bond Market" obligatsiyalar bozorida** asosiy sektsiyada ("Main Board") - 3 ta bitim 237,21 mln. so'm;
- ✓ **amaldagi sado birja tizimida:** aksiyalar paketlarini sotish bo'yicha sektsiyada (blok-treying) – 1 ta bitim 3,77 mlrd. so'm.

### ***Birja aylanmasining tarmoqlar bo'yicha tarkibiy tuzilishi***

Xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlari kesimida qimmatli qog'ozlar birja aylanmasi quyidagicha bo'ldi:

- iqtisodiyotning **moliya sektori korxonolari ulushiga** birja aylanmasining 88,8%i yoki 610,3 mlrd. so'm, jumladan, banklar – birja aylanmasining 86,0%i yoki 591,0 mlrd. so'm, sug'urta kompaniyalari 10,9 mlrd. so'm (1,6%) va lizing kompaniyalari – 8,3 mlrd. so'm (1,2%) tashkil qildi. 2017-moliya sektorining ulushi birja aylanmasining 87,8%i yoki 262,2 mlrd. so'mni tashkil qildi;

## 2018-yil birja aylanmasi tarmoq strukturasi



6.3-rasm. Birja aylanmasining tarmoqlar bo'yicha tarkibiy tuzilishi<sup>34</sup>

- **agrosanoat kompleksi ulushi** – 2,5% yoki 17,5 mlrd. so‘m (2017 y. – 9,2% yoki 27,3 mlrd. so‘m);


- **qurilish tarmog‘i korxonalari ulushi** – 2,3%, yoki 15,6 mlrd. so‘m (2017 y. – 0,5%, yoki 1,6 mlrd. so‘m).

- **sanoat sektori ulushi** – birja aylanmasida 2,3% yoki 15,6 mlrd. so‘m (2017 y. – 0,3% birji yoki 0,9 mlrd. so‘m).

<sup>34</sup> Toshkent Respublikasi fond birjasi rasmiy ma'lumotlari asosida to'lanadi. //www.uzse.uz.



## Korporativ qiymatli qog'ozlar narxining nominalga nisbati o'rtacha tarmoq koeffitsiyenti



6.4-rasm. Tarmoqlar bo'yicha korporativ qiymatli qog'ozlar narxining nominaliga nisbat o'rtacha koeffitsiyenti<sup>35</sup>

<sup>35</sup> Toshkent Respublikasi fond birjasi rasmiy ma'lumotlari asosida tayyorlandi. //www.uzsc.uz.

Hisobot yilida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarning umumiy sonining 52% dan ortig'i ularning nominal qiymatidan yuqori bo'lgan narxlarda tuzildi.

Shu bilan birga, eng yaxshi nisbati agro-sanoat kompleksi (8,5), aloqa sohasida (5,6), so'ngra qurilish sohasida (5,4) kompaniyaga to'g'ri keladi.


Umuman, korporativ qimmatli qog'ozlar narxining nominalga nisbati o'rtacha tarmoq koeffitsiyenti 2018- yil 3,5%ni tashkil qildi.

#### 6.4. Investorlar toifalari bo'yicha bozor tavsifi

Agar investorlar toifalari bo'yicha birja kechlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu yerda shuni ta'kidlash joizki, jismoniy shaxslarning investitsiya miqdori birja aylanmasining katta qismini tashkil qiladi – 392,6 mlrd. so'm, yoki umumiy birja aylanmasining 57,0%i.

Hisobot davrida yuridik shaxslarda investitsion faollikning o'sishi kuzatilib, birja aylanmasidagi ulushi 39,5%, yoki 271,4 mlrd. so'mni tashkil qildi.


Umuman, 2018-yil qimmatli qog'ozlar bilan savdolarda ishtirok etgan investorlar turlari bo'yicha birja bozori strukturasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:



#### 6.5-rasm. Investorlar turlari bo'yicha birja aylanmasi<sup>36</sup>

<sup>36</sup> Toshkent Respublikasi fond birjasi rasmiy ma'lumotlari asosida tayyorlandi. //www.uzse.uz.

## Bank sohasidagi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga kiritilgan investitsiyalar nisbati



6.6-rasm. Investorlar turlari bo'yicha birja aylanmasi<sup>37</sup>

<sup>37</sup> Toshkent Respublikasi fond birjasi rasmiy ma'lumotlari asosida tayyorlandi. //www.uzse.uz.

Tarmoqlar kesimida investitsiyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'tgan davr mobaynida jismoniy shaxslar bo'lgan investorlar orasida eng katta ishonchga banklarning qimmatli qog'ozlari - 90,2%, agrosanoat majmui - 3,8%, qurilish sohasi - 3,0%, shuningdek, davlat va xo'jalik boshqaruv organlari tarkibiga kirmaydigan subyektlar qimmatli qog'ozlari ega bo'lgan - jismoniy shaxslarning investitsiyalar hajmi 1,4%i .

## 6.5. Emitentlar tavsifi

2018-yil yakunlari bo'yicha birja savdolarida Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan aksiyadorlik jamiyatlaridan tashqari respublikaning barcha hududlarida joylashgan 117 aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ qimmatli qog'ozlari ishtirok etdi. Diagrammada korporativ qimmatli qog'ozlari o'tgan yil davomida faol savdoga qo'yilgan listing kompaniyalari ko'rsatilgan.





Diagramma 2018 yilda eng yuqori savdo hajmiga ega bo'lgan o'n-ta kompaniya korporativ qimmatli qog'ozlar savdosi hajmini ko'rsatadi.


2018 yil savdo hajmi eng katta bo'lgan elementlar  
top-10 (mlrd cʻm)



6.7-rasm. Yil davomida savdo hajmi bo'yicha eng katta ko'rsatkichga erishgan emitentlar<sup>38</sup>

<sup>38</sup> Toshkent Respublikasi fond birjasi rasmiy ma'lumotlari asosida tayyorlandi //www.uzse.uz.

Eng ko'p bitimlarning hajmi Toshkent shahri (67,7%) va Farg'ona viloyati (14,7%) korxonalari hissasiga to'g'ri keldi.



Farg'ona viloyatida tuzilgan bitimlarning hajmi bo'yicha 57,5% va Toshkent shahri - 19,1% ni tashkil etdi.


Hisobot yilida Farg'ona viloyatida jami emitentlarning 83% dan ortig'i "Universal Bank" XATBga tegishli bo'ldi.

2018 yil mintaqalar bo'yicha savdolar hajmi<sup>39</sup>

№	Mintaqalar nomi	Bitimlar soni, dona	Bitimlar umumiy miqdori, ming sum	Salmog'i %
1.	Andijon	1 254	91 418 887,3	13,3%
2.	Buxoro	211	2 975 900,2	0,4%
3.	Toshkent sh.	2 632	465 411 300,6	67,7%
4.	Jizzax	3	842,4	0,0%
6.	Qashqardaryo	70	24 051,6	0,0%
7.	Navoi	1 013	10 394 576,1	1,5%
8.	Namangan	1	244,5	0,0%
9.	Samarqand	50	67 590,8	0,0%
10.	Surxondaryo	1	382 034,6	0,1%
11.	Sirdaryo	5	226 763,4	0,0%
12.	Toshkent v	588	15 245 188,6	2,2%
13.	Farg'ona	7 905	100 943 909,8	14,7%
14.	Xorazm	17	212 568,0	0,0%
	<b>Jami</b>	<b>13 750</b>	<b>687 304 390,2</b>	<b>100%</b>

<sup>39</sup> Toshkent Respublikasi fond birjasi rasmiy ma'lumotlari asosida tayyorlandi //www.uzse.uz.

## "Kvarts" AJ aksiyalar narxida o'zgarish va aylanma dinamikasi




"Kvarts" AJ aksiyalari bilan Toshkent RFB ikkilamchi bozorida IPO o'tkazilgach, 2018 yil oxirigacha umumiy miqdori 1,5 mlrd so'm bo'lgan 1 431 ta bitim tuzildi.



2018-yil apreldan dekabrgacha boʻlgan davrda “Kvarts” AJ aksiyalar narxining barqaror 123% darajada oʻsishi kuzatildi. “Kvarts” AJ aksiyalari boʻyicha Fargʻona viloyatida tuzilgan barcha bitimlarning 93,5%i va Toshkent RFBda 2018-yil bitimlarning 62,2%i amalga oshirildi.


“Kvarts” AJ aksiyalarining ular Toshkent RFB ikkilamchi bozoriga chiqarilgan payitdan boshlab nominal va bozor qiymati



**2018-yil brokerlik idoralarining faoliyati.** 2018-yil yakunlari bo'yicha fond birjasida bitimlar tuzishda **brokerlik idoralari faolligi** quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.


Jami birja savdolarida 34 ta brokerlik idorasi ishtirok etdi.

Birjada tuzilgan bitimlar hajmi bo'yicha o'nta eng faol idora ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.



**6.8-rasm. Yil davomida fond birjasida tuzilgan bitimlar soni bo'yicha eng faol qatnashgan brokerlik idoralarining kuchli 10 lik (dona) <sup>40</sup>**

<sup>40</sup>Toshkent Respublikasi fond birjasi rasmiy ma'lumotlari asosida tayyorlandi //www.uzse.uz.



O'nta eng faol brokerlik idorasining tuzgan bitimlari umumiy birja aylanmasidagi ulushi 94,1%ni, bitimlar soni bo'yicha esa 88,0%ni tashkil qildi.


### 6.6. Toshkent RFB birja kotirovka varag'iga kiritilgan kompaniyalar tavsifi

Birja faoliyatining asosiy vazifalaridan biri aksionerlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlarning likvidligini nazorat ro'yxatiga kiritishdan iborat.


2018-yil boshida birja kotirovkalari ro'yxatida 189 ta korxon bor edi, bunda joriy yil davomida



kotirovka ro'yxatiga 21 ta qimmatli qog'ozlar kiritildi va 78 ta kompaniya uchun delisting qilindi, natijada 2017-yilning 31-dekabriga bo'lgan holatda 132 ta aksiyadorlar jamiyati birja kotirovkalari ro'yxatiga kiritilgan (31-dekabr 2017- yil holatiga - 186 ta aksiyadorlar jamiyati).



Birja kotirovkalari ro'yxati toifalari bo'yicha "A" toifasiga mos keladigan aksiyadorlar jamiyatlari soni 22 ta, "B" toifasiga mos keladigani 25 ta, "S" toifasiga mos keladigani 71 ta va "P" toifasiga mos keladigani 14 tani tashkil qiladi.



**6.9-rasm. Listing kompaniyalari sonining umumiy bozor kapitallashuviga nisbati<sup>41</sup>**

Listning kompaniyalari qatoridan tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, neft-gaz sanoati korxonalari, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar, agrosanoat majmui korxonalari, energetik va metallurgiya korxonalari kiradi.

<sup>41</sup>Toshkent Respublikasi fond birjasi rasmiy ma'lumotlari asosida tayyorlandi //www.uzse.uz.

## *Nazorat savollari*



- 
1. Toshkent Respublika fond birjasi faoliyatini tashki etishi.
  2. Toshkent Respublika fond birjasining tarkibiy tuzilishi.
  3. Toshkent Respublika fond birjasi bo'limlari va komissiyalarining faoliyati.
  4. Toshkent Respublika fond birjasida listing talablari.
  5. Fond birjasida aksiyalar kotirovkasi.
  6. Toshkent Respublika fond birjasi indeksi va uni hisoblash tartibi.
  7. Toshkent Respublika fond birjasida savdo tizimlari faoliyati.
  8. Fond birjasi savdo sektsiyalari faoliyat natijalari tahlili.
  9. Fond birjasi faoliyatini tartibga solish.
  10. Fond birjasi faoliyatidagi muammoli jihatlar va ularni bartaraf etish.

---

---

## VII bob. XORIJIY MAMLAKATLARDAGI FOND BIRJALARI FAOLIYAT MEXANIZMI

### 7.1. London fond birjasi

Yevropaning eng qadimiy va eng katta fond bozorlaridan biri London Stock Exchange - London fond birjasi hisoblanadi. Savdo maydonchasi Buyuk Britaniyaning poytaxti Londonda joylashgan bo'lib, hozirgi vaqtda ro'yxatga kiritilgan 4 mingga yaqin aksiyalarni o'z ichiga oladi, bu kapitalizatsiya qiymati 6 trln dollardan ortiq bo'lishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, dunyoning 46 ta rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida joylashgan 1000 ga yaqin kompaniya aksiyalari London fond birjasida ishtirok etmoqda. Shuning uchun London fond birjasi butun dunyo bo'ylab treyderlar va investorlar orasida juda mashhur.


London fond birjasi:

- kapitallashuv darajasi yuqori bo'lib, ushbu mezon bo'yicha dunyo miqyosida uchinchi o'rinda turadi (NYSE va NASDO dan keyin);
- xorijiy kompaniyalar aksiyalariga yo'l ochgan holda baynalmilal hisoblanadi;
- listingda keng kompaniyalar ro'yxatini qamrab oladi;
- amerika va evropa fond bozorlaridan mustaqil.

**London Stock Exchange tarixi.** Garchi London fond birjasi 1801-yil rasmiy tashkil etilgan deb hisoblansada, uning tarixi 1571-yildan boshlanadi. 1571-yil Britaniya qirollik moliyachisi Tomas Greshem qirolchadan uning fikriga ko'ra, savdo ishlari va munosabatlarini rivojlantirishda albatta ishtirok etishi shart bo'lgan birja savdo maydonchasi qurilishi uchun ruxsat olishga erishdi. Dastlab moliyaviy maslahatchi ishbilarmonlar va qo'y juni bilan savdo qiluvchilarni birlashtirishni rejalashtirgandi, lekin keyinchalik birja maydonchasida xilma-xil tovarlar sotuvchilari paydo bo'ldi. Shunisi e'tiborga loyiqlik, tashabbuskor Britaniya qirolidan bir chaqa ham so'ramagan va fond birjasini o'z mablag'idan qurdirgan. Albatta, Gresham Angliya birinchi fond birjasining asoschisi yoki kashf etuvchisi emas, chunki o'sha vaqtda Antverpenda Xofstraat ko'chasida, dengizchilar va olmos qazib oluvchilar va boshqalar to'planardi.

Uzoq vaqt davomida birja maydonchasida faqat tovar pozitsiyasi brokerlari joylashgan va faqat 1695-yildan boshlab davlat va korporativ qimmatli qog'ozlar muomalada paydo bo'lgan.

Greshemning fond birjasiga faqat saroy mulozimlari va zodagonlar vakillari kirish huquqiga ega bo'lgan, oddiy savdogarlar va olibsotarlar dilerlar ushbu fond birjasida savdo qila olmaganlar. Shunda zoti past savdogarlar tuz, porox, lola va boshqa mahsulotlar sotish uchun shartnoma tuzish maqsadida birjadan narida joylashgan kofe do'koniga yig'ila boshladilar. Nyu-Yorkda NYSE birjasini tashkil qilishda ham xuddi shunday holat kuzatilgan. Britaniyalik ishbilarmonlar Jonathans Coffee House qahvaxonasida to'planishardi.



1697-yil Buyuk Britaniya hukumati birjadagi savdogarlar sonini yuz kishigacha qisqartirish va litsenziyasiz ishlayotgan treyderlar uchun



katta jarima solishga qaror qildi. Tabiiyki, bu rasmiy birjada savdolar-ning pasayishiga olib keldi, chunki maklerlarning katta qismi Exchange Alley savdo alleyasiga ko'chib o'tgandi. Asta-sekin bu kafe va xiyobon kabi joylar ko'payib ketdi va tobora ko'plab savdogarlar, sanoat va ishlab chiqarish vakillari rasmiy fond maydonchasiga qaraganda ochiq, tartibga solinmagan fond birjalari maydonchalarida to'plana boshlashdi. 1773-yil Sviting xiyobonida yana bir fond birjasi tashkil qilindi va qirolichaning taqiqlashiga qaramay, treyderlar 1801-yil birja uchun bino qurdilar. Aynan shu sana, aniqrog'i, 1801-yil 3-mart kuni London fond birjasi faoliyat ko'rsata boshlagan sana hisoblanadi va aynan shu bino birja uyiga aylandi.

Bundan tashqari, 1801-yilda barcha brokerlarning rasmiy ro'yxatdan o'tishi e'lon qilindi va bu London fond birjasini Yevropadagi birinchi mahalliyashtirilgan tartibga solingan bozorlardan biriga aylantirdi. Endi birjada nazorat yo'lga qo'yilgan bo'lib, avvalgidek, a'zolik badalini to'lamagan har bir shaxs emas, balki faqat ro'yxatga olingan ishtirokchilar bitim tuzishi mumkin bo'di. 1812-yilga birjaning rasmiy reglamenti tayorlanib, unda birja bitimi qatnashchilarining majburiyatlari va kafolatlari, ilgari o'rnatilgan barcha qoidalar batafsil tasvirlan. Xususiy vakillar bitimlarni faqatgina brokerlik agentliklari orqali amalga oshirishlari mumkin edi.

XIX asrning keyingi yillari London fond birjasi uchun dastlabki ko'tarilish davri bo'ldi, chunki bu davrda po'lat eritish, temiryo'l, tog'kon sanoati va qayta ishlash kompaniyalari, qurilish, moliya va sug'urta sektori konglomeratlari jadal rivojlanib brogan edi. Shunga ko'ra, ushbu kompaniyalar aksiyalarni sotish va qo'shimcha daromad olish uchun fond birjasiga murojaat qildilar. Bunday shov-shuv, texnik jihatdan birjaning tegishli rivojlanishlarini talab qildi, bu esa ko'p xarajatlarga olib keldi. Biroq menejment bu vazifani muvaffaqiyatli bajarib, zamonaviy telegraflar o'rnatildi, AQSH va Yevropa fond birjalari bilan aloqa o'rnatildi va savdo maydonchalarining soni ortdi. 1900-yillar boshlarida London Fond birjasi Yevropada eng ommaviy va talabchan birjalardan biriga aylandi, uning maydonchalari listingiga 3 mingdan ortiq kompaniya kirgan.

Biroq, o'sish davri tez orada Yevropada Birinchi jahon urushi boshlanganligi sababli tushkunlik davri bilan almashldi. 1914-yil yozidan beri London fond birjasi deyarli yarim yilga yopildi va 1915-yil boshida mumkin bo'lgan yo'qotishlarni cheklash maqsadida London fond birjasi tashkilotchilari valuta operatsiyalarining barcha ishtirokchi-

lari uchun juda ko'p cheklov choralarini kiritdilar. Urush oqibatida Yevropada umumiy ahvolda tushib qolgan vaziyat bilan birgalikda bunday tadbirlar ishtirokchilarning va, shunga ko'ra, birja bo'yicha kapitalning kuchli chiqib ketishiga olib keldi. Analitik hisob-kitoblarga ko'ra, aynan shu paytda London fond birjasi jahon fond bozorida eng nufuzli mavqeini yo'qotgan.



Yevropada Ikkinchi Jahon urushining boshlanishi, London fond birjasi faoliyatiga ham ta'sir qildi - savdo 1939-yil 1-sentabrdan 7-sentabrigacha to'xtatildi. Urushdan keyingi yillarda birja tashkilotchilari 60-

yillarning o'rtalarida amalga oshirilgan savdo maydonchasi hajmini va rivojlanishini faollashtirish dasturini boshladi. Shu davrdan boshlab birja yana faol reklama rivojlanishni boshladi va 1972-yilga kelib 2.1 ming kvadrat metr maydonga ega bo'lgan yana bir bino barpo etildi. Shuningdek, bu yil ular birja jarayonlarini avtomatlashtirishni amalga oshira oldilar va 1973-yilda London fond birjasiga Shotlandiya va Irlandiyadagi 11 ta birja qo'shildi.

*1986- yil 27-oktabr LFB tarixida Buyuk portlash yoki Portlovchi dushanba sifatida belgilandi. O'sha kuni London fond birjasida brokerlar, dilerlar va maklerlar uchun auksion o'tkazish shartlari sezilarli darajada o'zgardi, komissiya to'lovlari tartibi qayta ko'rib chiqildi va elektron savdolarga o'tildi.*

Angliya birja maydonchasining yanada faol rivojlanishi shakllanishning ikkinchi bosqichi bo'ldi va bu holat okeanorti raqobatchilari tomonidan ham qayd etildi. Shiddat bilan o'sib borgan amerika fond maydonchasi NASDAQ o'z xoldingi tarkibiga LFB qo'shib olish istagini bildirdi va uni 2.4 milliard funt sterlingga baholadi. LFB bu pulni juda kam hisoblab, ushbu taklifni rad etdi. Amerikaliklar bunga javoban London birjasi aksiyalarini chetdan faol sotib ola boshladilar. 2007-yilgacha NASDAQ LFB aksiyalarining 28,7%ini to'pladi, biroq yakunda birja aksiyalari paketini BAA birjasi Borse Dubai ga sotdi. LFB o'z navbatida, bozordagi pozitsiyasini kuchaytirish uchun qator harakatlarni amalga oshirdi, masalan, boshqa birjalar bilan bir nechta M&A bitimlari tuzib, Italif fond birjasi bilan birlashdi. Bunday harakatlar natijasida London birjasi rasman London Stock Exchange Group nomli kompaniyaga aylandi

## **7.2. LSE zamonaviy birjasi**

Hozirgi vaqtda London fond birjasi ro'yxatida 4000 dan ortiq kompaniya mavjud. Ulardan ba'zilar 46 davlatdan kelgan xorijiy kompaniyalardir. Bu London fond birjasini Yevropaning eng yirik fond bozori va kapitallashuv, aylanma mablag'lar va ro'yxatga olish bo'yicha dunyodagi 3-o'rinni egallashiga olib keldi. U butun dunyodagi eng yirik konglomeratlar uyushmasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan xalqaro maydonchadir. Bundan tashqari, London fond birjasi Yevropada derivativlar va obligatsiyalar uchun eng yirik bozor hisoblanadi.

LSE birjasi aksiyadorlik korporatsiyasi hisoblanadi va uning aksiyalari o'z listingida xarid qilish uchun ochiq. Birja hamjamiyati a'zolari 400 dan ortiq birlashtirilgan kompaniyalar bo'lib, ularning orasida kliring kompaniyalari, brokerlar, dilerlar, market-meykerlar, investitsiya banklari va boshqalar mavjud.



Birja maydonchasidan foydalanish uchun emitent kompaniya birja tomonidan o'rnatilgan bir qator mezonlarga javob berishi kerak - har biri kamida 700 ming funt sterlingga ega bo'lishi, barcha boshlang'ich buxgalteriya, moliyaviy va tijorat hisobotlarini to'liq oshkor etishi, aksiyadorlarning maksimal og'irligi 30 foizdan oshmasligi va aksiyalarning kamida 25 foizi tashqi investorlar qo'lida to'plangan.

London fond birjasida savdo va muomala uchun 4 ta bozor sek-siyasi mavjud:

- premium – Premium Listed Main Market – listingdagi eng yirik kompaniyalar aksiyalari ochiq bo‘lgan asosiy bozor.
- muqobil – Alternative Investment Market – kapitallashuv kichik bo‘lgan kompaniyalar bozori.
- depozitar tilxatlar va qarz qimmatli qog‘ozlari bozori – Professional Securities Market.
- institutsional mutaxassislar bozori – Specialist Fund Market.

Qoidaga ko‘ra, tahlilchilar, investorlar va treyderlar bozorlar haqi-da gapirganda faqat PLMM va AIM ikkita sektsiyani ajratib ko‘rsatadi, chunki qolganlar oddiy mijozlar uchun ochiq emas.

LSE fond bozori ish kunlari grinvich bo‘yicha soat 8 dan 16-30 ga-cha ishlaydi. Bundan tashqari, savdo sessiyasida bir qator o‘ziga xos va qo‘shimcha farqlar mavjud. Masalan, 07-15 dan 07-30 gacha kompa-niyalar hisoboti informingi ro‘y beradi, 07-50 dan 08-00 gacha auktsion ochiladi va orderlar savdo terminallarida bajariladi, 8 dan 16-30 gacha asosiy savdo sessiyasi bo‘lib o‘tadi, 16-30 dan 16-35 ga qadar indekslar qayta hisoblab chiqiladi va bitimlar 16-35 dan 17-00 gacha belgilangan narxlarda amalga oshiriladi, mablag‘larni depozit qilish va olish uchun arizalar olinadi va 17-00 dan 17-15 gacha bo‘lgan vaqtda kompaniya hisobotlari reklama qilinadi.

*Oldin hamma savdo operatsiyalari TradElect savdo maydonchasi orqali amalga oshirilgan, biroq yaqinda birja qatnashchilari foy-dalanuvchilar uchun intuitiv tushunarli va tezkor sanalgan yangilangan Millenium Exchange yangilangan platformasiga o‘tildi.*

London fond birjasi Financial Times bosma moliyaviy sharhlov-chilar bilan birga bir nechta birja indekslarini hisoblab chiqdi. Ularning eng mashhurlari 100 ta eng yirik britan kompaniyalar kotirovkasini birlashtirgan va Angliya iqtisodiyotining ahvoli ko‘rsatkichi hisoblangan FTSE-100 sanaladi. Shuningdek, birinchi yuztalikdan keyingi 250 ta yirik kompaniya indekslari FTSE-250 va FTSE Small Cap Index kichik kapitallashuv kompaniyalar indekslari ommaviydir.

***London fond birjasida 1 mlrd dollar miqdorida O‘zbekiston yevrobondlarini joylashtirdi.***

London fond birjasida O‘zbekiston umumiy miqdori 5 va 10 yil bo‘lgan ilk davlat xalqaro obligatsiyalarini joylashtirdi. Talab 150 inves-tordan 3,8 mlrd. dollarni tashkil qildi, xabar beradi Moliya vazirligi matbuot xizmati birja hisobotiga havola qilgan holda.

5 yillik qimmatli qog'ozlar daromadliligi yillik 4,75%ni, 10 yillik qimmatli qog'ozlar daromadliligi yillik 5,375%ni tashkil qildi.

Geografik taqsimot nuqtayi nazaridan, Buyuk Britaniya investtorlari 5 va 10 yillik transhlarda mos ravishda 39% va 32% ulushni oldilar. AQSH investorlari ulushi 23% va 31%, kontinental Yevropa ulushi 32% va 27%; Osiyo, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika investorlari mos ravishda 6% va 10% ga ega bo'ldi.

Investorlar kesimida, mablag'larning 75%i va 78%i boshqaruvchi aksiyalar va fondlar, 20%i va 16%i sug'urtachilar, pensiya fondlari va suveren fondlar tomonidan olindi. Banklar ulushi 5% va 6%ni tashkil qildi.

“Yevroobligatsiyalarni ilk chiqarish muvaffaqiyati investorlarning O'zbekistonda kuchli iqtisodiy islohotlariga bo'lgan, shuningdek, qarz-larni boshqarish bo'yicha strategiyasiga bo'lgan ishonchni aks ettiradi”, - deyiladi birja xabarida.

Birja quyidagi asosiy tezlarni keltirib o'tadi:

- yevroobligatsiyalar bozoriga joylashtirish juda muvaffaqiyatli bo'ldi;

- O'zbekistonning davlat korxonlari va boshqa korporatsiyalar va moliyaviy institutlar tomonidan kelgusida yevrobondlarni joylashtirish uchun mustahkam poydevor yaratildi;

- 2019-yilda suveren obligatsiyalarni joylashtirish MDH davlatlari orasida birinchi bo'ldi.

### **7.3. Nyu-York fond birjasi**

**Nyu-York fond birjasi (NYSE)** – savdo aylanmasi va uning listingiga kiradigan aksiyalar bozor qiymati bo'yicha dunyodagi eng yirik birja. 1792-yil asos solingan, Uoll-stritda joylashgan (Nyu-York, AQSH).

Birjada 2800 dan ortiq kompaniya aksiyalari, asosan, havorang fishkalar va tez rivojlanayotgan kompaniyalar aksiyalari muomalada bo'ladi. Nyu-York fond birjasida savdo qilish uchun emitentlar qat'iy lisiting talablariga javob berishi lozim, chunki birja nufuzini ta'minlash maqsadida kotirovka ro'yxatiga ishonchli qimmatli qog'ozlar kiritiladi.



Korporatsiyalar aksiyalari Nyu-York fond birjasida kotirovka qilinishi uchun u quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'lishi lozim:

- oxirgi yil uchun soliqqa tortishgacha bo'lgan foyda kamida 2,7 mln dollar;

- so'nggi ikki yil uchun sof foyda 3 mln dollardar ortiq;

- baholash paytida moddiy aktivlar sof qiymati 18 mln dollardan ortiq;

- aksiyalar kurs qiymati 19 mln dollardan ortiq bo'lishi lozim;

- erkin muomaladagi aksiyalar umumiy qiymati 1,1 mln dollardan ortiq bo'lishi lozim;

- oxirgi yarim yillik davomida aksiyalar bilan o'rtacha oylik savdo hajmi kamida 100 ming dollar bo'lishi kerak.

XX asr o'rtalarigacha savdolar uzluksiz auksion shaklida tashkil qilingan, bu yerda treyderlar operatsiyalarni investorlar nomidan amalga oshirishi mumkin bo'lgan. 1956-yildan boshlab hozirgi kungacha bitimlar elektron maydonchalardan foydalangan holda amalga oshirilmoqda, hozirgi kunda Nyu-York fond birjasidagi aksiyalarni dunyoning istalgan nuqtasidan turib sotish va sotib olish mumkin.

Nyu-York fond birjasi (NYSE) – eng yirik savdo maydonchalari guruhi: NYSE - Nyu-York fond birjasi – dunyodagi eng dastlabki va kapitallashuv darajasi bo'yicha yirik birjalardan biridir, NYSE Euronext – Yevropadagi eng yirik qimmatli qog'ozlar birjasi va NYSE Alternext – rivojlanayotgan mamlakatlar Yevropa fond bozori. Nyu-York fond birjasi tarixi 200 yildan ortiqni tashkil qiladi. U 1792-yil 24 ta Nyu-york brokerlari tomonidan tashkil qilingan. Shundan buyon Nyu-York fond birjasi faqat ommaviylashib bormoqda. Birja faoliyatidagi so'nggi tendensiyalar boshqa fond birjalarini qo'shib olish va birlashtirishga yo'naltirilmoqda.



2005-yilning aprelida NYSE rahbariyati eng yirik elektron savdo tarmoqlaridan biri (ECN) va o'z raqobatchisi Archipelago ni sotib olish



istagini ma'lum qildi. 2006-yil dekabrda NYSE rahbariyati Archipelago sotib olishga ovoz berdi, shundan keyin NYSE eng ommaviy tijorat tashkilotiga aylandi. Bir yildan ortiqroq vaqt o'tgach, NYSE Group Parijda joylashgan Euronext maydonchasini sotib oldi (Yevropa fond birjasi) va uni o'zining ilk transatlantika fond birjasiga aylantirdi. So'nggi yillarda esa MDH mamlakatlari bilan ishlayotgan NYSE brokerlari soni ham o'sdi. Dunyodagi aksiyalar bilan savdo qilish bo'yicha yetakchi birja sifatida rahbariyat NYSE da samarali savdo texnologiyalarini kuzatib, doimiy takomillashtirib bormoqda.

2007-yil 24-yanvarda NYSE birjasida gibrid bozor joriy qilindi, mutaxassislar roli esa minimum holatga keltirildi. Barcha aksiyalar bo'yicha bitimlar elektron tizim orqali amalga oshirila boshladi (kam sonli juda qimmat aksiyalarni istisno qilganda). Hozirgi paytda mijozar orderlarining katta qismi elektron tizim bilan qayta ishlanmoqda. Hozirgi kunda MDH mamlakatlarida NYSE birjasida savdo tobora ommaviylashib bormoqda, ulkan vositalar, likvidlik va ishonchlilik jalb qilmoqda. Shuningdek, treyderlar, NYSE aksiyalari bilan savdo uchun brokerlar soni o'smoqda.

NYSE Arca birja investitsiya mahsulotlari bilan savdo hajmi va listing bo'yicha amerika birjalari orasida yetakchi pozitsiya egallaydi. U orqali Adobe, Apple, Dell kabi AT-bozor grandlari savdo qiladi. Saxo Bank Dunyo birjalari loyihasini davom ettiradi. 2013-yil boshida NYSE Euronext uning NYSE Arca bo'linmasi-to'liq

avtomatlashtirilgan rejimda ishlaydigan va offlayn savdo amalga oshirmaydigan elektron birja maydonchasi birja investitsiya mahsulotlari bilan savdo hajmi va listing bo'yicha amerika birjalari orasida yetakchi pozitsiya egallashini e'lon qildi.



2012 yil bu yerda qariyb 150 ta yangi ETP listingdan o'tli, ular orasida 116 ta ETF (Exchange Traded Funds - birja investitsiya fondlari, yoki boshqacha aytganda birja XIF), 23 ta ETN (Exchange Traded Note - birja indeks notalari) va 8 ta ETV (Exchange Traded Vehicles - birja indeks vositalari). NYSE Arca orqali masalan, Adobe Systems Inc., Apple, Cisco Systems, Dell, Hewlett-Packard, IBM, Microsoft, Nokia, Oracle kabi axborot texnologiyalari bozori grandlari savdo qiladi.

**NYSE da ishlash afzalliklari.** Bu fond birjasining faol treyderlar va treyding uchun afzalliklari yaqqol ko'zga tashlanib turadi:

- jahon iqtisodiyotining mingdan ortiq yetakchi kompaniyalari juda likvidli aksiyalari ulkan soni, bundan har kuni o'nlab kompaniyalar deytreyderlarga ham, investorlarga ham treydingda pul ishlab olishga imkon beradigan kuchli va aniq harakatlar namoyish etadi;

- buyurtmalarni bajarishning eng rivojlangan va kuchli tizimi, bir onda istalgan hajmda internet-treyding amalga oshirish imkonini bergan *любих объемов*;

- eng rivojlangan axborot infratuzilmasi. Kompaniyaning choraklik hisobotlari, statistika ma'lumotlari qat'iy jadval asosida chiqariladi va maxsus saytlarda bepul e'lon qilinadi (saytning o'ng tomonida, Moliyaviy portallar ro'yxati), kompaniya bo'yicha eng muhim yangiliklarni kuzatish mumkin, choraklik hisobotlar asosiy savdo sessiyasi ochilishidan oldin yoki yopilganidan keyin chiqariladi; shu tariqa treyder bozor ochilmasidan turib qaysi aksiyalarga faol savdo va kuchli harakatlar bo'lishini, qaysi aksiyalar bilan ishlashini biladi;


- ma'lumotlar va yangiliklar qat'iy jadvalga rioya qilgan holda chiqarilishi treyder pozitsiyasini kutilmagan yangiliklar bilan g'aflatda qoldirish riskini minimallashtiradi. Bundan tashqari, har bir kompaniya va tarmoq bo'yicha ko'plab moliyaviy portallarda so'nggi yangiliklar, grafiklar va batafsil axborot olish mumkin;

- o'nlab turli xil strategiyalarni qo'llash imkoniyati: bir necha soniya ichida pozitsiyalarni ushlab turish, darajadan savdolashish, kuchli harakatlar bilan savdo qilish, bir necha kun davomida o'z pozitsiyalarini ushlab turish, juftliklar savdosi va boshqalar.

**Nyu-York fond birjasida listing.** Nyu-York fond birjasida 2800 dan ortiq kompaniya listingdan o'tgan, shundan 450 tasi – 53 mamlakatdan xorijiy kompaniyalardir. Listingdan o'tgan kompaniyalar “havorang fishka” deb ataladigan ishonchli, barqaror kompaniyalardan ham, yosh va jadal rivojlanayotgan kompaniyalardan ham iboratdir. Yangi kompaniyalar birjada o'z aksiyalarini ommaviy joylashtirishgandan (initial

public offering - IPO) keyin kotirovka varaqlariga kiritiladi. Listingdan o'tish uchun kompaniyalar birjaning qat'iy moliyaviy va huquqiy talablariga javob berishi lozim. Listingdan o'tgan kompaniyalar a'zolik badallari to'lashi lozim. Hozirgi paytda NYSE kotirovka varag'i ko'p jihatdan xorijiy kompaniyalar aksiyalari hisobiga to'ldiriladi.

**Qimmatli qog'ozlar listing.** Amerikalik kompaniya NYSE da muvaffaqiyatli ro'yxatdan o'tishi uchun uning moddiy aktivlari 18 mln dollardan ortiq, oxirgi yil uchun daromad 2,5 mln dollardan ortiq, kamida 1,1 miln dona aksiyasi hamda har biri yuztadan ortiq aksiyaga ega bo'lgan kamida 2 mingta aksiyadori bo'lishi kerak. Yuztadan ortiq aksiyaga ega bo'lgan aksiyadorlar soni 1200 kishigacha kamayganda yoki 600 mingdan kam aksiyasi qolganda, yoki aksiyalarning umumiy bozor qiymati 5 mln dollardan tushib ketganda kompaniya aksiyalar qayta listing jarayondan o'tkaziladi. To'g'ri, ayrim holatlarda bu ko'rsatkichlarga tuzatishlar kiritilishi mumkin.



Kompaniyaning aksiyalari bir vaqtning o'zida bir nechta birjada kotirovka qilinishi mumkin. Ba'zi hollarda NYSE da ro'yxatga olin-

magan kompaniyalarning aksiyalari, agarda ular boshqa fond birjalarida listingdan o'tgan bo'lsa, sotilishi mumkin. Xususan, bu ba'zi xorijiy kompaniyalar bo'lishi mumkin. Ular bo'yicha asosiy savdo xorijiy birjada, qo'shimcha savdolar NYSE da bo'lib o'tadi.

**NYSE birjasi "havorang fishkalari".** 1817-yilga kelib, Nyu-York Fond Birjasida 30 ta kompaniya aksiyalari bilan savdo qilina boshladi. Direktorlar kengashi raisi har kuni savdo qilinadigan aksiyalar to'liq ro'yxatini e'lon qilardi. Savdolar ochilishi bilan brokerlar ularning har biri uchun alohida ajratilgan joydan, birjaning operatsion zalidagi o'rnidan sotish va sotib olish narxlarini ma'lum qilardi. Hozirgi kunda esa 1366 ta o'ringning katta qismi ko'plab yirik firmalar va mutaxassislar mulki hisoblanadi. Uzoq 1800 yil bitta o'rin 25 dollar turgan, ikki yuz yildan keyin esa – 2 mln dollardan ortiqni tashkil qiladi. 1999-yil dekabrda bu ko'rsatkich 2,6 mln. dollarga etdi.

**"Havorang fishkalari" tushunchasi.** NYSE ameikaning ko'p yillik moliyaviy an'analari saqlovchisi ekanligiga qaramay, birja zamon bilan hamnafas bo'lib, savdo sharoitlarini investorlar va ommaviy kompaniyalar talablariga moslashtirmoqda. Aynan shu sababli savdo maydonchasi hozirgi vaqtda savdo qilinadigan aksiyalar bo'yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi.



**NYSE birjasi ishini tartibga solish.** Vijdonsiz bozor qatnashchilarini aniqlash - bu o'z-o'zini boshqaruvchi tashkilot sifatida birjaning vazifalaridan biridir. Hech kim fond bozori kabi o'zini qattiq va yaxshilab tartibga solmaydi. Professional ishtirokchilar uchun qat'iy talablar va standartlar, keng ko'lamlı tartibga soluvchi xizmat tizimi - bular ishtirokchilarning faoliyatini nazorat qilish choralari hisoblanadi. Bozorning yaxlitligini himoya qilish va qo'llab-quvvatlash fond bozorida tartibga soluvchi piramida deb nomlangan to'rtta asosiy guruhning birgalikdagi sa'y-harakatlari orqali erishiladi. U quyidagi tashkilotlardan iborat:

- AQSH Kongressi. Kongress Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha komissiyasiga a'zolar taklif etadi va uning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun javob beradi. Shuningdek, u qimmatli qog'ozlar bozorida qonuniy faoliyat uchun va qimmatli qog'ozlar bozorida yangi tashkilotlarni shakllantirish, masalan, "Fond bozorida investorlarni himoya qilish tashkiloti" uchun mas'uldir;

- qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha Komissiya. 1934-yilgi Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonunga binoan tashkil etilgan Federal agentlik. Qonunda aksiyalarning yangi emissiyalarini majburiy tarzda o'z vaqtida va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish belgilab qo'yilgan. Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha Komissiya barcha milliy investitsiya kompaniyalari, brokerlik firmalari va qimmatli qog'ozlar bozorida ishlaydigan boshqa tashkilotlar ustida nazorat qiluvchi organ hisoblanadi. Komissiya Kongressga fond bozorini tartibga solish va himoya qilishga qaratilgan yangi qonun hujjatlari qabul qilishni tavsiya qiladi. Komissiya qoidalari va standartlarini buzganlar qattiq jazolanadi – jarima solinadi, litsenziyadan mahrum etiladi, shuningdek, birja a'zolidan chiqariladi;

- NYSE va boshqa o'zini-o'zi tartibga soladigan tashkilotlar. Nyu-York fond birjasi bu o'zini-o'zi tartibga soladigan tashkilot bo'lib, xodimlarining uchdan bir qismidan ortig'i aynan qimmatli qog'ozlar bozorini standartlashtirish va tartibga solish masalalari bilan shug'ullanadi. NYSE 1000 sahifadan ortiq qoida va standartlar ishlab chiqqan va e'lon qilgan bo'lib, ular NYSE barcha savdo qatnashchilari tomonidan bajariladi;

- individual brokerlik firmalari. Piramidaning bu pog'onasi NYSE a'zosi bo'lgan 400 dan ortiq brokerlik firmasidan iborat. Bu firmalar standartlarga qat'iy muvofiqlik va o'z xodimlari yuqori professional darajasini kafolatlab, butun dunyo bo'ylab aksiyalar sotish va sotib olish bilan shug'ullanadi.

#### **7.4. Tokio fond birjasi**

Tokio fond birjasi (TFB) Yaponiyaning asosiy fond birjasi va dunyodagi eng yirik fond birjalaridan biri hisoblanadi. Mohiyatan, Tokio fond birjasi 1878-yil 1- iyunda asos solingan Yaponiyadagi birinchi fond birjasining avlodi hisoblanadi. Birja strukturasi ko'p marta o'zgargan, lekin savdolar muntazam olib borilgan, Nagasaki atom bombardimoni-dan keyin oq ro'y bergan kichik tanaffusni istisno qilganda. Hozirgi –

Tokio fond birjasi – nomi ostida Yaponiya fond bozori 63 yildan buyon faoliyat ko‘rsatmoqda. Hozir unda 2271 ta yapon va 31 ta xorijiy kompaniya ifodalangan.

1983-yildan

1990-yilgacha Tokio fond birjasi hayratda qoldiradigan darajada ko‘tarilib, qimmatli qog‘ozlar global bozori kapitallashuvining 60% dan ortig‘ini o‘zida mujassam etgan. Keyinchalik “sovun pufagi iqtisodiyoti” deb atalgan bu bosqichni “yapon mo‘jizasi”ning yakuni deb hisoblash mumkin. Mamlakat er va ko‘chmas mulk

bilan savdo qiladigan kompaniyalar aksiyalari olib-sotarligi bilan omma-viy ravishda shug‘ullana boshladi. Narxlar xuddi achitqi qo‘shilganday o‘sa boshladi. Banki o‘ngga ham, so‘lga ham kreditlarni saxiylik bilan tarqatardi. Yaponlar chet eldan villa, kartina, qimmatbaho narsalar sotib olib, ochiqchasiga pul sovura boshladi... Hammasi shu bilan yakun topdiki, pufak yorildi. Narxlar keskin tushib ketdi, mamlakat bo‘ylab bankrot kasali tarqaldi, kreditlar qaytarilmadi va “mo‘jiza” o‘rnini urushdan keyingi davrdagi eng uzoq davom etgan iqtisodiy inqiroz egalladi.

U 90-yillar mobaynida davom etib, atigi bir necha yil oldin tugadi. Lekin ayrim noxushliklar hamon davom etmoqda, lekin ular asosan texnik xarakterga ega. Masalan, 2005-yil 1-noyabrda yangi kompyuter qurilmasi o‘rnatilgach, birjada tarixdagi eng jiddiy tizimli uzilish ro‘y berdi. Fujitsu kompaniyasining “Osilib qolgan” operatsion tizimi to‘rt yarim soatlik savdoni to‘xtatib qo‘ydi.



# TOKYO STOCK EXCHANGE



Ikkinchi kulfat bir oydan so'ng ro'y berdi va birja oliy rahbariyati-ning to'liq almashtirilishiga olib keldi. 2005-yil 8-dekabrda Tokio fond birjasida qiymati 610 ming yena (5000 dollardan ortiq) bo'lgan juda qimmat aksiyalarga ega bo'lgan J-Com rekruting kompaniyasi sahnaga chiqdi. Biroq ko'rsatilgan summaga firmaning bitta aksiyasini taklif qilish o'rniga brokerlik kompaniyasi xodimi kompyuter tugmasini noto'g'ri bosish oqibatida 610 mingga aksiyani har birini 1 yena (0,8 sent) narxda sotuvga qo'ydi. Ular bir zumda sotilib ketdi, bunda sotilgan aksiyalar soni ularning real sonida 42 baravar ko'p edi (14,5 mingta). Xatto darhol sezilmadi, lekin u aniqlangandan keyin ham operatsiyani bekor qilishda texnik qiyinchiliklar vujudga keldi. Natijada barcha aksiyalar paketini uning haqiqiy qiymatiga sotib olishga to'g'ri keldi.

Achinarli xato kompaniyaga 347 million dollarga tushdi. Bechora broker bilan keyin nima bo'lgani haqida tarix hikoya qilmaydi, lekin investorlar ishonchini tiklash uchun birja prezidenti va yana uchta top-menejer kompyuter tizimi mukammal emasligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olib, iste'fo berishiga to'g'ri kelgan. Nima ham derdik, bunday holat hattoki Yaponiyada ham bo'lib turarkan!

**Tokio birjasining korporativ falsafasi.** Tokio fond birjasi dunyo maydonchalarida ishonchga va nufuzga ega. Yaponlar aksiyalarga investitsiyalar bilan faolroq shug'ullanadi, ulardan aksiyalarni afzal ko'radigan xorijiy investorlar ham ortda qolmaydi. Shunday qilib, Tokiodagi asosiy ofis va butun Yaponiya bo'ylab tarqalgan birja filiallari talab katta bo'lgan aksiyalar bilan savdo qiladi.

Tokio fond birjasining dunyo miqyosida muvaffaqiyatga erishishida asosiy sabab uning korporativ falsafasi hisoblanadi. Birjaning korporativ falsafasi birja va TFB guruhi o'z biznesini amalga oshirish jarayonida rioya qiladigan qoidalar to'plamini ifodalaydi. Qaror qabul qilish jarayoni va birjani boshqarish tizimini rivojlantirish rejaralarini hayotga tatbiq etishga qo'shimcha ravishda korporativ falsafa TFB barcha ishchi va xizmatchilari uchun ularning o'z professional majburiyatlarini amalga oshirish jarayonidagi xulq-atvor asoslarini o'z ichiga oladi. Jamiyat bilan eng do'stona hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish va jamiyat oldida ijtimoiy javobgarlikka ega bo'lish uchun TFB korporativ falsafasi doirasida korporativ etikaga asoslangan korporativ xulq-atvor qoidalari ishlab chiqildi. TFBning barcha ishchi va xizmatchilari ishlab chiqilgan qoidalarga rioya qilish va bajarishi, jamiyatga foyda keltirishi va tashkilotning rivojlanishiga hissa qo'shishi kerak.

**Tokio fond birjasi rejalari.** 2006-yil Tokio fond birjasi bitimlari umumiy yillik hajmi mutlaq rekordga - 600 trln iyenga (5 trln dollar atrofida) yaqinlashdi. Natijada o'tgan yilgi rekorddan (418 trillion iyen) 30 foizdan ortiq o'sish kuzatildi. Oldi-sotdi operatsiyalari umumiy miqdori 594 trillion iyenga yetdi (bir dollar uchun 118,79 iyen joriy kursda 5 trillion dollarga teng). Ya'ni 2006-yilda Tokioda o'tkazilgan operatsiyalar miqdori o'rtacha qariyb 2,4 trillion iyen (20,2 milliard dollar) ni tashkil etdi, bu ham birjaning 128 yillik tarixida misli ko'rilmagan. O'tgan yili bu ko'rsatkich 1,7 trln. yenga teng edi. Shuningdek, xorijiy investorlarning ulushi ham mutlaq rekord darajada - 54% ni tashkil etdi.

2006-yil oktabr oyining oxirida Tokio fond birjasi (TSE) rahbariyati Nyu-York fond birjasi (NYSE) bilan muzokaralar olib



borayotgani haqida ma'lum qildi. Agar ikkita eng yirik birja kelishuvga kelsa, dunyoda ilk qit'alararo savdo maydonchasi paydo bo'ladi. NYSE bilan bir vaqtda Euronext yevropa birjasini qo'shib olish haqida muzokaralar olib borildi. Nyu-York birjasi asosiy raqobatchisi - NASDAQ amerika elektron birjasidan oldin global fond maydonchasi yaratishga harakat qildi.

NYSE vakillari ham, TSE vakillari ham dunyoning turli qismlaridagi fond bozorlari bilan hamkorlikdan manfaatdor ekanligini bildirmoqda. TSE bir nechta birja, xususan, Seulning Korea Exchange birjasi bilan muzokaralar olib borayotganini ma'lum qildi, biroq NYSE bilan muzokaralar eng katta muvaffaqiyatga erishdi. Nyu-York birjasi vakillari bu xabarlarini sharhlashni ma'qul ko'rmadi.



2006-yilning oktabrida NYSE rahbari Djon Teyn TSE prezidenti Taydzo Nisimuro bilan uchrashdi. G'arb axborot agentliklarining xabar berishicha, ushbu uchrashuvda kutilayotgan bitim tafsilotlari muhokama qilingan. Birjalar aksiyalarning 10%ini almashishni rejalashtirgan, buning tashabbuschisi NYSE bo'lgan.

Tomonlar aksiyalar almashinuviga qadar kelishuvga keladigan bo'lsa, ular o'z harakatlarini muvofiqlashtirishi va savdo texnologiyalarini bir xillashtirishi mumkin bo'lib, tahlilchilarning fikriga ko'ra bu amalda ilk qit'alararo fond bozori paydo bo'lishini anglatishi mumkin bo'lgan.

**TOPIX indeksi tavsiflari.** TOPIX (Tokyo Stock Price Index) - Tokio fond birjasining asosiy birja indeksi bo'lib, Tokio fond birjasining birinchi segmentiga mansub, ya'ni kapitallashuv darajasi yuqori bo'lgan kompaniyalar erkin muomalada bo'lgan aksiyalari narxining bozor kapitallashuvi bo'yicha o'rtacha o'lchangan qiymati sifatida hisoblab chiqiladi.



Indeks chiqarilgan aksiyalar umumiy soni hisobga olinadigan savdo tizimidan erkin muomalada bo'lgan aksiyalargina hisobga olinadigan tizimga ko'chirilgan. Bu 2005-yilning oktabridan 2006-yilning iyunigacha uch bosqichda bo'lib o'tdi. Garchi o'zgarishlar faqat texnik jihatdan bo'lgan bo'lsada, ular ushbu indeksga jiddiy ta'sir ko'rsatdi, chunki ko'plab yapon kompaniyalarida ko'p sonli aksiyalar bo'lib, ishbilarmon hamkorlar qo'lida murakkab aylanshning bir qismi sifatida saqlanib turardi, bunday aksiyalar kompaniyalar o'rtacha o'lchangan indeksi hisob-kitoblariga hali uzoq vaqt kiritilmaydi.

TOPIX birinchi bor 1969-yil 1-iyulda bazaviy qiymati 100 punkt bo'lgan holda e'lon qilingan. Indeks qamrab olgan kompaniyalar ro'yxati bir yilda ikki marta ko'rib chiqiladi – yanvarda kompaniyalar ro'yxatga qo'shilishi yoki ro'yxatdan chiqarilishi, iyulda esa – faqat qo'shilishi mumkin. Indeks birjaning ish kunlari har 15 sekundda hisoblab chiqiladi.

## *Nazorat savollari*



1. Xalqaro fond birjalari faoliyatidagi umumiy va asosiy farqli jihatlar.
2. Kapitallashuv darajasi eng yuqori fond birjalari.
3. London fond birjasi faoliyat mexanizmi va listing talablari.
4. Nyu-York fond birjasi faoliyat mexanizmi va listing talablari.
5. Mintaqaviy fond birjalaridagi listing talablari.
6. Xalqaro fond indeksleri va ularga ta'sir etuvchi omillar.
7. Xorijiy amaliyotda fond bozorini tartibga solish mexanizmlari.
8. Fond bozorida o'zini o'zi tartibga solish mexanizmlari.
9. Fond bozorini megaregulyator vositasida tartibga solish.

---

---

## VIII bob. VALUTA BIRJALARI VA ULAR FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH VALUTA BIRJASI FAOLIYATINING NAZARIY VA TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI

### 8.1. Valuta birjasini litsenziyalash tartibi

**Valuta birjasi** – chet el valutasini, davlat qimmatli qog'ozlari, moliyaviy hosila instrumentlari (derivativlar) oldi-sotdisi hamda ular bilan bog'liq boshqa birja bitimlari bo'yicha birja savdolarini, shuningdek, banklararo pul bozorini hamda Markaziy bankning tijorat banklari bilan amalga oshiriladigan kredit va depozit auksionlarini tashkil etuvchi yuridik shaxsdir.

Valuta birjasi faoliyati O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Valutani tartibga solish to'g'risida"gi, "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi, "Birjalar va birja faoliyati to'g'risida"gi qonunlariga, "Valuta birjasi faoliyatini litsenziyalash tartibi" to'g'risida"gi nizom va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq tartibga solinadi.

Valuta birjasini litsenziyalovchi organ – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidir. Bunda **litsenziya da'vogari** O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga valuta birjasi faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya berish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etadi.

Valuta birjasi yuridik shaxs bo'lib, respublikamizda aksiyadorlik jamiyati sifatida tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining litsenziyasiga ega bo'lgan valuta birjasi litsenziat, deb yuritiladi. Litsenziya amal qilish muddati cheklanmagan holda beriladi. Litsenziyani berish, amal qilishini tugatish, bekor qilish, to'xtatib turish, qayta rasmiylashtirish yoki qayta tiklash O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi qarori bilan rasmiylashtiriladi. Valuta birjasi faoliyatini tartibga solish litsenziyalovchi organ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amalga oshiriladi.

Quyidagilar valuta birjasi faoliyatini amalga oshirishda litsenziya tablari va shartlari hisoblanadi:

a) birjalar va birja faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga va birja savdolari qoidalariga rioya qilish;

b) aksiyadorlik jamiyatlari uchun qonun hujjatlarida belgilangan ustav fondi (ustav kapitali)ning eng kam miqdori bo'yicha talablarga muvofiqlik;

v) kamida 10 ta tijorat banki sifatidagi birja a'zolarining mavjud bo'lishi;

g) tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratilganligi;

d) belgilangan umumiy texnik talablarga qat'iy rioya etgan holda shakllantirilgan birja savdolari elektron tizimining mavjudligi;

e) birja savdolarini oldindan belgilangan joy va muayyan vaqtda, belgilangan qoidalar asosida elektron shaklda valuta birjasi a'zolarining barchasiga ushbu savdolarida bir vaqtda ishtirok etish imkoniyati berilgan holda o'tkazish;

j) kliringni amalga oshirish va hisob-kitoblarni o'tkazish, shuningdek, davlat qimmatli qog'ozlariga bo'lgan huquqlarni hisobga olish va ularni saqlash tizimining mavjudligi;

z) axborotni qonun hujjatlariga muvofiq oshkor qilish;

i) litsenziyalovchi organning talabiga ko'ra birja faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq axborotni taqdim etish;

k) xonalarning texnik jihatdan mustahkamlanganligi va qo'riqlash va yong'indan ogoh etish vositalari bilan jihozlanganligi;

l) kundalik buxgalteriya hisobi yuritilishini ta'minlovchi dasturiy ta'minotning mavjudligi;

m) birja savdolarining elektron tizimi tomonidan avtomatik ravishda tuziladigan elektron bayonnomalar tarzida kiritilgan birja bitimlari to'g'risidagi axborotni arxiv ishlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq saqlash.

Litsenziya olish uchun litsenziya da'vogari litsenziyalovchi organga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

a) litsenziya berish to'g'risida ariza, unda quyidagilar ko'rsatiladi: litsenziya da'vogarining nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, joylashgan joyi (pochta manzili), elektron manzili, bank hisobi rekvizitlari;

b) litsenziya talablari va shartlarining bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat;

v) litsenziya da'vogari ustavining nusxasi;

g) litsenziya da'vogarining boshqaruv organlari tarkibi to'g'risida ma'lumot;

d) litsenziya da'vogarining chet el valutasini, davlat qimmatli qog'ozlari, moliyaviy hosila instrumentlari (derivativlar) operatsiyalari

bilan shug'ullanuvchi va banklararo pul bozori, shuningdek Markaziy bankning tijorat banklari bilan amalga oshiriladigan kredit va depozit auksionlarini tashkil etish bo'yicha bo'linmalari, shuningdek, xodimlar malakasi, bo'linmalar ixtisoslashuvi va ularning texnik jihozlanganligi tavsiflangan tashkiliy tuzilmasi.

Litsenziya olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar litsenziya da'vogari tomonidan litsenziyalovchi organga bevosita, pochta aloqasi vositalari orqali yoki elektron shaklda, ular olinganligi haqida xabardor qilingan holda taqdim etiladi. Elektron shaklda taqdim etilgan hujjatlar litsenziya da'vogarining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Litsenziya berish to'g'risidagi arizada litsenziya da'vogarining elektron manzili ko'rsatilganligi uning arizasi bo'yicha qabul qilingan qaror haqida axborot tizimi orqali elektron shaklda xabarnoma olishga bo'lgan roziligidir.

Noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni taqdim etganligi uchun litsenziya da'vogari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi. Litsenziya da'vogaridan qonunchilikda nazarda tutilmagan boshqa hujjatlarni taqdim etishni talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Litsenziya olish uchun ariza bilan barcha zarur hujjatlar litsenziyalovchi organ tomonidan ushbu hujjatlar kelib tushgan kundan boshlab o'ttiz kun ichida ko'rib chiqiladi. Litsenziyalovchi organ tomonidan litsenziya olish uchun taqdim etilgan hujjatlar ko'rib chiqilganligi uchun yig'im undirilmaydi. Lekin, litsenziyalovchi organ tomonidan litsenziya berilganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq davlat boji undiriladi. Litsenziyalovchi organ tegishli qaror qabul qilingandan keyin uch kun mobaynida litsenziya da'vogarini litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qaror haqida xabardor qiladi. Litsenziya berish bo'yicha qaror qabul qilinganligi to'g'risidagi xabarnoma litsenziya da'vogariga yozma shaklda jo'natiladi (taqdim etiladi). Litsenziya litsenziya da'vogari tomonidan davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgandan va u litsenziya bitimini imzolagandan keyin uch kun muddatda rasmiylashtiriladi va beriladi. Litsenziya blankasining asl nusxasi litsenziyatga beriladi, litsenziya nusxasi litsenziyalovchi organda saqlanadi. Litsenziya bitimi litsenziyalovchi organ va litsenziyatning o'zaro huquq va majburiyatlarini belgilovchi hujjat hisoblanadi.

Litsenziya bitimida quyidagilar bo'lishi lozim:

- bitimni imzolagan shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi, lavozimi;

-tomonlarning rekvizitlari;  
-amalga oshirilishiga litsenziya berilayotgan faoliyat turining nomi;

-litsenziatga qo'yiladigan litsenziya talablari va shartlari;  
-litsenziya bitimi talablari va shartlari buzilganligi uchun tomonlarning javobgarligi;

-litsenziat tomonidan litsenziya bitimi talablari va shartlari bajarilishining litsenziyalovchi organ tomonidan nazorat qilinishi tartibi.

Litsenziya bitimi ikki nusxada tuziladi, bir nusxasi litsenziyalovchi organda qoladi, ikkinchisi esa litsenziatga beriladi.

Litsenziyalovchi organ quyidagi sabablarga ko'ra litsenziya berishni rad etishga haqlidir:

-litsenziya da'vogari hujjatlarni lozim tarzda rasmiylashtirmagan holda taqdim etishi;

-litsenziya da'vogari taqdim etgan hujjatlarda noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarning mavjudligi;

-litsenziya da'vogarining litsenziya berish talablari va shart-sharoitlariga nomuvofiqligi.

Boshqa asoslarga ko'ra, shu jumladan litsenziya berish maqsadga muvofiq emas degan vaj bilan litsenziya berishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Litsenziya berishni rad etish haqidagi xabarnoma litsenziya da'vogariga yozma shaklda, shu jumladan axborot tizimi orqali elektron shaklda, rad etishning sabablari va litsenziya da'vogari ko'rsatilgan sabablarni bartaraf qilib, hujjatlarni ko'rib chiqish uchun takror taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda yuboriladi (topshiriladi). Litsenziya berishni rad etish haqidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan vaqtga mutanosib bo'lishi kerak.

Litsenziya da'vogari litsenziya berish rad etilishi uchun asos bo'lgan sabablarni bartaraf etgan taqdirda, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish litsenziya da'vogarining arizasi barcha zarur hujjatlar bilan birga olingan kundan e'tiboran o'n kundan ko'p bo'lmagan muddatda litsenziyalovchi organ tomonidan amalga oshiriladi. Litsenziya da'vogarlarining arizalarini takroran ko'rib chiqqanlik uchun ham yig'im undirilmaydi.

Litsenziya da'vogarining arizasini takroran ko'rib chiqishda litsenziya berishni rad etish haqidagi xabarnomada ilgari ko'rsatilmagan yangi asoslar bo'yicha litsenziya berishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.



Litsenziya da'vogarining litsenziya berishni rad etish haqidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat o'tganidan keyin berilgan arizasi yangidan berilgan deb hisoblanadi.

Litsenziat qayta tashkil etilgan, uning nomi yoki joylashgan joyi (pochta manzili) o'zgargan taqdirda, litsenziat yoki uning huquqiy vorisi qayta ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bir oy muddatda litsenziyalovchi organga, ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda, litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza berishi shart. Litsenziat litsenziya qayta rasmiylashtirilgunga qadar unda ko'rsatilgan faoliyatni ilgari berilgan litsenziya asosida amalga oshiradi. Litsenziyalovchi organ litsenziyani qayta rasmiylashtirishda litsenziyalar reyestriga tegishli o'zgartirishlar kiritadi. Litsenziyani qayta rasmiylashtirish litsenziyalovchi organ tomonidan tegishli hujjatlar ilova qilingan holda litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi ariza olingan kundan boshlab, besh kun mobaynida amalga oshiriladi. Litsenziya yo'qolgan yoki yaroqsiz holga kelgan taqdirda litsenziatning arizasiga ko'ra dublikat berilishi mumkin.

Litsenziyaning amal qilishi quyidagi hollarda to'xtatib turilishi mumkin:

- litsenziat tomonidan valuta birjasi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarining buzilishi holatlari aniqlanganda;

- litsenziat tomonidan litsenziya bitimida nazarda tutilgan litsenziya talablari va shartlari buzilishi aniqlanganda;

- litsenziyalovchi organning litsenziat faoliyatida aniqlangan qoida buzilishlarini bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalari litsenziat tomonidan bajarilmaganda.

Litsenziyalovchi organning litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori litsenziatga yozma shaklda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay yetkaziladi.

Litsenziyalovchi organ litsenziat litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etishi uchun muddat belgilaydi. Bunda belgilangan muddat olti oydan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Litsenziat litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etgan taqdirda, litsenziyalovchi organ ko'rsatilgan holatlar bartaraf etilganligi to'g'risidagi tasdiqnomani olgan kundan e'tiboran litsenziyaning amal qilishini tiklash to'g'risida uch kun muddat ichida qaror qabul qiladi.

Litsenziyaning amal qilishi quyidagi hollarda tugatiladi:

-litsenziat litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risida ariza bilan murojaat qilganda;

-litsenziatning faoliyati yuridik shaxs sifatida tugatilganda — tugatilgan paytdan e'tiboran yoki uning faoliyati qayta tashkil etish natijasida tugatilganda – qayta tashkil etilgan paytdan e'tiboran, uning o'zgartirilishi bundan mustasno;

-litsenziat litsenziya bitimida nazarda tutilgan litsenziya talablari va shartlarini muntazam ravishda yoki bir marotaba qo'pol ravishda buzganda;

-litsenziat litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishiga olib kelgan holatlarni litsenziyalovchi organ belgilagan muddatda bartaraf etmaganda.

Litsenziyalovchi organning litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi qarori litsenziatga yozma shaklda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay yetkaziladi. Litsenziat litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi qarorni olgan kundan e'tiboran o'n kun ichida litsenziya litsenziyalovchi organga qaytarilishi va yo'q qilinishi kerak. Litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi ma'lumot ommaviy axborot vositalarida, shuningdek litsenziyalovchi organning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi kerak. Tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran litsenziyaning amal qilishi tugatiladi.

Litsenziya quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

-litsenziat litsenziyani bekor qilish to'g'risida ariza bilan murojaat qilganda;

-agar litsenziat litsenziya berishi haqida qaror qabul qilingani to'g'risida xabarnoma yuborilgan (topshirilgan) paytdan e'tiboran bir oy ichida litsenziya bitimini imzolamagan bo'lsa;

-litsenziya soxta hujjatlardan foydalanilgan holda olinganligi dalili aniqlanganda.

Litsenziyalovchi organning litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi qarori litsenziatga yozma shaklda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay yetkaziladi.

Litsenziat litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi qarorni olgan kundan e'tiboran o'n kun ichida litsenziya litsenziyalovchi organga qaytarilishi va yo'q qilinishi kerak.

Litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi ma'lumot ommaviy axborot vositalarida, shuningdek litsenziyalovchi organning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi kerak.

Litsenziat faoliyatini tartibga solish va litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilishni amalga oshirishda litsenziyalovchi organ o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

litsenziat tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rejali tekshirish;

litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini tekshirish chog'ida paydo bo'ladigan masalalar yuzasidan litsenziatdan zarur axborotni so'rash va olish;

tekshirishlar natijalari asosida, litsenziya talablari va shartlarining litsenziat tomonidan aniq buzilishlarini ko'rsatgan holda dalolatnomalar (ma'lumotnomalar) tuzish;

litsenziatga aniqlangan buzilishlarni bartaraf etish majburiyatini yuklovchi qarorlar chiqarish, bunday buzilishlarni bartaraf etish muddatlarini belgilash;

litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish, tugatish yoki litsenziyani bekor qilish to'g'risida qaror chiqarish.

Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini tekshirishda litsenziyalovchi organning tekshiruvchi xodimlari tomonidan ikki nusxada dalolatnoma tuziladi, ularning bittasi litsenziatga beriladi, ikkinchi nusxasi litsenziyalovchi organda qoladi.

## **8.2. Valuta birjasi savdolarining elektron tizimlariga qo'yiladigan umumiy texnik talablar**

Birja savdolarining elektron tizimlari (BSET) quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- lokal hisoblash tarmoqlari sharoitlarida faoliyat ko'rsatish;

- ma'lumotlar bazasi bilan bog'langanlik asosida, valuta birjasi savdo ishtirokchilari (bundan buyon matnda savdo ishtirokchilari deb yuritiladi) haqidagi axborotni shakllantirish, saqlash va aks ettirishi;

- ma'lumotlar bazasi bilan bog'langanlik asosida, buyurtmalar, bitimlar va savdo natijalari bo'yicha axborotni saqlash va aks ettirishi;

- ma'lumotlar bazasida saqlanayotgan ma'lumotnomalar asosida axborotni saqlash va aks ettirishi;

- dasturiy vositalar majmuining ishini qisqa yo'riqnomalar, yordam ko'rsatish va tushuntirishlar bilan ta'minlaniladigan menyu tizimi orqali tashkil qilishi;

- terminalning jismonan joylashishidan qat'i nazar, aniq vaqt rejimida birja savdolarida qatnashish imkonini yoki savdo ishtirokchilari o'rtasida axborot almashinuvini ta'minlash;

- o'tkazilgan birja savdolari bo'yicha hisobotlarni mazkur savdolarning elektron bayonnomasi mazmuniga qat'iy mos keltirgan holda shakllantirish;

- birja savdolari jarayonida bajarilayotgan har bir operatsiyaga avtomatik ravishda identifikatsiya raqamini birlashtirish va ushbu operatsiyalarni mazkur savdolarning elektron bayonnomasida yuritish.

BSETning tarkibida quyidagi ma'lumotlar ro'yxatga olinadigan birja savdolari bo'yicha bajarilgan amallarning hisobini yurituvchi avtomatlashtirilgan (elektron bayonnoma) bo'lishi lozim:

- savdoning ochilishi;
- savdoning yopilishi;
- savdo ishtirokchisini identifikatsiya qilish;
- savdo ishtirokchisining tizimga kirish vaqti;
- savdo ishtirokchisining tizimdan chiqish vaqti;
- savdo ishtirokchisi tomonidan buyurtma berilgan vaqt;
- savdo ishtirokchisi buyurtmani qaytarib olgan vaqti;
- savdo ishtirokchisi buyurtmani o'zgartirgan vaqti;
- savdo ishtirokchisi bitim tuzgan vaqti;
- birja tovarining nomi;
- buyurtmadagi birja tovarining miqdori;
- birja tovarining narxi.

Yozuvlarni qayd qilish vaqtining formati–yil, oy, kun, soat, daqiqa, soniya.

BSETning dasturiy vositasi litsenzyaviy dasturiy ta'minotdan foydalangan holda va texnik topshiriqqa asosan ishlab chiqilishi hamda ekspluatatsiya qilinishi lozim.

Axborotning to'liq yoki qisman talofati yo'qolishi va ma'lumotlar bazasi butunligi buzilishini oldini olish maqsadida BSETning dasturiy vositasi foydalanuvchining xatolariga, texnik nosozliklar holatlarida yuzaga keladigan xatolarga hamda ma'lumot bazasi xatolariga foydalanuvchiga uning keyingi xatti-harakatlari ko'rsatilgan axborotni taqdim etgan holda ishlov berilishini ta'minlashi lozim.

BSETning dasturiy vositasida quyidagi funksiyalarni ta'minlaydigan dasturlar ishini nazorat qiluvchi modul bo'lishi shart:

- foydalanuvchini identifikatsiya qilish (tanib olish), autentifikatsiya qilish (haqiqiylikini tasdiqlash) va avtorizatsiyalash (vakolatlarni o'zlashtirib olish);

- BSET resurslaridan foydalanishni nazorat qilish;

- BSETda sodir bo'layotgan voqealarni ro'yxatga olish va tahlil qilish;

- BSET resurslari butunligini nazorat qilish.

BSETning dasturiy vositasi quyidagi dasturiy tizimlardan iborat bo'lishi yoki mavjud dasturiy tizimlar bilan elektron tarzda o'zaro ishlashni ta'minlashi lozim:

- savdo tizimi;

- kliringni amalga oshirish va hisob-kitoblarni o'tkazish tizimi;

- davlat qimmatli qog'ozlari hisobini yuritish va saqlash tizimi;

- axborot-tahlil tizimi;

- ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari (agar texnologik savdo jarayoni bunday tizim bilan o'zaro ishlashni ko'zda tutsa).

Valuta birjasida axborot xavfsizligi axborotni muhofaza qilishning tashkiliy-texnik chora-tadbirlari va dasturiy-apparat vositalaridan iborat tizim bilan ta'minlanishi va quyidagilarni nazarda tutishi lozim:

- xodimlar va ishtirokchilarning BSETga kirishi uchun parollarni qo'llash bo'yicha sxemalar va yo'riqnomalarni;

- BSET axborot resurslari va xizmatlaridan xodimlarning foydalanish bosqichlarini bir-biridan farqlash sxemalarini;

- axborotni takrorlash hamda ma'lumotlar nusxalari va jo'natilgan xabarlarini saqlash texnologiyasi bo'yicha yo'riqнома va hujjatlarni;

- xodimlarning maxfiy hujjatlarni oshkor qilishi mumkin bo'lgan yoki oshkor qilgan harakatlari uchun javobgarlikni belgilaydigan hujjatlarni;

- axborotni muhofaza etishni ta'minlash maqsadida ishtirokchilarning elektron tarzda o'zaro aloqasida axborot almashinuvi qoidalarini belgilaydigan hujjatlarni.

Savdolarning texnologik jarayoni ishtirokchilar uchun axborot almashinuvi maqsadida uzunligi 1024 bitdan kam bo'lmagan kalitli ma'lumotlarni yagona shifrlash algoritmi qo'llanilishi lozim.

Tashkiliy choralar yuridik shaxslarni BSET dasturiy vositalarini loyihalash, yaratish, ekspluatatsiya qilish va ta'minlashga jalb qilish

qoidasini tartibga soluvchi talablar hamda harakatlar ro'yxatidan iborat bo'lishi mumkin.

Valuta birjasi a'zolarining BSETda axborotni kriptografik muhofaza qilish vositalaridan, shu jumladan, elektron raqamli imzodan foydalangan holda, ish olib borishlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi lozim.

BSET dasturiy vositalarining axborot xavfsizligini ta'minlash tizimi xavf-xatar tahdidi hamda ularning normal faoliyat yuritilishining buzilishi bilan bog'liq sabablar va sharoitlarni o'z vaqtida aniqlanishini ta'minlaydigan tegishli xavfsizlik siyosati bilan amalga oshirilishi lozim.

BSET uzluksiz ravishda sutkasiga 24 soat mobaynida (ish kunlarida) ishlash imkoniyatini ta'minlashi lozim.

Har bir ishtirokchi BSETdan teng shart-sharoitlarda foydalanish huquqiga ega bo'lishi lozim. Ishtirokchilar soni BSET dasturiy vositasi ish unumdorligi yoki dasturiy-apparat tavsiflari bilan cheklanmasligi kerak.

Valuta birjasi savdo ishtirokchilari uchun teng sharoitlar yaratish maqsadida savdo zalidagi terminallar soni yetarli bo'lishini ta'minlashi shart.

### **8.3. Valuta birjasida banklararo savdo sessiyalarini o'tkazish tartibi**

Valuta birjasida savdolar Kuzatuv kengashining qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi valuta birjasida banklararo savdo sessiyalarini o'tkazish qoidalari asosida tashkil etiladi.

Banklararo savdo sessiyalarida chet el valutasining ularni kechiktirmasdan yetkazib berish sharti bilan tuziladigan oldi-sotdi birja bitimlari (spot) amalga oshiriladi.

Banklararo savdo sessiyalarida chet el valutasidagi operatsiyalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 10-iyuldagi "Birjadan tashqari valuta bozori faoliyatini tashkil etish choratadbirlari to'g'risida"gi 294-son Qaroriga, O'zRVB Ustavi, O'zbekiston Respublikasining valutani tartibga solish to'g'risidagi qonunchiligi talablariga rioya qilgan holda mazkur Qoidalar asosida amalga oshiriladi.

O'zRVB a'zolariga qabul qilish tartibi, ularga qo'yiladigan talablar, ularning huquq va majburiyatlari, birja savdolarida ishtirok etishga

ruxsat berish, shuningdek O‘zRVB a‘zolari tarkibidan chiqarish tartibi “O‘zbekiston respublika valuta birjasi” aksiyadorlik jamiyatiga a‘zolik to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Diler bo‘lmagan vakolatli banklar banklararo savdo sessiyalarda operatsiyalarni Dilerlar orqali amalga oshirishlari mumkin.

Banklararo savdo sessiyalarida O‘zRVBning funksiyalari quyidagilardir:

- birja savdolarini tashkil etish;

- savdolarda tuzilgan bitimlar bo‘yicha Hisob-kitob markazida ochildigan maxsus hisobraqamlar orqali hisob-kitoblarni o‘tkazish;

- savdolar yakuni bo‘yicha chet el valutarining so‘mga nisbatan joriy kursini belgilash va uni muntazam ravishda (haftasiga kamida bir marta) o‘z rasmiy veb- saytida joylashtirish;

- Dilerlarni savdolarini o‘tkazish joyi hamda vaqti, shuningdek, har bir birja savdosining yakunlari to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilish. Savdolarini o‘tkazish vaqti va joyi bilan bog‘liq barcha o‘zgarishlar haqida O‘zRVB Dilerlarni savdolar o‘tkaziladigan kundan kamida uch ish kuni oldin xabardor qiladi;

- tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta‘minlash uchun shart-sharoitlar yaratish;

- O‘zRVB va Dilerlar pul mablag‘larining alohida-alohida hisobini yuritish.

Dilerlar taqdim etayotgan buyurtmalarining mazmuni O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik talablariga mos kelishiga javobgardirlar.

Savdolar jarayonida treyderlar tomonidan amalga oshirilgan barcha operatsiya va harakatlar ularni vakolatlagan Dilerlar operatsiya va harakatlaridek baholanadi.

“O‘zbekiston respublika valuta birjasining chet el valutasini bo‘yicha birja savdolarida ishtirok etish huquqi uchun treyderlarning attestatsiyasi (qayta attestatsiyasi) to‘g‘risida nizom”ga muvofiq O‘zRVBda attestatsiyadan o‘tgan va chet el valutasini bo‘yicha birja savdolarida malakali ishtirokchi sifatida faoliyat ko‘rsatish huquqini beruvchi treyder sertifikatni olgan treyderlarga savdolarda ishtirok etishga ijozat beriladi.

O‘zRVB treyderlarning vakolatlarini va tayyorgarlik darajalarini davriy ravishda tekshirib turish huquqiga ega. Tekshiruv natijalari bo‘yicha, shuningdek, treyder tomonidan O‘zRVB ichki hujjatlarining talablari buzilganda, u savdolardan qatnashishdan vaqtincha yoki to‘liq

chetlashtiriladi. Treyderlarga savdolarida o'z hisobi hamda o'z nomidan operatsiyalarni amalga oshirish man etiladi.

Dilerlar o'zlarining treyderlari amalga oshirayotgan harakatlari va operatsiyalarining to'g'riligi va maxfiyligiga to'liq javobgardirlar hamda o'tkazilgan savdo yakunlari bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishga majburdirlar.

Dilerlar O'zbekiston Respublikasida qonunchilik hujjatlari va ushbu Qoidalar talablariga rioya qilishga majburdirlar.

Dilerlar tomonidan chet el valutasi bo'yicha operatsiyalarni o'tkazish tartibi va ushbu Qoidalar talablari buzilganligi aniqlangan hollarda O'zRVB ichki hujjatlarida ko'zda tutilgan choralarni qo'llashga haqlidir.

Markaziy bank savdolarini tashkil qilish uchun hamda ularni o'tkazish jarayonida yuzaga keladigan masalalarni hal etish maqsadida O'zRVBga vakolatli vakilini yuboradi.

Savdolarini o'tkazish zaliga faqat Kuzatuv kengashi a'zolari, treyderlar, Markaziy bankning vakolatli vakili va savdolarini tashkil qilish hamda o'tkazishda qatnashuvchi O'zRVB xodimlarigina kiritiladi. Ommaviy axborot vositalari vakillari savdo o'tkazish zaliga, kuzatuvchi sifatida O'zRVB Ijroiya organi ruxsati bilan qo'yiladi.

Savdo boshlanguniga qadar va uni o'tkazish paytida birja makleri Markaziy bankning vakolatli vakili bilan quyidagilarni bajarishda birgalikda ish olib boradi:

-savdolarini o'tkazishga tegishli Markaziy bankning yozma ko'rsatmalarini qabul qilish (jumladan, texnikaviy nosozliklar yuzaga kelganidagi harakatlar haqida);

-Markaziy bankdan qabul qilingan yozma ko'rsatmalar haqida O'zRVB rahbariyatini xabardor qilish;

-Markaziy bankning yozma ko'rsatmalariga tegishli bo'lgan O'zRVB qarorlarini bajarish.

Savdo qoidalariga kiritilgan barcha o'zgarish va qo'shimchalar kuchga kirgandan so'ng dilerlar besh ish kunidan kechikmay xabardor qilinadi, agarda Kuzatuv kengashi qaroriga ko'ra boshqa muddat va tartib o'rnatilmagan bo'lsa.

Chet el valutalari birja savdolariga qo'yilgan chet el valutalari ro'yxatiga tovarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berishni amalga oshirish tartib-taomilisiz kiritiladi.

Chet el valutalari bo'yicha savdolar birja instrumentini sotish va sotib olish uchun taqdim etilgan buyurtmalarning umumiy hajmlari teng-



ligiga erishilganda kursni belgilash prinsipiga asoslangan uslubda ("fiksing"uslub) bir haftada kamida ikki marta o'tkaziladi.

Banklararo savdo sessiyalarini o'tkazish vaqti soat 11-00 dan 13-00 gacha etib belgilanadi.

Savdolarni o'tkazishdan bir kun oldin Dilerlar O'zRVBga soat 9-00 dan 13-30 gacha chet el valutasining xaridi va (yoki) sotuvi uchun dastlabki buyurtmalarni (4 va 5 -ilova) taqdim etishlari shart.

Dastlabki buyurtma rasmiy blankda rasmiylashtirilgan, imzo qo'yish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar imzolari (Dilerlar tomonidan oldindan taqdim etilgan, birinchi va ikkinchi imzo qo'yish huquqidan foydalanuvchi mansabdor shaxslar imzolarining namuna varaqchasida ko'rsatilgan imzolar), hamda asosiy (yoki gerbli) muhr bilan tasdiqlangan bo'lishi shart. Rahbar shaxslarga vaqtincha birinchi yoki ikkinchi imzo huquqi berilganda, shuningdek, rahbar tomonidan vakolat berilgan shaxslardan birortasi vaqtincha o'zgarganda, vaqtincha vakolat berilgan shaxsning imzo namunasi qo'yilib, amal qilish muddati ko'rsatilgan qo'shimcha varaqcha taqdim qilinadi. Ushbu vaqtinchalik varaqcha rahbar tomonidan imzolanadi va muhr qo'yiladi.

Dilerning muhri o'zgarganda, varaqchada ko'rsatilgan imzolaridan birortasi almashtirilganda yoki qo'shilganda, yangi imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqcha taqdim etiladi. Bekor qilingan imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqchalar Dilerning yuridik yig'majildiga tikiladi.

Soat 15-00 gacha Birlashgan barqarorlashtirish jamg'armasini boshqarish bo'yicha Kengashning ishchi organiga Dilerlardan kelib tushgan dastlabki buyurtmalar bo'yicha ma'lumot savdolar o'tkazilishidan bir kun oldin yetkaziladi. Savdolar boshlanishidan 45 minut oldin birja makleri Savdo tizimiga kiritilgan zarur parametrlar (savdolar boshlanish va tugash vaqti, instrument turi, shu instrument bo'yicha bundan oldingi savdolarida o'rnatilgan kurs qiymati) nazoratini amalga oshiradi. Savdolar boshlanishidan 30 minut oldin treyderning birja bitimlarini tuzish huquqini tasdiqlash tartib-taomili (treyderlar autentifikatsiyasi) o'tkaziladi. Bunda Savdo tizimiga treyderlarning shaxsiy kodi va paroli kiritiladi. Treyderning paroli bevosita uning ish joyidan kiritiladi. Autentifikatsiyadan so'ng treyderlar Savdo tizimiga chet el valutasining xaridi va sotuvi uchun boshlang'ich buyurtmalarni (6-ilova) kiritadilar. Bunda Savdo tizimi kiritilgan boshlang'ich buyurtmalarga muvofiq Dilerlarning operatsiyalarini o'tkazish uchun yetarli chet el valutasidagi pul mablag'larining mavjudligini tekshirishni amalga oshiradi.

Savdolarni o'tkazishda chet el valutasining so'mga nisbatan boshlang'ich kursi sifatida bundan oldingi savdolarida o'rnatilgan kursdan foydalaniladi.

Savdo boshlanishiga Savdo tizimida taqdim etilgan boshlang'ich buyurtmalarning umumiy hajmlari orasidagi farq miqdori hamda ishorasi haqidagi ma'lumot aks ettiriladi.

Agarda, chet el valutasining sotuvi uchun taqdim etilgan boshlang'ich buyurtmalarning hajmlari xarid uchun taqdim etilgan boshlang'ich buyurtmalarning hajmlaridan ortiq bo'lsa, ularning orasidagi farq ishorasi musbat (+) hisoblanadi.

Aksincha, agarda chet el valutasining xaridi uchun taqdim etilgan boshlang'ich buyurtmalarning hajmlari sotuv uchun taqdim etilgan boshlang'ich buyurtmalarning hajmlaridan ortiq bo'lsa, ularning orasidagi farq ishorasi manfiy (-) hisoblanadi.

Savdolar boshlanishida Savdo tizimidagi boshlang'ich buyurtmalarning (xarid va sotuvga) hajmlari orasidagi farq ishorasi musbat (+) bo'lsa, birja makleri chet el valutasining so'mga nisbatan kursini bir birlikka tushiradi.

Aksincha, Savdo tizimidagi boshlang'ich buyurtmalarning (xarid va sotuvga) hajmlari orasidagi farq ishorasi manfiy (-) bo'lsa, birja makleri chet el valutasining so'mga nisbatan kursini bir birlikka oshiradi.

Agarda, chet el valutasining sotuvi uchun taqdim etilgan boshlang'ich buyurtmalarning hajmlari xarid uchun taqdim etilgan boshlang'ich buyurtmalarning hajmlariga teng bo'lsa, ularning orasidagi farq miqdori nolga (0) teng, deb hisoblanadi. Bu holda, savdolar yopiq deb e'lon qilinadi va barcha bitimlar uchun chet el valutasining so'mga nisbatan boshlang'ich kursi qo'llaniladi.

Chet el valutasining so'mga nisbatan kursi o'zgartirishining minimal birligi – 0,01 so'm. Savdolar boshlanishida chet el valutasining xaridi va sotuvi uchun taqdim etilgan boshlang'ich buyurtmalarning umumiy hajmlari orasidagi farq miqdoridan kelib chiqqan holda, treyderlarning roziligi bilan, birja makleri minimal kurs o'zgarish birligini o'zgartirishi mumkin. Kurs o'zgarishining maksimal birligi – 0,1 so'm.

Savdo tizimida chet el valutasining so'mga nisbatan boshlang'ich kursining birinchi o'zgarishidan keyin kurs harakati yo'nalishi o'zgarishiga yo'l qo'yilmaydi.

Savdolar davomida treyderlar Savdo tizimiga qo'shimcha buyurtmalar (7-ilova) kiritishlari mumkin.

Boshlang'ich va qo'shimcha buyurtmalarning miqdori operatsiya varag'ida (8-ilova) aks ettiriladi.

Har safar Savdo tizimiga treyderlar tomonidan buyurtma kiritilganida Savdo tizimi mazkur buyurtmalarga muvofiq quyidagi tartib-taomillarni amalga oshiradi:

- instrumentning xaridi uchun buyurtma kiritilganida, Dilerning so'mdagi reja pozitsiyasini, O'zRVB undiradigan vositachilik mukofotini hisobga olgan holda, ushbu buyurtmaning qondirilishi uchun etarli bo'lgan miqdorga kamaytiradi va uning chet el valutasidagi reja pozitsiyasini ko'paytiradi;

- instrumentning sotuvi uchun buyurtma kiritilganida, Dilerning chet el valutasidagi reja pozitsiyasini ushbu buyurtmaning qondirilishi uchun etarli bo'lgan miqdorga kamaytiradi va uning so'mdagi reja pozitsiyasini ko'paytiradi.

Savdolarni o'tkazish jarayonida Savdo tizimidagi barcha buyurtmalarning hajmlari (xarid va sotuvga) orasidagi farq ishorasi musbat (+) bo'lsa, birja makleri chet el valutasining so'mga nisbatan kursini yana bir birlikka tushiradi.

Aksincha, Savdo tizimidagi barcha buyurtmalarning hajmlari (xarid va sotuvga) orasidagi farq ishorasi manfiy (-) bo'lsa, birja makleri chet el valutasining so'mga nisbatan kursini yana bir birlikka oshiradi.

Savdolar o'tkazishdagi bu jarayon Savdo tizimidagi barcha buyurtmalarning hajmlari (xarid va sotuvga) orasidagi farq miqdori nolga (0) teng bo'lgunga qadar davom etadi.

Savdo tizimidagi barcha buyurtmalarning hajmlari(xarid va sotuvga) orasidagi farq miqdori nolga (0) teng bo'lganda, ya'ni chet el valutasiga bo'lgan talab va taklif hajmlarining tenglashishiga erishilsa, fiksing holati yuz beradi va birja makleri savdolarni yopiq, deb e'lon qiladi.

Savdolar davomida tuzilgan barcha bitimlar uchun chet el valutasining so'mga nisbatan yagona kursi qo'llaniladi.

Savdo tizimiga treyderlar tomonidan qo'shimcha buyurtma kiritilganida chet el valutasining xaridi va sotuvi uchun taqdim etilgan barcha buyurtmalarning umumiy hajmlari orasidagi farq ishorasi o'zgarisa, oxirgi berilgan buyurtma kurs belgilash uchun zarur bo'lgan hajmda qondiriladi.

Kurs belgilash jarayonida Savdo tizimiga turli Dilerlar tomonidan qo'shimcha buyurtmalar bir vaqtda kiritilganda, maksimal summaga ega bo'lgan buyurtma qondiriladi. Agarda, qo'shimcha buyurtmalarning

qummalari ham teng bo'lsa, bu buyurtmalar proporsional teng ravishda qondiriladi.

Savdolar yakunlanganidan so'ng, O'zRVB:

-chet el valutasini so'mga nisbatan o'rnatilgan kursi to'g'risidagi ma'lumotni Markaziy bank va vakolatli banklarga etkazadi;

-savdo yakuni bo'yicha 9, 9A, 10-ilovalarga muvofiq hisobotlarni Markaziy bank va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi.

Treydning ish joyida texnikaviy nosozlik yuz berganida, u o'z vaqtida kechiktirmay, ixtiyoridagi aloqa vositalari orqali birja maklerini xabardor qilib, unga o'zi tomonidan avval kiritilgan buyurtmalarni bekor qilishni yoki Savdo tizimida qoldirishni topshiradi. Birja makleri treyding topshiriqlarini bajarishi hamda bu haqida uni hamda Markaziy bankning vakolatli vakilini ixtiyoridagi aloqa vositalari orqali xabardor qilishi shart. Treyder ish joyining odatiy ish rejimi tiklanganidan so'ng u Savdo tizimiga qayta kirishi mumkin. Savdo tizimining texnikaviy nosozligi paytida savdolar to'xtatib turiladi. Birja makleri o'z vaqtida Markaziy bankning vakolatli vakilini va O'zRVB Ijroiya organi ni bu haqida xabardor qiladi, shuningdek, bu ma'lumotni treyderlarga yetkazadi.

Savdo tizimining odatiy ish rejimi tiklanganidan so'ng savdolar ni davom ettirish imkoni baholanadi. Agar Savdo tizimining texnikaviy nosozligi sodir bo'lganidan keyin uning odatiy ish rejimi 60 minut mobaynida tiklansa, savdolar davom ettiriladi va treyderlar Savdo tizimiga qayta kirish uchun zarur barcha amallarni yana bajaradilar.

Savdolar ni davom ettirish yoki to'xtatish haqidagi qarorni birja makleri Markaziy bankning vakolatli vakili bilan kelishgan holda qabul qiladi. Savdolar davom ettirilganda, savdolar tugash vaqti savdo tizimining odatiy ish rejimini tiklash uchun ketgan vaqtga uzaytiriladi.

Agar Savdo tizimining texnikaviy nosozligi yuzaga kelganidan keyin uning odatiy ish rejimi 60 minut mobaynida tiklanmasa, bunda savdolar birja makleri tomonidan yopiq deb e'lon qilinadi. Kurs va savdolar yakuni qayd etilmaydi, savdolar yakuni bo'yicha hisob-kitoblar amalga oshirilmaydi. Dilerlar va O'zRVB joriy savdolar bo'yicha o'zaro talablar va majburiyatlardan ozod hisoblanadilar.

Navbatdagi savdolar keyingi ish kuni o'tkaziladi.

Savdo tizimining texnikaviy nosozliklarining barcha hollarida, Dilerning yozma talabi bo'yicha, O'zRVB texnikaviy nosozlik sodir bo'lganligi to'g'risida ma'lumotnoma beradi.

Birja bitimlarini ro'yxatdan o'tkazish va rasmiylashtirish birja savdolari natijalari bo'yicha yozma yoki elektron shaklda savdolar tugaganidan keyin ikki soat ichida amalga oshiriladi. Bunda, O'zRVB mansabdor shaxslari va treyder tomonidan imzolangan birja guvohnomalari va operatsiya varaqlari ikki nusxada, shuningdek, treyder tomonidan imzolangan banklararo savdo sessiyalarida bajarilgan operatsiyalar bo'yicha ma'lumotnoma rasmiylashtiriladi.

Dilerning vakolatli vakili bo'lgan treyder tomonidan birja guvohnomalari, operatsiya varaqlari va operatsiyalar bo'yicha ma'lumotnoma imzolanmasligi, bo'lib o'tgan savdo yakunlariga muvofiq O'zRVB bilan hisob-kitoblari bo'yicha majburiyatlarni ushbu Diler tomonidan bajarilmasligiga asos bo'lmaydi.

Birja bitimlari notarial tartibda tasdiqlanmaydi.

O'zRVBda tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta'minlash uchun quyidagilar orqali shart-sharoitlar yaratiladi:

- kliringni amalga oshirish va hisob-kitoblarni o'tkazish;
- chet el valutasidagi pul mablag'larini oldindan deponentga qo'yishni nazarda tutuvchi mexanizmlarni belgilash;
- savdo qoidalari va birja bitimlari bo'yicha majburiyatlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

Savdolar o'tkazilishidan oldin o'zaro hisob-kitob markazidan O'zRVBning maxsus hisobraqamlari bo'yicha ko'chirmalar oladi, ularga ishlov beradi hamda kelib tushgan pul mablag'lari to'g'risida fayllarni shakllantiradi.

Savdo tizimiga pul mablag'lari savdolar boshlangunga qadar kelib tushadi.

Hisob-kitob markazidan deponentlangan pul mablag'lari haqidagi ma'lumotlar kechikkanda yoki ularni qabul qilish imkoniyati bo'lmagan hollarda, O'zRVB Markaziy bankning vakolatli vakilini tegishli qaror qabul qilishi uchun tezkor xabardor qiladi va shu bilan birga yozma ravishda Markaziy bankka ma'lum qiladi.

Savdolar yakunlari bo'yicha kliring va hisob-kitoblar mazkur Qoidalarga muvofiq birja guvohnomalari va chet el valutasidagi operatsiyalar bo'yicha O'zRVBning kliring va hisob-kitoblar tizimida qatnashish to'g'risidagi Shartnomaga asosan amalga oshiriladi.

Diler bilan O'zRVB o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar savdolar o'tkazilgan keyingi ish kunidan kechikmay amalga oshiriladi.

Savdolar yakuni bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishda "to'lov asosida yetkazib berish" prinsipiga rioya etiladi.

Savdolar yakuni bo'yicha hisob-kitoblar Dilerlarning savdo qoidalarga muvofiq aniqlanadigan netto-pozitsiyalari bo'yicha Diler va O'zRVBning to'lovlarini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Dilerning biror-bir valuta bo'yicha netto-pozitsiyasini aniqlash uchun ushbu Dilerning O'zRVBga nisbatan, faqatgina bir kunlik savdo sessiyalari doirasida yuzaga kelgan, xuddi shu valutadagi majburiyatlarini va talablari kliring qilinadi.

Netto-pozitsiya faqat musbat ishoraga ega bo'lishi mumkin.

Savdolar bo'yicha hisob-kitoblar Hisob-kitob markazidagi O'zRVBning maxsus hisobraqamlari orqali amalga oshiriladi.

Savdolarda qatnashish uchun hamda uning yakunlari bo'yicha kliringni amalga oshirish va hisob-kitoblarni o'tkazish maqsadida Savdo tizimida Dilerlarga so'm va chet el valutarida alohida shaxsiy hisobraqamlar ochiladi.

O'zRVBning maxsus hisobraqamlari bo'yicha operatsiyalar Hisob-kitob markazida o'rnatilgan qoidalarga muvofiq va tegishli shart-nomalar asosida amalga oshiriladi.

Dilerlar tomonidan savdolar bo'yicha to'lovlar faqatgina ularning bosh banklari hisobraqamlari orqali amalga oshiriladi. Dilerlar O'zRVBga o'zlarining hisobraqamlari bo'yicha rekvizitlar to'g'risidagi ma'lumotlarni "AJ "O'zbekiston respublika valuta birjasi"ga a'zolik to'g'risida"gi Nizomdagi talab asosida taqdim etishlari shart. Dilerlar o'zlarining hisobraqamlari rekvizitlarining o'zgarishi haqida O'zRVBga noto'g'ri taqdim etish va o'z vaqtida xabar qilmaslik oqibatlarini uchun to'la javobgardirlar.

Dilerlar operatsiyalarini amalga oshirishlari uchun yetarli miqdordagi chet el valutasidagi pul mablag'lari, Banklararo savdo sessiyalari o'tkazilishidan oldin Hisob-kitob markazidagi maxsus hisobraqamlarida deponentlanadi.

Yuqoridagi talablarni bajarmagan Dilerlar navbatdagi savdolarga qo'yilmaydilar.

Dilerlar O'zRVB bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan so'mdagi pul mablag'larini (savdolar yakuni bo'yicha netto-majburiyatlar) savdolar o'tkaziladigan kun tamom bo'lguniga qadar O'zRVBning Hisob-kitob markazidagi maxsus hisobraqamlariga o'tkazilishini ta'minlashlari shart.

Shuningdek, savdolar boshlanishiga qadar O'zRVBning Hisob-kitob markazidagi maxsus hisobraqamlarida Dilerlarning so'mdagi pul mablag'lari mavjud bo'lishiga ijozat beriladi.

Dilerning soʻmda deponentlangan pul mablagʻlari birinchi navbatda uning savdo yakunlariga koʻra vujudga kelgan netto-majburiyat-lari boʻyicha toʻlovlarni bajarishga yoʻnaltiriladi.

OʻzRVB bilan oʻzaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan soʻmdagi pul mablagʻlarini (savdolar yakuni boʻyicha netto-majburiyatlar) oʻz vaqtida taʼminlamaganliklari boʻyicha netto-majburiyatlarga ega Dilerlar (Markaziy bankdan tashqari) navbatdagi savdolariga qoʻyilmaydilar.

Markaziy bank banklararo savdo sessiyalarida chet el valutasida pul mablagʻlarini oldindan deponentlamasdan ishtirok etishi mumkin.

Markaziy bank OʻzRVBning soʻm va chet el valutasidagi netto-talablari boʻyicha toʻlovlarni OʻzRVB Markaziy bank oldidagi netto-majburiyatlarini bajarganidan keyin ikki soatdan kechiktirmay amalga oshiradi.

Savdo qoidalari bilan oʻrnatilgan tartib va muddatlarda, savdo yakunlariga binoan OʻzRVB Dilerning netto-talablari boʻyicha toʻlovlarni bajarish uchun toʻlov topshiriqnomalarini rasmiylashtiradi.

OʻzRVB Dilerlarning chet el valutasidagi va soʻmdagi netto-talablari boʻyicha toʻlovlarni savdolar oʻtkazilgan kundan keyingi ish kundan kechiktirmay oʻtkazadi.

OʻzRVB Markaziy bankning soʻmdagi netto-talablari boʻyicha toʻlovlarni Dilerlarning savdo yakunlariga koʻra vujudga kelgan soʻmdagi bajarilmagan netto-majburiyatlari miqdoriga kamaytirib oʻtkazadi. Navbatdagi savdolar oʻtkazilganidan soʻng netto-majburiyatlardan holi soʻmdagi pul mablagʻlarining qoldiqlari Dilerlarga qaytariladi. Shuningdek, shaxsiy hisobraqamlarda savdolar oʻtkazilgan kundan keyingi ish kuni boshlanishiga soʻmdagi pul mablagʻlari mavjud boʻlishi mumkin.

Shaxsiy hisobraqamlarda mavjud boʻlgan chet el valutasidagi pul mablagʻlarining qoldiqlari har oyning oxirgi ish kuni Dilerlarga qaytariladi.

Shuningdek, shaxsiy hisobraqamlarda keyingi oyning birinchi ish kuni boshlanishiga chet el valutasidagi pul mablagʻlari mavjud boʻlishi mumkin.

Savdo yakunlariga koʻra Markaziy bankda chet el valutasida netto-majburiyatlar hosil boʻlgan taqdirda, OʻzRVB qolgan Dilerlarning chet el valutasidagi netto-talablari boʻyicha toʻlovlarni Markaziy bank OʻzRVBga nisbatan oʻz netto-majburiyatlarini toʻla bajarganidan keyin oʻtkazadi.

O'zRVB Dilerlarning pul mablag'larini ular tomonidan taqdim etilgan asl nusxadagi xatlariga muvofiq qaytarishni ham amalga oshirishi mumkin. Bunda:

- agar xat soat 13-00 gacha taqdim etilgan bo'lsa, joriy ish kuni davomida;

- agar xat soat 13-00 dan keyin taqdim etilgan bo'lsa, keyingi ish kuni davomida.

Pul mablag'larini qaytarish uchun xatlarni rasmiylashtirish va taqdim etish shartlari quyidagilardan iborat:

a) xatlar aniq summa va bank rekvizitlari ko'rsatilgan holda Dilerning rasmiy blankida rasmiylashtirilishi shart. To'g'rilash va bo'yashlarga ijozat berilmaydi;

b) xatlar imzo qo'yish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar imzolari (Dilerlar tomonidan oldindan taqdim etilgan, birinchi va ikkinchi imzo qo'yish huquqidan foydalanuvchi mansabdor shaxslar imzolarining namunalari varaqchasida ko'rsatilgan) hamda asosiy (yoki gerbli) muhr bilan tasdiqlangan bo'lishi shart.

Mansabdor shaxslarga vaqtincha birinchi yoki ikkinchi imzo huquqi berilganda, shuningdek, rahbar tomonidan vakolat berilgan shaxslardan birortasi vaqtincha o'zgarganda, vaqtincha vakolat berilgan shaxsning imzo namunasi bilan amal qilish muddati ko'rsatilgan qo'shimcha varaqcha taqdim qilinadi. Ushbu vaqtinchalik varaqcha rahbar tomonidan imzolanib, muhr bilan tasdiqlanadi.

Dilerning muhri o'zgarganda, varaqcha ko'rsatilgan imzolaridan loaqal birortasi almashtirilganda yoki qo'shilganda, yangi imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqcha taqdim etiladi. Bekor qilingan imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan varaqchalar Dilerning yuridik yig'majildiga tikiladi.

Yuqoridagi bandlar talablariga mos bo'lmagan pul mablag'larini qaytarish uchun taqdim etilgan xatlar O'zRVB tomonidan ijrosiz qoldiriladi.

Bunda pul mablag'larini qaytarish uchun xatni taqdim etgan Diler quyidagi amallarni bajarish huquqiga ega:

a) rasmiylashtirish va taqdim etish talablariga rioya etgan holda xatni qayta taqdim etish.

Bu holda xatni yangidan taqdim etish sanasi ushbu xatni qabul etish sanasi deb hisoblanadi;

b) O'zRVBga taqdim etilgan xatni topshirilgan joyida qaytarib olish.



Dilerlar tomonidan savdolar yakunlariga ko'ra o'zlarining so'mdagi netto-majburiyatlarini mazkur Qoidalarda belgilangan muddatlarda bajarmaganliklari (jumladan, qisman) hollarida:

instrument xaridi bo'yicha bitim yoki bitim qismi Dilerlarning so'mdagi netto-majburiyatlari bajarilmagan miqdorida bekor qilinadi;

Dilerlarning bajarilmagan so'mdagi netto-majburiyatlarini hisobga olgan holda avval taqdim etilgan birja guvohnomalari qayta rasmiylashtiriladi;

kliring sessiyasi o'tkaziladi.

Kliring sessiyasini o'tkazish mobaynida bitimlarni tuzish so'm va chet el valutasidagi pul mablag'lari deponentlanmasdan oldingi savdo sessiyasida belgilangan kurs bo'yicha amalga oshiriladi.

Markaziy bank hamda O'zRVB bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun so'mdagi pul mablag'larining (savdolar yakuni bo'yicha netto-majburiyatlar) o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlamagan Dilerlar kliring sessiyasi qatnashchilari hisoblanadi.

Kliring sessiyasini o'tkazish vaqti soat 9-30 dan 10-00 gacha etib belgilanadi.

Birja bitimlarini ro'yxatdan o'tkazish va rasmiylashtirish kliring sessiyalari natijalari bo'yicha yozma yoki elektron shaklda savdolar tugaganidan keyin ikki soat ichida amalga oshiriladi. Bunda, O'zRVB mansabdor shaxslari va treyder tomonidan imzolangan birja guvohnomalari rasmiylashtiriladi.

O'zRVBning maxsus hisobraqamlaridagi so'm va chet el valutasidagi pul mablag'lari qoldiqlarini solishtirish maqsadida Dilerlar har chorakda shaxsiy hisobraqamlaridagi pul mablag'larining chorakning 1-sanasiga bo'lgan holati to'g'risidagi rasmiy blankda rasmiylashtirilgan xatni (16-ilova) hisobot choragidan keyingi oyning 10-sanasidan kechiktirmagan holda taqdim etadilar.

Savdolar jarayonida vujudga keladigan hamda to'lov majburiyatlarini ijro etish bilan bog'liq nizolar va kelishmovchiliklar O'zbekiston respublika valuta birjasida nizolarni ko'rib chiquvchi Arbitraj komissiyasi majlisida ko'rib chiqiladi.

O'zRVB bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun pul mablag'larining o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlamagan Dilerlar majburiyatlarining ijro etilmagan qismidan 0.1% miqdorida penya to'laydilar.

O'zRVB oldida penya to'lash bo'yicha bajarilmagan majburiyatlarga ega Dilerlar navbatdagi savdolarda ishtirok etishga qo'yilmaydilar.

O‘zRVB o‘zining netto-majburiyatlari bo‘yicha to‘lovlarni o‘tkazish muddatini buzganligi uchun:

a) so‘mda bajarilmagan majburiyat summasining har bir kechiktirilgan kuni uchun 0,05 foiz, lekin majburiyat summasining 10 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda;

b) chet el valutasida penya hisoblash sanasiga uch oylik LIBOR stavkasining o‘rtacha qiymati (London banklararo depozitlar stavkasi) qo‘shuv bajarilmagan majburiyat summasining har bir kechiktirilgan kuni uchun 1 foiz, lekin majburiyat summasining 10 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda penya to‘laydi.

Penyani hisoblash chet el valutasida, penyani undirish esa penyani qo‘yish sanasiga Markaziy bankning kursi bo‘yicha so‘mda amalga oshiriladi.

Penya to‘lovlarni o‘tkazish muddatlari buzilgan kundan boshlab, ikki ish kuni davomida to‘lanadi.

O‘zRVB va Dilerlar O‘zRVBda savdolar o‘tkazilganidan so‘ng yuzaga kelgan engib bo‘lmas kuch sharoiti ta‘sirida va fors-major holatlarida, O‘zRVB ichki hujjatlarida belgilangan hisob-kitob qilish muddatlarini buzganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar. Engib bo‘lmas kuch sharoitlari deganda yong‘inlar, zilzilalar va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek, Davlat organlari ko‘rsatmalari hamda qabul qilgan qarorlaridan kelib chiqadigan boshqa sharoitlar hamda bundan tashqari, texnika yoki dasturiy ta‘minotning ishdan chiqishi tushuniladi.

Yengib bo‘lmas kuch sharoitlari yuzaga kelganligi to‘g‘risida tomonlar barcha imkoniyatdagi vositalardan foydalanib, bir-birlarini zudlik bilan ogohlantirishlari shart.

Tomonlar majburiyatlarining bajarilish vaqti yengib bo‘lmas kuch sharoitlarini barham toptirishga ketgan vaqtga uzaytiriladi.

Savdolar yakuni bo‘yicha O‘zRVB Dilerlardan instrumentni sotib olish chog‘ida vositachilik mukofotini undiradi. Undirilayotgan vositachilik mukofotining miqdori birja guvoohnomasida aks ettiriladi.

Vositachilik mukofotini undirish miqdori va tartibi O‘zRVB Kuzatuv kengashining qarorilari bilan belgilanadi.

Dilerlar tomonidan O‘zRVBda o‘tkaziladigan operatsiyalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq muhofaza qilinadigan maxfiy axborotni tashkil etuvchi ma‘lumotlardir.

“O‘zbekiston respublika valuta birjasi aksiyadorlik jamiyatiga a‘zolik to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq Dilerlar tomonidan taqdim etila-

digan ma'lumotlar o'zgarganda, ular O'zRVB Ijroiya organini yozma ravishda xabardor qiladi.

Dilerlar tomonidan hisobotlarni taqdim etish tartibi, ularning ko'rinishlari, shakllari va muddatlari O'zRVB Ijroiya organi tomonidan belgilanadi. Dilerlarning rahbari hisobotlar o'z vaqtida taqdim etilishi va to'g'riligi uchun javobgardir.

Dilerlar tomonidan hisobot va ma'lumotlarni taqdim etmaslik O'zRVBning ichki hujjatlari shartlarini qo'pol ravishda buzish hisoblanadi.

Qoidalarda belgilangan talablar bajarilmaganda, O'zRVB Dilerlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar bilan bog'liq o'zining majburiyatlarini aniq va to'g'ri bajarilishiga javobgar emas.

## *Nazorat savollari*



1. Valuta birjasining faoliyat xususiyatlari.
2. Valuta birjasida savdo tartibi.
3. Valuta kursining belgilanishi va unga ta'sir etuvchi omillar.
4. Valuta birjasi faoliyatini litsenziyalash va faoliyatga ruxsat berish.
5. Litsenziya talablari va shartlari.
6. Valuta birjasi faoliyatini tartibga solish.
7. O'zbekiston Respublikasi valuta birjasi tarkibiy tuzilishi.
8. Valuta birjasida banklararo savdo sessiyalari.
9. Valuta birjasi avtomatlashtirilgan savdo tizimlari.

---

---

## **IX bob. XORIJIY MAMLAKATLARDAGI VALUTA BIRJALARI FAOLIYAT MEXANIZMI**

### **9.1. Xorijiy mamlakatlardagi valuta birjalari faoliyati**

Bugungi kunda keng miqyosda foydalaniladigan o‘ziga xos xalqaro bozorlardan biri bu Foreks hisoblanadi. “Forex” so‘zi inglizcha “Foreign exchange” (xalqaro valuta ayirboshlash) iborasining qisqartirilgan ko‘rinishi hisoblanadi. Foreks – bu xalqaro banklararo valuta bozori. Ushbu bozorda valutar oldi-sotdisi amalga oshiriladi. Asosiy valutar kursi muntazam o‘zgarib turgani bois, spekulativ amaliyotlar yo‘li bilan foyda olish mumkin. Masalan, valutani arzonroq narxda sotib olib, keyinroq qimmatroqqa sotsa bo‘ladi.

Jahon valuta bozori dunyodagi eng katta va eng likvid moliya bozori bo‘lib, trillionlab dollarlik o‘rtacha kundalik hajmga ega. Birja operatsiyalari spot yoki fyuchers uchun amalga oshirilishi mumkin. Forex operatsiyalari uchun markazlashtirilgan bozor mavjud emas.

Eng yirik valuta bozori London, Nyu-York, Singapur, Tokio, Frankfurt, Gonkong va Sidney kabi yirik moliyaviy markazlarda joylashgan.

Foreks XX asrning 70-yillaridan beri mavjud bo‘lib, dinamik rivojlanuvchi va hajmi bo‘yicha mazmundor bo‘lgan bozor hisoblanadi. Valuta bozori, asosan, uning miqdori tufayli bir necha sabablarga ko‘ra noyobdir. Forex bozoridagi savdo hajmi odatda juda katta. Bozor dunyoning turli yirik moliyaviy markazlarida haftasiga 5 kun, kuniga 24 soat ochiq. Bu valutararni kun davomida xohlagan vaqtda sotib olish yoki sotish mumkin degan ma‘noni anglatadi. Markaziy banklar, tijorat banklari va boshqa yirik moliya tuzilmalari Foreks bozorining ishtirokchilari hisoblanadi.

Xususiy sarmoyadorlar ham kamroq miqdordagi mablag‘ bilan vositachilar yoki brokerlar orqali ushbu bozorda qatnashishi mumkin. Buning uchun shunday diling kompaniyasida hisob ochib, unga valutani o‘tkazish kerak. Depozit jamg‘arma bo‘lib, u yordamida savdo qilish, pul ishlash, sug‘urta badali yoki garovga qo‘yish mumkin. Bu brokerga muvaffaqiyatsiz savdo natijasida zarar ko‘rishiga yo‘l qo‘ymaydi. Broker o‘z tomonidan mijozning topshirig‘i bo‘yicha bozorda o‘z hisobi

va o'z nomidan amaliyotlarni amalga oshirish mas'uliyatini oladi. Ishitirok etishni xohlovchilarga bozorga kichik summa bilan chiqishga ruxsat berishmaydi, shu bois broker savdo qilish uchun depozitdagi mablag' miqdoridan ancha ko'p bo'lgan kreditni taqdim etadi. Ishitirokchi kreditdan faqat bozorda savdo qilish uchun foydalanishi mumkin. Bitim yakunlanganidan keyin brokerga kreditni to'liq qaytarish lozim, bitimdan tushgan foyda esa ishtirokchiga qoladi. Odatda ushbu kredit miqdori depozitdagi mablag'dan 100 baravar ko'p bo'ladi (1:100 deb yoziladi), ya'ni bozorga bitim uchun foydalanishga tayyor bo'lgan summadan 100 baravar ko'p bo'lgan mablag' bilan chiqadi. Odatda, Foreks bozorida savdolar lotlarda olib boriladi: 1 lot = 100.000\$. Kredit miqdorini taqdim etadigan sug'urta depozitli brokerlik kompaniyasi orqali ishlash tizimi "marjinal savdo" ("margin trading") deyiladi.

Foreksdagi har bir savdo bitimi ikki qismdan iborat bo'ladi: bozorga chiqish yoki pozitsiyaning ochilishi va yopilishi. Pozitsiyaning yopilishi pozitsiyaning ochilishini amalga oshirgan operatsiyaning teskarisi bo'ladi.

Ya'ni yevro sotib olish bilan pozitsiya ochilsa, yevro yangi narxda sotilgan paytda pozitsiya yopilgan bo'ladi. Pozitsiya yopilganidan keyingina olgan foyda yoki ko'rgan zarar hisob-kitob qilinadi.

Har bir ochilgan pozitsiya brokerga muayyan miqdordagi valutani boshqa muayyan miqdordagi valutaga sotib olish uchun buyruq vazifasini o'taydi.

Foreksda barcha valutalar juft savdo qilinadi. Har bir juftlikda bir valuta asos vazifasini o'tasa, ikkinchisi kotirovka qilinadigan bo'ladi. Masalan, EUR/USD juftligida yevro asos vazifasini o'taydi, USD/JPY juftligida esa AQSH dollari shu vazifani bajaradi.

Kotirovka qilinadigan valuta birligida ifodalangan asos vazifasini o'tovchi valutaning qiymati kotirovka deyiladi.

Har bir kotirovka ikkita raqamdan iborat bo'ladi. Birinchi raqam – "Bid" – mijoz, asos vazifasini o'tovchi valutani kotirovka qilinadigan valuta uchun sotishi mumkin bo'lgan narx. Ikkinchisi – "Ask", yoki "Offer" – mijoz asos vazifasini o'tovchi valutani sotib olishi mumkin bo'lgan narx. Masalan: EUR/USD = 1.2603 Bid; 1.2606 Ask. "Bid" va "Ask" o'rtasidagi farq "spred" (spread) deyiladi. Yuqoridagi misolda spred 3 ta bandga teng. Band ("point" yoki "pips") – bu narxlarning o'zgarishga ruxsat etiladigan eng kam miqdori. Turli juftlikdagi valutarlar turli aniqlikda kotirovka qilinadi, ya'ni kotirovkada turli miqdordagi o'nli raqamlar bo'ladi. Valutalarning ko'pchiligi verguldan keyingi

to'rtinchi raqamgacha aniqlikda kotirovka qilinadi, faqat "yena"gina 0.01 gacha aniqlikda bo'ladi. Spredning kattaligi valuta juftligiga, bitim summasiga hamda bozordagi vaziyatga bog'liq.

Spred broker yoki DM – diling markazining daromad manbai hisoblanadi: brokerlik kompaniyalari o'zlarining asosiy daromadlarini valutalar oldi-sotdisidagi kurslar orasidagi farqdan olishadi. Foreks bozori-dagi valuta amaliyotlari nafaqat dollarda amalga oshiriladi, balki boshqa valyutlarda ham amalga oshiriladi. Valutalarning dollarga nisbatan kursidan kelib chiqadigan ularning ayirboshlash kursi kross-kurs deyiladi. Bozorda asosan quyidagi kross-kurslar qo'llaniladi: EUR/GBP, EUR/JPY, EUR/CHF.

Foreksda, boshqa bozorlardagi kabi faoliyatning asosini ma'lum to'plamdagi tovarlar - turli mamlakatlarning milliy valutilari bilan savdo qilish tashkil etadi.

Valuta harakatining tayanch tamoyili davlat muassasalarining ehtiyoji, shuningdek, butun dunyodagi tijorat tuzilmalarining chet ellarda olgan foydasini milliy valutaga konvertatsiya qilish hisoblanadi. Biroq ularning ulushiga valuta bozori umumiy aylanish hajmining taxminan 5% to'g'ri keladi. Qolgan 95%i valuta kurslarining harakatidan foyda olishga intilayotgan valuta bilan ishlovchi treyderlarning spekyulatsiya kapitali ta'minlaydi. Spekyulantlar orasida eng ommaviylari (85%dan ortig'i) asosiy valutalar: AQSH dollari (USD), yapon iyenasi (JPY), britaniya funti (GBP), shveysariya franki (CHF), Kanada (CAD) va avstraliya dollarlari (AUD) hisoblanadi.

Masalan, agar dollar barbod bo'lsa, u holda boshqa valuta kuchliroq bo'ladi, bozordagi harakat esa faolroq bo'ladi. Savodli tarzda savdo qilgan bunday vaziat treyderning qo'shimcha daromad olishga imkon beradi.

Valuta bozori quyidagi xarakteristikalar tufayli noyobdir:

- ❖ yuqori likvidlikka olib keladigan dunyodagi eng katta aktiv klassini aks ettiruvchi yirik savdo hajmi;
- ❖ uning geografik tarqalishi;
- ❖ uning uzluksiz ishlashi: dam olish kunlari tashqari 24 soat, ya'ni yakshanba kuni (Sidney) 22:00 dan juma kuni (Nyu-York) 22:00 ga qadar savdo qilish;
- ❖ kurslarga ta'sir qiluvchi omillarning xilma-xilligi;
- ❖ boshqa daromadli bozorlar bilan solishtiradigan nisbiy foydaning past darajada bo'lishi;

❖ foyda va zarar cheklovlarini va hisob hajmiga bog‘liq holda foydalanish.

Shu sababli, markaziy banklar tomonidan valuta aralashuviga qaramasdan, mukammal raqobat idealiga eng yaqin bozor deb ataladi.

Foreks bozori barqarordir. Har qanday moliya bozorining asosiy xatari uning barbod bo‘lishi mumkinligidir. Foreks uning asosiy tovari – valutaning - barcha mavjud vositalardan eng likvidli va ishonchli savdo vositasining o‘ziga xos xususiyati tufayli bunday barbod bo‘lishdan himoyalangan.

Foreksga kirish barcha uchun yengildir. Internet tufayli treyderlar boshqa mamlakatlardagi mijozlar bilan bitimlar tuzishlari mumkin. Valuta kurslari harakatining, treyderning intellektual imkoniyatlari bilan hamda eng yangi kompyuter texnologiyalari bilan birgalikdagi faolligi qisqa vaqt ichida yuqori daromadli biznesni yaratishga imkon beradi. Hozirgi paytda ECN-brokerlarning xizmatlari juda ham dolzarb hisoblanadi, ular trederlarga tizim ichida bir-biriga qarshi narxni taklif etish vositasida savdo qilish imkoniyatini beradi.

Foreks bozori himoyalangan bo‘ladi. Foreks kompaniyasining xavfsizlik tizimi tufayli savdo paytida har bir mijozning mablag‘lari to‘liq himoyalangan bo‘ladi.

Valuta va boshqa bozorlar orasida ba’zi bir farqlar mavjud. Birinchidan, qoidalar kamroq, ya’ni investorlar kabinetga, fyuchers bozorlarida bo‘lgani kabi qattiq me’yor va qoidalarga rioya qilinmaydi. Bu shuni anglatadiki, valuta bozori yo‘q va valuta bozorini nazorat qiluvchi markaziy organlar yo‘q. Shuningdek, savdo an’anaviy almashinuvda sodir etilmagani bois, boshqa bir bozorda bir xil to‘lovlarni yoki komissiyalarni topib bo‘lmaydi.

Valuta bozori moliyaviy institutlar orqali ishlaydi va bir nechta darajada ishlaydi. Sahnalarning orqasida, banklar katta miqdordagi valuta savdosi bilan shug‘ullanadigan “dilerlar” deb nomlanadigan kichik miqdordagi moliyaviy firmalarga murojaat qilishadi. Ko‘pgina valuta sotuvchisi banklardir, shuning uchun bu tomoshabinlar bozori ba’zida “banklararo bozor” deb nomlanadi (garchi bir nechta sug‘urta kompaniyalari va boshqa moliya kompaniyalari ishtirok etsa-da). Ayirboshlash bo‘yicha dilerlar o‘rtasidagi savdolar juda katta bo‘lishi mumkin, bu yuz millionlab dollarni tashkil etadi.

Xalqaro hisob-kitoblar banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2016-yilgi Triennial markaziy banking Chet el valutasini va birjadan tashqari valutalar bozorlari faoliyati tadqiqotining dastlabki global natijalari shuni



ko'rsatadiki, valuta bozorida savdoni kuniga o'rtacha 5,09 trillion AQSH dollari tashkil etadi, bu 2016- yil aprel oyida 5,4 trln. Aprel 2010-yilda 4,0 trillion dollargacha ko'tarildi. Qiymati bilan baholangan valuta almashinuvi 2016-yil aprel oyida boshqa har qanday vositadan ko'proq, kuniga \$ 2,4 trln., keyinchalik spot savdo-sotiq \$ 1,7 trilliordan oshdi.

Valuta bozorining muhim qismi mahsulot yoki xizmatlarni to'lash uchun valuta izlayotgan kompaniyalarning moliyaviy faoliyatidan kelib chiqadi. Tijorat kompaniyalari ko'pincha banklar yoki spekulatorlar bilan solishtirganda juda oz miqdorda savdo qiladilar va ularning savdosi odatda bozor kursi bo'yicha qisqa muddatli ta'sirga ega emas. Shunga qaramay, savdo oqimlari valuta almashinuv kursining uzoq muddatli yo'nalishi bo'yicha muhim omil hisoblanadi. Ba'zi bir ko'pmillatli korporatsiyalar (MNCs) bozorning boshqa ishtirokchilari tomonidan keng tarqalmagan keng tarqalishlar tufayli juda katta pozitsiyalarni qamrab olganda, oldindan aytib bo'lmaydigan ta'sirga ega bo'lishi mumkin.

Milliy markaziy banklar valuta bozorida muhim rol o'ynaydi. Ular pulni, inflatsiyani va foiz stavkalarini nazorat qilishga harakat qiladilar va odatda ularning valutalari uchun rasmiy yoki norasmiy maqsadlarga ega. Bozorni barqarorlashtirish uchun tez-tez valuta zaxiralaridan foydalanishlari mumkin. Shunga qaramay, Markaziy bankning spekulyatsiyani barqarorlashtirish samaradorligi shubhali hisoblanadi, chunki markaziy banklar boshqa treyderlar kabi katta zarar ko'rsalar, bankrot bo'lmaydi. Bundan tashqari, ularda savdo-sotiqdan daromad olishning ishonchli dalillari mavjud.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'tgan 1 yil ichida bozorda eng yuqori ulushga ega bo'lgan valuta treyderlarining ulushida tushish kuzatilgan. Bu jarayon boshqa valuta treyderlarining valuta bozoridagi faoliyatining yaxshilanganini anglatishi mumkin. Shuning evaziga foiz ulushlarda tushish kuzatilgan, ammo bu son ko'rsatkichlarining ham tushganligini anglatmaydi.

Ushbu valuta bozorining moliyaviy instrumentlari sifatida forvard, fyuchers, opsiyon va shu kabilardan foydalaniladi.

Valuta xavfini bartaraf etishning bir usuli bu forvard bitimni amalga oshirishdir. Ushbu tranzaksiyada pul kelishilgan kelgusi kunga qadar ayirboshlanmaydi. Agar xaridor va sotuvchi kelajakda biron-bir kun uchun joriy almashinuv kursi bo'yicha ayirboshlashga kelishgan bo'lsa, bitim o'sha paytdagi bozor narxi qanday bo'lishidan qat'iy nazar joriy narx bo'yicha amalga oshiriladi. Savdo muddati bir kun, bir necha kun,

oy yoki yil bo'lishi mumkin. Odatda sana har ikki tomon tomonidan ham belgilanadi. Keyinchalik forvard shartnoma har ikki tomon tomonidan ham muhokama qilinadi va kelishib olinadi.

9.1-jadval

**Xalqaro top - 10 valuta treyderlari<sup>42</sup>**

<b>№</b>	<b>Nomi</b>	<b>Bozor ulushi % (2015)</b>	<b>Bozor ulushi % (2016)</b>
1	Citi	16.1	12.9
2	JP Morgan	14.5	8.8
3	UBS	8.1	8.8
4	Deutsche Bank	7.7	7.9
5	Bank of America Merrill Lynch	7.3	6.4
6	Barclays	6.2	5.7
7	Goldman Sachs	5.4	4.7
8	HSBC	3.7	4.6
9	XTX Markets	3.4	3.9
10	Morgan Stanley	3.4	3.2

<sup>42</sup> McGeever, Jamie. "Citi tops Euromoney global FX poll again, but big banks lose grip". 2016

Fyuchers shartnomalari standartlashtirilgan muddatli shartnomalar bo'lib, odatda, ushbu maqsadlar uchun yaratilgan birjada sotiladi. Shartnomaning o'rtacha muddati taxminan 3 oyni tashkil qiladi. Fyuchers shartnomalari, odatda, foizlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Valuta fyuchers shartnomalari - ma'lum bir valutaning standart hajmini aniq hisob-kitob sanasi bo'yicha almashtiradigan shartnomalar. Shunday qilib, valuta fyuchers shartnomalari majburiyatlarning muddati bo'yicha forvard shartnomalariga o'xshashdir, lekin ular oldi-sotdini amalga oshirish yo'li bilan farqlanadi. Bundan tashqari, fyucherslar forvardda mavjud kredit riskini yo'q qilishga yordam beradi.

Opsion - bu valutada pulni almashtirish majburiyatini egasiga tegishli muddatda belgilangan valutada oldindan kelishilgan kurs bo'yicha boshqa valutaga almashtirish majburiyatiga ega bo'lgan derivativ hisoblanadi. Foreks opsionlar bozori dunyodagi istalgan opsion uchun eng chuqur, eng katta va eng likvidli bozor hisoblanadi.

Valuta bozori valuta konvertatsiyasini ta'minlash orqali xalqaro savdoga va investitsiyalarga yordam beradi. Misol uchun, Qo'shma Shtatlardagi biznesni Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar, ayniqsa, Yevro hududi a'zolari import qilish va uning daromadi Amerika Qo'shma Shtatlarida bo'lsa-da, yevroga to'lash imkonini beradi. Shuningdek, u valutilarning qiymatiga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri baholashni va ikki valuta o'rtasida farq nisbati asosidagi savdo spekulyatsiyasini qo'llab-quvvatlaydi. Odatda, valuta operatsiyalari paytida, bir tomon bir necha valutaning bir nechta miqdori bilan bir nechta valuta sotib oladi.

## *Nazorat savollari*



1. Valuta birjalari faoliyatini xalqaro tartibga solish mexanizmlari.
2. Xalqaro valuta birjalarida hisob-kitoblar tizimi.
3. Yevropa ittifoqida valuta birjalari faoliyat mexanizmi.
4. AQSHda valuta birjalari faoliyat mexanizmi.
5. Xitoyda valuta birjasi faoliyat mexanizmi.
6. Yaponiya va Janubiy Koreyadagi valuta birjalaridagi o'ziga xosliklar.
7. FOREX savdo tizimi amal qilish mexanizmi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI



1. O‘zbekiston Respublikasi “Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 2014-yil 12- sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonun, 2015-yil 3-iyun.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli Farmoni // Xalq so‘zi. 2017-yil 7-fevral.

4. Levine R. Zervos S. Stock market, Banks, and Economics growth. //The American economic Review, 1998, Vol.88. P.537-558.

5. Маскаева А.И., Туманова Н.Н. Биржа и биржевое дело. Учебное пособие. – М.: Инфра-М, 2019. – 118 с.

6. Деева Е.М., Курушин Д.А. Биржевое дело. Учебное пособие. – Ульяновск: УлГТУ, 2015. – 150 с.

7. М. Грэгори. Принципы экономикс. – СПб.: Питер Кем., 2009, С.538.

8. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс. – М: Инфра М, 2008, С.62.

9. Жукова Е.Ф. Рынок ценных бумаг /Под редакция -М: Юнити, 2009-с76.

10. Миркин Я.М. Ценные бумаги и фондовый рынок.-М: Перспектива, 2008. -с.100.

11. Сигел Дж. Долгосрочные инвестиции в акции. Стратегии с высоким доходом и надёжностью. к-е.изд.-СПб,2010-416с.

12. Просветов Г.И. Инвестиции.-М.: Альора-Пресс. 2009-408 с.

13. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari.-Т.: "Moliya" 2003.-332 б.(122-124б.).

14. Vaxobov A.V. va boshqalar. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma -Т.: "Moliya" 2010.-328 б.(152б.).

15. Миркин Я.М., Институциональные и региональные измерение рынка. Рынок ценных бумаг, 2001, №5, С.100.

16. Тьюлз Дж., Брэдли Э.С., Тьюлз Т. Фондовый рынок. М: ИНФРА-М. 2009, С.16.

17. Бакунин М., Соотношение фондового рынка и рынка ценных бумаг. М.: Хозяйство и право.-2006, №5, С.111-112.

18. Идеальная модель финансового рынка России на среднесрочную перспективу. Дискуссионный материал., М., НАУФОР, 2006, С.84.

19. Mark W. The Presidency of Bill Clinton: The Legacy of a New Domestic and Foreign Policy. HistoryPublishers. 2012. 280 p.

20. Блауг М. Экономическая мысль в ретроспективе/М. Блауг.-М.: Дело Лтдю1994.-С.649.

21. Кейнс Дж.М. Избранные произведения/ Дж.М.Кейнс.-М.: Соцэкгиз, 1960.-С.220.

22. Levine R. Zervos S. Stock market, Banks, and Economics growth.//The American economic Review, 2003, Vol.88. P.537-558.

23. World Federation Exchange IOMA 2017 derivatives report, 2018-yil aprel, 20-bet.

24. World Federation Exchange IOMA 2017 derivatives report, 2018-yil aprel, 28-bet.

25. Доклад ФСФР России “О мерах по совершенствованию и регулированию рынка ценных бумаг на 2008-2012 и долгосрочную перспективу.”, М., НАУФОР, 2006, С.84.

26. Рубцов Б.Б. Современные фондовые рынки. Учебное пособие для вузов. – М.: “Альпина Бизнес Букс”, 2007. – 926 с.

27. <https://www.world-exchanges.org/>-World Federation Exchange

28. <http://www.glossary.ru/> - Глоссарий

29. [www.uzse.uz](http://www.uzse.uz) – Toshkent Respublikasi fond birjasi rasmiy sayti.

29. [http://www.ev.com/Publication/vwLUAssets/Comparing-global-stock-exchanges-Eng/\\$FILE/Comparing-global-stock-exchanges-Eng.pdf](http://www.ev.com/Publication/vwLUAssets/Comparing-global-stock-exchanges-Eng/$FILE/Comparing-global-stock-exchanges-Eng.pdf)

## GLOSSARIY



### A

**Aksiya** – o‘z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog‘oz;

**Axborotni oshkor qilish** – qimmatli qog‘ozlar bozorida manfaatdor shaxslarning axborotni qaysi maqsadda olishidan qat’i nazar, mazkur axborotdan uning topilishi va olinishini kafolatlaydigan shakllarda foydalanishini ta’minlash;

### B

**Birjaning kotirovkalash varag‘i** – birja savdolariga qo‘yilgan birja tovarlari ro‘yxati;

**Birja bitimi** – birja tomonidan ro‘yxatga olingan, birja savdosi-ning birjada qayd etilgan natijasi bo‘yicha tuzilgan birja tovariga doir oldi-sotdi shartnomasidir;

**Birja tovari** – dastlabki ko‘zdan kechirishni talab etmaydigan, sifat ko‘rsatkichlari o‘zgarmasligi va birja bitimlari muntazam ravishda tuzilishi bilan tavsiflanadigan birja savdolariga qo‘yilgan muayyan turdagi va sifatdagi tovar.

**Broker** – mijozning topshirig‘iga ko‘ra va uning hisobidan birja bitimlarini tuzuvchi birja a‘zosi;



**Buyurtma** – Qat’iy andoza ko‘rinishidagi, chet el valutasini sotish yoki sotib olish bo‘yicha rozilikni qo‘shimcha tasdiqlashni talab etmaydigan shakldagi hujjat. Ushbu Qoidalarda buyurtmalar dastlabki, boshlang‘ich va qo‘shimcha buyurtmalarga bo‘linadi.

**Birja a‘zolarining mijozlari** – birja savdlarida birja tovarlarini sotadigan yoki sotib oladigan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari;

**Buyurtmalar stakani** – ayni vaqtda taqdim etilgan buyurtmalar bo‘yicha birja bitimi tuzish mumkin bo‘lgan BSETda aks ettirilgan va savdoda ishtirok etayotgan birjaning barcha a‘zolari uchun ochiq jadval ko‘rinishidagi ma’lumot;

**Birja a‘zolari** – dilerlar, market-meykerlar va brokerlar sifatida birja savdolarida ishtirok etish hamda birja bitimlarini tuzish huquqini belgilangan tartibda olgan yuridik shaxslar;

**Birja savdolarining elektron tizimi (BSET)** – birja a‘zolarining birja savdolarida ishtirok etishini ta’minlash uchun foydalaniladigan tizim;

**Banklararo savdo sessiyalari** (savdolar) – O‘zRVB tomonidan ushbu Qoidalarga muvofiq tashkil etiladigan, banklararo valuta bitimlari amalga oshiriladigan birja savdolaridir.

**Birja instrumenti (instrument)** – Spetsifikatsiyada belgilangan bitim qat’iy shartlarining (belgilangan tartibda birja savdolariga qo‘yilgan chet el valutasini kodi (turi), kliringni amalga oshirish va hisob-kitoblarni o‘tkazish muddatlari va hokazolar) yig‘indisi.

**Birja instrumentning xaridi va (yoki) sotuvi** chet el valutasini ma’lum miqdorining xaridi va (yoki) sotuvini bildiradi.

**Banklararo savdo sessiyalarida ishtirok etishiga ruxsat berish** – treyderning banklararo savdo sessiyalarida muayyan miqdordagi birja instrumentini sotish va sotib olish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyati.

**Birja makleri** – Savdolarini o'tkazish va milliy valutaga (keyingi o'rinlarda – so'm) nisbatan chet el valutalari kursini belgilash bo'yicha funktsiyalarni amalga oshiruvchi O'zRVBning maxsus vakolatlangan xodimi.

**Boshlang'ich buyurtma** – savdolar boshlanishida Savdo tizimiga kiritiladigan buyurtma;

## V

**Valuta birjasi** – chet el valutasida, davlat qimmatli qog'ozlari, moliyaviy hosila instrumentlari (derivativlar) oldi-sotdisi hamda ular bilan bog'liq boshqa birja bitimlari bo'yicha birja savdolarini, shuningdek, banklararo pul bozorini hamda Markaziy bankning tijorat banklari bilan amalga oshiriladigan kredit va depozit auksionlarini tashkil etuvchi yuridik shaxs;

**Vakolatli banklar** – chet el valutasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining (keyingi o'rinlarda – Markaziy bank) litsenziyasiga ega bo'lgan banklar.

**Veksel** – veksel beruvchining yoxud vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to'lashga doir qat'iy majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz;

## D

**Departament** – O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish boshqarmasi timsolida;

**Diler** – birja bitimlarini o‘z nomidan va o‘z hisobidan tuzuvchi birja a‘zosi;

**Davlat qimmatli qog‘ozlari** – O‘zbekiston Respublikasining g‘azna majburiyatlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari;

**Depo hisobvarag‘i** – deponentning qimmatli qog‘ozlarini saqlash va qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olish uchun mo‘ljallangan, investitsiya vositachisining va Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysining hisobga olish registrlaridagi yozuvlar yig‘indisi;

**Depo hisobvarag‘idan ko‘chirma** – deponentning qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarini tasdiqlaydigan, investitsiya vositachisi va (yoki) Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi tomonidan beriladigan hujjat;

**Depozitar operatsiyalar** – hisobga olish registrlarida depozitar operatsiyalar standartlariga muvofiq bajariladigan operatsiyalar;

**Depozitar tilxatlar** – nominal qiymatga ega bo‘lmagan qimmatli qog‘oz bo‘lib, u taqdim etiladigan qimmatli qog‘ozlarning muayyan soniga bo‘lgan mulk huquqini tasdiqlaydi va uning egasining ushbu qimmatli qog‘oz emitentidan depozitar tilxat o‘rniga taqdim etiladigan

qimmatli qog'ozlarning tegishli sonini olishini hamda taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlar bilan mustahkamlangan huquqlarning depozitar tilxat egasi tomonidan amalga oshirilishi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatilishini talab qilish huquqini mustahkamlaydi;

**Depozit sertifikat** – bankka qo'yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz;

**Deponent** – depo hisobvarag'iga ega bo'lgan shaxs;

**Diler** – banklararo savdo sessiyalarida birja bitimlarini o'z nomidan va o'z hisobidan hamda mijozning topshirig'iga ko'ra va uning hisobidan tuzuvchi O'zRVB a'zosi.

**Dastlabki buyurtma** – ushbu qoidalar bilan belgilangan muddatlarda oldindan banklararo savdo sessiyalarida birja bitimlarini tuzish uchun taqdim etilgan buyurtma;

**Dilerning netto-pozitsiyasi** – Dilerning netto-majburiyati yoki netto-talabi.

**Dilerning netto-majburiyatlari** – Savdo yakunlariga ko'ra vujudga kelgan Diler majburiyatlarining uning talablaridan oshganligini ifodalovchi biror-bir valutadagi (so'm va (yoki) chet el valutasidagi) pul mablag'lari miqdori.

**Dilerning netto-talablari** - Savdo yakunlariga ko'ra vujudga kelgan Diler talablarining uning majburiyatlaridan oshganligini ifodalovchi biror-bir valutadagi (so'm va (yoki) chet el valutasidagi) pul mablag'lari miqdori.

**Dilerning dastlabki pozitsiyasi** - Dilerning boshlang'ich buyurtmasiga binoan, biror-bir instrumentni sotish va sotib olish imkoniyatlarini hisoblash natijasida hosil bo'lishi mumkin bo'lgan majburiyat va talablari bo'yicha vujudga keladigan holatini ifodalaydi.

**Dilerning reja pozitsiyasi** – Dilerning Savdo tizimidagi buyurtmalariga binoan, biror-bir instrumentni, savdolarning ayni bir vaqtda sotish va sotib olish imkoniyatlarini hisoblash natijasida hosil bo'lishi mumkin bo'lgan majburiyat va talablari bo'yicha vujudga keladigan holatini ifodalaydi.

**Dilerning yakuniy pozitsiyasi** – savdolar o'tkazilganidan so'ng biror-bir instrument bo'yicha kliringni amalga oshirish natijasida hosil bo'lishi mumkin bo'lgan majburiyat va talablari bo'yicha vujudga keladigan holatini ifodalaydi.

## E

**Egasining nomi yozilgan qimmatli qog'ozlar** – mulkiy huquqlarning realizatsiya qilinishi o'z egasining ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lishini talab etadigan qimmatli qog'ozlar;

**Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar** – bitta chiqarilish doirasida bir xil belgilar va rekvizitlarga ega bo'lgan, mazkur chiqarilish uchun yagona shartlar asosida joylashtiriladigan hamda muomalada bo'ladigan qimmatli qog'ozlar;

**Emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining yagona davlat reyestri** – ro'yxatdan o'tkazilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarining ro'yxati;

**Emitent** – emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqaruvchi va ular yuzasidan qimmatli qog‘ozlarning egalari oldida majburiyatlari bo‘lgan yuridik shaxs;

## I

**Ichki hujjat** – mazkur Qoidalarni amalga oshirish bilan bog‘liq jarayonlarni tartibga solishga yo‘naltirilgan birja Boshqaruvi tomonidan mazkur Qoidalarga muvofiq o‘z vakolatlari dorisida qabul qilingan hujjat;

**Investitsiya aktivlari** – qimmatli qog‘ozlar, pul mablag‘lari va qonun hujjatlariga muvofiq investitsiya aktivlari deb e‘tirof etiladigan boshqa mol-mulk;

**Investor** – qimmatli qog‘ozlarni o‘z nomidan va o‘z hisobidan oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

**Infratuzilma obligatsiyalari** – ishlab chiqarish infratuzilmasini va boshqa infratuzilmani barpo etish va rekonstruktsiya qilishni moliyalashtirish uchun pul mablag‘larini jalb etish maqsadida xo‘jalik jamiyatlari va davlat korxonalari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar;

**Instrumentning spetsifikatsiyasi** – (Spetsifikatsiya) (1–2-ilovalar) - Savdolarning parametrlarini, shuningdek, instrumentning banklararo savdo sessiyalari doirasida qo‘llanilishi va tuzilgan bitimlari bo‘yicha kliringni amalga oshirish va hisob-kitoblarni o‘tkazish xususiyatlarini belgilovchi hujjat.

## K

**Kliring** – qimmatli qog‘ozlar savdosining tashkilotchilari tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan qimmatli qog‘ozlarga doir bitimlar bo‘yicha o‘zaro majburiyatlarni aniqlash, aniqlashtirish va hisobga olish;

**Korporativ obligatsiyalar** – aksiyadorlik jamiyatlari va o‘zining tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar tijorat banklari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar;

**Kliring sessiyalari** – O‘zRVB tomonidan ushbu Qoidalarga muvofiq tashkil etiladigan, Dilerlar tomonidan sotib olinmagan chet el valutasini Markaziy bank tomonidan sotib olinishi bo‘yicha amalga oshiriladigan birja savdolaridir.

## L

**Litsenziyalovchi organ** – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki;

**Litsenziya da‘vogari** – litsenziyalovchi organga valuta birjasi faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya (bundan buyon matnda litsenziya deb yuritiladi) berish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat etgan yuridik shaxs;

**Litsenziat** – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining litsenziyasiga ega bo‘lgan yuridik shaxs.

## M

**Market-meyker** – birja tovarlariga nisbatan narx, talab va taklif darajasini saqlab turish uchun o‘z zimmasiga birja bitimlarini tuzish majburiyatini olgan diler;

**Market-meyker** – qimmatli qog‘ozlarga doir narxlar, talab va taklif darajasini saqlab turish uchun birja bitimlarini tuzish majburiyatini o‘z zimmasiga olgan investitsiya vositachisi;

## N

**Netting** — mijozning barcha pul talablarini uning barcha pul majburiyatlariga nisbatan hisobga olish orqali amalga oshiriladigan kliring usuli;

**Noemissiyaviy qimmatli qog‘ozlar** — ushbu Qonunga muvofiq emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar tushunchasiga oid bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlar;

## O

**Obligatsiya** — emissiyaviy qimmatli qog‘oz bo‘lib, u obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qat’iy belgilangan foizni olishga bo‘lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi;

**Option** — emissiyaviy qimmatli qog‘oz bo‘lib, u o‘z emitentining muayyan miqdordagi qimmatli qog‘ozlarini unda nazarda tutilgan muddatda, qat’iy belgilangan narx bo‘yicha sotib olishga bo‘lgan huquqini tasdiqlaydi;

## S

**Savdo tizimining texnikaviy nosozligi** - Texnik jihatdan savdo tizimi odatiy rejimining buzilish holati.



## T

**Treydning avtomatlashtirilgan ish joyi (TAIJ)** – ijara shartnomasiga asosan birja a’zolariga beriladigan ish joyi;

**Treyder** – birja savdolarida birja a’zosi nomidan ishtirok etadigan va birja bitimlarini tuzishga vakolatli bo’lgan birja a’zosining xodimi;

**Treyder** – Dilerning nomidan Savdo tizimida birja bitimlari tuzishga vakolatli bo’lgan, “O’zRVB Avtomatlashtirilgan savdo tizimida chet el valutasi operatsiyalari bo’yicha qatnashish to’g’risida”gi shartnoma, ishonchnoma va treyderlar ro’yxati asosida faoliyat yurituvchi Dilerning xodimi.

**Treydning ish joyi** – Bevosita savdo zalidan, shuningdek, uzoqlashtirilgan terminallar orqali Savdo tizimida birja bitimlarini tuzishni ta’minlovchi avtomatlashtirilgan ish joyi.

**Treydning ish joyidagi texnikaviy nosozlik** – Texnik jihatdan treyder ish joyi odatiy rejimining buzilishi oqibatida treyderning biror-bir vaqt davomida savdolarida qatnashish imkoniyatlaridan mahrum bo’lishiga olib keluvchi holat. Bunda Savdo tizimi normal faoliyat ko’rsatadi.

## F

**Fond birjasi** – ommaviy va oshkora birja savdolarini oldindan belgilangan joyda va belgilangan vaqtda o’rnatilgan qoidalar asosida tashkil etish hamda o’tkazish orqali faqat qimmatli qog’ozlar savdosi uchun sharoitlar yaratib beruvchi yuridik shaxs;

**FSHN** – foydalanuvchining shaxsiy raqami;

## H

**Hisobga olish registrлари** – investitsiya vositachisida va Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysida qimmatli qog‘ozlarni saqlash hamda qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olish bo‘yicha depozitar operatsiyalar standartlari bilan belgilangan yozuvlar tizimi.

**Hisob-kitob markazi** – Markaziy bankning Toshkent shahar Bosh boshqarmasining Hisob – kitob kassa Markazi.

## O‘

**O‘zbekiston Respublikasining g‘azna majburiyatlari** – emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar bo‘lib, ular emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar egalari O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga pul mablag‘lari kiritganligini tasdiqlaydi va bu qimmatli qog‘ozlarga egalik qilishning butun muddati mobaynida qat‘iy belgilangan daromad olish huquqini beradi;

**“O‘zbekiston respublika valuta birjasi” aksiyadorlik jamiyati** – oldindan **belgilangan** joy va muayyan vaqtda, belgilangan qoidalar asosida banklararo savdo sessiyalarini tashkil etuvchi **birja**.

**O‘zRVBning avtomatlashtirilgan savdo tizimi** – banklararo savdo sessiyalarini elektron shaklda o‘tkazishni amalga oshiruvchi, qabul qilingan buyurtmalarning qayd qilinishini, avtomatik ravishda bitimlar tuzilishini va kotirovkalash (kursning belgilanishini), hamda kliringni amalga oshirishni, treyderlarning ish joylarida o‘tkazilayotgan savdolar bo‘yicha joriy ma’lumotlarning tezkor aks ettirilishini, savdo jarayonini bayonlashtirishni va yakuniy hujjatlarning shakllanishini ta’minlovchi O‘zRVBning elektron savdo tizimi.

**O‘zRVB Ijroiya organi** – O‘zRVB Bosh direktori shaxsida ifodalovchi yakkaboshchilik asosidagi Ijroiya organi.

**O‘zRVBning ichki hujjatlari** – O‘zRVBning boshqaruv organlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida tasdiqlangan O‘zRVB ichki me’yoriy hujjatlari.

**O‘zRVB a’zolari** – O‘zRVB tomonidan belgilangan tartibda banklararo savdo sessiyalarida birja bitimlarini ishtirok etish hamda diler sifatida tuzish huquqini olgan vakolatli banklar.

**O‘zRVBning netto-pozitsiyasi** – O‘zRVBning netto-majburiyatlari yoki netto-talablari.

**O‘zRVBning netto-majburiyatlari** – Savdo yakunlariga ko‘ra vujudga kelgan O‘zRVB majburiyatlarining uning talablaridan oshganligini ifodalovchi biror-bir valutadagi (so‘m va (yoki) chet el valutasida) pul mablag‘lari miqdori.

**O‘zRVBning netto-talablari** – Savdo yakunlariga ko‘ra vujudga kelgan O‘zRVB talablarining uning majburiyatlaridan oshganligini ifodalovchi biror-bir valutadagi (so‘m va (yoki) chet el valutasida) pul mablag‘lari miqdori.

## Q

**Qimmatli qog‘ozlar** – hujjatlar bo‘lib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o‘rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to‘lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o‘tkazish imkoniyatini nazarda tutadi;

**Qimmatli qog'ozlar bozori** – yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog'liq munosabatlari tizimi;

**Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari** – qimmatli qog'ozlarning emitentlari, qimmatli qog'ozlarning egalari, investorlar, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari, shuningdek, birjalar va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi;

**Qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi** – qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

**Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisining mijosi (mijoz)** – deponent yoki qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisining xizmatlaridan foydalanuvchi boshqa shaxs;

**Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat** – qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatish bo'yicha litsenziyalanadigan faoliyat turi;

**Qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar** – qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisi, hadyasi, merosi, ustav fondiga kiritilishi va qimmatli qog'ozlar egasining almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar, shuningdek qimmatli qog'ozlar garovi;

**Qimmatli qog'ozlarga doir fyuchers** – qimmatli qog'oz bo'lib, u o'zida nazarda tutilgan muddatda qimmatli qog'ozlarning muayyan sonini qat'iy belgilangan narxda sotib olish yoki sotish majburiyatini tasdiqlaydi;

**Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish** – qimmatli qog'ozlarni ularning dastlabki egalariga berish;

**Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi** – depo hisobvaraqlari bo‘yicha emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni saqlashning, bunday qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olishning va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar harakatining yagona tizimini ta‘minlovchi davlat depozitariysi;

**Qimmatli qog‘ozlarning muomalasi** – qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotish, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, qimmatli qog‘ozlarning egasi almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar;

**Qimmatli qog‘ozlarni nominal saqlovchi** – qimmatli qog‘ozlar egasining yoki u vakil qilgan shaxsning topshirig‘iga ko‘ra qimmatli qog‘ozlarni hisobga olishni va ularga bo‘lgan huquqlarni tasdiqlashni qimmatli qog‘ozlarning egasi bo‘lmagan holda amalga oshiruvchi investitsiya vositachisi, Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi;

**Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish** – yuridik shaxsning fuqarolik huquqlarining obykti sifatida qimmatli qog‘ozlar paydo bo‘lishiga qaratilgan harakatlari;

**Qimmatli qog‘ozlar egasi** – qimmatli qog‘ozlar o‘ziga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida tegishli bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

**Qimmatli qog‘ozlar egalarining reyestri** – ro‘yxatdan o‘tkazilgan qimmatli qog‘ozlar egalarining belgilangan sanadagi holatga ko‘ra shakllantirilgan, ularga qarashli egasining nomi yozilgan qimmatli qog‘ozlar emitentining nomi, ushbu qimmatli qog‘ozlarning soni, nominal qiymati, turi va xili, shuningdek, reyestrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan

shaxslarga axborot yuborish imkoniyatini beradigan ma'lumotlar ko'rsatilgan ro'yxati;

**Qimmatli qog'ozlar emissiyasi** – emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish;

**Qimmatli qog'ozlarning emissiya risolasi** – emitent va u chiqaradigan qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, investorning qimmatli qog'ozlar olish to'g'risidagi qaroriga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa axborotni aks ettiruvchi hujjat;

**Qimmatli qog'ozlarning hosilalari** – o'z egalarining boshqa qimmatli qog'ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan opsiyonlar, qimmatli qog'ozlarga doir fyucherslar, depozitar tilxatlar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog'ozlar;

**Qo'shimcha buyurtma** – boshlang'ich buyurtmada ko'rsatilgan birja instrumentining xaridi va (yoki) sotuvi miqdorini o'zgartirish uchun Savdo tizimiga kiritiladigan buyurtma.

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
<b>I bob.TOVAR BIRJALARI VA ULARNING FAOLIYATI TAVSIFI BIRJALAR VA ULARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....</b>	<b>5</b>
1.1. Birjalarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi.....	5
1.2. Birja funksiyalari, savdolari va turlari.....	7
1.3. O‘zbekistonda birjalar faoliyatining huquqiy asoslari.....	10
Nazorat savollari.....	19
<b>II bob.TOVAR BIRJALARI FAOLIYAT MEXANIZMI.....</b>	<b>20</b>
2.1. Birja a‘zolari, ularning huquq va majburiyatlari.....	20
2.2. Birja a‘zoriga qabul qilish, a‘zolikni to‘xtatish va tugatish tartibi.....	23
2.3. Birja a‘zolarini birja savdolarida ishtirok etishiga ruxsat berish tartibi.....	25
2.4. Tovarlarini birja savdolariga qo‘yishga ruxsat berishni amalga oshirish tartibi.....	26
2.5. Birja bitimlarining turlari va birja savdolarini o‘tkazish tartibi.....	27
2.6. Birja savdosi natijalarini va birja bitimlarini rasmiylashtirish va ro‘yxatga olish tartibi.....	33
2.7. Kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi.....	38
2.8. Birja tovarlarini kotirovkalash (narxini belgilash) tartibi va narx shakllanishi ustidan nazorat.....	42

2.9. Birja savdosi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikka tortish tartibi.....	44
Nazorat savollari.....	57
<b>III bob. XORIJIY MAMLAKATLARDA TOVAR BIRJALARI FAOLIYAT MEXANIZMI.....</b>	<b>58</b>
3.1.Yevropada birjaning rivojlanish bosqichlari va eng yirik tovar birjalari.....	58
3.2. ICE Futures Canada.....	65
Nazorat savollari.....	70
<b>IV bob. FOND BIRJALARI VA ULAR FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH FOND BIRJALARI FAOLIYATI NAZARIY VA TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI.....</b>	<b>71</b>
4.1. Fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar.....	71
4.2. Fond bozori orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy kontsepsiyalari va uni jadallashtirish omillari.....	84
4.3.O'zbekistonda fond bozori orqali investitsiyalarni moliyalashtirishning huquqiy asoslari.....	98
Nazorat savollari.....	103
<b>V bob. QIMMATLI QOG'OZLARNI CHIQARISH, DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZISH, JOYLASHTIRISH VA ULARNING MUOMALASI.....</b>	<b>104</b>
5.1. Qimmatli qog'ozlarni chiqarish.....	104
5.2. Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish va ularning muomalasi.....	109
5.3. Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat.....	113
5.4. Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish.....	119
Nazorat savollari.....	124



<b>VI bob. TOSHKENT RFB FAOLIYAT MEXANIZMI.....</b>	<b>125</b>
6.1. Toshkent RFBning tashkil etilishi va huquqiy asoslari.....	125
6.2. Toshkent RFBning faoliyat va asosiy yo‘nalishlari.....	126
6.3. Toshkent RFB faoliyatining tahlili.....	130
6.4. Investorlar toifalari bo‘yicha bozor tavsifi.....	137
6.5. Emitentlar tavsifi.....	139
6.6. Toshkent RFB birja kotirovka varag‘iga kiritilgan kompaniyalar tavsifi.....	146
Nazorat savollari.....	149
<b>VII bob. XORIJIY MAMLAKATLARDAGI FOND BIRJALARI FAOLIYAT MEXANIZMI.....</b>	<b>150</b>
7.1. London fond birjasi.....	150
7.2. LSE zamonaviy birjasi.....	154
7.3. Nyu-York fond birjasi.....	157
7.4. Tokio fond birjasi.....	164
Nazorat savollari.....	171
<b>VIII bob. VALUTA BIRJALARI VA ULAR FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH VALUTA BIRJASI FAOLIYATINING NAZARIY VA TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI.....</b>	<b>172</b>
8.1. Valuta birjasini litsenziyalash tartibi.....	172
8.2. Valuta birjasi savdolarining elektron tizimlariga qo‘yiladigan umumiy texnik talablar.....	178
8.3. Valuta birjasida banklararo savdo sessiyalarini o‘tkazish tartibi.....	181
Nazorat savollari.....	195

<b>IX bob. XORIJIY MAMLAKATLARDAGI VALUTA BIRJALARI FAOLIYAT MEXANIZMI.....</b>	196
9.1. Xorijiy mamlakatlardagi valuta birjalari faoliyati.....	196
Nazorat savollari.....	203
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	204
<b>GLOSSARIY .....</b>	207

## СОДЕРЖАНИЕ

<b>Введение.....</b>	<b>3</b>
<b>Глава 1. БИРЖИ И ТЕНДЕНЦИИ ИХ РАЗВИТИЯ.....</b>	<b>5</b>
1.1. Становление и развитие бирж .....	5
1.2. Биржевые функции, сделки и типы.....	7
1.3. Правовые основы деятельности бирж в Узбекистане.....	10
Контрольные вопросы.....	19
<b>Глава 2. МЕХАНИЗМ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ТОВАРНЫХ РЫНКОВ.....</b>	<b>20</b>
2.1. Члены биржи, их права и обязанности.....	20
2.2. Порядок приема, приостановления и прекращения членства в бирже.....	23
2.3. Порядок допуска членов биржи к биржевым торгам.....	25
2.4. Порядок допуска товаров на биржевую торговлю.....	26
2.5. Виды биржевых сделок и порядок проведения биржевых торгов.....	27
2.6. Порядок клиринга и расчетов.....	33
2.7. Контроль за порядком квотирования (ценообразования) товарной биржи и ценообразования.....	38
2.8. Порядок ответственности за нарушение правил биржевой торговли.....	42
2.9. Порядок ответственности за нарушение правил биржевой торговли.....	44
Контрольные вопросы.....	57
<b>Глава 3. ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ ТОВАРНЫХ БИРЖ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ.....</b>	<b>58</b>

3.1 Этапы развития биржи в Европе и крупнейшие товарные биржи.....	58
3.2. ICE Futures Canada.....	65
Контрольные вопросы.....	70
<b>Глава 4. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ФОНДОВЫХ БИРЖ.....</b>	<b>71</b>
4.1. Научно-теоретические взгляды на финансирование инвестиционной деятельности через фондовый рынок.....	71
4.2. Теоретические концепции экономического роста через фондовый рынок и факторы его ускорения.....	84
4.3. Правовая основа для финансирования инвестиций на фондовом рынке Узбекистана.....	98
Контрольные вопросы.....	103
<b>Глава 5. ВЫПУСК, ГОСУДАРСТВЕННАЯ РЕГИСТРАЦИЯ, РАЗМЕЩЕНИЕ И ОБРАЩЕНИЕ ЦЕННЫХ БУМАГ.....</b>	<b>104</b>
5.1. Выпуск ценных бумаг.....	104
5.2. Размещение и обращение ценных бумаг.....	109
5.3. Профессиональная деятельность на рынке ценных бумаг.....	113
5.4. Регистрация прав на ценные бумаги.....	119
Контрольные вопросы.....	124
<b>Глава 6. МЕХАНИЗМ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РФБ ТАШКЕНТ.....</b>	<b>125</b>
6.1. Становление и правовые основы РГП г.Ташкента.....	125
6.2. Деятельность и основные направления РГП г.Ташкента.....	126
6.3. Анализ РГП Ташкент.....	130
6.4. Характеристика рынка по категориям инвесторов.....	137
6.5. Описание эмитентов.....	139

6.6. Описание компаний, включенных в котировальный список РГП г. Тошкент.....	146
Контрольные вопросы.....	149
<b>Глава 7. МЕХАНИЗМ ФОНДОВЫХ БИРЖ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ.....</b>	<b>150</b>
7.1. Лондонская фондовая биржа.....	150
7.2. LSE Современная Фондовая биржа .....	154
7.3. Нью-Йоркская фондовая биржа.....	157
7.4. Токийская фондовая биржа.....	164
Контрольные вопросы.....	171
<b>Глава 8. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ВАЛЮТНО-ОБМЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....</b>	<b>172</b>
8.1. Процедура лицензирования обмена валюты.....	172
8.2. Общие технические требования к электронным биржевым торговым системам.....	178
8.3. Порядок проведения межбанковских торговых сессий на валютной бирже .....	181
Контрольные вопросы.....	195
<b>Глава 9. МЕХАНИЗМЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ВАЛЮТНЫХ РЫНКАХ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ.....</b>	<b>196</b>
9.1. Валютная деятельность в зарубежных странах.....	196
Контрольные вопросы.....	203
<b>СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР.....</b>	<b>204</b>
<b>ГЛОССАРИЙ.....</b>	<b>207</b>

## CONTENTS

<b>Introduction</b> .....	3
<b>Chapter1. EXCHANGES AND THEIR DEVELOPMENT TRENDS</b> .....	5
1.1.The formation and development of exchanges The formation and development of exchanges.....	5
1.2. Exchange functions, transactions and types Exchange functions, transactions and types.....	7
1.3. Legal basis for the activities of exchanges in Uzbekistan.....	10
Questions.....	19
<b>Chapter2. THE MECHANISM OF FUNCTIONING OF THE COMMODITY MARKETS</b> .....	20
2.1.Exchange members, their rights and obligations .....	20
2.2. The procedure for admission, suspension and termination of membership in the exchange.....	23
2.3. The procedure for admission of exchange members to exchange trading.....	25
2.4. The procedure for admitting goods to exchange trading.....	26
2.5. Types of exchange transactions and the procedure for conducting exchange trading.....	27
2.6. Clearing and Settlement Procedure Clearing and Settlement Procedure.....	33
2.7. Control over the quotas (pricing) of the commodity exchange and pricing.....	38
2.8. Responsibility for violation of exchange trading rules.....	42
2.9. Responsibility for violation of exchange trading rules.....	44
Questions.....	57

<b>Chapter3. THE FUNCTIONING OF COMMODITY EXCHANGES IN FOREIGN COUNTRIES.....</b>	<b>58</b>
3.1. Stages of development of the exchange in Europe and the largest commodity exchanges.....	58
3.2. ICE Futures Canada.....	65
Questions.....	70
<b>Chapter 4. THEORETICAL AND ORGANIZATIONAL-LEGAL BASES OF ACTIVITY OF STOCK EXCHANGES .....</b>	<b>71</b>
4.1. Scientific and theoretical views on financing investment activities through the stock market.....	71
4.2. Theoretical concepts of economic growth through the stock market and factors of its acceleration.....	84
4.3. Legal basis for financing investments in the stock market of Uzbekistan.....	98
Questions.....	103
<b>Chapter 5. ISSUE, STATE REGISTRATION, PLACEMENT AND CIRCULATION OF SECURITIES.....</b>	<b>104</b>
5.1. Issue of securities.....	104
5.2. Placement and circulation of securities.....	109
5.3. Professional activities in the securities market Professional activities in the securities market.....	113
5.4. Registration of rights to securities.....	119
Questions.....	124
<b>Chapter 6. OPERATING MECHANISM OF RSE TOSHKENT.....</b>	<b>125</b>
6.1. Formation and legal basis of RSE of Tashkent.....	125
6.2. Activities and main directions of RSE in Tashkent.....	126

6.3. Analysis of RSE Tashkent.....	130
6.4. Market characteristics by categories of investors.....	137
6.5. Description of issuers.....	139
6.6. Description of companies included in the quotation list of RSE in Tashkent.....	146
Questions.....	149
<b>Chapter 7. STOCK EXCHANGES MECHANISM IN FOREIGN COUNTRIES.....</b>	<b>150</b>
7.1. London stock exchange.....	150
7.2. LSE Modern Stock Exchange.....	154
7.3. New york stock exchange.....	157
7.4. Tokyo Stock Exchange.....	164
Контрольные вопросы.....	171
<b>Chapter 8. THEORETICAL AND ORGANIZATIONAL-LEGAL BASES OF THE CURRENCY EXCHANGE ACTIVITY .....</b>	<b>172</b>
8.1. Currency Exchange Licensing Procedure.....	172
8.2. General technical requirements for electronic exchange trading systems.....	178
8.3. The procedure for conducting interbank trading sessions on the currency exchange.....	181
Questions.....	195
<b>Chapter 9. FOREIGN EXCHANGE MARKETS ACTIVITY MECHANISMS IN FOREIGN COUNTRIES.....</b>	<b>196</b>
9.1. Валютная деятельность в зарубежных странах.....	196
Questions.....	203
<b>LIST OF USED LITERATURE.....</b>	<b>204</b>
<b>GLOSSARY.....</b>	<b>207</b>



**S. ELMIRZAYEV, R. SIERADZKI,  
D. ABDIKARIMOVA, U. XOLIQOV**

## **BIRJA ISHI**

*Darslik*

*Muharrir N. Rustamova*

*Badiiy muharrir K. Boyxo‘jayev*

*Kompyuterda sahifalovchi M. Saydalixo‘jaye va*

Nashr. lits. AI № 309. 16.12.2019.

Bosishga ruxsat 26.12.2019-yilda berildi.

Bichimi 60x84/16. Ofset qog‘ozi. «New Times Roman» garniturasida.

Shartli b.t. 13,4. Nashr hisob t. 13,8

Adadi 100 dona. 52-buyurtma.

“IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti.

100000, Toshkent, Amir Temur, 60<sup>«A»</sup>.

“HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI”

bosmaxonasida chop etildi.

100000, Toshkent, Amir Temur, 60<sup>«A»</sup>.

ISBN 978-9943-13-867-4



9 789943 138674